



65,9
TALIPOV

G'.A. TALIPOV

O'ZBEKISTON YER KADASTRI ASOSLARI




**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

G'. A. TALIPOV

**O'ZBEKISTON YER
KADASTRI ASOSLARI**

*Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan o'quv qo'llanma
sifatida tavsiya etilgan*



Toshkent— «MOLIYA»—2007

G‘.A. Talipov. O‘zbekiston yer kadastrasi asoslari: – T.: «Moliya», 2007, 188 b.

Qishloq xo‘jalik fanlari doktori G‘.A. Talipov tomonidan tayyorlangan qo‘llanma oliy va o‘rta maxsus ilmgohlari uchun o‘quv qo‘llanmadir. Unda O‘zbekiston Respublikasi yer kadastrining Yer resurslaridan oqilona foydalanishdagi ahamiyati, uning tarkibiy qismi, maqsadi, tartibi, qishloq xo‘jaligidagi va tashqi muhitni muhofaza qilishdagi o‘rni, tuproqni o‘rganish tarixi, tuproq kartalarini tuzish, sho‘rlangan yerlarning miqdori va sifatini aniqlash, sug‘oriladigan yerlarning melioratsiyasi, yer hisoboti va yer monitoringining vazifalari, yerga aloqador huijatlardan foydalanish tartibi, yerlarni unumdarligi bo‘yicha baholash (bonitirovka qilish) va yerdan to‘g‘ri, unumli foydalanishga aloqador boshqa masalalar haqida aniq tushuncha va ko‘rsatmalar berilgan.

Qo‘llanma oliy va o‘rta maxsus ilmgohlari talabalariga mo‘ljallangan. Undan shuningdek, yer tuzuvchilar, tuproqshunoslar, ekologlar, ilmiy-loyiha institutlari, qishloq, suv va o‘rmon xo‘jaliklari xodimlari, geobotanik va melioratorlar ham foydalanishlari mumkin.

Mas‘ul muharrir: J. Qoraboyev, geografiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar: dotsent S. A. Toshpulatov,
dotsent A. Tursunov

© O‘zbekiston Respublikasi
Bank-moliya akademiyasi
«Moliya» nashriyoti, 2007 y.

ISBN 978-9943-302-07-5

KIRISH

Yer masalasi qadim-qadimdan eng dolzarb masala hisoblanadi. Chunki yer insoniyatning boshpanasi, yashashi uchun iqtisodiy bazis va vosita hamda ekologik tizimlarda turuvchi tabiatning ajralmas bo‘lagidir.

Respublikamizda yer munosabatlarini tartibga solishning bosh yo‘nalish va to moyillarini belgilovchi eng muhim qonuniy hujjat O‘zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»dir. Uning boshidan oxirigacha yerga nisbatan nihoyatda tejamkorlik bilan xo‘jalik munosabatida bo‘lish, iqtisodiyotning barcha sohalarida yerni imkon qadar muhofazalash va undan oqilona foydalanish ruhi singdirilgan. Ushbu kodeksning birinchi moddasida qayd etilganidek, «Yer umummilliy boylikdir, O‘zbekistan Respublikasi xalq hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi».

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan yer munosabatlarini boshqarishning negizini belgilab beruvchi: undan oqilona va unumli foydalanishga asos soluvchi 21 ta davlat kadastrlari qabul qilingan. Ular qatorida o‘rin olgan «Davlat yer kadastro», «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi, «Dehqon xo‘jaligi» to‘g‘risidagi, «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi, «Ijara to‘g‘risida»gi, «Yer solig‘i to‘g‘risida»gi Qonunlar dehqonlarga yer resurslaridan keng va samarali foydalanishga yo‘l ochib berdi. «Davlat yer kadastro»ning 3-bandida ifodalanganidek, «Davlat yer kadastro Davlat kadastrlari yagona tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, u yerlarning tabiiy, xo‘jalik rejimi, toifalari, sifat xususiyatlari va qiymati, yer uchastkalarning o‘rni va o‘lchamlari, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarchilar va mulkdorlar o‘rtasidagi yer taqsimoti to‘g‘risidagi ma’lumotlar hamda hujjatlar tizimidan iboratdir».

Yuqorida qayd qilingan qonunlarda amalda to‘g‘ri foydalanish va yer to‘g‘risida puxta bilim berish uchun sohadagi oliy o‘quv yurtlarida

maxsus fani (predmet) o'qitiladi. Masalan, Toshkent irrigatsiya va melioratsiya institutida, Toshkent agrar universitetida, Andijon qishloq xo'jaligi institutida, O'zbekiston Milliy universitetida va boshqa oliy o'quv yurtlarida «Yer kadastro asoslari» o'rganiladi.

«Yer kadastro asoslari» o'quv qo'llanmasining asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasida yerdan hozirgi va kelgusi avlod manfaatlarini hisobga olgan, zamon talablariga asoslangan, yer to'g'risidagi qonunlar talablaridan kelib chiqqan holda oqilonaga foydalanish va uni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini qayta tiklash, oshirish va yaxshilash, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini taraqqiy ettirish, yerdan foydalanishni teng huquqiyligini amalga oshirish, yuridik va jismoniy shaxslasning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini mustahkamlash va tartibga solishdan iborat.

Xorijda va respublikamizda bu kurs o'qitilayotgan oliy o'quv yurtlarida «Yer kadastro asoslari» nomi bilan o'quv qo'llanmalari ham tuzilgan, shuningdek, qator darsliklar yaratilgan.

Masalan: Н.Д.Казанцова – «Земельное право» (universitetlar uchun darslik, М., 1958), И.В.Дегтерев, Л.И.Осипов – «Земельное право и земельный кадастр» (qishloq xo'jaligi institutlariga mo'ljallangan darslik., М., 1975), Д.И.Гнатковия – «Земельный кадстр» (Экономика землепользования. Львов, Высшая школа, 1986), Т.П.Магазинниковнинг – «Земельный кадстр», (Львов, 1980) nomli darsliklari shular jumlasiga kiradi.

Ammo ular bundan 30-40 yil ilgari nashr etilgan bo'lib, mazmunan bugungi sharoitga, ayniqsa, O'zbekiston sharoitiga va uning qonun asoslariga to'g'ri kelmaydi.

O'zbekistonlik R.Q.Qo'ziyev, G'.Yu.Yo'ldoshev va I.A.Akromov muallifligidagi «Tuproq bonitirovkasi», Toshkent, («Moliya», 2004), G'.A.Talipov, J.M.Maqsudov va I.A.Akromov tomonidan yaratilgan «O'zbekiston yer kadastro» («O'zdavyerloyiha», 1994) qo'llanmalari esa sifatli bo'lsa-da, soha va unga aloqador masalalarini to'liq qamrab olmagan, hajmiga ko'ra, oliy o'quv yurtlari uchun maxsus darslik bo'la olmaydi.

Shu bois davlat ahamiyatiga ega bo'lgan yer resurslaridan oqilona, unumli foydalanish va uni muhofaza qilish masalalariga bag'ishlangan o'quv qo'llanmasini ishlab chiqish zarur. Ushbu o'quv qo'llanma shu zaruriyat maxsulidir.

Uni yaratishda «Yer kodeksi», «Davlat yer kadastro»ga asoslanildi, shuningdek, yerning meliorativ va ekologik holati, yer resurslarini xatlash (ro'yxatdan o'tkazish), muhofaza va nazorat qilish, yer munosabatlariiga aloqador bo'lgan masalalar bo'yicha tayyorlangan rasmiy hisobotlardan, maxsus jurnallar, adabiyotlar, maqololar, nizomlar va grafik hujjatlardan hamda internet ma'lumotlaridan keng ravishda foydalaniladi.

Qo'llanmadan oliv o'quv yurtlari talablarigina emas, balki magistrlar, aspirantlar, yer kadastro va yer huquqi masalalariga aloqador mutaxassislar, yer tuzuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

Muallif O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro bo'yicha davlat qo'mitasi, «O'zdavyerloyiha» ilmiy loyiha instituti va uning «Yer kadastro filiali» hodimlariga o'z arxivlaridan foydalanish imkonini yaratganliklari va Mirzo Ulug'bek nomli Milliy universiteti Geografiya fakultetining «Geodeziya, kartografiya va kadastr» kafedrasи mudiri, professor T. Mirzaliyevga va Geografiya fanlari nomzodi J. Qoraboyevga ba'zi masalalarni hal qilish bo'yicha bergen fikr-mulohazalari uchun minnatdorchilik bildiradi.

I. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YER FONDI VA UNDAN FOYDALANISH

1-§. O'zbekiston yer fodi tug'risida ma'lumot

O'zbekiston Respublikasida 2004-yil 1-yanvarga bo'lgan hisobotga ko'ra, 44896,9 ming gektar yer maydoni bo'lib, unda Qoraqalpog'iston Respublikasi va 12 viloyat hududida 154 ta tuman, 125 shahar, shahar tipidagi 104 qishloq va 83 qishloq joylashgan (1-rasm).

Respublika bo'yicha mavjud bo'lgan 3280,3 ming oilaga 607,5 ming gektar yoki oila boshiga o'rta hisobda 0,19 gektardan tomorqa yeri va 84,0 ming fermer xo'jaligiga 2354 ming gektar yoki o'rta hisobda har bir fermerga 28 gektardan yer egalik qilish va ijara uchun o'matilgan tartibda ajratib berilgan.


1-jadval

O'zbekiston Respublikasi yer fondining foydalanish turlari bo'yicha taqsimlanishi

(2004-yil 1-yanvar holatiga)

T.r.	Yerga egalik qilish va undan foydalanish turlari	Umumiyl maydoni, ming ga	Umumiyl maydoni, foizda
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	22570,4	50,8
2	Aholi punktlari (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlari) yerlari	237,2	0,5
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	1894,3	4,3
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	72,5	0,2
5	O'rmon fodi yerlari	8597,4	19,4
6	Suv fodi yerlari	825	1,8
7	Zaxira yerlar	10213,4	23,0
	Jami foydalanilayotgan yerlar	44410,3	100
	Bundan tashqari, O'zbekistonning qo'shni respublikalardagi foydalaniladigan yerlari		18,9
	Boshqa respublikalarning O'zbekistonda foydalaniladigan yerlari		505,5
	Respublika ma'muriy chegarasidagi jami yerlar	44896,9	

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YER FONDI



O'zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning 16-moddasiga binoan, «yer davlat mulki-umummilli yoylikdir, undan oqilona foydalanish zarur, u davlat tomonidan muhofaza etiladi», deyilgan.

O'zbekiston yer fondi undan foydalanishiiga ko'ra 7 turga bo'linadi (1-jadval).

O'rta Osiyo respublikalari yer resurslaridan unimli foydalanish maqsadida respublikalararo kelishuv natijasida qabul qilingan hujatlarga binoan, O'zbekiston qo'shni davlatlar hududida 18,9 ming hektar yerdan uzoq muddat foydalanadi, shundan 1,0 ming hektari Tojikistonda, 17,9 ming hektari Turkmanistonda. Shuningdek, qo'shni davlatlar O'zbekiston hududida 505,5 ming hektar yerdan, xususan, Tojikiston 1,8 ming hektar, Turkmaniston 500,0 ming hektar va Qozog'iston 2,9 ming hektar yerdan uzoq muddat foydalanadi (2-jadval).

Respublika yer fondi foydalaniishi va turlari bo'yicha doim o'zgarib turadi. Yerlarni o'zlashtirish natijasida lalmi, yaroqsiz yerlar sug'orilib, ekiladigan yer hisobiga o'tishi yoki qishloq xo'jaligidan boshqa maqsadlar uchun turli qurilishlarga ajratib berilishi, eroziya ta'sirida va boshqa sabablar ko'ra ekin ekiladigan yerlar hisobidan chiqishi kabi hollar sodir bo'ladi. Bunday o'zgarishlarni aniq hisobga olib borish ishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan berilgan ko'rsatma asosida yuritiladi. Yer hisobi (balansi) har yili 1-yanvargacha yerga egalik qiluvchi va yerdan foydalanuvchi ho'jaliklar, tashkilotlar, tumanlar va viloyatlar bo'yicha olib boriladi. Bu hujatlardan qishloq ho'jalik ekinlari turlarini joylashtirishda, olinadigan hosil taqsimotida va boshqa maqsadlarda foydalaniadi.

Olib borilayotgan yer hisoboti shuni ko'rsatadi, O'zbekistonda 2004-yil 1-yanvarga sug'oriladigan yer maydoni 4275,3 ming hektar bo'lib, umumiy maydonning 9,5 foizini tashkil qiladi. Respublikamiz

2-jadval

Respublikalararo foydalaniyatgan yerlar maydoni

Nº	Respublikalar nomi	O'zbekiston foydalananigan qo'shni respublikalardagi yer, ming ga	Boshqa respublikalar foydalananigan O'zbekiston yerlari, ming ga
1.	Tojikiston	1,0	1,8
2.	Turkmaniston	17,9	500,0
3.	Qirg'iziston	-	0,8
4.	Qozog'iston	-	2,9
	Jami:	18,9	505,5

bo'yicha sug'oriladigan yerlardan qishloq ho'jaligida olinadigan daromadning 95 foizidan ko'prog'i olinadi.

Shuning uchun ishlab chiqarish manbalarini jadal rivojlantirishda sug'oriladigan yerlardan to'g'ri foydalanishni yo'lga qo'yish, yangi yernarning sifatli o'zlashtirilishi katta ahamiyatga ega. Chunki buning natijasida qishloq ho'jalik mahsulotlari etishtirish jadallahadi va ko'payadi, rivoji tezlashadi.

Respblikamizda bu sohada ko'p ishlar qilinayotganligiga qaramasdan, aholining o'sish darajasi sug'oriladigan yerga nisbatan yuqori bo'lganligi hisobga olinganda, jon boshiga sug'oriladigan yer maydonlari keskin qisqarmoqda. Chunonchi, 1960-yilda respublikada sug'oriladigan yerlar jon boshiga 0,26 hektar bo'lgan bo'lsa, 1970-yilda 0,20 hektarni, 1992-yilda 0,17 hektarni, 2005-yilda 0,15 hektarni tashkil etdi.

Keyinchalik sug'oriladigan ekin maydonlarining jon boshiga kamayishini imkon boricha to'xtatish yo'lida ish olib borish zarur. Buning uchun, avvalo, ekin ekiladigan maydonlarning keskin qisqarib ketishiga, qishloq xo'jalik oborotidan tushib qolishiga, ikkinchidan, isrofgarchilik va xo'jasizlikka, sug'oriladigan yerlar turli qurilishlarga assosiz ajratilishiga yo'l qo'yilmasligi, uchinchidan, qishloq xo'jaligida foydalanishdan tushib qolgan sug'oriladigan yerlarni tiklash va eroziyaga qarshi ish olib borilishi zarur.

Ko'p yillar davomida tezkorlik bilan yer o'zlashtirilganligi sababli, ba'zi kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Chunki quruvchi tashkilotlar o'zlashtiriladigan yer maydonini ko'paytirishni asosiy maqsad qilib, gidrotexnik inshootlar qurilishi, sug'orish va zax qochirish tuzilmalari sifatsiz bo'lishiga yo'l qo'ydilar.

Yerlardan foydalanishda xo'jaliklarning o'zları ham xatolarga yo'l qo'yganlar. Natijada ko'p yerlar zaxlanib, sho'rланib, botqoqlanib, suv eroziyasiga uchragan. Endilikda bunday yernarning bir qismi qishloq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib qolgan, boshqa bir qismidan esa hektar hisobiga juda kam hosil olinmoqda. Shu sababli, tuproq unumdarligi o'z sifatini yo'qotdi, qishloq xo'jalik ekinlari sifati va hosildorligiga putr etkazildi.

Oqibatda, respublikamizning asosiy qismida tuproq unumdarligini qayta tiklash va oshirish tadbirlarini amalga oshirish, shuningdek,

hududlarda yer maydonlarini to‘g‘ri tashkil qilish, ho‘jaliklar tizimiga kiritish, ilmiy asosda almashlab ekish, sho‘rlangan yerlarda meliorativ tadbirlarni to‘g‘ri qo‘llash va botqoqlashgan yerlarni quritish, unumdorligini ko‘tarish kabi ishlarni bajarish sug‘orish uchun suv tanqisligi katta muammoga aylangan hozirgi sharoitda o‘zi dolzarb vazifa bo‘lib qoldi.

Yerlarni o‘zlashtirish, ularning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha muayyan tadbirlar o‘z vaqtida amalga oshirilmaganligi, xo‘jaliklar tomonidan yerdan foydalanishda ba’zi xatolarga yo‘l qo‘yilganligi sababli, oxirgi vaqtarda ko‘p bo‘layotgan sellar natijasida respublikaning bir qator hududlarida qishloq xo‘jalik ekinlari buzib ekilmoqda. Masalan, 2003-yilda bo‘lgan sel natijasida 600 ming gektar yerdagi qishloq xo‘jalik ekinlari qattiq zarar ko‘rdi va ular qo‘srimcha xarajat evaziga qayta ekildi.

Shu bilan birga, shamol eroziyasi respublikada juda keng tarqalgan. Bir necha vohalarda - Farg‘ona vodiysi, Sirdaryo va Buxoro viloyatlarida shamol va suv eroziyasi vaqt-vaqt bilan bo‘lib turibdi. Bu tuproqning yuqori qatlami buzilishiga, ekinlar hosildorligi kamayishiga olib kelmoqda.

Agar qishloq xo‘jaligida foydalaniadigan sug‘oriladigan yerlarning oxirigi o‘n besh yildagi o‘zgarishini ko‘zdan kechirsak, quyidagilarga guvoh bo‘lamiz: shu davr ichida sug‘oriladigan yangi yerlarni o‘zlashtirish ekin maydonlari hisobiga 220 ming gektarga ko‘paygan, ayni payitda 100 ming gektarga yaqin kamaygan. Ammo bunday yerlarning asossiz kamayib ketish hollari ham sodir bo‘layapti. Masalan, ko‘rsatilgan davr ichida 10,6 ming gektar maydon meliorativ holati yomonlashganligi sababli, ekin ekilmaydigan yer turiga o‘tkazilgan. Yana 10 ming gektar yer eroziyaga uchrashi va meliorativ holati yomonlashganligi sababli, qishloq xo‘jaligida doimiy foydalanishdan chiqarilgan. Bundan tashqari, xo‘jaliklar o‘z ichki qurilishlari uchun 30 ming gektar, qishloq xo‘jaligidan boshqa maqsadlar uchun qurilishlarga 35 ming gektar sug‘oriladigan yer ajratilganligini ham to‘g‘ri deb bo‘lmaydi.

Oxirgi yillarda O‘zbekistonda yer resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha ko‘p ishlar qilinmoqda. Bunga misol qilib, qishloq xo‘jaligidagi har bir oilaga tomorqa maydoni sug‘oriladigan yerlarda 0,35 gektargacha

va sug‘orilmaydigan lalmikor yerlarda 0,5 gektargacha , cho‘l va sahro mintaqalarda esa 1,0 gektargacha o‘lchamda berilishi O‘zbekiston «Yer kodeksi»da ko‘rsatib qo‘yilgan. Respublika bo‘yicha oxirgi 15 yil ichida dehqon xo‘jaliklariga 382,6 ming gektar yer berilishi to‘g‘risidagi yuridik hujjatlarni misol qilib ko‘rsatish mumkin. Shu vaqitning o‘zida 84 ming fermer xo‘jaligiga 2354 ming gektar yer ajratildi. Agar qishloq xo‘jaligida o‘rtा hisobda har bir oilaning tomorqa maydoni 1990-yilda 0,12 gektar bo‘lgan bo‘lsa, 2004-yilda 0,19 gektarga etdi va oilalar soni 1060 mingga ko‘paydi. Bu ijobjiy ish joylarda qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishni ko‘paytirishda va qishloq aholisini uy-joy hamda ish bilan ta’minalashda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Hozirgi davrda suv tanqisligini hisobga olib, butun bilim va imkoniyatni ichki zaxiralarga qaratish maqsadga muvofiqdir. Buning uchuн mavjud sug‘oriladigan yersharning meliorativ holatini, qishloq xo‘jaligida foydalanimishini o‘rganish va bu boradagi rezyervlarni aniqlash, ulardan to‘liq va oqilona foydalanimishni tashkil qilishi zarur.

Bu rejalarни amalga oshirish uchun yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar natijasida ro‘y bergen 50 foizdan ortiqroq sug‘oriladigan yersharning yomon holatini yaxshilash, sho‘rini yuvish, kollektor va drenajlarni tiklash, kapital tekislash (planirovka) va suv bilan ta’minalash zarur.

Qishloq xo‘jaligida foydalanimishdan tushib qolgan bo‘z va meliorativ holatini yaxshilash zarur bo‘lgan 165 ming gektar yerni tiklash va ekin maydoniga qo‘sish kerak.

Bir necha yillar davomida Qashqadaryo, Toshkent, Surxondaryo, Samarqand viloyatlarida o‘tqazilgan ilmiy va nazariy ishlар natijasida ma’lum bo‘lishicha, ko‘p yillik mevali daraxtlar tog‘ bag‘ridagi yersharga, adirdagi toshloq yersharga joylashtirilsa, katta foya berishi mumkin. Kolavyersa, ular yuqori hosil beribgina qolmay, qishloqlarni, ekin maydonlarini va yer resurslarini eroziyadan saqlashi tajribada tasdiqlangan.

Masalan, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz tumanidagi G‘.Boboyorov nomli fermer xo‘jaligida, Toshkent viloyatining Yuqori Chirchiq tumanidagi ko‘p xo‘jaliklarda tog‘ oldiga ekilgan har gektar maydonidagi mevali daraxtlardan 60-80 sentnerdan meva va uzum mahsulotlari olinmoqda. Shuningdek, bu yersharga har yili bo‘lib turadigan eroziyaning ta’siri deyarli to‘xtatildi.

O'tqazilgan ilmiy va hisob - kitob ishlari natijasida ma'lum bo'lishicha, qilingan xarajatlar 6-8 yilda o'zini oqlamoqda. Bajarilgan loyiha-tekshiruv ishlarining natijasiga qaraganda, respublikada yana 120-150 ming hektar tog' va tog' oldi maydoniga mevali daraxtlar ekish imkoniyati bor. Umuman, qishloq xo'jaligini rivojlantirishda va ekologik muhitni saqlashda bu ishlar juda katta ahamiyatga ega.

Aeroplan yordami bilan fazodan turib olingan suratlarning ko'rsatishiga qaraganda, respublikamizdagi mevali bog' va uzumzorlarning ko'p qismida ko'chatlar mavjudligi o'rtalagi hisobda 50 foizni tashkil qiladi. Bu hozirgi mevali daraxtlar bilan band bo'lgan 332 ming hektar sug'oriladigan yerning 160 ming hektaridan qishloq xo'jaligida foydalinmaydi, degan so'z. Agarda bog'lardagi daraxt ko'chatlarining 100 foiz to'liqligi ta'minlansa, qo'shimcha ravishda yana 450-500 ming tonna meva olish mumkin. Bu katta zaxiradan oqilona foydalanish zarur.

Ko'p yillardan beri ekin turlari faqat ekin ekiladigan yerlarning miqdoriga qarab joylashtirilishi natijasida qator xatolarga yo'l qo'yilgan. Oqibatda har yili paxta maydonining 250-300 ming hektaridan olinadigan hosil 8-15 s ni tashkil qilmoqda. Shu kabi noo'rin joylashtirilgan boshqa ekinlardan ham kam hosil olinmoqda. Bunday kamchilikka yo'l qo'ymaslik uchun yerning sifatiga, ya'ni tuproq unumdorligiga, yer yuzasining baland-pastligiga qarab, yer osti suvlari joylashishini, sho'rланishini, suvning etarliligini va eroziyaga uchraganlik darajasini bilish uchun, yer kadastro hujjatidan foydalanish o'ta zarur.

Joylarda yerning sharoitini o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan qidiruv ishlaridan ma'lum bo'lishicha, respublikamizda 140 ming hektarga yaqin toshloq yer bor. Bunday yerlardan bir qismi daryo va suv shahobchalari bag'rida joylashgan, ularga sholi ekish ma'qulligi Farg'ona vodiysi misolida amalda isbotlandi. Adirga joylashgan toshloq yerlarga mevali daraxt va tok qalamchalari ekish yaxshi natija berdi. Masalan, Namangan viloyatining Pop tumanidagi «Chodak», Beruniy va Ibn Sino nomli shirkat xo'jaliklarida 1200 hektar toshloq maydonidagi mevali daraxtlar yaxshi yerlardagi daraxtlardan olinadigan darajada hosil bermoqda .

Toshkent viloyati O'rtachirchiq tumanidagi Oxunboboyev nomli shirkat xo'jaligida Chirchiq daryosining yoniga joylashgan 210 hektar

toshloq yerga sholi ekilib, gektaridan 30-40 sentnerdan hosil ko'tarilmogda. Chunonchi, shu yerkarda paxta ekilganda gektaridan 8-15 sentner hosil olinar, bu esa qilingan harajatni ham qoplamas edi.

Ko'rinib turibdiki, ichki imkoniyatlarni ishga solish, sug'orib ekiladigan maydonlarni respublika bo'yicha 450-500 ming gektarga kengaytirish, olinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini esa keskin ko'paytirish imkonini beradi. Bunda yangi yer o'zlashtirishga qaraganda 2-3 barobar kam xarajatr qilinadi, ekologik muhit muhofaza etiladi, ayni paytda ortiqcha suv, irrigatsiya shaxobchalari, yo'l, qurish zarur bo'lmaydi. Chunki bu rezyervlar fermer, shirkat, xo'jaliklarining qishloq xo'jaligida foydalaniadigan yerlari ichida oldindan mavjud.

Nazorat savollari

1. O'zbekiston yer fondi deganda nimani tushunasiz?
2. Respublikani umumiyligi maydoni, shundan sug'oriladigan va qishloq xo'jaligida foydalaniadigan maydonlari necha hektar?
3. O'zbekistonda nechta viloyat, tuman va shaharlar bor?
4. Respublikada sug'orib ekin ekiladigan yer maydonlarini nima hisobiga ko'paytirish mumkin?
5. Yer hisobotida beriladigan ma'lumotni qaysi tashkilot tomonidan belgilanadi va qaysi ma'lumotlar asosida bajariladi?

2-§. Yer maydonini hisobga olib borish tartibi va uslublari

Eng muhim boyligimiz bo'lgan yer qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning asosiy vositasi va xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarini rivojlantirishning mokoniy bazisi hisoblanadi. Yer shunday hususiyatga egaki, to'g'ri foydalanssa, u boshqa ishlab chiqarish vositalariga o'xshab eskirmaydi, aksincha, hosildorligi oshib boradi. Yer hisobotining umumiyligi ahamiyati shundan iboratki, bunda mavjud yer kimga tegishliligi, ya'ni uning egasi kimligi aniqlanadi. Shuning uchun ham yer hisobotida yerdan foydalanuvchi kimligi va yer uchastkasidan nima maqsadda foydalaniishi, albatta, ko'rsatiladi.

Yer hisoboti xalq xo'jaligini rivojlantirish rejasini tuzishda, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish va ularga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlashda katta ahamiyatga ega.

Yer hisoboti natijasida yerdan foydalanish masalalarini o'rganib chiqish va ular oldiga talablar qo'yish, biror qaror qabul qilinganda hisobot ma'lumotlariga asoslanish talab qilinadi.

Qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish, 1 hektar yerga kamroq xarajat qilib olinadigan mahsulotni ko'paytirish, iqtisodiy jihatdan natijali foya keltiradigan, ilmiy asoslangan dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirishda ekin maydonlarining eng yaxshi tuzilishi (strukturasi) belgilanadi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish mumkin bo'lgan hamma yerlar qishloq xo'jaligida foydalanishga kiritilishi kerak. Ammo har bir yer maydonining miqdorini, sifatini bilmasdan turib, agrotexnika va meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarini belgilab bo'lmaydi.

Yer hisoboti qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini ixtisoslashtirishda juda katta ahamiyatga ega. Eng muhim, yer hisoboti juda aniq bo'lishi kerak. Buning uchun hisobotda yerlarni toifalariga: fermer va boshqa xo'jaliklarning yerlariga, turlari bo'yicha esa haydaladigan yerlar, ko'p yillik daraxtzor, pichanzorlar, yaylovlar va boshqalarga bo'lish talab qilinadi.

Ma'lumki, respublikamiz viloyatlarining tabiiy va iqtisodiy sharoitlari xilma-xilligi hisobga olinib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini davlat tomonidan xarid qilishda yer hisobotiga quyidagi talablar qo'yildi:

- xo'jalikning yirik shahar, sanoat markazi va qayta ishlash korxonalariga nisbatan joylashishi;
- qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer miqdorining sifati va tabiiy sharoiti;
- qishloq xo'jaligining ixtisoslashtirilishi.

Bulardan tashqari, har qaysi tuman, viloyatda asosiy qishloq xo'jalik mahsulotlarining yalpi manbai hisoblanib, iste'mol mollarining hajmi aniqlanadi. Xo'jaliklararo va ichki yer tuzish ishlari, xo'jaliklar markazini belgilashda, ishlab chiqarish brigadalarini aniqlashda yer hisoboti zimmasiga ma'lum darajada mas'uliyat yuklatiladi. Xo'jaliklar yerlarini to'g'ri tashkillashtirish va ekinlarini almashlab joylashtirishni tashkil qilishda yer hisoboti alohida ahamiyatga ega.

Yerni fermer ehtiyojlari uchun olib qo'yishda xo'jalik yerlarining miqdori, sifati, yer turlari va undan foydalanish darajasi, shu yer o'rniiga o'zlashtiriladigan yangi yerning iqtisodiy hisoblari yer

hisobotida asoslanadi. Bulardan tashqari, yer hisoboti va qiymati haqidagi ma'lumot shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklarida yerdan foydalanganligi uchun olinadigan soliqqa asos bo'ladi.

Yer to'g'risidagi hisobot xo'jalik hisobotining bir turidir. Statistika, buxgalteriya, tezkor agrotexnika hisobotlari bilan xalq xo'jaligida bir butun hisobotni tashkil qiladi. Yer boshqa ishlab chiqarish manbalariga nisbatan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Yerning mohiyati hamma sohada bir xil ahamiyatga ega emas. Masalan, ishlab chiqarish sanoatda, qurilishda faqat bir bo'shliq sifatida shakllanadi. Insoniyat yerdan qazilma boyliklar qazib olishda bir ombor sifatida foydalanadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yer butunlay boshqacha ahamiyatga ega. Bunda yer dehqon uchun ish quroli hisoblanadi hamda ishlab chiqarishning asosiy vositasi vazifasini bajaradi. Birinchi navbatda, yer hisobotini olib borish tartibi va uning mazmuni qonuniylashtiriladi, shu bilan bir qatorda yer hisobotini tuzish va uni nazorat qilish tartibi belgilanadi.

Yer hisoboti to'g'risida davlat tomonidan o'rnatilgan tartib shu hududda joylashgan barcha xo'jaliklar uchun majburiydir. Unda berilgan ma'lumot davlat ahamiyatiga egadir.

Yerdan to'g'ri foydalanishni nazorat qilish, shuningdek, yer hisobini tezkorlik bilan olib boruvchi uchun bu tashkilot yangi texnik omillarga, katta moddiy ta'minotga ega bo'lishi kerak. Toki, u xo'jaliklarni yerdan foydalanish plan – kartografik ma'lumotlar tayyorlash va yer hisobi ishlarini ayeroplan orqali koinotda suratga olishga moslashtirilgan tashkilotlarga topshirish mumkin bo'lsin.

Ekin turlarining maydonlari tabiiy holda odmalar va tabiiy omillar ta'sirida o'zgarib boradi, lekin bu har yili 1-yanvargacha bo'lgan qonuniy yer hisobiga katta ta'sir ko'rsatmaydi.

Shu bilan birga barcha nom o'zgarishlari va yer turlari maydonlari ish davomida har yili belgilab boriladi. Bulardan qarorlar qabul qilinishida, masalan, yer ajratish yoki yerlarni boshqa yerdan foydalauvchiga olib berishda yo bo'lmasa qishloq xo'jaligini yurgizish, yoxud bir yer turini boshqa bir turiga almashtirishda, bir yer turini holatiga qarab, ikkinchi yer turiga o'tkazish va hokazolarda foydalaniladi.

Bir vaqtida ekin turlari va maydonlari to'g'risidagi ma'lumot olinadi. Bu ma'lumot ayeroplanda turib suratga olingan rasmlar asosida dalada aniqlangan o'chov, loyiha ishlari hamda ekin maydonlarini aniqlash va shu kabi ishlar jumlasiga kiradi.

Yer hisobi ishlari asosan fermer, shirkat va boshqa qishloq xo'jalik korxonalari, barcha yerdan foydalanuvchilar va yerga egalik qiluvchilarga qaratilgandir. Ularga biriktirilgan yerlarning hisobi mukammal o'rganilib boriladi. Ekin turlarining ko'rsata bilish tarifi taxminan va avvalambor tashkilotga qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi yerdan foydalanuvchiga foydali natija beradigan alohida zonalari ko'rsatiladi. Bu ishlar hammasi sharoitga qarab kengaytirib yoki qisqartirib berilishi mumkin. Yer hisobining o'zgarishini boshqarish tuman, viloyat, respublika chegaralari ma'lumotlari va yer turlari holatining o'zgarishi vaqt o'tishi bilan umumlashtirilib va qat'iy lashtirilib borilishi, bunda asosiy ekin turlari to'g'risida ma'lumotnomaga to'liq berilishi kerak. Ya'ni yer to'g'risidagi bir-biriga bog'liq ma'lumotlar keskin piramida shaklida, yuqori nuqtasida esa respublika bo'lishi kerak.

Bunday yondashishda yer turlari o'zgaruvchanligi boshqarish chegaralarining miqdor qiymati hisobi o'zini oqlagan va yer resurslarini (boylik manbaini) qo'shimcha ma'lumot asosida tuman, viloyat, respublika bo'yicha bat afsil tekshirish shart emas.

Buni quyidagicha tushunish mumkin: agar yerdan foydalanuvchining hududida (fermer, dehqon va boshqa qishloq xo'jalik korxonalari) tashkiliy ishlab chiqarishning birlamchi moddiy negizi (asosiy) hisoblansa, bu holda respublika miqyosidagi yer maydonlaridan imkonи boricha to'g'ri foydalanishi bo'yicha loyiha tadbirlarini amalga oshirish mumkin bo'ladi. Yer hisobi va yer qiymati ma'lumotlari turli meliorativ, yo'l va aholi qurilishi, tomorqa yer maydonlarini tartibga solish, ekinlarni al mashlab ekishni yo'lga qo'yish va kimyo lashtirish kabilari bo'yicha ma'lumotlardir.

Yerning hisobi amalda yer turlarining hujjatlashtirilgan darajada qayd qilinishidir.

Yerdan muayyan foydalanuvchilar va egalik qiluvchilarning hisob hujjatlari tuman miqyosida qayd qilinadi. Bunda yer turlari to'g'risidagi barcha yozuv butun son bilan aniq, viloyat (respublika) bo'yicha esa ming gектар hisobida yuzdan bir bo'lagicha ko'rsatiladi.

Yer hisobi ma'lumotlarini joyida ko'rish natijasida barcha turdagи yerlar unum dorligini tubdan yaxshilashga mahsus qidiruv va loyiha ishlarini bajarish orgali yerishish mumkin. Topshiriq loyihasi, ishchi chizmalari va sxematik loyihalarida bu ishlar ko'rinishidan oddiygina bo'lsa-da, ularni amalga oshirishda hal qilinishi zarur bo'lgan jo'da

ko‘p muammolar kelib chiqadi. Yer hisobi ma’lumotlarida yer sifatini solishtirish to‘g‘risidagi hisobotlar bo‘lmaydi, balki yerdan foydalanuvchilarning tekshirilganligi to‘g‘risidagi hujjatlar natijasi va umumiy rejalari haqida ma’lumotlar beriladi.

Yer hisoboti respublikamizda davlat tadbiri hisoblanadi. Yil davomida bajarilgan barcha yer tuzish ishlarining natijalari jamlanib, tartibga solinadi, xo‘jaliklar tomonidan yerlardan foydalanish va bu yerlarning ular o‘rtasida taqsimlanishi yagona yer fondida qayd qilinadi.

Yer hisobotining maqsadi, mazmuni, yuritilish tartibi va shakllari davlat tomonidan belgilanadi. Yer hisoboti hamma tumanlarda va viloyatlarda yagona tartibda olib boriladi.

Davlat yer hisoboti va yerdan foydalanuvchilarni qayd qilish tuman miqiyosida amalga oshiriladi. Shahar doirasidagi yer hisoboti (tuman hokimiyatiga bo‘ysunuvchi shaharlardan tashqari) shahar hokimiyatiga yuklatiladi.

Davlat yer fondi asosan foydalanish maqsadlariga qarab quyidagi turkumlarga bo‘linadi:

- qishloq xo‘jaligi yerlari;
- aholi yashaydigan joylarning yerlari (shaharlar, shahar turidagi qishloqlar va qishloq yerlari);
- sanoat, transport, aloqa, mudofaa yerlari va boshqa yerlar;
- tabiatni muhofaza qilish, sog‘lomlashtirish, rekreasion va tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar;
- o‘rmon fondi yerlari;
- suv fondi yerlari;
- zaxira yerlar.

Kim foydalanilayotganidan qat‘i nazar, yerlarni va ulardan foydalanishni hisobga olishga rahbarlik qilish, shuningdek, yerlardan to‘g‘ri foydalanish ustidan nazorat yuritish vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro bo‘yicha davlat qo‘mitasiga yuklatilgan. Bu qo‘mitaning yerlarni davlat hisobi va ulardan foydalanishni hisobga olish haqidagi ko‘rsatmalari respublikadagi barcha vazirliklar, muassasa, tashkilotlar uchun majburiydir.

Yerlarni hisobga olish hukumat tomonidan ma’qullangan shakllar asosida olib boriladi.

Muassasa, korxona va tashkilotlarning rahbarlari o‘z korxona yoki tashkiloti foydalanayotgan yerlarda yil davomidagi o‘zgarishlar hisobga olinib, tuzilgan ma’lumotlarni har yili 1-yanvardan kechiktirmay

ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tegishli tuman yoki shahar hokimiyatiga topshiradilar. Yagona umumviloyat tizimi bo'yicha yerlarning hisobini yurgazish va ulardan foydalanish hisobdan o'tkazilishni ta'minlash, yerlardan foydalanish hamda ularning foydalanuvchilarga taqsimlanishi to'g'risidagi hisobotlarni har yili quyidagi muddatlarda ko'rib chiqish va tasdiqlash belgilangan:

Viloyatlar bo'yicha-hokimiyat tomonidan 1-fevraldan kechiktirmay tasdiqlangan hisobotlar bir haftalik muddat ichida O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr bo'yicha davlat qo'mitasiga topshiriladi. Qo'mita bu hisobotlarni atroflicha tekshirib chiqib, respublika miqiyosida umumlashtiradi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun yuboradi.

Yer hisobotining negizi, turlari va usullarini tuzishda biron-bir asosga riyox qilinishi kerak. Bu asos eng avvalo, yer hisobotining bir xil usulda tuzilishidir. Tuman ma'muriy hududida yer hisobotiga olingan ma'lumotning yozilgan vaqt, mazmuni o'zaro kelishilgan bo'lishi kerak. Bu esa mavjud hisobot ma'lumotlarini bir-biri bilan taqqoslash imkonini beradi.

Yer hisobotida aniqlik va xolislik ham ahamiyatga ega bo'lgan negizlardan biridir, ya'ni hisobga olinayotgan joy aniq aks ettililishi kerak. Bu esa shu joyning holatini va foydalanish xususiyatini ko'rsatadi.

Davlat yer hisoboti obyekti yagona davlat yer fondi bo'lganligi uchun yer hisobotining asosiy negizlaridan biri hamma yerlarni to'liq hisobga olishdan iborat.

Yerlarning miqdori, holati va yer fondidan foydalanishi haqidagi to'liq va aniq ma'lumotlar hamma yerlarni hisobga olish orqali tayyorlanadi. Bu yerlar kimga berilganligi, ulardan foydalanilgan yoki foydalanilmaganligidan qat'i nazar, xo'jaliklar hisobidagi yer tarkibida turadi. Bu o'zgarishlar yil davomida uzlusiz hisobga olib borilishi talab qilinadi. Shundagina yer hisobotidagi ma'lumotlar hozirgi zamon talabiga to'liq javob beradigan darajada bo'ldi.

Yer hisobi asoslaridan yana biri shundaki, u ko'rgazmali va aniq bo'lishi kerak. Ya'ni berilgan ma'lumot kartografik hujjatlarda ko'rsatilishi, bu hujjatlar esa sifatli bo'lishi, maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiy jihatdan kam darajada xarajat qilib, kerakli ma'lumotlarni olish ham yer hisoboti asoslaridan hisoblanadi. Bu boradagi ~~rakbarlik~~ respublika miqiyosida markazlashtirilgan tartibda tashkil etilsagina, yer hisobotini yagona usulda olib borish mumkin bo'ldi.

Yer hisoboti hajmi va mazmuniga qarab, 2 turga bo‘linadi:

- boshlang‘ich hisob;
- kundalik hisob.

Ikkala hisob turi bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, yagona yer fondi bosqichlari haqida tushuncha beradi. Boshlang‘ich hisobot yerkarning hajmi, sifati, xo‘jaliklar o‘rtasida taqsimlanishi va ulardan foydalanish haqida ma’lumot beradi. Bunda maxsus hisobot hujjatlariga birlamchi natijalar yoziladi. Boshlang‘ich hisobot oddatdagidek, rasmga tushirish, tekshirish, rejalash va maydonni hisoblashdan iborat. Shuning uchun bu ishlarni yuqori malakali mutaxassislar bajarishlari kerak.

Boshlang‘ich hisobot:

- ishni tayyorlash;
- dala ishlari;
- natijani rasmiylashtirishni o‘z ichiga oladi.

Ishni tayyorlashda yerdan foydalanuvchilarning nomlariga oid hujjatlar, chizma-kartalar hamda xo‘jaliklararo va ichki yer tuzish, boshqa hujjatlar yig‘ilib, o‘rganiladi. Mavjud hujjatlarning sifatini o‘rganish orqali ular ishga qay darajada yaroqli ekanligi ko‘rib chiqiladi. Agar shu hujjatlar eskirib qolib, ishga yaroqsiz, deb topilsa, u holda karta materialiga o‘zgartirish kiritiladi yoki yangitdan suratga tushirilib, yer maydonlari turlari bo‘yicha hisoblab chiqiladi. Bunda dala ishlari davrida joyning o‘zida ro‘y bergen o‘zgarishlar aniqlanadi. Dala ishlari tamom bo‘lishi bilan yer hisoboti ma’lumotlari rasmiylashtirilib, maydonlar hisoblab chiqiladi. Olingan ma’lumotlar belgilangan tartibda ko‘rib chiqiladi va tasdiqlanadi, so‘ng yer hisoboti hujjatlariga yoziladi. Boshlang‘ich hisobotda olingan ma’lumotlar vaqt o‘tishi bilan eskirib boradi. Buning sababi — yerkarning xo‘jaliklar o‘rtasida taqsimlanishi va ulardan foydalanishda ma’lum darajada o‘zgarishlar bo‘lishidadir. Shuning uchun bu ma’lumotlarni vaqtiga bilan yangilab turish talab qilinadi.

Kundalik hisobot yerkarning bo‘linishidagi o‘zgarishlarini hamda boshlang‘ich hisobotda yo‘l qo‘yilgan xatolarni hisobga olib, o‘zgarishlar kiritishni ko‘zda tutadi. Kundalik hisobot hujjatlariga faqat

**Toshkent viloyati Zangiota tumani xo'jaliklarining yer turlari
(2004-yil 1-yanvar holatiga)**
(gektar hisobida)

T.r.	yerdan foydalanuvchilar va yerga egalik qiluvchilar, jami umumiy yer maydoni	Shundan											
		tomorqa					shundan						
	ekiladigan yerlar	ko'p yillik daraxtlar	bo'z yerlar	pichanzorlar va yaylovlar	oilalar soni	jamii yer maydoni	jamii o'monlar	suv ostidagi yerlar, jami	yo'llar	yo'llar, ko'chalar va maydonlar	foydalanilmaydigan boshqa yerlar		
1	«Bo'z SUV» sh/x	1615	1017	65	-	41	1431	174	5	125	23	57	131
2	«Do'stlik» sh/x	283	100	3	-	33	240	57	5	31	11	16	38
3	«Qo'yluq» sh/x	82	26	-	-	-	126	8	-	2	-	2	44

qonuniy o'zgarishlar yozilib, ular quyidagi yer turlari (eksplikatsiya)¹ asosida olib boriladi (3-jadval).

Yerlarni ro'yxatga olish (xatlash) yer hisobotining tarkibiy qismi hisoblanadi va u o'z vaqtida o'tkazilishi zarur.

Yerlardan foydalanish ustidan nazorat olib borish maqsadida, vaqtı-vaqtı bilan nazorat o'lchovlari o'tkazilib turiladi. Bu o'lchovlar yoppasiga va tanlab o'tkazilishi mumkin.

Yer hisobotiga yil davomida bajarilgan xo'jaliklararo yer tuzish, xo'jaliklarning ichki yer tuzish loyihalari, o'tkazilgan nazorat o'lchovlari va yer tuzish ishlariga taalluqli bo'lgan kartografik hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar asos bo'ladi. Bu ma'lumotlar mahsus shakllardan va kartalardan iborat bo'lib, ularga tushintirish xatlari yoziladi. Yer hisoboti 22 va 22a hamda unga ilova qilinadigan shakllarda olib boriladi.

Yerdan foydalanish va yerdan foydalanuvchilarga qarab, yerlarning taqsimlanishi va shu yerlardan foydalanish to'g'risidagi 22-shakl quyidagi tartibda to'ldiriladi:

a) yerdan foydalanish va yerdan foydalanuvchilarga qarab yerlarning taqsimlanishi, shu yerlardan foydalanish to'g'risidagi

¹ Eksplikatsiya -- lotincha so'z bo'lib, «yer turlarini tushuntirish» ma'nosini beradi.

4-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha foydalanilayotgan jami yerlar
(2004 yil 1-yanvar holatiga)**
(ming ga)

?	Viloyatlardan nomi	Umumiy maydon	Ekin yerlar	shu jumlalidan, shu jumlalidan, shu jumlalidan, shu jumlalidan,		Qishloq xo‘jalik yet tutkisi	Tomorga yeylar	Shundan sige, o-tazotlar va bo‘tazotlar							
				jamii	jamii										
1	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	3211,8	490,1	416,6	416,6	8,4	8,8	1594,2	2028	460,8	35	28,8	26,2	122,8	999,8
2	Andijon	378,3	264	196,2	196,2	28	4,3	21,4	249,9	226,2	45,7	35,9	2	1,9	78,8
3	Buxoro	3482,4	270,4	198,3	198,3	21,8	5,4	235,8	2561,3	225,4	56,3	44	4,2	97,8	762,8
4	Jizzax	1421,2	297,3	476	259,4	13,4	8,2	667,2	1164,8	273,1	30,3	20,1	6,9	10,3	218,9
5	Qashqadaryo	2483,7	499	664,6	416,3	31,5	23,5	1345,9	2065,5	450,8	71,1	43,9	20,2	31,1	295,8
6	Navoiy	5695,3	121,7	109,9	90	9,8	6,8	5061,1	5187,6	106,4	19,5	14,2	2,1	1,2	484,9
7	Namangan	597,5	270,5	195,9	195,9	35,1	3,1	123,6	357,7	234,1	39,9	32,8	1	6,5	192,4
8	Samarqand	1472,4	367,9	457,3	257,9	50,3	6	696,3	1189,9	307,9	78,7	57,6	4,4	4,3	195,1
9	Surxondaryo	1549,7	321,4	279,5	241,3	32,7	0,3	776,7	1089,2	212,8	57,9	46,9	1,1	45,6	355,9
10	Sirdaryo	386,5	289,8	255,5	255,5	6,2	11	20,9	293,6	272,7	18,1	14,9	4,8	2,2	67,8
11	Toshkent	791	372	333,5	298,6	36,1	0,7	198,8	569,1	331,8	46,8	38,7	1,5	9,5	164,1
12	Farg‘ona	572,3	348,2	250,3	250,3	37,1		20,4	307,8	292,3	63	48,4	1,7	7,7	192,1
13	Xorazm	518,3	273	207,6	207,6	13	5,1	100,9	326,6	235,1	45,3	37,6	1,4	21,2	123,8
Jami:		22570,4	4185,3	4021,2	3283,9	323,4	83,2	12963,2	17391	3689,4	607,6	463,8	77,5	362,1	4137,2

5-jadval

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha qishloq xo'jaligi korhona va tashkilotlarining yerkari
(2004 yil 1- yanvar holatiga)

№	Viloyatlar nomi	Umumiy maydon		Ekin yerlar		pichanozolar va bo'z yerdar	Qishloq xo'jalik yer turari	shundan suge ortidaqanti jami	Tomorqa yerkar	shundan suge ortidaqanti jami	shundan suge ortidaqanti jami	o'monozolar va bo'tazozlar holatidagi yerkar	qishloq xo'jalig yerdagiga roydalanma yillardan yeralar		
		shundan suqe ortidaqanti jami	shundan suqe ortidaqanti jami	shu jumladan, suqe ortidaqanti jami	shu jumladan, suqe ortidaqanti jami										
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	3211,8	490,1	416,6	416,6	8,4	8,8	1594,2	2028	460,8	35	28,8	262	122,8	999,8
2	Andijon	378,3	264	196,2	196,2	28	4,3	21,4	249,9	226,2	45,7	35,9	2	1,9	78,8
3	Buxoro	3482,4	270,4	198,3	198,3	21,8	5,4	2335,8	2561,3	225,4	56,3	44	4,2	97,8	762,8
4	Jizzax	1421,2	297,3	476	259,4	13,4	8,2	667,2	1164,8	273,1	30,3	20,1	6,9	10,3	218,9
5	Qashqadaryo	2483,7	499	664,6	416,3	31,5	23,5	1345,9	2065,5	450,8	71,1	43,9	20,2	31,1	295,8
6	Navoiy	5695,3	121,7	109,9	90	9,8	6,8	5061,1	5187,6	106,4	19,5	14,2	2,1	1,2	484,9
7	Namangan	597,5	270,5	195,9	195,9	35,1	3,1	123,6	357,7	234,1	39,9	32,8	1	6,5	192,4
8	Samarqand	1472,4	367,9	437,3	257,9	50,3	6	696,3	1189,9	307,9	78,7	57,6	4,4	4,3	195,1
9	Surxondaryo	1549,7	321,4	279,5	241,3	32,7	0,3	776,7	1089,2	272,8	57,9	46,9	1,1	45,6	355,9
10	Sirdaryo	386,5	289,8	255,5	255,5	6,2	11	20,9	293,6	272,7	18,1	14,9	4,8	2,2	67,8
11	Toshkent	791	372	333,5	298,6	36,1	0,7	198,8	569,1	331,8	46,8	38,7	1,5	9,5	164,1
12	Farg'onha	572,3	348,2	250,3	250,3	37,1	20,4	307,8	292,3	63	48,4	17	7,7	7,7	192,1
13	Xorazm	518,3	273	207,6	207,6	13	5,1	100,9	326,6	235,1	45,3	37,6	1,4	21,2	123,8
Jami:		22570,4	4185,3	4021,2	3283,9	323,4	83,2	12963,2	17391	3689,4	607,6	463,8	77,5	362,1	4132,2

shakldagi hisobot hamma yer turlari bo'yicha 5 yilda 1 marta (4-jadval), qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlar bo'yicha har yili (5-jadval) tuziladi. Bu shakldagi yer hisobotini topshirish muddati hukumat ko'rsatmasiga asosan, o'zgartirilishi mumkin.

b) yer hisoboti quyidagilardan iborat:

- belgilangan tartibda to'ldirilgan shakl;
- ekin yerlari, bo'z yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar, pichanzorlar va yaylovlarning o'zgarishi haqidagi ma'lumotnomalar;
- hisobotga tushuntirish xati;
- yer hisobotini tegishli idoralar tomonidan ko'rib chiqish va uni tasdiqlanganligi haqidagi hujjat.

Jadvallarning to'ldirilish tartibi qo'mita tomonidan ishlab chiqilgan ko'rsatma va nizomlar asosida tuman, viloyat va respublika yer resurslari bo'limlari, boshqarmalari va qo'mita yer tuzuvchilari tomonidan olib boriladi.

Ma'lumotnomalar (6-jadval) 2 qismdan iborat bo'lib, ularga yil davomida yer maydonlari turlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar ko'rsatiladi. Chunonchi:

- birinchi qismda qishloq xo'jaligida foydalanadigan yer turlarining ko'payishi va buning sabablari;
- ikkinchi qismda qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarning kamayishi va buning sabablari ko'rsatiladi.

Umuman aytganda, yillik yer hisobotini olib borish o'ta muhim ahamiyatga ega. Chunki har bir xo'jalik bo'yicha yer maydonlarini va ularning holatini bilmay turib, qishloq xo'jaligi bo'yicha qilinishi zarur bo'lgan ishlarni rejalashtirib bo'lmaydi.

Nazorat savollari

1. Yer hisobini (balansini) olib borish deganda nimalarni tushunasiz?
2. Yer hisobining vazifasi va mazmuni nimalardan iborat?
3. Yer hisobotining turlari va mazmunlari nimalardan iborat?
4. Yer hisoboti shakllari va ma'nolari nimalardan iborat?
5. Yer hisobotini tuzish va tasdiqlash tartibi qanday?
6. Yer hisobotini tuzuvchi organlar kimlardan iborat va ularni javobgarligi nimada?
7. Yer hisoboti qay yerlarda (sohalarda) ishlatiladi?

6-jadval

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi sug'oriladigan yer maydonlarining 2003-yil davomida o'zgarishi (ming ga)

№	Viloyatlar nomi	A	2003-yil 1-yanvarga bo'lgan maydon												qishloq xo'shaligidan bosqiga koxxonalaridan zaxira yetarindan bo'z yetarindan ko'p yillik daraxtizolaridan q/x da foyda-lanilmaydigan yerlardan tomonqalajalaridan yenezi o'zlashtirilgan shundan mehnorotiy qurilish bolalidagi yerdan jami ko'payishi
			Boshqa yer turinidan o'tishi			Ko'nayishi			Yenezi o'zlashtirilgan			shundan mehnorotiy qurilish bolalidagi yerdan			
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	419,9													0,1
2	Andijon	196,8													0,1
3	Buxoro	199,4													0,9
4	Jizzax	259,8													0,6
5	Qashqadaryo	418,4													0,9
6	Navoiy	91,3													0,1
7	Namangan	197,2													1,9
8	Samatagan	261,1													0,1
9	Surxondaryo	242,8													0,1
10	Sirdaryo	256,3													0,1
11	Toshkent	299,9													1,2
12	Farg'on'a	253,8													0,2
13	Xorazm	210,2													0,5
14	Toshkent sh.	0,5													0,5
Jami:		3307,4													6,6

6-jadvalning davomi
(ming ga)

Kanayishi										Jarmi Kamayishi							
2004-yil 1-yaruvareba bo'lgan maydoni										Jarmi Kamayishi							
2004-yil 1-yaruvareba bo'lgan maydoni										Jarmi Kamayishi							
Boshqa yer turiliga o'tish	Bo'z yerlardan	ekin yerlardan	bo'z yerlardan	Ko'p yillik daraxtzoillardan	pitchanzotillardan	Jalmi yerlar	Xo'saliklarning ichki qurilishiga	tomorqalariga	meitoraziv qurilish holatidagi yerlarga	tyerkazor	Jarmi Kamayishi	2004-yil 1-yaruvareba bo'lgan maydoni	Jarmi Kamayishi	2004-yil 1-yaruvareba bo'lgan maydoni	Jarmi Kamayishi	Jarmi Kamayishi	
13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	25	25	25	25	
0,1			0,2		0,1		0,1			0,3	419,7	-0,2					
0,2			0,2		0,1		0,1			0,4	196,5	-0,3					
0,2			0,2		0,1		0,6			0,9	199,4	-					
0,2			0,2		0,1		0,1			0,5	259,9	0,1					
0,2			0,6		0,1		0,4			1,1	418,2	-0,2					
0,2			0,2		0,1		0,4			0,2	90,5	-0,8					
0,2			2,6		0,1		0,4			0,9	196,3	-0,9					
0,1			0,2		0,1		0,5			0,2	4	259	-2,1				
0,2			0,2		0,1		0,1			0,2	1,1	241,8	-1				
0,3			0,8		0,1		0,1			0,3	256,1	0,2					
0,1			0,7		0,3		1,9			1,3	299,8	-0,1					
0,2			0,2		0,2		1,3			3	251	-2,8					
1,2			6,3		1,2		7			1,7	209	-1,2					
										0,5		-					9,7

3-§. O‘zbekistonning tabiiy sharoiti va yer yuzasining asosiy xususiyatlari

1. O‘zbekistanning yer yuzasi

Yer yuzasining tuzilishi jihatidan O‘zbekiston hududi ikki qismga bo‘linadi, katta (78,7 foiz) qismi tekislikdan, qolgan (21,3 foiz) qismi tog‘lardan va tog‘ oralig‘idagi batqoqlardan iboratdir. Respublikamiz yer yuzasi g‘arb va shimoli-g‘arbdan sharq tomon asta - sekin ko‘tarilib boradi. O‘zbekistonning past qismi okean sathidan 60-100 m. balandlikda bo‘lib, Amudaryoning quysisida va Orol dengizi atroflarida joylashgan.

Tekisliklar. O‘zbekistonning tekislik qismi Turon tekisligining bir qismi bo‘lib, uning g‘arbiy va shimoliy-g‘arbiy qismini egallagan. Tekislikning eng shimoliy-g‘arbiy chekkasini Ustyurt platosi egallab yotadi. U atrofidagi tekisliklardan va Orol dengizi yuzasidan tik ko‘tarilib turadigan yonbag‘irliliklar bilan o‘rab olingan.

Orol dengizining janubiy-sharqiy qismida Qizilqum cho‘li boshlanadi. Yer yuzasining tuzilishi xilma-xildir. Bu yerlarda past tog‘lar, qum tepalar, do‘ng qumlar, barxanlar keng tarqalgan.

O‘zbekistonning geologik tuzilishi xilma-xil bo‘lib, uning hududi asosan ikkita katta tektonik tuzilma, ya’ni Tyanshan orogeni tarqalgan yerlar va Turon plitasidan iborat.

O‘zbekistonda yer yuzining tuzilishiga inson juda qadim zomonlardan boshlab ta’sir ko‘rsata boshlagan. Odamlar yerlarni haydab, ekin ekish uchun ularni tekislashgan, ekinlarni sug‘orish uchun daryolardan ariqlar chiqazishgan.

Insonning yer yuzasiga ta’siri bizning davrimizda texnikaning kuchli rivojlanishi bilan, ayniqsa, kuchaydi.

Tog‘lari. O‘zbekistonning shimoliy-sharqiy qismida G‘arbiy Tyanshanning bir qancha tog‘ tuzimlari (Qorjantog‘, Ugam, Piskom, Chotqol) joylashgan. Bular sharqda O‘zbekiston va Qirg‘izstan Respublikalari chegarasida joylashgan. Keyin Talas, Olay tog‘lari boshlanadi. Bu tog‘ tizimida Manas nomli cho‘qqi bo‘lib, uning okean sathidan balandligi 4482 m. dir.

Chotqol va Qurama tog‘ tizmlari orasida Ohongoron platosi joylashgan (balandligi 2500-3000 m. dan ziyod). G‘arbiy Tyanshan tog‘ tizmalarining okean sathidan balandligi 2500-4000 m. bo‘lib, ularning yuqori qismlarida doimiy qorlar va kichik muzlar uchraydi.

Zarafshon tizma tog‘larining janubida Hisor tog‘ tizmasining janubiy-g‘arbiy tormoqlari (Yakkabog‘, Surxontog‘, Ko‘hitang va boshqalar) uchraydi. O‘zbekistonning eng baland cho‘qqisi Hazrat Sulton (4643m.), Hisor tog‘ida joylashgan.

Mirzacho‘lning g‘arbida Sangar-Nurota tog‘ oraligi botig‘i bor. U shimol-sharqda Molguzar va Nurota, janubda Janubiy Nurota va Chimqor tog‘lari bilan o‘rab olingan. Ularning okean sathidan balandligi janubiy-sharqdan shimoliy-g‘arbga tomon 800 dan 300 m.ga pasayib boradi.

2.O‘zbekistonda tuproqlarning paydo bo‘lishi

O‘zbekistonning tuproq qatlami juda xilma-xil. Respublika hududidagi balandlik mintaqalarining vujudga kelishi va uning sabablari u bilan bog‘liq bo‘lgan qonuniyatlar asosida olimlar tomonidan tavsiya etilgan to‘rtta: cho‘l, adir, tog‘ va yaylov mintaqalarining har biri o‘ziga xos iqlim, tuproq qoplamiga ega. Ularning har birida ro‘y beradigan tabiiy-geografik jaroyonlar ham bir-biridan farq qiladi.

O‘zbekiston hududida iqlim va boshqa turli tabiiy sharoit ta’sirida xilma-xil tuproq turlari tarkib topgan. Bular: qayir allyuvial tuproqlar; o‘tloq bo‘z tuproqlar; qumli cho‘l tuproqlar; sug‘oriladigan (madaniy) bo‘z tuproqlar; och tusli bo‘z tuproqlar; oddiy (tipik) bo‘z tuproqlar; to‘q tusli bo‘z tuproqlar; to‘q jigar tuproqlar va to‘q o‘tloq tuproqlardan iborat.

3. O‘zbekistonning iqlimi

O‘zbekiston iqlimining o‘ziga xos asosiy jihatlari havo haroratining balandligi va yillik yog‘in miqdorining juda kamligi, ya’ni qurg‘oqchi ekanligidir. Respublika hududining asosiy qismi mo‘tadil, janubiy qismi esa subtropik iqlim mintaqasida joylashgan.

Iqlimining tarkib topishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar O‘zbekiston okean va dengizlardan juda uzoqda, Evrosiyoning ichki qismida joylashganligidir, shu bois, o‘lkada bulutli kunlar kam, quyoshli kunlar ko‘p, yog‘inlar esa oz, kecha-kunduz va yil davomida

havo harorati keskin o‘zgarib turadi. Bular respublika iqlimining asosiy xususiyatlaridir.

Respublika iqlimining tarkib topishi uning geografik o‘rni quyosh radiatsiyasi, atmosfyera almashinishi va yer yuzasi tuzilishiga bog‘liq. Geografik o‘rniga bog‘liq holda juda ko‘p quyosh nurini oladi. 22 iyunda O‘zbekistonning shimoli chekkasida xarorat 76° darajagacha ko‘tariladi. Yozda kunning uzinligi 15 soatdan ko‘proq davom etadi.

Respublikaning tekislik qismida - Qizilqum, Mirzacho‘l, Qarshi cho‘lida quyosh uzoq vaqt, ya’ni yiliga 4460 soat nur sochib turadi. Shu bois quyosh nurining sochilishi, ya’ni quyoshdan yer yuzasiga tushadigan issiqlik miqdori ancha katta bo‘ladi. Yil davomida har bir sm² yuza quyoshdan 137-160 kkal radiatsiya oladi.

O‘zbekiston yeri yuzasining tuzilishi ham iqlimi tarkib topishiga ta’sir ko‘rsatadi. Respublikamizning g‘arb va shimal tomonlari tekis va ochiq ekanligidan shu tomonlardan uning hududiga havo massalari erkin kirib keladi.

Qishda respublika hududida mo‘tadil kengliklardan havo frontlari vjudga keladi. Bu frontlarda kenglik havo massalari bilan tropik havo massalari to‘qnashib, siklonlar hosil bo‘ladi va siklonlar yog‘inlar (yomg‘ir va qor) keltiradi.

Yozda respublika hududi, xususan, uning tekislik qismi juda isib ketadi. Tekisliklarda issiq Turon tropik havo massasi tarkib topadi. Turon tropik havosi juda quruq va chang-to‘zonli, harorati ham juda yuqori bo‘ladi.

Demak, O‘zbekiston iqlimining tarkib topishiga uning geografik o‘rni, quyosh nuri sochilishi, atmosfyeraning aylanib yurishi va yer yuzasi ta’sir etadi.

Issiqlikning taqsimlanishi joyning geografik kengligiga, quyosh nurining sochilishi miqdoriga, bu joyda uzoq turuvchi havo massasining xususiyatiga va yer yuzasining tuzilishiga bog‘likdir. Iqlimga ta’sir etuvchi omillarga bog‘liq holda havo harorati mavsumiy tafavutlar hosil qiladi.

Respublikaning yozi juda issiq va uzoq bo‘ladi. Tekislik va tog‘ etaklarida iyul oyi havosining o‘rtacha harorati $+26^{\circ}$, $+30^{\circ}\text{C}$ bo‘lib, janubda esa $+31^{\circ}$, $+32^{\circ}\text{C}$ gacha ko‘tariladi. Eng yuqori havo harorati Termizda $+50^{\circ}\text{C}$ ga etadi. Qizilqumda qum yuzasi $+75^{\circ}$, $+80^{\circ}\text{C}$ gacha qiziydi.

Yoz faslida havo haroratining yuqori bo‘lishi ekin va mevalar tez etilishiga imkon byeradi. Quyosh nuri ta’sirida mevalar shirador bo‘lib yetiladi.

Qishda, yanvar oyida havoning o‘rtacha harorati 0° dan pasayishi mumkin. Usturyurda -10° , Toshkentda -1° , Termizda $+2,8^{\circ}\text{C}$ bo‘ladi. Tog‘li o‘lkalarda haroratning taqsimlanishiga tog‘ tizmalari yo‘nalishi, tog‘larning past-balandliligicha, quyoshga va havo oqimlarining yo‘nalishiga nisbatan joylashganligi ta’sir etadi. Bu ta’sir tufayli havo harorati pasaya boradi.

Havo haroratining yillik o‘rtacha tafovuti tekisliklarda $25-30^{\circ}\text{C}$, tog‘larda esa $20-25^{\circ}\text{C}$ atrofidadir. Tafovutning bu qadar kattaligiga sabab, asosan yozda havo haroratining juda yuqori yo‘nalishidir.

Yog‘inlar. O‘zbekiston hududidagi yog‘inlarning asosiy qismini Atlantika okeanidan esuvchi nam havo massalari keltiradi. Bu g‘arbiy havo massalarining namligi o‘lkamizga kelguncha ancha kuchayadi. Respublikada yomg‘irlar hudud va mavsumlar bo‘yicha juda notejis taqsimlangan.

O‘zbekiston hududidagi yog‘inlar miqdori joyning okeandan uzoq-yaqinligiga va nisbiy balandligiga, tog‘ tizimlarining qayerda joylashganligiga, tog‘lar yonbag‘rining quyoshga o‘ng yoki teskariligidagi va havo massalarining xususiyatiga bog‘liq.

Respublikada yog‘inlarning asosiy qismi qish va bahor oylariga to‘g‘ri keladi. Yillik yog‘inlarning 30 foizi qish oylarida, 40 foizi esa bahor oylarida yog‘adi.

Qor respublika hududining hamma joyida yog‘adi, qor qoplami qalin emas va uzoq turmaydi.

Tog‘larda esa qor ko‘p yog‘adi va qalin qor qoplami 2 oydan 6 oygacha tugamasligi mumkin. Tog‘lardagi qor qoplaming qalinligi 1 m. dan ortadi.

Shamollar. O‘zbekistonning shimoli qismida shamollar ko‘proq shimoli-sharqiyo yo‘nalishda esadi. Shomollar yo‘nalishi janubga tomon o‘zgarib, avval sharqiyo, so‘ngra janubiy-sharqiyo yo‘nalishga o‘tadi.

Yozgi jazirama issiqda quruq, chang-to‘zonli shamollar esadi. Tog‘li joylarda shomollarning yo‘nalishi yer yuzasining tuzilishiga bog‘liq. Bu joylarda ko‘proq tog‘-vodiylar, fyon kabi mahalliy shomollar esadi. Tog‘-vodiylar shamollari respublikamizning barcha vodiyalarida kuzatilgan.

Farg‘ona vodiyasidan «Farg‘ona darvozasi» orqali Mirzacho‘l tomon «Bekobod» (yoki Xavaos) shamoli esadi. Darvoza orqali Mirzacho‘ldan Farg‘ona vodysi tomonga esuvchi shamol «Qo‘qon shamoli» deyiladi.

Bekobod shamoli asosan qishda, ya’ni bosim darvozadan g‘arbgan past, sharqda esa yuqori bo‘lganida esadi, shamolning tezligi sekundiga 30-40 m.gacha yetadi. Yozda shamol tezligi sekundiga 15-20 m. dan oshmaydi.

Qo‘qon shamoli ko‘pincha bahor va kuzda esadi. Bu paytda g‘arbda havo bosimi yuqori bo‘lib, g‘arbiy shamollar kuchayadi, tezligi sekundiga 15-25 m.ga etadi. Bu shamol havo haroratini pasaytiradi.

Yil fasillari. O‘zbekiston shu kenglikdagi boshqa o‘lkalarga nisbatan ancha issiq bo‘lganligidan unda yil fasillari o‘zgacha kechadi. Fasillarning boshlanishi, muddati, obi-havosi o‘ziga xos. Xususan, yozi uzoq va issiq, besh oydan ko‘proq davom etadi, qishi esa qisqa va barqaror emas.

Bahor. Taqvim (kalendar) hisobiga ko‘ra, mart, aprel va may oylari bahor hisoblanadi, aslida esa respublikamizda bahor fevral oyidan boshlanadi. Bu hol o‘simliklarning tez avj olishiga va hayvonlarning jonlanishiga imkon byeradi. Mart oyida bodom, o‘rik, ko‘ksulton va sabzavot ekinlarining hosili yetiladi, may oyining boshlarida qulpinay, tut va gilos pishadi.

21 martda kun bilan tun tenglashadi.

Yoz. Iyun, iyul va avgust oylari yoz oylari hisoblanadi. Respublikamizda yoz may oyidan boshlanib, oktyabrgacha davom etadi. Yoz jazirama issiqligi va qurg‘oqchiligi bilan boshqa fasillardan keskin farq qiladi. Bu faslda ob-havo ancha barqarorlashib, bulitsiz ochiq, jazirama issiq kunlar ko‘p bo‘ladi.

Eng yuqori havo harorati Toshkentda $+44^{\circ}$, $+45^{\circ}\text{C}$ gacha, Termiz va Qizilqumda $+50^{\circ}\text{C}$ gacha ko‘tarilishi mumkin.

Kuz. Sentyabr oyi ham yoz fasli hisoblanadi, obi-havo yozdagidan kam farq qiladi. Respublikamizda kuz oktyabr oyidan boshlanadi. Oktyabrdan ob-havo o‘zgaradi, kunlar qisqarib, havo harorati pasaya boshlaydi, kechalari salqinlashadi. Tunda qirov tushadi, yomg‘ir yog‘ib, ba’zan qorga aylanadi. Kuz tog‘larda barvaqt boshlanib, soviq erta tushadi.

Qish. Dekabr oyining ikkinchi yarmidan qish boshlanadi. Qishda sovuq kunlar iliq kunlar bilan almashinib turadi. Janubda qish iliq bo‘lib, uncha barqaror emas, ayrim yillardagina haqiqiy qish bo‘lishi mumkin. O‘tlar va lalmi ekinlar rivoji ba’zan qishda ham davom etadi.

Qishning 26 dekabrdan 5 fevralgacha bo‘lgan 40 kunlik eng sovuq davri – «qish chillasi» deyiladi.

4-§. O'zbekiston Respublikasining tuproq turlari va ulardan foydalanish

1. Tuproqlarning asosiy tiplari va tipchaları

Zonal kengliklar bo'yicha tuproq-iqlim mintaqalari tizimida O'zbekiston o'zining tekislikdagi qismi bilan janubiy mintaqa, ya'ni sur tusli qo'ng'ir, qumli-sahro va taqir tuproqli sahro mintaqasiga kiradi. Tik (balandlik) mintaqa tizimida esa, respublikaning sharqiy qismi tog' oldi va past tog'larda bo'z tuproqlar, o'rta balandliklardagi tog' mintaqasida jigarrang va qo'ng'ir tusli, tog'-o'rmon va baland tog'larda och qo'ng'ir rangli tuproqlar mavjud.

Mahalliy bo'linish tizimiga ko'ra, O'zbekiston O'rta Osiyo tuproq-iqlim tizimiga mansub.

Zonal kenglik va balandlik mintaqalarida tarqalgan avtomorf tuproqlar orasida gidromorf tuproqlar ham uchraydi. Avtomorf va gidromorf tuproqlar xususiyatlarini o'zida mujassamlagan oraliq yarimgidromorf tuproqlar ham mavjud.

7-jadval

O'zbekiston Respublikasida tarqalgan asosiy tuproq tiplari va tipchaları

Tartib raq.	Tuproqlar	Maydoni, ming ga.	Solishtirma nisbati, foiz
I . Balandlik mintaqasi			
1.	Baland tog' och qo'ng'ir tuproqlari	540	1,2
2.	O'rta tog' jigar rang va qo'ng'ir tuproqlari	1660	3,7
3.	To'q rangli bo'z tuproqlar	1050	2,4
4.	Tipik bo'z tuproqlar	3050	6,8
5.	Och rangli bo'z tuproqlar	2590	5,8
6.	O'tloq bo'z va bo'z-o'tloqi tuproqlar	780	1,8
7.	Bo'z tuproq mintaqasi o'tloqi tuproqlari	670	1,5
8.	Bo'z tuproq mintaqasi botqoq-o'tloq tuproqlari	70	0,2
	Barcha yerlar	10410	23,4
II . Sahro mintaqasi			
9.	Sur tusli qo'ng'ir tuproqlar	11025	24,8
10.	Sahro-qumli tuproqlar	1370	3,1
11.	Taqir tuproqlar va taqirlar	1780	4,1
12.	O'tloqi-taqir va taqir o'tloqi tuproqlar	460	1,0
13.	Sahro mintaqasi o'tloqi tuproqlari	1790	4,1
14.	Sahro mintaqasi botqoq-o'tloqi tuproqlari	50	0,1
15.	Sho'rxoklar	1270	2,9
16.	Qumilar	12100	27,2
17.	Boshqa yerlar (konlar, jarliklar, suv sathi va boshqalar)	4155	1,3
	Barcha yerlar	34000	76,6
	Jami yerlar	44410	100,0

Sug‘oriladigan tuproqlar o‘zigaxos, alohidatuproq tiplari bo‘lib, sug‘orma dehqonchilikda ularning o‘zlashtirilish davri va madaniylashganlik darajasi muhim rol o‘ynaydi.

Tuproq hosil qiluvchi jinslar kelib chiqishining xilma-xilligi, ularning mineralogik tuzilishi murakkabligi, turli xil gidrogeologik sharoitlar, quruq kontinental iqlim va o‘simpliklar majmuasi har xil tuproqlarning shakllanishi uchun sharoit yaratadi.

O‘zbekiston hududida balandlik va sahro mintaqalari tuproqlari keng tarqalgan (7-jadval).

O‘zbekiston tuproqlarining bahosi va bu tuproq ulardan qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida foydalanish ko‘p jihatdan ularning u yoki bu tuproq-iqlim mintaqalarida joylashganligi bilan bog‘liq (2-rasm).

2. Balandlik mintaqqa tuproqlari

Och qo‘ng‘ir o‘tloqi-dasht tuproqlari baland tog‘larda 3000-3300 metr balandlikdan boshlab tarqalgan. Ular asosan elyuviy va delyuviy yotqiziqlarda hosil bo‘lib, odatda, tub tog‘ jinslari tuproqlari bilan aralashgan, tarkibi dag‘al skletli, ko‘pincha eroziyaga uchragan. Mayda toshli tuproqlarning qalinligi, odatda, katta bo‘lmaydi, ayrim hollarda 2 metrdan oshadi. Chirindili qavatning chuqurligi 30-60 sm. Shimoliy ekspozisiyalardagi mayda zarrachali tuproqlarning chimli qatlamida 4-6 foiz chirindi mavjud, janubiy yonbag‘irlarning mayda toshli tuproqlarida chim bo‘lmaydi, yuqori qismidagi chirindi miqdori 2-3 foizdan oshmaydi. Bu yerlardan yozgi yaylovlar sifatida foydalaniladi. Iqlim sovuqligi sababli mazkur hududlarda dehqonchilik qilinmaydi.

Jigar rang tuproqlar asosan dengiz sathidan 1200-1600 metr balandlikdagi o‘ita va past tog‘liklarda uchraydi. Ular elyuviy, delyuviy va toshli prolyuviyda yotqiziqlarda rivojlanadilar. Mayda toshli va mayda tarkibli tuproqlar chuqurligi bir necha metrga etadi.

Chirindili qatlam chuqurligi 30 sm. dan 100 sm. gacha bo‘ladi. Yuvilib ketmagan jigar rang tuproqlarining yuqori qatlamida 4 foizdan 8 foizgacha chirindi mavjud, yuvilib ketgan tuproqlarda 1,5-3 foiz atrofida. Yuvilib ketmagan va qisman yuvilgan jigar rang tuproqlar mintaqqa doirasida 30 foizni tashkil etsa, o‘ita va kuchli yuvilib ketgan tuproqlar maydoni 70 foizni tashkil etadi.

Iqlim sharoiti va tuproqlarning potensial unumдорligi jigar rang tuproqlarda yuqori hosil olishga asos bo‘ladi. Ammo yonbag‘irlarining


nishabligi, bo'linganligi va o'ta qiyaligi bois bu yerdagi tuproqlar qishloq xo'jalik o'simliklarini o'stirish uchun istiqbolli tuproqlar qatoriga kiritishga imkon bermaydi. Ulardan yaylovlar sifatida foydalaniadi. O'rmonlarda archa yog'ochi, yovvoiy mevalar, dorivor o'tlar tayyorlanadi.

To'q rangli bo'z tuproqlar dengiz sathidan 700-1000 metrdan to 1400-1600 metrgacha balandlikdagi tog'oldi tekisliklarining yuqori qismi maydonlarini egallaydi. To'q rangli bo'z tuproqlar asosan elyuviy, delyuviy va tub tog' jinslarining prolyuvial, ba'zan lyoss va lyossimon yotqiziqlarida rivojlanadi. To'q rangli bo'z tuproqlarning mexanik tarkibi o'rtta qumoq, chirindili qatlama chuqurligi 70-80 sm. dan iborat. Haydaladigan qatlama chirindi miqdori 0,8 foizdan 3 foizgacha bo'lib, chuqurlashgan sari uning miqdori keskin kamayadi. Yer relyefi o'r-qirli bo'lganligi sababli tuproqlar turli darajadagi yemirilishga uchragan. Bu yerlardan bahorgi va kuzgi yaylovlar sifatida foydalaniadi, tekis relyefli mayda tuproqli yer uchastkalarida lalmikorlik rivojlangan (bu joylar yog'ingarchilik bilan ta'minlangan bo'lsa). Lalmikorlikni kengaytirish istiqboli relyef bilan chegaralangan, chunki u mexanizatsiya yordamida yerga ishlov berishga to'sqinlik qiladi. Bu yerdagi sharoit asalarichilik hamda dorivor o'simliklar, yovvoysi va rezavor mevalar yetishtirish uchun qulaydir. Shuningdek, ushbu hudud o'rmon o'simliklari va mevali daraxtlarni ekish uchun qulay.

Tipik bo'z tuproqlar dengiz sathidan 350 metrdan to 1000 metrgacha balandlikda bo'lgan tog' yonbag'irlarining bo'lingan qismlarida, tog' yonbag'ridagi tekisliklarda va daryolar terrasalarida tarqalgan. Bu yerdagi tuproqlar mexanik turkibiga ko'ra, loyli va qumloqli bo'lib, asosan lyossimon tuproqli yerlardir. Relyef joylashushi sharoitlari va yuvilib ketish darajasiga ko'ra, haydaladigan qatlama chirindi miqdori 0,8-2,5 foizni tashkil etadi. Ushbu mintaqada lalmikorlik va sug'oriladigan dehqonchilik rivojlangan. Tipik bo'z tuproqlardagi lalmikorlik respublikamizdagi barcha lalmikor yerlarning (yog'ingarchilik bilan qisman ta'minlangan) 70 foizini va barcha sug'oriladigan yerlarning 17 foizini tashkil etadi. Bu tuproqlar respublika uchun muhim yer fondi hisoblanadi.

Och tusli bo'z tuproqlar tog' etagi qiya tekisliklarida va past tog'larning quyi qismida tarqalgan. Ular tarqalishining yuqori chegarasi dengiz sathidan 350-600 metr balandlikda joylashgan. Bu

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TUPROQLARI



Masshtab 1:3 000 000

2-rasm.

yerlarda tuproq hosil qiluvchi assosiy jinslar lyosslar va suv oqizmalarining allyuvial-prolyuvial yotqiziqlaridir. Och tusli bo‘z tuproqlar yuqori balandlikdagi mintaqaga tuproqlariga nisbatan mexanik tarkibi jihatidan eng yengil va organik moddalari miqdori jihatidan kamibag‘al hisoblanadi. Haydaladigan qatlamida chirindi miqdori 0,5 foizdan 1,5 foizgacha. Och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasida lalmikor (*yog‘ingarchilik* bilan ta‘minlanmagan) yerlarning 10 foizi va sug‘oriladigan maydonlarning 18 foizi joylashgan. Yangi sug‘oriladigan yerlarning (Mirzacho‘l, Jizzax, Qarshi dashtlari) katta qismi och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasida. Bu tuproqlar sug‘orish ta’sirida sho‘rlanadi, sho‘rlanish darajalari hududning sun‘iy drenajlashganligiga bog‘liq.

O‘tloqi-bo‘z tuproqlar daryolarning yuqori terrasalarida va tog‘ etagi tekisliklarining past qatlama qismlarida tarqalgan bo‘lib, yer osti suvlari mo‘tadil namlanishi sharoitida rivojlanadi. Bu tuproqlar o‘zining qulay suv-fizik xossalari bilan ajralib turadi, ular tarkibida chirindi miqdori bo‘z tuproqlardagidan ko‘proq bo‘lib, namlanish holati ham qulay. Sug‘oriladigan o‘tloqli-bo‘z tuproqlar, asosan och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasida tarqalgan. Ularning katta qismi turli darajada sho‘rlangan, sho‘rlanish darajasi esa ular relyefning qaysi qismida joylashishiga bog‘liqidir.

Bo‘z tuproqlar mintaqasi o‘tloqi tuproqlari daryolarning quyi terrassasida, daryo deltalarida va tog‘ oldi qiya tekisliklarida tarqalgan. Ular yer yuzasiga yaqin joylashgan yer osti suvlari bilan doimo mo‘tadil ravishda namlanib, chirindi miqdorining yuqoriligi bilan (5 foizgacha) ajralib turadi. O‘tloqli tuproqlar haydaliganda ularda chirindi miqdori kamayadi, bu esa ularning unumдорligi pasayishiga olib keladi. Tipik vato‘q tusli bo‘z tuproqlar mintaqasining sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlari qulay agrokimyoviy va agronomik xossalarga ega. Och tusli bo‘z tuproqlar mintaqasidagi o‘tloqli tuproqlar yetarli darajada drenajlashmagan relyef sharoitlarida joylashgan. Shu tufayli yer osti suvlari tuproqning namlanishigakattata’sir ko‘rsatadi, tipik bo‘z tuproqlar mintaqasiga nisbatan o‘tloqi tuproqlar ko‘proq sho‘rlanadi. Zovurlarning ishchi holati yomonlashsa, ular juda qisqa vaqt ichida sho‘rxok tuproqqa aylanadi. Sust drenaj sharoitida sug‘orish bu tuproqlarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini yomonlashtiradi. Och rangli bo‘z tuproqlar mintaqasi sug‘oriladigan o‘tloqi tuproqlarida chirindi miqdori 1-2 foizdan oshmaydi.

Bo‘z tuproqlar mintaqasining botqoq-o‘tloqi tuproqlari o‘tloqi tuproq maydonlari massivlari orasida relyefning pastqam qismlarini ishg‘ol etadi. Yer yuzasiga yaqin joylashgan yer osti suvlari (1 metrgacha) ta’sirida yuqori namlanish mavjudligi tufayli ushbu tuproqlar organik moddalarining ko‘pligi jihatidan farqlanadi. Zovurlar qurilib, yer osti suvlari chiqurligi 2 metrdan pasayganda botqoq-o‘tloqi tuproqlar havo bilan to‘yinadi va o‘tloqi tuproqlarga aylanadi. Bu yerlar maydoni kichik bo‘lgani uchun ularning xo‘jalik ahamiyati oz.

3. Sahro mintaqasi tuproqlari

Sahro mintaqasi tuproqlarining o‘ziga xos xususiyatlari-chirindi miqdorining pastligi, karbonat miqdorining yuqoriligi, sho‘rlanishning keng tarqalganligi, ayrim joylarning sho‘rxokligi va gipsning mavjudligidir.

Sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar, asosan tuproq hosil qiluvchi qadimiy geologik jinslarda rivojlangan. Uchlamchi davr qatlami va boshqa qadimgi qatlamlar jinslarining elyiviysi yotqiziqlari tuproq hosil qiluvchi jinslar hisoblanadi.

Bu tuproqlarning yuqori qatlamida 0,3 foizdan 0,7 foizgacha chirindi mavjud. Sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlardan yil davomida, asosan yaylov sifatida foydalilanadi. Ularning uncha katta bo‘lmagan qismigina sug‘oriladi, chunki bu tuproqlarning melkozemli qatlamida chirindi miqdori juda kam bo‘lib, ularning tagida suv o‘tkazmaydigan zinch yoki tuzli, yumshoq, sho‘rlanishga moyil, gips qatlamlari yotadi va irrigasiya sharoitiga ko‘ra sug‘orish uchun qisman yaroqlidir. Sug‘oriladigan sur tusli qo‘ng‘ir tuproqlar juda noqulay agronomik, agrokimiyoviy va suv-fizik xususiyatlarga ega. Haydaladigan qatlamdagи chirindilar miqdori 0,4-0,6 foizni tashkil qiladi, ularning barchasi turli darajada sho‘rlangan, ularda karst paydo bo‘lishi, cho‘kish jarayonlari rivojlangan. Ayrim hollardagi gipsning miqdori 60 foizgacha yetadi. Gips qatlaming zichlanishi ildizlarning rivojlanishiga to‘siq bo‘ladi. Bu yerlarning melioratsiyasi juda murakkab bo‘lib, ko‘p mablag‘ talab etadi.

Sahro-qumli tuproqlar Qizilqumda, Amudaryoning qadimgi deltasi tekishigida tarqalgan. Ular qumli, qumloq eol va allyuviy yotqiziqlarda rivojlangan. Ulardagi chirindi miqdori 0,3 foizdan 0,6 foizgacha. Bu yerlardan yil mobaynida yaylov sifatida foydalilanadi.

Tuproq notejis relyefli (tizmali-past-baland qumlar) yerlarda shakllanganligi sababli ular sug'orish uchun o'zlashtirilsa, jiddiy tekislash ishlarini bajarish talab etiladi. Tuproqda qovishqoqlik mavjud emasligi bois kuchsiz shamol ham sug'orish uchun rejalashtirilgan tuproqlar kukunga aylantishi olib keladi.

Sug'oriladigan sahro-qumli tuproqlar o'zining noqulay agronomik hususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular tarkibida chirindi kam (0,3-0,4 foizgacha), defolatsiyaga uchrashi oson, sug'orish uchun juda ko'p miqdorda suv, shuningdek, ko'p o'g'it talab etadi. Yer osti suvlaringning sathi ko'tarilsa, ular gidromorf bosqichga o'tib ketadi.

Taqirli tuproqlar va taqirlar Amudaryo, Zarafshon daryolari, Qashqadaryo va Surxondaryo vodiylari va deltalarida, shuningdek, Qizilqum va Ustyurt past tekisliklarida rivojlangan. Ular allyuviy va delyuviy yotqiziqlarda shakllangan.

Taqirli tuproqlardagi o'simlik qoplamasasi (qatlamasi) juda siyrak yoki umuman yo'q. Shu sababli ularda organik moddalar kam. Bunday tuproqlarning ustki qatlamida 0,4-1,0 foiz chirindi mavjud. O'zining mexanik tarkibi bo'yicha bu tuproqlar og'ir va sho'rxok tuproqlar sirasiga kiradi, svuni yomon o'tkazadi. Sahro mintaqalaridagi taqir tuproqlar sug'orilib, muvaffaqiyatli o'zlashtirilishi, ular tez madaniylashtirilishi va yaxshi hosil berishi mumkin.

O'tloqi-taqir tuproqlar deltalar tekisliklarida rivojlangan. Bu yerdagi yer osti suvlaringning chuqurligi 3-5 metr atrofida bo'ladi.

Tuproqdagi chirindi miqdori, bundan avval rivojlangan tuproqlardagi chirindi darajasiga bog'liq bo'lib, 0,7 foizdan 2,0 foizgacha etadi. Deyarli barcha o'tloqi-taqir tuproqlar u yoki bu darajada sho'rangan, sug'orilganda esa sho'rلانish jarayoni kuchayadi. Shunga qaramay, o'tloqli-taqir tuproqlar sug'orish maqsadida o'zlashtirish uchun eng yaxshi hisoblanadi.

O'tloqi tuproqlar daryolar sohillari va deltalarida yer osti suvlari bilan o'rtacha va kuchli namlanish sharoitida rivojlangan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro viloyatlari yerlaringning katta qismi sahro mintaqasi o'tloqi tuproqlaridan iborat. Bunday yerlar Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida ham mavjud. O'tloqi tuproqlar tarkibida chirindi 0,5 foizdan 2,0 foizgacha bo'ladi. Balandroq joylashgan hududlardagi o'tloqi tuproqlar mexanik tarkibi jihatidan engil bo'lib, kam sho'rangan. Pastliklardagi o'tloqi

tuproqlar og'ir mexanik tarkibga ega va yer osti minyeral suvlarining oqib ketishi qiyin bo'lganligi sababli bu yerda sho'rلانish jarayoni juda kuchli.

Sahro mintaqasining botqoq-o'tloqi tuproqlari o'tloqi tuproqlar tarqalgan sharoitlarda rivojlanadi, ammo bu yerda yer osti suvlari sathi yuqoriroq bo'lganligi sababli namlanish katta.

Botqoq o'tloqi tuproqlar maydonlari uncha katta emas va ular, asosan, yo'l bo'ylarida foydalaniladigan yaylovlardan iborat.

Sho'rxoklar daryolar sohillari va deltalarida, tog' etagi vodiylarida, yassi tog'larning pastkam joylarida shakllangan. Ular sahro mintaqalari ko'proq, och rangli sur tuproqlar mintaqasining quyi qismida kamroq uchraydi. Barcha sho'rxoklar orasida faqat o'tloqi va botqoq tuproqlarga xos o'simliklar, o'sadi. Sho'rxoklar sug'orilmaydigan past tekisliklarda, shuningdek sug'oriladigan yerlarda ham keng tarqalgan.

Tegishli meliorativ tadbirlar amalga oshirilsa, ular sug'orish uchun o'zlashtirilishi mumkin. Kelib chiqishi va joylashuviga qarab, bu tuproqlarning yuqori qismida suvda eruvchi tuzlar 3 foizdan 20-30 foizgacha yetadi.

Nazorat savollari

1. Xo'jaliklarning yirik masshtabdagi tuproq kartalarini tuzish tartibi, bosqichlari va mazmuni nimalardan iborat?
2. Yirik masshtabdagi tuproq kartalari qanday talablarga javob berishi kerak?
3. Yirik masshtabdagi tuproq kartalari qanday masshtablarda bajarilishi lozim?
4. Tuproq qatlamlaridan namunalar olish va ularni kimyoviy laboratoriyalarda ko'rib chiqish tartibi qanday amalga oshiriladi?
5. Tuproq namunalarini olish uchun qaziladigan o'ralarning sonlari, turlari va chuqurligi qaysi tartibda belgilanadi?

5-§. Tuproq kartalarini tuzish va ulardan foydalanish

Paxtachilikda sug'oriladigan yerlar yer turlarining eng muhim va qimmatbaho qismi hisoblanadi. Bu yerlarning imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish uchun tuproqlarning xossalari, meliorativ holatlari, shuningdek, potensial (tabiiy) hamda effektiv (sun'iy)

unumidorligi, ilmiy asoslangan ishonchli ma'lumotlari kerak bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi mehnatkashlari yer to'g'risidagi kerakli bilimlarni fermer xo'jaliklari uchun tayyorlangan tuproq kartalari orqali olishadi. Bu kartalarda tuproq qoplamlarining xilma-xillik xususiyatlari va sifati ko'rsatiladi. Agronom, brigadir, fermer va zveno boshliqlari shu kartalarga asoslanib, u yoki bu dalada qanday tuproq borligini aniqlaydilar.

Tuproqqa qayta ishlov berish, unga o'g'it solish, shuningdek, dala va meliorativ tadbirlarni ilmiy asosda olib borishda tuproq kartalari katta yordam beradi.

Jamoa va davlat xo'jaliklarining tuproq kartalari O'zbekiston Respublikasining sug'oriladigan mintaqalari uchun 1:10000 mashtabda tuziladi. Ulardagi 1 sm joyga 100 m, 1 sm² joyga esa, bir hektar yer to'g'ri keladi. Tuproq kartasi xo'jaliklarning shu mashtabdagi yer tuzish rejasiga chiziladi. Bu rejada aholi yashaydigan joylar, sug'orish kanallari, ariqlar va drenaj tarmoqlari, sug'oriladigan dalalarning chegaralari tasvirlangan bo'ladi. Har qaysi maydon tartib raqamiga ega bo'lib, xo'jalik maydonlari konturlar qaydnomasida aksini topgan.

Qabul qilingan umumiylar belgilari bilan rejada har xil qishloq xo'jalik yer turlari ko'rsatilgan: sug'oriladigan haydalma yerlar, lalmi haydalma yerlar, pichanzor, yaylovlari, partov yerlar, ko'p yillik daraxtlar, o'rmonlar, foydalanmaydigan noqulay do'ngliklar, shag'alli va toshli yerlar va hokazo.

Rejada tuproq qoplami tarkibining xilma-xilligi rangli konturlar ko'rinishida tasvirlanadi. Har qaysi tuproq xili kartada o'z tartib raqamiga ega bo'ladi. Xilma-xil tuproqlar shu tartib raqamlari asosida umumiylar jadvalga birlashtirilgan.

Buni Toshkent viloyati O'rtachirchiq tumanidagi Saidovul fermer xo'jaligi misolida ko'rish mumkin (8-jadval). Bu ma'lumotda tuproq xillarining asosiy ko'rsatikichlari bo'yicha quyida sanab o'tilgan tavsifnomalar beriladi: **tuproqlarning** paydo bo'lishida asosiy tuproq guruhlaridan qaysi tuproq tipigataalluqliligi ko'rsatiladi. Bular bo'z tuproqlar, o'tloqli tuproqlar, taqirli tuproqlar, sho'rxoklar va hokazo.

Tuproqlarning nomlarida, shuningdek, ularning madaniylashganlik holatlari va sug'orish davri ham beriladi. Masalan, eskidan sug'oriladigan, yangidan sug'oriladigan, yangi o'zlashtirilgan yerlar va hokazo.

8-jadval

ToshKent viloyati O'rta chirchiq tumanidağı Saidovil fermer xo'jaligi Tuproq kartasiga ma'yumotlar

№ nöro ayrimalar	O'zlashtirilgan davri	Mexanik tarkibi		Qatalam qatlinligi, %	Chirindi sa	Harakatdağı me/kg midqodot, R.O's
		0-30	30-100			
1	Eskidan sug'oril.	Og'ir qumoqli	O'rta qumoq qatlamlari og'ir qumoqlar	Og'ir qumoqlar	51-70	2,1-2,5
2	Eskidan sug'oril.	Og'ir qumoqli	Yengil va o'rta qumoq qatlamlari og'ir qumoqlar	Yengil va o'rta qumoqlar	42-50	1,39-1,43
3	Eskidan sug'oril.	Og'ir qumoqli	Og'ir qumoqlar	O'rta qumoq qatlamlari og'ir qumoqlar	51-70	1,43-2,0
4	Eskidan sug'oril.	O'rta qumoqli	Yengil qumoq qatlamlari og'ir qumoqlar	Qumloq va yengil qumoq qatlamlari og'ir qumoqlar	32-50	1,14-1,18
5	Eskidan sug'oril.	O'rta qumoqli	Yengil qumoq va qumoq qatlamlari og'ir qumoqlar	Qumloq va yengil qumoq qatlamlari og'ir qumoqlar	51-62	2,29
6	Eskidan sug'oril.	Engil qumoqli	Og'ir qumoq qatlamlari o'ra qumoqlar	O'rta va og'ir qumoqlar	45-50	1,1-1,8
7	Eskidan sug'oril.	Engil qumoqli	O'rta qumoqlar	Shag' al	51-65	1,1
8	Eskidan sug'oril.	O'rta qumoqli	Og'ir qumoqlar	Og'ir qumoqlar	51-65	2,1
9	Eskidan sug'oril.	O'rta qumoqli	O'rta qumoq qatlamlari og'ir qumoqlar	Og'ir qumoqlar	43-50	1,9
10	Eskidan sug'oril.	O'rta qumoqli	O'rta qumoqlar	Shag' al	51-60	1,1
11	Eskidan sug'oril.	O'rta qumoqli	Og'ir qumoqlar	Shag' al	31-60	1,89-2,0
12	Eskidan sug'oril.	O'rta qumoqli	Yengil qumoq qatlamlari og'ir qumoqlar	Shag' al	38	1,53
13	Eskidan sug'oril.	O'rta qumoqlar	O'rta qumoqlar	Shag' al	30	1,37-2,0

8-jadvalning davomi

№ tifmalar	Sho'rihanishi	Durajisi		Joylanish chequrligi, sm		Maydoni, ga	Umumiy	Sug'orlaldiGAN k/erlar	Bomitet bali	Umimidorilik klassi
		Durajisi	Quruq qoldiq	Cl	SO ₄	Zichlik	Gley			
1	Sho'rihanmagan	0,070	0,007	0,013	-	Kam zichlangan	2,3	36	33	61
2	Sho'rihanmagan				-		2,3	18	16	48
3	Sho'rihanmagan				-	Kam zichlangan	2,3	35	31	68
4	Sho'rihanmagan	0,062	0,004	0,013	-	Kam zichlangan	2,3	13	12	60
5	Sho'rihanmagan				-	Kam zichlangan	2,3	12	11	73
6	Sho'rihanmagan				-		2,3	3	3	57
7	Sho'rihanmagan					Kam	2,3	16	14	55
8	Sho'rihanmagan					O'rta	2,3	6	5	36
9	Sho'rihanmagan					Kuchli	2,3	3	3	32
10	Sho'rihanmagan					Kuchli	2,3	4	3	37
11	Sho'rihanmagan					Kuchli	51-70	2,3	44	41
12	Sho'rihanmagan					Kuchli	57	17-20	2,3	9
13	Sho'rihanmagan					Kuchli	30		2,3	17
										216
										195

Tuproqlar mexanik tarkibining tuzilishi

Tuproqlarning mexanik tarkibi	Zarrachalar, foiz	Miqdori
	loylida	qumlida
Loyli	60 dan ko'p	40 dan kam
Og'ir qumoqli	45 dan 60 gacha	55 dan 40 gacha
O'rta qumoqli	30 dan 45 gacha	70 dan 55 gacha
Yengil qumoqli	20 dan 30 gacha	80 dan 70 gacha
Qumoqli	10 dan 20 gacha	90 dan 80 gacha
Qumli	10 dan kam	90 dan ko'p

Mexanik tarkib tuproqni tashkil qiluvchi zarrachalarning kattakichikligini tavsiflaydi. Tuproqning tarkibini har xil kattalikdagi qumli va loyli zarrachalar tashkil qiladi. Loyli zarrachalarni kattaligi 0,01 mm. dan kichik, qumli zarrachalarni esa 0,01 mm. dan yirikroq bo'lgan zarrachalar tashkil qiladi.

Tuproqdagi qumli va loyli zarrachalar tuproq miqdorining necha foizini tashkil qilishiga qarab: loyli, qumoqli, qumli tuproqlar deb ataladi (9-jadval).

Kartalardagi ma'lumotlarda tuproqning mexanik tarkibi, haydov qatlami (0-30 sm), ildiz oziqlanadigan chuqurlik (30-100sm) va tuproq tagi gruntlari (100-200 sm) alohida ko'rsatilgan.

Sho'rlanganlik darajasi o'simlik o'sishi uchun zarar bo'lgan, suvda eruvchan tuzlarning tuproqdagi miqdorini ko'rsatadi. Bu qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligiga kuchli darajada ta'sir ko'rsatuvchi muhim belgilardan biridir.

Tuproqning sho'rlanish darajasi uning tarkibidagi tuzlar miqdori va sifatiga qarab ajratiladi (10-jadval).

Dalalarning sho'rini yuvishda tuproqning sho'rlanganlik darajasi hisobga olinadi.

Sho'rlanish darajasi	Miqdori, foiz	
	Hamma tuzlar	Xlor
Sho'rlannagan	0,3 dan kam	0,01 dan kam
Kuchsiz sho'rlangan	0,3 dan 1,0 gacha	0,01 dan 0,04 gacha
Shuningdek	0,03 dan kam	0,01 dan 0,04 gacha
O'rtacha sho'rlangan	0,1 dan 2,0 gacha	0,01 dan 0,04 gacha
Shuningdek	0,3 dan 1,0 gacha	0,04 dan 0,1 gacha
Kuchli sho'rlangan	0,2 dan 3,0 gacha	0,04 dan 0,1 gacha
Shuningdek	0,1 dan 2,0 gacha	0,1 dan 0,3 gacha
Sho'rxoqlar	3,0 dan ko'p	0,3 dan ko'p

Tuproqlarning emirilishi deganda suv ta'sirida tuproqlarning emirilishi ko'zda tutiladi. Suv ta'siri ostida tuproqning yoki bu darajada emirilishi undagi gumus (chirindi) qavati qisqarishiga, o'simlik uchun ozuqa hisoblangan moddalar kamayib ketishiga olib keladi. Shuningdek, kartada yuvilmali tuproqlar, ya'ni qiyaliklardan suv bilan yuvilib, pastlikda to'planiladigan tuproqlar ajratiladi. Bu tuproqlarda gumus (chirindi) qavatining profil bo'yicha qalinligi gumus miqdori juda ko'pligi bilan ajralib turadi va shuningdek, azot, fosfor va kaliy miqdori juda ko'p bo'ladi.

Suv bilan emirilgan va yuvilmali tuproqlar murakkab relyefli har xil nishabli yerlarda bo'lib, sug'orishda va dalalarni qayta ishlashda qiyinchilik tug'diradi.

Tuproqlarning shakillanishi (skeletligi) tuproqlarning qayta ishlashda qiyinchilik tug'diradigan har xil yiriklikdagi shag'al, chag'ir toshlar, mayda toshchalar aralashganligini ko'rsatadi. Skeletli tuproqlar ko'pincha kam qavatli bo'lib, asosan toshloqlardan, shag'alchali toshlardan va mayda toshchalar aralashgan maydonali iborat bo'ladi. Bu tuproqlar kuchli suv o'tkazuvchanligi, yer osti suvlari tez oqib chiqib ketishi, suv sig'imining kamligi va gumus, azot bilan kam ta'minlanganligiga ko'ra ajralib turadi.

Suv rejimini maqbul darajada saqlash uchun bu tuproqlarni kam miqdorda tez-tez sug'orib turish kerak.

Yer osti suvlaring chuqirligi tuproqlarning yer osti suvlari bilan namlanish darajasini va suvlardan o'simliklar qay darajada foydalanishini ko'rsatadi. Ko'pincha quriq tuproqlar – bo'z tuproqlar, taqir tuproqlar va sur tusli qo'ng'ir tuproqlar – yer osti suvlari chuqur (5 m. chuqurda) joylashgan sharoitda rivojlanadi.

Namlangan tuproqlar (o'tloq va bo'z o'tloq) yer osti suvlari 1-3 m., chuqurlikda joylashganda rivojlanadi. Tuproqlarning suv rejimida bular o'z aksini topib, vegetativ sug'orish miqdorlari va vaqtlarini belgilashda hisobga olinishi kerak. Yuqorida nomilari ko'rsatilgan tuproqlarning biridan ikkinchisiga o'tish qismida paydo bo'ladigan tuproqlar (o'tloqi – bo'z, o'tloqi taqir)da yer osti suvlari chuqurligi 3-5 m.da bo'ladi. Bu sharoitda g'o'zaning yer osti suvlardan foydalanishi cheklangan va u ko'pincha gruntning mexanik tarkibiga hamda qatlamlikka bog'liq. Kapillyar yoriqlar orqali yer osti suvini eng yuqoriga ko'tarib berish qobiliyati, asosan loyli va qumoqli yerlarda juda yaxshi, qumlarda, qumoqli yerlarda va qumli va qumloqli keltirmalardan iborat bo'lgan

keskin qatlamlı yerlarda esa juda yomondir. Yer osti suvlari sathi 1 m. dan yuqori joylashganda namlikka o'ta to'yingan botqoq o'tloqi va botqoqli tuproqlar paydo bo'ladi. Yer osti suvlarining yaqinligidan suvgaga juda to'yingan va havoning yetishmasligi natijasida bu tuproqlarda glevli qavat (berchli) hosil bo'ladi, bu o'simliklarning o'sishi uchun noqulay sharoit yaratadi. Kulrang va ko'kimir rangga bo'yalgan gleyli gorizont o'zining katta zichikda joylashgani va yopishqoqligi tufayli zaharli birikmalar (temir oksidlar, syerovodorod va boshqalar) paydo bo'lishi bilan ajralib turadi. Tuproqlarda o'ta qalin bo'lgan gleyli gorizont g'o'za ildizining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, o'sishdan to'xtatib, uning nobud bo'lishiga olib keladi.

Botqoqlangan tuproqlar yer osti suvlarining sathini pasaytirish uchun meliorativ va agrotexnik tadbirlarni, ya'ni, tuproqning yer osti suvlarini chuqurlashtirish va yuqori madaniylashtirilgan haydov holati yaratishni talab qiladi.

Agar yer osti suvlari minerallashgan bo'lsa, bu tuproqning sho'rланishiga asosiy manba bo'lib hizmat qiladi.

Eksplikatsiyadagi ohirgi ustunda xo'jalikning yerdan foydalanish bo'yicha har qaysi tuproq ayirmalari maydoni ko'rsatiladi.

Kartada eksplikatsiyadan tashqari tuproqlarning agronomik ishlab chiqarish bo'yicha guruhlarga ajratilganligi ko'rsatiladi. Hamma tuproqlar xossalari bo'yicha agronomik ishlab chiqarishga nisbatan bir xil bo'lgan guruhlarga birlashtiriladi. Bu guruhlarning har biridan foydalanish uchun taxminiy tavsiyanomalar beriladi.

Xo'jaliklarga tuproq kartalariga qo'shib, ularning tabiiy, ishlab chiqarish sharoitlari va tuproq tavsifnomasi yozilgan tushuntirish xatlari beriladi. Bu tushuntirish xatida, shuningdek, xo'jalik yerlaridan unumli foydalanish bo'yicha har qaysi tuproq ayirmalari maydoni ko'rsatiladi.

Kartada eksplikatsiyadan tashqari tuproqlarning agronomik ishlab chiqarish bo'yicha guruhlarga ajratilganligi ko'rsatiladi. Bunda xossalari bir xil bo'lgan tuproqlar agronomik ishlab chiqarish bir xil bo'lgan guruhlarga birlashtiriladi.

Har qaysi guruhdan foydalanish uchun taxminiy tavsiyanomalar beriladi. Ularda ekinlarini joylashtirish va ekin maydonlari tarkibi, almashlab ekishni joriy qilish, agrotexnik va meliorativ tadbirlar majmuasini tuproqning ishlab chiqarish qobiliyatini oshirish, qishloq xo'jalik o'simliklaridan yuqori hosil olish uchun joriy qilish bo'yicha tavsiyanomalar yozilgan bo'ladi.

1. Tuproq kartasining meliorativ tadbirlar ishlab chiqishdagi ahamiyati

Respublikamizda ko‘pgina tumanlarda tuproq meliorativ holatining yomonligi, uning sho‘rlanishi bilan bog‘liqidir. Sho‘rlanish yer osti suvlari tabiiy sizib, oqib chiqib ketishi yomon bo‘lgan maydonlarda drenajsiz sug‘oriladigan dehqonchilik qilinishi oqibatidir. Bunday hol O‘zbekistondagi cho‘l mintaqasining tekislik tumanlarida keng tarqalgan bo‘lib, unga qarshi kurash sug‘orish uchun o‘zlashtiriladigan yangi yerlardagi asosiy muammolardan biri sanaladi, eskidan sug‘oriladigan yerlarda esa qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirishda qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Yangi o‘zlashtirilgan yerlardan tuproq meliorativ sharoitlarining noqulayligi ular bir necha yil sug‘orilgandan so‘ng yer osti suvlari keskin ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Natijada ikkilamchi sho‘rlanish jarayoni boshlanadi va o‘simliklarning hosildorligi keskin kamayib, ko‘pgina yerlar qishloq xo‘jaligida foydalanishdan chiqib ketadi.

Sho‘rlangan yerlarning sho‘rlanish darajasi, sho‘rlanish tartibi, sho‘rli qatlamlar chuqurligi, mehanik tarkibi va tuproq gruntlari tuzilishi, yer osti suvi chuqurligi va ularning minerallashganligi bo‘yicha farqlanadi. Meliorativ ishlar muvaffaqiyati yerlarning meliorativ holatini aniqlovchi hamma omillar hisobga olinishiga bog‘liq bo‘ladi.

Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati respublikamizning sug‘oriladigan mintaqasidagi fermer va dehqon xo‘jaliklari yerlarini tekshiruvdan o‘tkazish davomida chuqur o‘rganiladi.

Jamoa va davlat xo‘jaliklarining tuproq kartasi va bu kartaning tushuntirish xatida tuproq meliorativ holati tavsifi hamda hamma asosiy ko‘rsatkichlari keltirilgan. Shularga asoslanib, tuproqning sho‘rlanish xususiyati va joylar sharoitini hisobga olgan holda meliorativ ishlar rejasi tabaqa lashtiriladi. Shunday qilib, tuproq kartasi xo‘jalikda har qaysi sug‘orilgan maydonda sho‘rlanishga qarshi kurashish usullarini, eng kerak tadbirlarini tanlab olish va meliorativ tadbir o‘tkazish uchun birlamchi asos hisoblanadi.

Sho‘rlangan yerlar bo‘yicha meliorativ tadbirlar o‘tkazishning birinchi galdag'i vazifalari quyidagilardan iborat:

- har qaysi xo‘jalikning tabiiy va irrigatsiya – xo‘jalik sharoitini hisobga olib, suvdan foydalanish tarmoqlari bo‘yicha rejali me‘yorl

bo'yicha respublikaning ko'pgina irrigasiya tarmoqlari uchun g'o'za va beda o'stiriladigan hududlarda bir yil davomida belgilanadigan suv miqdori 10-12 ming m³/ga dan oshmasligi zarur;

- sug'orish texnikasini yaxshilash, yana ham takomillashgan, me'yorida sug'orilganda bir tekis namlanishni ta'minlaydigan va sug'orish kartalarida suv oqib chiqib ketmasligi uchun egatli sug'orish usulini qo'llash kerak. Sug'orilgandan jo'yaklar shunday olinishi zarurki, u qiyaliklarda tuproq yuvilib ketmasligi va egatning pastki qismida ortiqcha suv to'planmasligini ta'minlasin. Relyefning xususiyatlarini, tuproq qoplanishini va ekinlar talabini hisobga olgan holda tabaqalashgan sug'orish rejimini qo'llash ijobiy ahamiyatga ega. Sug'orish texnikasini yaxshilash yer osti suvlarining oziqlanishini anchagina kamaytiradi;

- tuproqning kesakli, g'ovakli holatini tiklash va unda namlikni aniqlash uchun dalalarni o'z vaqtida qayta ishlash zarur;

- sug'oriladigan kartalar yuzasini tekislash lozim. Sho'rangan sug'oriladigan maydonlar ko'pincha yomon tekislangan va oz suv bilan jo'yak bo'ylab sug'orish uchun kam moslashgan bo'ladi. Jo'yakli sug'orishda yer yaxshi tekislangan bo'lishi zarur;

- sug'orish tarmoqlarida suvning yerga singib, isrof bo'lishiga qarshi kurashish kerak. Suvdan foydalanish bo'yicha tadbirlarni tartibga solish hamma yerda ham yer osti suvi ko'tarilishining oldini to'liq ololmaydi. Lekin, bu borada oz bo'lsa-da, foyda byeradi. Shuning uchun ham, ayniqsa, suvlarni kanallarda yerga singib, isrof bo'lishi qarshi kurashish zarur.

Tuproqning sho'rланish jarayoni va sho'rланish jadalligi yer osti suvi chuqurligiga va uning minerallashganligiga, tuproqning kapillyar xossalariiga bog'liq bo'ladi. Sho'rangan tuproqlarda agrotexnik tadbirlarni o'tkazishda qayta ishlov berish, almashlab ekish, sho'rni yuvish va vegetatsion sug'orishlarga alohida ahamiyat berish zarur.

Sho'rangan tuproqlarni kuzda chuqur qilib haydash yog'inli qish sharoitida tuproqning davriy sho'rsizlanishiga imkon yaratadi. Sug'orishdan keyingi chuqur (10-15 sm.) kultivatsiya esa tuproq yuzasidan bug'lanishni ancha kamaytiradi. Natijada sug'orishdan so'ng hosil bo'ladigan sho'rланishning oldi olinadi. Lekin tuproqqa qayta ishlov berish faqat kam sho'rangan tuproqlargagina foyda beradi. Almashlab ekishda kuchli rivojlangan beda va ekinlarni yaxshilab sug'orish o'rtacha sho'rangan sug'oriladigan

tuproqlarning sho'rlanish tartibiga kuchli ta'sir qiladi. Bu yer osti suvlarini 50-100 sm. ga pasaytirib, yer yuzasidan bug'lanishni ancha kamaytiradi va tuproqning suv-fizik xususiyatlarini yaxshilaydi. Natijada 2-3 yil ichida ildiz oziqlanadigan qavatdan tuzlar qayta taqsimlanib, ancha past gorizontga tushib ketadi.

Sug'oriladigan tuproqlarda beda almashlab ekishni joriy qilish sho'rlanish rejimi boshqaruvining muhim usullaridan biri bo'lib, kam va o'rtacha sho'rlangan sug'oriladigan tuproqlar davriy sho'rlanishini kamaytiradi va to'xtatadi.

V.A. Kovda va boshqalarning tekshirishlari shuni ko'rsatidiki, kuchli sho'rlangan sug'oriladigan tuproqlarda davriy sho'rlanishni boshqarish va paxtadan yaxshi hosil olish uchun sug'orishlar oralig'idagi nisbiy namlikni dala nam sig'imiga nisbatan 80-85 foizdan kamaytirmay ushlab turish zarur. Shunga mos holda yillik sug'orishlar soni sho'rlangan tuproqlarda 2-3 marta ko'p bo'ladi. Sho'rlangan tuproqlarda bug'lanish ayni ko'paygan davrda sug'orishlar o'rtasidagi vaqt 10-12 kundan oshmasligi kerak, chunki tuproqdagi sho'rni sho'rsizlantiruvchi sug'orish davri 5-6 kun bo'ladi. Ildiz oziqlanuvchi qavatdan yengil eriydigan tuzlarni ishqorsizlantirish uchun qishda yaxob suvi beriladi, bu profilaktika deb ataladi. O'zbekiston sharoitida bunday sug'orish tabiiy sho'rsizlanish jarayonini tezlashtiradi.

Ilmiy-tekshirish institutlari ma'lumotlariga qaraganda, qishki profilaktik sug'orishda samarali natijaga $1500 - 5000 \text{ m}^3/\text{ga}$ miqdorda suv berilganda erishilar ekan.

Sho'rxoqlar va kuchli sho'rlangan tuproqlarda qishloq xo'jalik ekinlarini o'stirish uchun tuzlarni jadallik bilan yuqori qatlamlardan pastki qavatga oldindan yuvib tushirish zarur. Tuzlarni bunday yuvish uchun marza (chek)lar olinib, suv profilaktik miqdordagidan ko'p beriladi. Sho'rlangan tuproqlarda qishloq xo'jalik ekinlarini rasomodida o'stirish uchun, agar 1-2 foiz tuz va grunt suvi yaqin bo'lsa, sho'rni yuvish uchun suvi me'yori $5000-6000 \text{ m}^3/\text{ga}$ bo'ladi. Tuproqda kuzga borib, doim tuz yig'ilsa, bu tadbir bir necha yil davomida muttasil o'tkazilishi zarur.

Yangi o'zlashtirilgan yerlardagi shunga o'xhash sho'r yuvishda katta samaraga yaxshi ishlab turgan kollektor-drenaj tarmoqlari orqali erishish mumkin.

Tavsiya qilinayotgan tadbirlardan meliorativ samaraga bu tadbirlarni shu joyning iqlimi va xo'jalik sharoiti uchun eng ma'qul vaqtida o'tkazish orqali yerishiladi. Shunday qilib, tuproqlar sho'rланishining oldini olish bo'yicha meliorativ ishlar tizimi xo'jalikka tegishli tuproq kartalarida ajratilgan tuproqlarning agronomik ishlab chiqarish guruhlari bo'yicha tabaqlashtiriladi.

Nazorat savollari

1. Tuproq kartalarida qanday ma'lumot beriladi?
2. Tuproq kartalaridan foydalanish tartibi qanaqa?
3. Mineral o'g'itlar miqdorini nimalar asosida belgilanadi?
4. Tuproqni mexanik tarkibi va uni skeletliligi deganda nimani tushunasiz?
5. Tuproq kartasining meliorativ tadbirlar ishlab chiqishdagi ahamiyati nimada?
6. Gidromodel deganda nimani tushunasiz va uni sug'oriladigan yerlarni rayonlashtirishdagi ahamiyati nimadan iborat?

2. Mineral o'g'itlardan to'g'ri foydalanishi uchun tuproq kartalarini va agrokimyo kartogrammalarini qo'llash

O'zbekiston Respublikasida g'o'za va boshqa o'simliklardan yuqori hosil dehqonchilik madaniyatini o'stirish va mineral o'g'itlardan keng foydalanish hisobiga olinadi.

Tuproq sug'orilganda o'simlik o'sishi va rivojlanishi uchun suv rejimi bo'yicha qulay sharoit yaratish, suvning va ozuqa moddalarining yuqori harakatchanligi, tuproqning yuqori darajada biologik faollandishi va issiqlik yig'ishi natijasida o'zida katta biologik massani toplashga imkoniyat yaratadi. Ammo tuproqning tabiiy imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaslik, chunki unda asosiy ozuqa elementlari etarli bo'lmasligi mumkin.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, tuproq tarkibidagi o'simlik oziqlanadigan moddalarining miqdori, ya'ni, tabiiy unumдорлиги hisobiga paxtadan qo'shimcha 12-15 s/ga hosil olish mumkin, xolos. O'zbekiston tuproqlarida yuqori yoki past hosildorlikni belgilaydigan ozuqa elementlari, asosan: azot, fosfor va ayrim paytlarda kaliydir.

Tuproqda azotning o'zida ushlab turuvchi vosita, asosan tuproqning organik moddalari tarkibiga kiruvchi gumus yoki chirindilar. Azotning

mineralli birikmalari - (nitratlar, ya'ni, azot kislotasi tuzlari, ammiak gumus umumiy miqdorining 1-2 foizini tashkil qiladi, xolos. Bular organik moddalarning chirishidan hosil bo'ladi va o'simliklarda yaxshi o'zlashtiriladi.

Chirindi, asosan o'simliklarning qoldiqlaridan iborat bo'lib, organik kislotalar va boshqa birikmalar holatida uglyeroddan tashkil topgan. Bundan tashqari, o'simliklar qoldiqlari qiyin o'zlashtiriladigan azot, fosfor va kaliy birikmalaridan iborat bo'lib, organik moddalarning chirishi natijasida o'simliklar o'zlashtiradigan mineral holatlarga o'tadi.

Shunday qilib, gumus tuproqning unumdorligini ta'minlaydigan o'ziga xos manba hisoblanadi.

Tuproqlarning tabiiy unumdorligi uning tarkibidagi gumus miqdoriga bog'liq bo'ladi.

O'zbekistonning paxta etishtiriladigan tumanlari tuproqlari tarkibidagi gumus va azot miqdoriga qarab har xil bo'ladi. Dasht mintaqasidagi tuproqlar tarkibida 0,5-0,8 foiz gumus va 0,04-0,08 foiz azot bo'lib, ular ozuqa moddalarga kambag'aldir. Bu birikmalarga och tusli, ayniqsa, tipik bo'z tuproqlar boyroqdir. Gumus va azotga eng boy tuproqlar – bu gidromorf tuproqlar, ya'ni o'tloqi va botqoq o'tloqi tuproqlardir. Ularda gumus 1,5 dan 2,5 foizgacha, ayrim joylarda 8 foizgacha, azot esa 0,1-0,2, kamdan-kam yerlarda 0,4 foizgacha borligi kuzatiladi. Mineral o'g'itlar bilan olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, dasht tuproqlari azotli o'g'itlarni ishlatganda yaxshi unumdor bo'lib, keyingi o'rinni och tusli bo'z tuproqlar va tipik bo'z tuproqlar egallaydi.

O'tloqi va botqoq o'tloqi tuproqlarga faqat azotli o'g'itlar solish hosildorlik salmog'ini oshirishga ta'sir ko'rsatmaydi. Shunday qilib, tuproq tarkibidagi azot va gumus miqdori bir tomonidan, tuproqlarning azotli o'g'itlarga nisbatan talabi va ikkinchi tomonidan, uning foyda berishi bilan bog'liq ekanligi kuzatiladi. Bu tuproqlarning sharoitga qarab, azotli o'g'itlarni taqsimlash miqdori mineral o'g'itlarni qo'llash bo'yicha tavsiyanomalarda o'z aksini topgan.

O'zbekiston tuproqlari fosforga juda boy, fosfor kislotasining yalpi miqdori bu hudud tuproqlari 0,2-0,3 foizni tashkil qiladi. Ammo fosforning katta qismi o'simlik o'zlashtirishi qiyin, shuningdek, qiyin yeriydigan holatda bo'lib, asosan SaGO_3 , ko'rinishidadir. Tuproqlarimizning yana bir xususiyati shundan iboratki, ularga solingan fosforli o'g'itlar tezda qiyin eriydigan birikmalarga aylanib qoladi.

Gidromorf tuproqlar o'ziga katta miqdorda fosfatlarni biriktirib olish qobiliyatiga ega.

Fosforli o'g'itlarni muntazam solish tuproqlarda faqat yalpi fosforgina emas, balki harakatchan fosfor to'planishiga ham olib keladi. Shuning uchun ham harakatchan fosforga eskidan sug'oriladigan, madaniylashtirilgan tuproqlar boy, yangi o'zlashtirilgan tuproqlar esa kambag'aldir. Dala o'simliklar oziqlanadigan holatdagi fosfor bilan ta'minlanganligiga ham ana shu hol sabab bo'ladi. Misol uchun, beda ekilgan yerlar tuprog'i tarkibida bedasi o'rib olingandan so'ng fosfor miqdori juda kamayib ketadi, chunki beda ko'p miqdorda fosforni o'zlashtiradi. Xo'jalik yerlarining har qaysi dalasi harakatchan fosfatlar bilan ta'minlanganligini hisobga olish uchun agrokimyo kartogrammalari tuziladi.

Tuproqning fosfor bilan ta'minlanganligi bo'yicha kartogrammalarda quyidagi ajratishlar qabul qilingan (mg) kg, tuproqda harakatchan fosfor:

Juda past	- 0 -15
Past	- 16 -30
O'rtaча	- 31- 45
Yuqori	- 45 - 60
Juda yuqori	- 60 dan ko'p.

Kartogrammalarda maydonlar fosforning miqdoriga qarab shunga mos ravishda rang bilan bo'yab ko'rsatiladi, ya'ni, och yashil rangdan juda past, to'q ko'k ranggacha yuqori ta'minlanganlikni bildiradi.

Hosil yetishtirishda azot va fosfor bilan bir qatorda kaliyning ham ahamiyati katta. O'zbekistondagi sug'oriladigan yerlarning ko'p qismi kaliyga boy: uning miqdori 2-2,5 foiz K_2O . Yalpi kaliy miqdorining ko'pligi va tarkibidagi kaliyli minyerallar tutgan moddalarning kuchli chirishi natijasida o'simlik o'zlashtiradigan harakatchan kaliy tuproq tarkibida juda ko'pdir.

Ilgari respublika tuproqlariga kaliyli o'g'itlar solish shart emas, deb hisoblanardi. Keyingi paytlarda, uzoq yillar faqat paxta yetishtirish va har doim yuqori miqdorda azotli va fosforli o'g'itlarni ishlatalish natijasida o'simlik o'zlashtiradigan harakatchan kaliy miqdori kamayib ketgani kuzatilayapti.

Harakatchan kaliy deganda tuproqning mayda zarrachalari yuzasida ushlanib turuvchi; suvda eruvchan kaliy tuzlari ko'zda tutiladi. Harakatchan kaliyga dasht tuproqlari va bo'z tuproqlar boy. O'tloqi

va botqoq o'tloqi, shuningdek, qumli va yrik skeletli tuproqlar o'z tarkibida bu modda kamligi bilan ajralib turadi.

Tuproq tarkibidagi kaliy miqdorini ko'rsatuvchi agrokimyo kartogrammalarida bu elementlar bilan ta'minlanganlikni quyidagicha ajratish qabul qilingan (tuproqda harakatchan K₂O ning miqdori mg (kg - da):

Juda past	- 100 gacha
Past	- 101-200
O'rtacha	- 201- 400
Juda yuqori	- 401- dan ko'p.

Kartogrammada tuproqdagi kaliy miqdorining har xilligi shtrix chiziqlar bilan belgilanadi.

3. Mineral o'g'itlarni qo'llash rejasি

Fermer va dehqon xo'jaliklarida mineral o'g'itlar qo'llash rejalarini tuziladi. Bunda quyidagi hujjatlar qo'llanma bo'lib hizmat qiladi:

- xo'jalikning tuproq kartasi;
- agrokimyo kartogrammalar;
- qishloq xo'jalik ekinlariga mineral o'g'itlarni qo'llash bo'yicha tavsiyanoma.

Har qaysi dala yoki bir-biriga o'xshash dalalar guruhi uchun g'o'zaga solinadigan o'g'itlarning yillik miqdorini aniqlashda tuproq xususiyatlarini (tuproq iqlim mintaqasi, tuproq tiplari, uning madaniylashtirilganligi, agrotexnik turlari, ekiladigan ekinlarning hillari), rejalarshirilgan hosildorlikning kattaligini hisobga olish zarur. Yuqorida qayd etib o'tilganlarni hisobga olib, minyeral o'g'itlarni solish bo'yicha Qishloq va suv xo'jalik vazirligi tomonidan tavsiyanoma ishlab chiqilgan. O'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, fosforli va kaliyli o'g'itlar solish bo'yicha bu elementlarga kambag'al (ta'minlanganligi juda past va past darajada) bo'lgan tuproqlarda hosildorlik ancha yuqori bo'lar ekan. Shuni hisobga olib, quyida solinadigan o'g'itlarning miqdori belgilanadi va taqsimlanadi (11-jadval).

Bir yillik miqdordagi o'g'itlarni muddatlar bo'yicha taqsimlashda tuproqlarning quyidagi hususiyatlarini hisobga olish zarur: Azot o'g'itlari yer osti suvi yaqin va yer osti suvining sizib oqib chiqib

Tuproqlarning fosfor va kaliy bilan ta'minlanganligini hisoblab chiqish koefitsiyenti

Ta'minlanganlik darjası	Kartogramma bo'yicha miqdori, tuproqda mg/kg		Tuproqlarning ta'minlanganlik koefitsiyenti
	R ₂ O ₅	K ₂ O	
Juda past	15 gacha	100 gacha	1,25
Past	16-30	101-200	1,00
O'rtacha	31-45	201-300	0,75
Yuqori	46-60	301-400	0,50
Juda yuqori	60 dan yuqori	401 dan yuqori	

ketishi kuchli bo'lgan tuproqlarga haydash oldidan berilmaydi, mexanik tarkibi yengil bo'lgan tuproqlarga oziqlantirish davrida oz-ozdan bo'lib solinadi.

Fosforli o'g'itlarni yerga chuqur solish kerak. Ko'p qismini yer haydalayotganda yoki bahorgi haydashda yerlarda yuvilganidan keyin solish lozim.

Tuproqlarga ishlov berish va sug'orishda ularning agrofizik hususiyatlarini hisobga olish. Tuproqlarning unumdorligini belgilovchi omillardan muhimi uning havo va suv rejimini aniqlovchi fizik xossalalaridir. Bu o'simlik ozuqa elementlarini ildiz tizimi orqali suv bilan erigan holida oladi (12-jadval).

Ma'lumki, hamma tuproqlar o'simlikning o'sishi va rivojlanishi uchun qulay fizik xususiyatlarga ega emas. Strukturasiz yoki changli tuproqlarda sug'orishdan so'ng qatqaloq hosil bo'lishi, suv o'tkazuvchanligi yetarli bo'imasligi, aeratsiyaning kamayib ketishi, boshqa vaqtarda esa, o'ta suv o'tkazib yuborishi, suv ushlab qolish qobiliyati pastligi va boshqalar salbiy omillar hisoblanadi.

12- jadval

Tuproqlarning guruhlari bo'yicha g'o'zaga beriladigan mineral o'g'itlarning yillik miqdori, kg/ga

Paxtaning sovet navi hosildorligi, s/ga	Eskidan sug'oriladigan bo'z, bo'z o'tloqi tuproqlar			Eskidan sug'oriladigan och tusli o'tloqi tuproqlar		
	N	P ₂ O ₅	K ₂ O	N	P ₂ O ₅	K ₂ O
20-25	120	85	75	115	85	60
25-30	150	105	60	140	115	75
20-35	175	115	90	165	120	90
	200	120	100	200	130	100
35-40	200	120	100	200	130	100
	225	125	115	225	135	115

Paxtaning sovet navi hosildorligi, s/ga	To'q tusli o'tloqi va o'tloqi botqoqli			Kam qavatli, shag'al toshlar ustidagi va suv eroziyalariga uchragan tuproqlar		
	N	P ₂ O ₅	K ₂ O	N	P ₂ O ₅	K ₂ O
20-25	120	110	60	130	90	60
	130	115	75	160	115	75
25-30	130	115	75	160	115	75
	145	120	90	180	120	90
35-30	145	120	90	180	120	90
	160	140	100	200	125	100
35-40	160	140	100	200	125	100
	175	160	115	225	135	115

Yangi o'zlashtirilgan va yangi sug'oriladigan bo'z, bo'z o'tloqi va och tusli o'tloqi tuproqlarga, azot va fosfor miqdori 10-12 foizga ko'p solinadi.

Tuproqlardagi agrofizik xossalari to'g'ri hisobga olinib, agrotexnik tadbirlar ishlab chiqilsa, bu salbiy omillar ta'siri kam bo'ladi. Shu boisdan ham agrotexnik tadbirlar ishlab chiqishda tuproqning mexanik tarkibi, agregatligi, zichligi, g'ovakligi, suv ushlab turish va suv o'tkazuvchanlik qobiliyatlarini hisobga olish kerak. Endi yuqorida tilga olingan fizik xususiyatlarning ahamiyatini ko'rib chiqamiz.

Tuproqning tashkil qilgan zarrachalarning katta-kichikligi, ya'ni mexanik tarkibi shu tuproqning fizik xususiyatlarini belgilaydi.

Loyli va og'ir qumoqli tuproqlar yuqori suv sig'imi va kuchsiz suv o'tkazuvchanligi, sug'orilgandan so'ng changlanish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, ularga ishlov berishda solishtirma qarshiligi juda kuchli, sug'orilgandan so'ng qatqaloq hosil qilib, zichlanib qoladi va o'simlikning o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday tuproqlarda loyqanining ko'pligi (diametri 0,001 mm. dan kichik) tuproq strukturasi paydo bo'llishiga imkoniyat yaratadi.

Yengil mexanik tarkibli tuproqlar ancha g'ovakli tuzilishga ega bo'lib, kuchli suv o'tkazuvchanlik va kam suv ushlab qolish qobiliyatlariga ega. Bu tuproqlar yuza qismida qatqaloq umuman hosil bo'lmaydi, lekin ular shamol eroziyasiga uchraydi.

O'rta qumoqli tuproqlar yuqorida paydo qilingan tuproqlarning o'rta qismini tashkil qilib, ularga nisbatan kam zichlangan va qatqaloqlangan, eng yaxshi fizik xususiyatlarga ega bo'ladi.

Tuproqning mexanik tarkibiga bog'liq bo'lgan ko'pgina fizik xususiyatlari undagi namlik rejimiga katta ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan

sug'orish muddatlari va me'yorlari belgilanayotganda (gidromodul rayonlashtirishda) tuproqning mexanik tarkibi asosiy ko'rsatgich sifatida hisobga olinadi.

Tuproqning agregatligi unda hajmi 0,25 mm, agronomik qiymati katta bo'lgan kesakli struktura miqdoriga qarab belgilanadi. Bu o'simlikning suv-havo rejimidan yaxshi xabardor bo'lishni ta'minlab, tuproq unumdorligi uchun sharoit yaratilishiga olib keladi.

O'zbekistonning sug'oriladigan tuproqlarida suvga chidamli agregatlar nisbatan kam. G'o'za, beda almashlab ekishni joriy qilish va yuqori miqdorda organik o'g'itlarni solish, shuningdek, to'g'ri sug'orish bu agregatlar miqdori bir necha marta ko'payishiga imkon yaratadi va o'z navbatida, tuproqning suv-fizik xossasi yaxshilanishiga olib keladi. Tuproqda suvga chidamli agregatlar ko'p bo'lsa, u kam zinchlashadi, sug'orilganda changga aylanmaydi va qatqaloq hosil qilmaydi.

Sug'oriladigan tuproqlar unumdorligining yuqoriligi ularning mikroagregatligiga bog'liq bo'ladi. Tuproqning loyqa zarrachalari va agronomik moddalari bir-biriga yopishib, mayda kesakchalar, ya'ni diametri 0,01 dan 0,1 mm. gacha bo'lgan mikroagregatlar hosil qiladi. Bundan tashqari, lyoss va lyossimon yotqiziqlardan paydo bo'lgan tuproqlarda yirik changli zarrachalar (0,05-0,01 mm) ko'p miqdorda bo'ladi.

Tuproq tarkibida mikroagregatlar va yirik chang zarrachalar ko'p bo'lishi uni g'ovaklashtiradi va suv-fizik xususiyatlarini yaxshilaydi. Tuproq gruntlari shunday zarrachalardan tashkil topgan bo'lsa, suvning tepaga ko'tarish qobiliyatini oshiradi va o'simliklar oziqlanishi uchun kerak bo'lgan tuproq eritmasi harakati juda yaxshilanaishiga va o'simliklar uni oson o'zlashtirishiga sharoit yaratadi.

Tuproqlarning aeratsiya sharoiti ularning joylanish zinchligiga bog'liq. Tuproq qancha yumshoq, g'ovakli bo'lsa, u bilan atmosfyera orasidagi havo almashish sharoiti shuncha yaxshilanadi. Tuproq aeratsiyasining yaxshi bo'lishi tuproqda foydali mikroorganizmlar rivojlanishiga va o'simlik ildiziga qulay sharoit yaratadi.

Tuproqning zinchligi uning hajmiy og'irligi, ya'ni 1 sm^3 tuproqning gramm hisobidagi og'irligi bilan ifodalanadi. Keyingi tekshirishlar shuni ko'rsatadiki, g'o'zaning o'sishi va ildiz tizimi rivojlanishi uchun eng yaxshi sharoit 1,1-1,3 g/sm³ hajmiy og'irlilikda bo'lar ekan. Sug'orilib, dehqonchilik qilinadigan yerlarda tuproqning suv-fizik xususiyatlaridan eng muhimmi uning namlikni ushlab qolish qobiliyatiga egaligi va suv o'tkazuvchanligidir.

Tuproqning namlikni ushlab turish qobiliyati uning mexanik tarkibiga bog'liq. Mexanik tarkibi engil bo'lgan tuproqlar qumli va engil qumoq, og'ir qumoqli va loyli yerkarda qaraganda namlikni kam ushlab qoladi. Tuproq ushlab turgan suvning eng ko'p miqdori, dala suvi sig'imi, deyiladi. Bu ko'rsatkich sug'orish me'yordagi belgilanayotganda hisobga olinadi.

Suv o'tkazuvchanligi yoki suvning tuproqqa shimalish tezligiga qarab 1 soat sug'orishda oqib keladigan suv miqdorini bilish va har xil tuproqda belgilangan suv me'yorining sug'orish vaqtini hisoblash imkoniyatini beradi.

Qulay fizik xususiyatlarga to'g'ri ishlab chiqilgan agrotexnika yordamida, birinchi navbatda, tuproqni asosiy va navbatdagi qayta ishslash orqaligina erishish mumkin.

Yerni haydash, kesaklarni maydalash ishlarining sifati uning namlanganlik darajasiga bog'liq. Tuproq yetilmasdan, nami ko'pligicha haydalsa, haydalma qavat juda qattiqlashib qoladi, natijada, maydalanganda maydalaniib ketmasdan bo'laklarga bo'linadi. Nami qurib qolgan yerlar haydalganda tuproq katta bo'laklarga ajraladi, maydalanganda esa kesaklari changga aylanib, strukturasiz bo'lib qoladi.

Qayta ishslashda namlik maqbul darajada bo'lsa, tuproq maydalangan kesakchalarga bo'linib ketadi. Bunda yetilgan holat, misol uchun, og'ir qumoq tuproqlarda namlik 15-16 foizligida bo'ladi. Shuni qayd etish lozimki, tuproq yetilgan holatda ishlansa, butun vegetatsiya davomida kam zichlashadi. Bunday tuproqlarda hajm og'irlik 1,20-1,36 g/sm³ bo'lib, g'o'zaning rivojlanishiga maqbul sharoit yaratiladi. Tuproq nami ko'p bo'lgan vaqtida ishlov berilgan tuproqlarning hajmiy og'irligi 1,40-1,46, vegetatsiya ohiriga kelib, 1,48-1,56 g/sm³ bo'ladi. Shuning uchun ham suv o'tkazuvchanlik, aeratsiya anchagina kamayadi va tuproqning ozuqa rejimi yomonlashadi, natijada, g'o'za rivojiga salbiy ta'sir etadi.

Tuproqni har xil namlikda ishslash u mayda kesakchalarga bo'linishi, ya'ni fizik yetilish – sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda va o'tloqi tuproqlarda namligi – 14-16 foiz, tuproq solishtirma og'irligiga nisbatan sug'oriladigan bo'z tuproqlarda 18-20 va 22-27 foiz bo'ladi.

G'o'zani kultivatsiya qilish uchun tuproq sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarda sug'orilgandan keyin 4-6 kun o'tgan, sug'oriladigan bo'z o'tloqi, o'tloqi va botqoq o'tloqi tuproqlarda esa, 5-8 kun o'tgandan keyin maqbul darajada yetiladi.

Qayd etib o'tish kerakki, tuproqqa ishlov berishda hosil bo'lgan aggregatlar, ya'ni mayda kesakchalar ko'p suv ushlab turish qobiliyatiga ega. Sug'orish - g'o'za va boshqa ekinlar o'stirishdagi agrotexnika majmuining ajralmas qismidir. U, o'z navbatida, tuproq namligini o'simlik uchun kerakli holda saqlab turish uchun qulay sharoit yaratadi.

Tuproqning dala sig'imi miqiyosidagi namlik 70 foiz bo'lganda g'o'za rivojlanishi uchun sharoit yaratiladi. Sug'orish muddatini shunday hisob-kitob bilan belgilash kerakki, u dala namligi shu ko'rsatikichdan past tushmasligi ta'minlasin.

Sug'orish me'yordi tuproq-iqlim mintaqalari, tuproqlar va gruntlarning mexanik tarkibi, yer osti suvining chuqurligi hisobga olingan holda belgilanadi. Bularga va sug'orishlar o'rtasidagi vaqtga bo'ladigan yog'ingarchilik miqdori va tezligiga har xil tuproq-iqlim mintaqalari ta'sir qiladi. Tuproqning mexanik tarkibi dala nam sig'imini, ya'ni tuproqda ushlanib turadigan suvning maksimal miqdorini aniqlaydi. Qumloq va yengil qumoq tuproqlar suvni kam tutib turish qobiliyatiga ega. Shuning uchun bu tuproqlar kam miqdorda va tez-tez sug'orib turiladi.

Og'ir tuproqlar, soz va og'ir qumoq tuproqlar suvni ko'p miqdorda ushlab turish qibiliyatiga va kam suv o'tkazuvchanlik xususiyatiga egaligi uchun, ularga ko'p miqdorda suv berilib, kam sug'oriladi.

Yer osti suvlari yaqin bo'lsa, g'o'za tuproq qatlamlari orqali ko'tarilgan suvlardan foydalananadi. Shuning uchun ham gidromorf tuproqlarda sug'orish suvlari kam miqdorda beriladi. Agar yer osti suvlari chuqur joylashgan tuproqlarda sug'orish me'yori tuproqning bir metr qavati namligiga ketadigan miqdorda olinsa, gidromorf tuproqlarga esa, 50-70 sm qavat uchun ketadigan suv me'yori belgilanadi. O'rta qumoqli yerlar, masalan, Mirzacho'lning och tusli bo'z tuproqlari eng yaxshi suv o'tkazish qibiliyatiga ega. Bunga qarama-qarshi og'ir qumoqli tuproqlarda kapilyarlar bo'yicha suvning harakati yer osti suvi yaqin joylashgan bo'lsa ham juda sust bo'ladi. Shunday qilib, tuproqning mexanik tarkibi tuproq nami rejimiga katta ta'sir qiladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillarni hisobga olgan holda O'zbekistonning sug'oriladigan zonalari 9 xil gidromodul hududlarga bo'linadi.

Gidromodul rayon deb atalishiga sabab shuki, tuproqning mexanik tarkibi va yer osti suvi chuqurligiga qarab tuproqlar har xil

O'zbekistonning sug'oriladigan mintaqalari uchun gidromodul rayon tiplari

Suv o'tkazuvchanlik darajasi	Yer osti suvining chuqurligi			
	3 dan past	2-3	1-2	1 dan yuqori
Kuchli (0,7 m. dan yuqori), qumli toshloq va qumli yotqiziqlar to'shalgan har xil menanik tarkibili, tuproqlar	I	-	-	-
O'rtacha (0,7-1,5 m chuqurlikda) qumli toshloq to'shalgan qumoqli tuproqlar, engil qumoqli va qumloqli tuproqlar	II	IV	VI	VIII
Kuchsiz qumoqli va loyli tuproqlar	III	V	VII	IX

hajmda suv talab qiladi yoki gidromodul – bu, bir hektar yerni sug'orish uchun ketadigan suv miqdori (l/sek-da), demakdir. Tuproq-iqlim mintaqasi va gidromorfologik sharoitni hisobga olgan holda ko'rsatilgan gidromodul rayonlashtirish tipiga asoslanib, sug'orish suvi olish va sug'orish me'yorlari belgilanadi.

Tuproq kartalaridagi ma'lumotlar tuproq ayimalari qaysi gidromodul rayonga tegishli ekanligini aniqlashga imkon beradi. Jamoa va shirkat xo'jaliklari tuproq kartasida berilgan sug'orish miqdori va me'yori har qaysi tuproq ayirmasi uchun emas, balki o'xhashligi bir-biriga yaqin bo'lgan tuproqning agronomik ishlab chiqarish guruhlari bo'yicha beriladi.

Toshkent viloyati Bo'ka tumanida tuproqlarning agronomik ishlab chiqarish guruhlari bo'yicha g'o'zani sug'orish rejimi 13-jadvalda ko'rsatilgan.

Bo'ka tumanining turli tuproqlarida sug'orish me'yorlari har xil ekan, chunonchi, yangi sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlardagrunt suvlari chuqur joylashgan, shuning uchun bu me'yor $5200 \text{ m}^3/\text{ga}$ ni tashkil qiladi (14-jadval).

3-gidromodulga qarashli, yangidan sug'oriladigan va eskidan sug'orilib kelingan tipik bo'z tuproqlar yer osti suvlarining chuqurligi bilan bir oz farq qiladi. Yer osti suvlarining chuqurligi 3-5 m bo'lgan sug'oriladigan bo'z tuproq yerlarning suvni ko'tarish qobiliyati katta bo'lganligi sababli, yer osti suvlaridan qo'shimcha namlik oladi. Bu esa, o'z navbatida, sug'orish me'yorini 3-gidromodul uchun hisoblab chiqazilganga nisbatan pasaytirishga olib keladi. Sug'orish me'yorlari tuproqning nam sig'imi imkoniyatiga bog'liq holda va tuproq qavatini namlash uchun ketadigan suvning miqdorini hisobga olib tabaqlashtirilgan.

14-jadval

Bo'ka tumani agronomik ishlab chiqarish guruhlari uchun g'ozaning sug'orish rejimi

Tuproqlar		Tuproq guntularining mexanik tarkibi		Suv orish me'yortari, m ³ /ga	
Gidromoduli rayonlari	Aero ishlab chiqarish guntulari	Sug'orish soni	Suv orish sxemasi	Suv orish me'yortari, m ³ /ga	Suv olish me'yortari, m ³ /ga
3 I	Eski'dan sug'oriladijan tipik bo'z tuproqlar	Og'ir va o'rta qumog'i	3-5	1-3-1	5
3 II	Yangidan sug'orilayotgan tipik bo'z tuproqlar	Og'ir va o'rta qumog'i	5 dan past	1-3-1	800-1000
3 III	Yangidan sug'orilayotgan tipik bo'z tuproqlar yuvaligan	O'rta qumog'i	10 dan past	1-3-1	4700
3 IV	Yangidan sug'orilayotgan sho'rihangani tipik bo'z tuproqlar	O'rta qumog'i	3-5	1-3-1	900-1100
5 V	Eski'dan sug'oriladijan bo'z o'tloqi	Og'ir qumog'i	2-3	1-2-1	5200
5 VI	Yangidan sug'oriladijan bo'z o'tloqi	Og'ir qumog'i	1-3	1-2-1	4300
5 VII	Yangidan sug'oriladijan o'tloqi bo'z sho'rihangani	Og'ir o'rta qumog'i	2-3	1-4-1	700-900
5 VIII	Eski'dan sug'oriladijan o'tloqi	Og'ir qumog'i 1-2 m. chiqarilishda tosh shag' al	1-3	1-3-0	3500
4 IX	Yangidan sug'oriladijan o'tloqi	Qumog-qumog'i oqiziqlar usitidagi o'rta qumog'i	1-3	1-3-1	-
6 X	Yangidan sug'oriladijan bolqoq o'tloqi va bolqoq	Shag'al qumog'i va qumog'i, shag'alli yotqizqlar usitida paydo bo'sigan	0,5-1,5	0-3-1	800-900
					600-880
					3800
					2600

* / birinchchi raqam - g'oz za gulga kirgancha sug'orish soni mayning oxiri-
ikkinchisi - gullash davrida; uchinchchi - pishish bosqichida.

Maksimal sug‘orish me’yorini og‘ir va o‘rtal qumoqli tuproqlar uchun belgilash taklif qilinadi.

Nishabliklar bo‘yicha joylashgan qalin lyosslar ustida paydo bo‘lgan, nam sig‘imi kam bo‘lgan, eroziyaga uchragan, yangidan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarga alohida sug‘orish rejimi zarur. Metrli qavati uchun 2800 m³/ga, eskidan sug‘oriladigan og‘ir qumoqli tuproqlarga solishtirganda 3100-3200m³/ga. Chunki relyefning past-balndligi, suv o‘tkazuvchanligi yuqori bo‘lganligi uchun tez quriydi hamda kam gumuslidir. Bu yerlarda kam miqdorda suv bilan tez-tez sug‘orib turish sxemasini qo‘llash zarur. Ba‘zi xo‘jaliklarida qiyalikdan o‘tkaziladigan sug‘orish texnikasini o‘rganish bo‘yicha tajriba shuni ko‘rsatidiki, mazkur sug‘orish tuproq yuvilib ketishiga va sug‘orish suvi isrof bo‘lishiga olib kelar ekan. Shu bilan birga, tuproqning namligi va yetilishi bir xil bo‘lmaydi, yerni qayta ishslashda qiyinchilik tug‘iladi, g‘o‘zaning rivojlanishi va hosili pishib yetilishi bir tekisda bormaydi.

Nishab yerlarni sug‘orishda nishablik shakllari va qiyalikni hisobga olish zarur. Nishablik shakllari, asosan bir xil qiyalik bo‘lib, pastlikka tushgan sari tekislaniib boradi. Shunga asosan, sug‘orish usulini va sug‘orish suvi oqimini bir maromga solish mumkin. Nishabligi 1,5 bo‘lgan bir xil qiyalikda namlikni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, to‘rtinchisug‘orishdan oldin qiyalikning yuqori qismida 17,5, o‘rtal qismida – 13,4 va past qismida - 9,7 foiz egatlari uzunligi 200 m. namlik bo‘lgan, ya‘ni yuqori qismida sug‘orish vaqt kelmagan bo‘lsa-da, pastki qismida sug‘orish zarur ekanligi ko‘rinib turibdi.

Bu ko‘rinishni yo‘qotish uchun sug‘orishning original usuli qo‘llaniladi (shunga o‘xshagan dalalar uchun), nishablikning yuqori qismi bir egat o‘tkazib, dalaning o‘rtasida esa suvni bo‘lib, har qaysi egat bo‘yicha sug‘oriladi.

6-§. Yerlarning hozirgi vaqtdagi sifat holati va kadastr bahosi

1. Sug‘oriladigan yerlarning sifat bahosi

Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 26-dekabridagi «Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun yagona yer solig‘ining muvoqqat (bazaviy) asos stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida»gi 539-sonli qaroriga binoan, 1999-yilda respublikamizning tuproq kartalariga

o'zgartirishlar kiritish va sug'oriladigan yerlarda tuproqlar bonitirovkasini amalga oshirish bo'yicha tadiqiqotlar olib borildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida, sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlarining sifati, tuproqlari holati, ularning kadastr guruhlari bonitet klasslari va ballari bo'yicha taqsimlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar olindi.

Yuqorida qayd etilgan sug'oriladigan dehqonchilik respublikamizning tog'li tekislik qismalarida joylashgan. Bu esa, o'z navbatida, tuproqlarning paydo bo'lish jarayoni xaraktyerini, dehqonchilik madaniyati darajasini, ulardan foydalanish hamda qishloq xo'jalik yerlarining sifatini farqini belgilaydi.

Tog' oldi mintaqalaridagi sug'oriladigan dehqonchilikdagi asosiy tuproqlar sho'rlanish bilan bog'liq meliorativ tadbirlarni talab etmaydi, ammo bu yerlar irrigatsiya va suv eroziyasi jarayonlari kuzatiladi.

Tekislik mintaqasidagi sug'orilib dehqonchilik qilinadigan tuproqlarda sho'rlanishga qarshi kurash ishlari, asosan melioratsiya fondida olib boriladi va bunday maydonlar qadimgi dehqonchilik madaniyati mavjud bo'lgan Buxoro, Xorazm, Farg'ona va boshqa vohalarni hamda keyingi yillarda o'zlashtirilgan hududlardagi Mirzacho'l, Jizzax, Sherobod, Qarshi dashtlari, Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlari, markaziy Farg'onani o'z ichiga oladi.

Sug'oriladigan yerlar tuproq sharoiti, mexanik tarkibi, sho'rlanish darajasi, gips mavjudligi, toshloqligi, eroziyagamoyilligi va boshqa hususiyatlari bo'yicha farqlanadi.

Tog' oldi hududlaridagi vertikal (tik) mintaqalari sug'oriladigan barcha yerlarning 43 foizini tashkil etadi, bunda to'q tusli bo'z tuproqlar - 0,8, tipik bo'z tuproqlar - 17,3, och tusli bo'z tuproqlar 18,1, bo'z o'tloqi, o'tloqi va botqoq o'tloqi tuproqlar - 6,8 foiz.

Tekislik sahro hududlardagi tuproqlar sug'oriladigan yerlarning 57 foizidan iborat. Unda taqir tuproqlar - 8,2 foizni, o'tloqi-taqir, o'tloqi va botqoq o'tloqi tuproqlar 47 foizni, sur tusli qo'ng'ir, sahro-qumloq tuproqlar, sho'rxoklar - 1,8 foizni tashkil qiladi.

Umuman, respublika bo'yicha o'ita qumloq tarkibli tuproqlar salmog'i yuqori bo'lib, jami sug'oriladigan yerlarning 47 foizini tashkil etadi.

Bunday tuproqlarning suv-fizik xususiyatlari mo'tadil, ular yetarli nam saqlovchi va suv o'tkazuvchan bo'lib, tuzlarning yuvilishi va ishlov berilishi oson.

Mexanik tarkibi og‘ir qumoqli tuproqlar sug‘oriladigan yerlarning 25 foizini tashkil etadi. Ular bir qator noqulay suv-fizik hossalarga. Bu tuproqlar suvda oson eruvchan, tuzlardan yuvilishi qiyin, ishlov berish quollariga qattiq qarshilik ko‘rsatadi (energosig‘im yuqori), tez qurib qoladi va qurish jarayonida yuza qismida qatqaloq hosil bo‘ladi.

Yengil qumloq tarkibli tuproqlar sug‘oriladigan yerlarning taxminan 23 foizida tarqalgan. Bu tuproqlar kam namlik saqlaydi, tez quriydi, shamol va suv eroziyasiga moyil, qat‘iy sug‘orish tartibini talab qiladi.

Sug‘oriladigan yerlarning taxminan 4 foizi qumloq va qumli tuproqlardir. Ularning tabiiy unumdorligi past bo‘lib, yomon suv-fizik xossalarga ega, shamol va suv eroziyasiga moyil.

Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi past tekisliklar yer osti sizot suvlarining tabiiy oqimlariga ega emas. Bu yerdagi iqlimning quruqligi, atmosfera yog‘ingarchiligining kamligi va bug‘lanishi yuqoriligi sababli, tuproqlar ustki qatlamida suvda tez eruvchan tuzlar yig‘ilib qoladi (akumlyasiyalanadi). Shu bois sug‘oriladigan dehqonchilikni rivojlantirishda tog‘ oldi mintaqalarining pastki qismida zamin ostidagi qatlamda zamонавиј va qадимиј qoldiq sho‘ланиш mavjudligini va ikkilamchi sho‘ланиш xavfi borligini hisobga olish kerak.

Sulfat - xlorid tuzlarining yig‘ilishi va sho‘ланиш jarayonining keskinligi qadimdan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari sahro mintaqasida va och tusli bo‘z tuproqlarda hamda Markaziy Farg‘onada kuzatiladi.

Hozirga kelib respublikadagi sho‘ланган yerlar jami sug‘oriladigan yerlarning 60 foizini, shundan kuchisiz sho‘ланган yerlar 45-50, o‘rtacha va kuchli sho‘ланган yerlar 6 foizni tashkil qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining, Buxoro, Xorazm hamda Jizzax viloyatlarining barcha tumanlari (Baxmal, G‘allaorol qisman Jizzax va Zomin tumanlaridan tashqari) va Sirdaryo viloyatinining hamma tumanlari (Xovosdan tashqari) hamda Andijon viloyatinining Baliqchi, Bo‘z, Ulug‘nor tumanlari, Qashqadaryo viloyatinining Koson, Usmon Yusupov, Kasbi, Nishon, Bahoriston, Muborak va qisman Qarshi tumanlari, Navoiy viloyatinining Konimex, Xatirchi, Navoiy, Qiziltepa tumanlari, Namangan viloyatinining Mingbuloq

tumani, Samarqand viloyatining Jomboy, Oqdaryo, Go'zalkent, Paxtachi, qisman Pastdarg'om va Samarqand tumanlari, Surxondaryo viloyatining Angor, Jarqo'rg'on, Qiziriq, Termiz, Sherobod, Muzrabot va qisman Qumqurg'on tumanlari, Toshkent viloyati Chinoz, Bo'ka va Bekobod tumanlarining bir qismi, Farg'ona viloyatining Oltiariq, Oxunboboyev, Bog'dod, Buvayda, Yozyovon, Dang'ara, Furqat va qisman O'zbekiston tumanlari yerlari turli xil darajada sho'rangan.

Faqatgina keyingi 10 yil mobaynida sho'rangan yerlar maydoni qariyb 120 ming getktarga ko'paydi, shu jumladan, kuchli sho'rangan yerlar qariyib 43 ming getktarga oshdi.

Tuz yig'ilish va sho'rلانish jarayoni, ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida faollashdi; kuchli va o'rtacha sho'rangan yerlar maydoni ko'payib, 43 va 53 foizni tashkil etdi. Samarqand viloyatida esa karbonat magniyli sho'rланish keskinligi kamaymayapti.

Yangi sug'oriladigan yerlar asosiy qismining sho'rланishi gipslashgan va melioratsiya qilinishi qiyin bo'lган tuproqlar shakllanishi bilan birga yuz bermoqda. Gips qatlamlari o'simlik rivojlanishini, suvda eruvchan tuzlarning yuvilishi qiyinlashtiradi.

Gipslashgan yerlarning umumiy maydoni 350 ming getktarga yaqin. Gipslashgan tuproqlar Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'irot tumanida, Buxoro viloyatining Peshku, Qorovulbozor va Jondor, Jizzax viloyatining Zarbdor va Zafarobod, Qashqadaryo viloyatining Nishon, Muborak va Usmon Yusupov, Navoiy viloyatining Qiziltepa, Navoiy va Xatirchi, Namangan viloyatining Pop va Chust, Surxondaryo viloyatining Muzrabod, Sherobod va Angor, Sirdaryo viloyatining Mehnatobod va Xovos, Farg'ona viloyatining Yoz'yovon va Oxunboboyev tumanlarida, Xorazm viloyatining Hazarasp tumanida tarqalgan.

Yerga mexanizmlar bilan ishlov berishni chegaralovchi va tuproqlarning unumdar qatlami hajmini kamaytiruvchi salbiy omilyerning **toshloqligi**. Oxirgi yillarda Namangan, Farg'ona, Navoiy va boshqa viloyatlarda toshloq adir yerlar o'zlashtirildi, bu esa mazkur toifadagi sug'oriladigan yerlar maydonini 150 ming getktarga ko'payishiga olib keldi.

Toshloq yerlar Andijon viloyatining Buloqboshi va Andijon, Buxoro viloyatining Shofirkon, Qorovulbozor va G'ijduvon, Jizzax

viloyatining Forish tumanida, Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz, G'uzor va Kitob, Navoiy viloyatining Qiziltepa va Nurota, Namangan viloyatining Chust, Pop va Yangiqo'rg'on tumanlarida, Samarcand viloyatining Qo'shrabot va Bulung'ur, Surxondaryo viloyatining Boysun, Sariosiyo va Qiziriq, Toshkent viloyatining Bo'stonliq, Bekobod, Quyichirchiq, Toshkent, Yuqorichirchiq va Ohangaron, Farg'ona viloyatining Farg'ona, So'x, Rishton, O'zbekiston va Quva tumanlarida, Xorazm viloyatining Hazarasp tumanida tarqalgan.

Tuproqlarning ishlab chiqarish mahsuldarligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi va unumdarligi pasayishiga olib keluvchi omillardan biri **suv va irrigatsiya eroziyasidir**. Eng kuchli irrigatsiya eroziyasi jarayonlari tog' oldi mintaqalaridagi to'q tusli va tipik bo'z tuproqlar mintaqasida ko'rindi. Suv eroziyasiga uchragan sug'oriladigan yerlarning umumiy maydoni 8 foizni tashkil etadi, shundan 2 foizi o'rtacha va kuchli darajada eroziyaga uchragan.

Andijon viloyati Buloqboshi, Jalolquduq, Qo'rg'on tepe, Marhamat, Izboskan va Andijon, Jizzax viloyati Jizzax, G'allaorol, Zomin va Baxmal, Qashqadaryo viloyati Kitob, Shaxrisabz, G'uzor, Dehqonobod, Chiroqchi va Yakkabog', Navoiy viloyati Nurota va Xatirchi, Namangan viloyati Pop, Chust, Yangiqo'rg'on va Kosonsoy, Samarcand viloyati Bulung'ur, Urgut, Qo'shrabot, Kattaqo'rg'on, Nurobod va Narpay, Surxondaryo viloyatining Boysun va Sariosiyo, Toshkent viloyatining Bo'stonliq, Parkent, Yangiyo'l va Chinoz, Farg'ona viloyatining So'x va Farg'ona tumanlarining sug'oriladigan yerlari irrigatsiya eroziyasiga duchor bo'lgan.

Tuproqning shamol eroziyasi yoki deflyatsiyaga uchrashi shamol kuchli faoliyat ko'rsatuvchi mintaqalarda, ayniqsa, tumanlarning Qo'qon guruhida, asosan qumloq, qumli va yengil qumoq tuproqlarda keng tarqalgan. Jami sug'oriladigan yerlarning 15 foizi shamol eroziyasiga uchragan bo'lib, shundan 7 foizi o'rtacha va kuchli darjalarda. Oxirgi yillarda shamol kuchlik mintaqalarda qattiq shamol eroziyasiga uchragan maydonlarning ancha qismi o'zlashtirildi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Boysun tumanlaridan tashqari va Navoiy viloyatining barcha tumanlari, Andijon viloyatining Bo'z, Ulug'nor tumanlari, Jizzax viloyatining Arnasoy va Forish tumanlari, Qashqadaryo viloyatining Usmon Yusupov, Muborak, Kasbi va Bahoriston tumanlari, Namangan viloyatining Mingbuloq tumani,

Sirdaryo viloyatining Xovost, Boyovut va Mehnatobod tumanlari, Toshkent viloyatining Bekobod tumani, Farg‘ona viloyatining Buvayda, Dang‘ara, Uchko‘prik, Yozyovon, Bog‘dod, Oxunboboyev va Furqat tumanlari maydonlari shamol eroziyasiga chalingan.

Shu bilan birga, bu salbiy holatlarlar ko‘pincha birgalikda ta’sir ko‘rsatadi va yerlarning umumiyligini baholashga (ya’ni tuproqlar bonitirovkasiga) tegishli ravishda ta’sir qiladi.

2. Tuproq bonitirovkasi

Yer sifatini baholashda asosiy omil uning unumidorligi hisoblanadi, u esa bonitet bali bilan belgilanadi. Tuproq bonitirovkasi - agrotexnika va dehqonchilik intensivligining o‘rtacha darajasidagi tuproq sifati hamda uning ishlab chiqarish imkoniyatining solishtirma bahosidir. Bonitirovka tuproqning ham madaniylashtirish jarayonida orttirilgan, ham tabiiy xossalarni hisobga olishdan kelib chiqadi. Qishloq xo‘jalik ekinlari unumidorligining darajasi mazkur xossalarni bilan chambarchas bog‘liqidir.

O‘zbekistondagi sug‘oriladigan dehqonchilik sharoitlari uchun bonitirovka g‘o‘zaga moslab amalga oshiriladi. Bonitirovkaning g‘o‘za talablarini hisobga olgan holda belgilangan ballari paxta majmuasidagi barcha qishloq xo‘jalik ekinlari ekiladigan, sug‘oriladigan tuproqlar sifatini ham aks ettiradi.

Bonitirovka paytida tuproqning quyidagi asosiy xossalari va tabiiy sharoitlari hisobga olinadi: tipi yoki tipchalar, sug‘orish davri, madaniylashtirilganlik darajasi, mexanik tarkibi, shakllantiruvchi ona jinslari, qatlaming sug‘orish suvlarini o‘tkazuvchanligi, sho‘rlanish darajasi, toshloqlik, gipslanganlik va hokazo. Baholash yopiq yuz balli shkala bo‘yicha amalga oshiriladi. Yuqori unumidorlikka ega bo‘lgan eng yaxshi tuproqlar eng yuqori baho - 100 ball bilan baholanadi. Bu baho qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining hozirgi zamon darajasida gettaridan 40 s. paxta xom ashyosini olish uchun qabul qilingan, ya’ni 1 ball baho 0,4 s/ga ga to‘g‘ri keladi. Tuproq unumidorligini pasaytiruvchi, turli xil asosiy xossalarni majmuasi bilan xarakterlanuvchi tuproq ayirmalarini baholashda tegishli pasaytirish koeffitsiyentlari qo‘llaniladi. Masalan, sho‘rlanish, mexanik tarkibi, suv o‘tkazuvchanligi, gipslanganligi va hokazo.

Tuproqning tabiiy unumdonligi, sug'oriladigan yerlarning unumdonlik bo'yicha salohiyat imkoniyatlari va qishloq xo'jaligida foydalanish uchun yaroqliligi hisobga olinib, respublikadagi sug'oriladigan yerlar sifati jihatidan o'nta klassga bo'lingan. Ular o'z navbatida 5 ta qishloq xo'jalik kadastr mintaqalariga (guruhlarga) birlashtirilgan. Sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari tuproqlari bonitirovkasi yakunlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va xo'jaliklar bo'yicha ko'rsatilgan.

Birinchi kadastr guruhi yangi o'zlashtirilgan yerlarning oz qismi kiritilgan. Ular sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari maydonining 0,3 foizini tashkil etadi. Ularda gumus miqdori juda kam, unumdonlik past, gipslanish darajasi juda yuqori. Bu yerda, salbiy omillar yuqori darajadako'rindi. Bu, avvalo, kuchli sho'rlanish, gipslanish va eroziyaga uchrashdir. Shuning uchun bu guruh yerlar sug'oriladigan dehqonchilik uchun shartli ravishda yaroqli deb belgilangan. Tabiiy sharoitlarning umumlashgan bahosi bo'yicha bu guruh tuproqlari yomon hisoblanadi va bonitet ballari 20 gacha bo'lgan I va II klass yerlarini o'z ichiga oladi. Tabiiy unumdonlikni hisobga olib, bu yerlarda tubdan meliorativ ishlar o'tkazildan turib, qishloq xo'jalik ekinlari o'stirish yaxshi samara bermaydi. Ushbu tuproqlarning past unumdonligi asosiy fondlar, asbob-uskuna bilan yuqori darajada ta'minlanishni, qo'shimcha ishlov va madaniy-texnik melioratsiyani (masalan, toshlarni terib tashlash) talab etadi. Bu esa, o'z navbatida, mahsulot yetishtirish uchun kerak bo'ladigan mablag' va ish vaqtini xarajatlari oshishiga olib keladi. Unumdonlik imkoniyatlari pastligi tufayli o'g'itlarga bo'lgan talab ancha katta, ammo ularni qo'llash deyarli samarasizdir. Birinchi kadastr guruhi yerlari Jizzax, Buxoro, Navoiy, Namangan, Surxondaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida ko'p bo'lib, ular kichik mahalliy uchastkalar sifatida mavjud.

Ikkinci kadastr guruhi III va IV klass yerlari kiradi. Ularning maydoni sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari maydonining 23,1 foizini tashkil etadi. Sifati bo'yicha tuprog'i o'rtacha 21-40 bonitet ballariga teng. Bular yangi o'zlashtirilgan va yangi sug'oriladigan yerlarning katta qismi bo'lib, faol o'zlashtirish bo'yicha, o'rtacha 12 s/ga ni tashkil etadi. Ushbu guruhlar tuproqning suv eroziyasiga, ikkilamchi sho'rlanishga va boshqa xil salbiy holatlarga o'rta va past darajada moyil. Bu yerlardan qishloq xo'jaligida noto'g'ri foydalanilsa, tuproq tanazzuliga (degradatsiyasi) uchrashi, ya'ni ikkilamchi

sho'rlanish, chirindi va ozuqa moddalarining kamayish, qiya joylarning yuvilib ketish jarayonlari ro'y berishi mumkin.

Ushbu guruh yerlarida aholi zich joylashgan. 1 sentner mahsulot uchun sarf bo'ladigan mehnat va mineral o'g'itlar xarajatlari nisbatan kam. Paxta, g'alla va em-xashak yetishtirish bilan bir qatorda mevachilik va qishloq xo'jaligining boshqa sohalarini ham rivojlantirish mumkin. Bunday yerlar, asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo va Toshkent viloyatlarida tarqalgan.

Uchinchi kadastr mintaqasi yerlariga V va VI klass yerlar kiradi. Ular yangidan va eskidan sug'oriladigan, yetarli darajada madaniylashgan yerlarning katta qismini tashkil etadi. Bu mintaqaga maydoni sug'oriladigan, qishloq xo'jaligiga yaroqli ekin yerlarining 43,0 foizidan iborat. Sifati bo'yicha tuprog'i o'rtacha 41-60 bonitet ballariga teng. Bonitet ballari bo'yicha paxtaning o'rtacha normativ hosildorligi 20 s/ga. Ayni paytda bu ko'rsatkich 16 dan 24 s/ga o'rtasida o'zgarib turadi.

Bu zona tuproqlari irrigatsiya eroziyasiga chalingan, ikkilamchi sho'rlangan va boshqa salbiy hodisalarga o'rtta va kamroq darajada uchragan. Xo'jalik ishlarida noto'g'ri foydalanish oqibatida tuproq degradatsiyasi sodir bo'lishi mumkin bo'lган shunday yerdarda ikkilamchi sho'rlanish, gumus va ozuqaning kamayishi, yerkarni yuza qatlamning yuvilishi uchraydi. Bu mintaqa aholi zich bo'lib, yaxshi o'zlashtirilgan. Yetishtiriladigan 1 sentner hosil uchun ketgan mehnat va mineral o'g'itlar nisbatan kamayib boradi. Ularda paxta, don va yem-xashak yetishtirish bilan birga bog'dorchilik va boshqa yo'nalishlarni ham rivojlantirish mumkin. Bunday yerlar, asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Samarqand, Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridadir.

To'rtinchi kadastr guruhiga VII va VIII klass yerkarni kiritilgan. Bular madaniylashgan vodiy (qadimdan sug'oriladigan va yaqindan sug'oriladigan) yerlar bo'lib, 61-80 ballga ega. Uzoq muddat sug'orish va madaniylashtirish jarayonlarida yuzaga kelgan, ushbu tuproqlar ijobji xossalari va barqaror unumdarligi bilan ajralib turadi, sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlarining 26,1 foizini tashkil etadi. Tuproqlar unumdarligini kamaytiruvchi va ularning ishlab chiqarish imkoniyatlariga ta'sir etuvchi salbiy omillar, asosan tuproq tarkibidagi chirindilar va ozuqa elementlari kamayishida, irrigatsion eroziyasi

kichik markazlarida va mayda dog‘li ikkilamchi sho‘rlanish rivojlanishida namoyon bo‘ladi.

Agrotexnik tadbirlarga rioya etilsa ushbu guruh yerlarida barcha qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishi, bu jarayonda sarflangan xarajatlarni qoplab, katta foyda olish mumkin.

G‘o‘zaning o‘rtacha me’yoriy hosildorligi bonitet ballari bo‘yicha 28 s/ga. Shu bilan birga, 24 s/ga dan 32 s/ga gacha o‘zgarib turadi. Qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish uchun sarflanadigan mehnat va mablag‘lar nisbatan kam.

Ushbu yerlarning katta qismi Andijon, Buxoro, Qashqadaryo, Samarqand, Toshkent Farg‘ona va Xorazm viloyatlarining qadimdan sug‘oriladigan mintaqalarida joylashgan.

Beshinchchi kadastr guruhiga voha tuproqlari kiritilgan. Ular qadimgi shaharlar va aholi yashash joylari hamda ular atrofida, ancha barqaror va yuqori unumdorlikka ega. Salbiy omillar sifatiga deyarli ta’sir qilmaydigan bunday yerlarda qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi deyarli o‘zgarmaydi.

Ushbu kadastr guruhiga IX va X klass yerlari kiritilgan. Bonitet ballari 81 dan ortiq. Ularda g‘o‘zaning me’yoriy hosildorligi ballar bo‘yicha 32 s/ga. 1 s. mahsulot yetishtirish uchun sarflangan mehnat xarajatlari respublikadagi o‘rtalari darajadan 30-35 foiz past. Bunday yerlar maydoni sug‘oriladigan qishloq xo‘jalik yerlaringin 2,9 foizini tashkil etadi.

Alovida qimmatini, yuqori zaxirali salohiyatini va unumdorligini, mahsulot birligi uchun zarur bo‘lgan xarajatlarni nisbatan pastligini hisobga olib, ushbu guruhdagi yerlarning yuqori ballik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida agrotexnik darajani takomillashtirish, ekologik tozaligini ta’minalash va ulardan faqat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida foydalanish zarur.

Tuproq xaritalari va tuproq bonitirovkasiga tuzatishlar kiritish natijalari shuni ko‘rsatdiki, oxirgi yillarda yerlarning sifat holati yomonlashgan, sho‘rlanish, yer osti suvlari sathining ko‘tarilish jarayonlari davom etmoqda, suv va shamol eroziyasi rivojlanmoqda.

Oxirgi o‘n yillikda yerlar sifati jihatidan ancha o‘zgardi. To‘rtinchchi va beshinchchi kadastr guruhlariga kiruvchi bonitet ballari 60 dan ortiq bo‘lgan eng qimmatli yerlar maydoni 10,4 foizga, jumladan,

to'rtinchi guruh yerlari 4,9, beshinchi guruh yerlari 5,5 foizga kamaydi.

Shu bilan birga, ikkinchi va uchinchi kadastr guruhlaridagi o'rtachadan past sifatli yerlar maydoni 14 foizga ortdi. Umumiy meliorativ holati yomonlashuvi hamda unumdorligi past 165 ming gektardan ortiq yerlarni o'zlashtirish va qishloq xo'jalik oborotiga jalg etish bilan bog'liq.

Lalmikor yerlar baholanganda ular tabiiy yog'ingarchilik bilan o'rtacha ta'minlangan va ta'minlanmagan guruhlarga bo'linadi. Ushbu bo'linish tuproq mintaqalari joylashuviga xosdir. Jigarrang va to'q tusli bo'z tuproqlar yuqori balandliklardagi mintaqada yog'ingarchiliklar bilan ta'minlangan lalmikor yerlarga to'g'ri kelsa, tipik bo'z tuproqli lalmikorlik yerlar o'rtacha mintaqaga, yarim ta'minlangan va och tusli bo'z tuproqlar past mintaqalarga, yog'ingarchiliklar bilan ta'minlanmagan lalmikor yerlarga to'g'ri keladi.

Respublikamiz aholisining asosiy qismi qishloq joylarida yashaydi va asosan qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi bilan band. Shu sababli, qishloq aholisining yashash sharoiti tuproq unumdorligi va ishlab chiqarish samaradorligiga bog'liq. Demak, rejalashtirish va qishloq xo'jaligida yer resurslaridan foydalanishni tashkil qilish, ishlab chiqarish va sug'oriladigan yerlar unumdorligini tiklash dasturini amalga oshirish, shuningdek, sug'orilmaydigan yerlardan foydalanishga kompleks yondashish ham dolzarb hisoblanadi.

Ammo respublika qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yersharning holati, sifati va ulardan foydalanish darajasini qoniqarli, deb bo'lmaydi. Chunki qishloq xo'jaligida:

- yer manbalaridan ilmiy asosda foydalanish, almashlab ekish yo'lga qo'yilmagan;

- yerlardan, ayniqsa, sug'oriladigan yerlardan foydalanishda, ekinlarni joylashtirishda yer kadastro hujjatlari talablariga (tuproq strukturasiga, meliorativ holatiga, sho'rланish darajasiga, toshloqliligiga, zichlanganliligiga, eroziya ta'siriga uchraganligiga, gipslanganligiga, suv bilan ta'minlangan darajasigavayer yuzasining baland-pastligiga) amal qilinmayapti;

- salbiy jarayonlarni bartaraf qilish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan tadbirlar, ishlarni vaqtida va kerakli hajmda bajarish rejasi yo'q;

- zarur qishloq xo'jalik texnikasi yetishmasligi sababli ba'zan

yerlarni yuza haydash va kerakli o‘g‘itlar bilan yetarli darajada ta‘minlanilmaslik hollariga yo‘l qo‘yilmoqda;

- foydalanib kelinayotgan, sug‘oriladigan, sifatli yerlar yetarli darajada asoslanmagan holda turli qurilishlarga ajratilmoqda;

- ba’zi hollarda yerlarga xo‘jasizlarcha munosibatda bo‘linmoqda, ayniqsa, respublika yer fondining 50 foizini tashkil qiluvchi yaylovlarga deyarli e’tibor yo‘q.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligida foydalanilib kelinayotgan yerlarning sifati yildan-yilga pasayib, ayrim qishloq xo‘jaligi uchun yaroqsiz holga kelishi natijasida, ularni foydalanilmaydigan va sug‘orilamaydigan boshqa yer turlariga o‘tkazish hollari ro‘y bermoqda. «O‘zdavyerloyiha» instituti Yer kadastro sho‘ba korxonasi olib borayotgan ishlar natijasidan ma’lum bo‘lishicha, O‘zbekiston Respublikasidagi barcha sug‘oriladigan yerlarning o‘rtacha ball boniteti 1972-yilda 62 bo‘lgan bo‘lsa, 1980-yilda – 59, 1985-yilda – 63, 1990-yilda – 58, 2000-yilda – 55 ballga tushib qolgan.

Oxirgi 15 yil ichida meliorativ holati yomonlashishi, o‘ta sho‘rlanishi, eroziya ta’siri va boshqa salbiy jarayonlar natijasida, 30 ming gektarga yaqin sug‘oriladigan yer qishloq xo‘jaligida foydalanib bo‘lmaydigan darajaga kelgan va ular sug‘orilmaydigan boshqa turdagи yerlar tarkibiga o‘tkazilgan.

Bunday salbiy jarayonlarni to‘xtatish, qishloq xo‘jaligida foydalanishdan chiqib qolgan sug‘oriladigan yerlarni tiklash, sifatini (ball bonitetini) ko‘tarish O‘zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi hamda Yer resurslari geodeziya, kartografiya va davlat kadastro bo‘yicha qo‘mitasi va ular tasarrufidagi tashkilotlarning asosiy vazifasidir.

Nazorat savollari

1. Sho‘rlangan yerlarni aniqlashdan maqsad nima?
2. Ekin yerlarining sho‘rlanishi sababi nimalarga bog‘liq?
3. Sug‘oriladigan yerlarini sho‘rlanish darajasini qanday aniqlanadi?
4. Yerni sho‘rini yuvish hajmi qaysi usullarda aniqlanadi?
5. Sug‘oriladigan yerlarni sho‘rlanishini qanday qilib oldini olish mumkin?
6. Sug‘oriladigan yerlarni sho‘rlanishini qanday tartibda aniqlanadi?

II. DAVLAT YER KADASTRI ISHINING MAQSADI, TARKIBIY QISMI VA AHAMIYATI

1-§. Tuproq va kadastr ishlarining tarixi

O'zbekistonda tuproq tekshiruv hujjatlaridan foydalanish, ularning vazifasi va hajmi, qishloq xo'jaligining rivojlanish darajasi va dehqonchilikning umumiy madaniyati reja-topshiriqlar bilan aniqlanar edi. Shu sababli, 1964-yilgacha tuproq tekshiruv hujjatlaridan yer tuzish bo'yicha loyiha ishlarida deyarli foydalanimagan. Sug'oriladigan mintaqalarda almashlab ekish tuproq sharoitlarini hisobga olmay joriy etilar, bularga ikkinchi jahon urushiga qadar kimyoiy ishlar uchun qilingan 1:50000 mashtabdagi agrotuproq kartalari asos qilib olinar edi.

1954-yil 31-dekabrda hukumati yer fondining yagona davlat hisoboti haqida qaror chiqardi. Yerdan foydalanishning ro'yxati va yerning davlat hisobotini o'tkazish tartibi haqidagi ko'rsatmada yer turlaridan foydalanishning to'g'riligini tasdiqlash maqsadida tuproqning sifati va hossalari haqida ma'lumotlar zarurligi ko'rsatilgan. Bunday ma'lumotlarda: ifodalanishi zarur bo'lgan ko'rsatkichlarga tuproq tiplari, mexanik tarkibi, gumus qavatining chuqurligi, sho'ranganlik darajasi, yer osti suvining chuqurligi, suv ta'sirida yuvilgan yerlarning miqdori va boshqalar kiradi. Bu ko'rsatkichlar aks ettirilgan ma'lumotlarni faqat yirik masshtabdagi tuproq kartalaridan olish mumkin bo'lgan. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi yer tuzish boshqarmasi qoshida 1956-yili tuproq tekshiruv ishlarini olib boradigan guruli tashkil qilindi va 1959-yili 102 ta tumanda tuproq kartalari tayyorlandi.

Keyinchalik tuproq unumdonligini oshirib borish, o'g'itlar va suvdan foydalanishni yaxshilash, yangi yerlarni o'zlashtirish, ularni qayta ishlashni to'g'ri amalga oshirish, kam mehnat va mablag' sarf qilib, ko'p miqdorda mahsulot olish maqsadida 1959-yili tuproq agroximik hizmati ko'rsatishni tashkil qilish haqida sobiq O'zbekiston Qishloq xo'jaligi vazirligi Tuproqshunoslik instituti qoshida Respublika tuproq tekshiruv ekspeditsiyasi tashkil qilindi va u 1961-yil iyun oyida «Uzgi prozem» loyihalash instituti tarkibiga kiritildi.

Bu qarorlar asosida qilinadigan ishlar hajmi qo'llanmalar bo'yicha sug'oriladigan zonalarda 1:10000, lalmikor yerlarda 1:25000 va 1:50000, yaylovlarda 1:100000 masshtabda tuproq tekshiruv ishlarini o'tkazish belgilandi.

Qo'llanmada sug'oriladigan tuproqlarning xossalari va eng muhim genetik ishlab chiqarish belgilari, shirkat, fermer va davlat xo'jaliklarining tekshirilgan tuproq va qishloq xo'jaligi kompleksi xossalari o'z aksini topgan. Bu esa, o'z navbatida, tuproqlar to'g'risida ma'lumotlarni ko'paytiradi, xo'jaliklarda foydalanish uchun katta imkoniyat yaratadi va tuproq kartalarini ma'lumotlar bilan boyitadi, chunki ular agronomik ishlab chiqarish va agronomik iqtisodiy mohiyatni oshirdi.

Xo'jalikning tuproq kartasida tuproq to'g'risidagi eng muhim ma'lumot yer maydonlarida ko'rsatilgan: uning nomi, sug'orilayotgan davri, ishlab chiqarish qobiliyatini tavsiflovchi madaniylashganligi, tuproq va uning qatlamlari mexanik tarkibi, sho'rланish darajasi, suv va shamol eroziyasiga uchraganlik, toshlar bilan aralashganlik darajasi va qishloq xo'jaligi yer turlarining maydonlari.

Bularga qo'shimcha ravishda kartada yana tuproqlarni qayta ishslash bo'yicha asosiy yo'l-yo'riqlar, ekinlarni sug'orish, o'g'itlar solish miqdorlari, sho'rланishga qarshi kurashda qo'llaniladigan almashlab ekish rejaliari berilgan. Ish davomida biron savol paydo bo'lib qolsa, laboratoriya va dala tekshiruv ishlari natijalari orqali takomillashtirib borilgan.

1959-1967-yillar davomida respublikaning sug'oriladigan zonalaridagi fermer va dehqon xo'jaliklari maydonida tekshiruv ishlari tugallanib, 4,3 million hektar yerga yirik masshtabda tuproq kartalari tuzilgan, shu jumladan, 3,3 million ga 1:10000 masshtabda bajarilgan.

Birinchi marta, paxta yetishtiradigan xo'jaliklarning yerlari sifati bo'yicha tavsiflanib, «pasportlash» ishlari o'tkazilgan. Bu, o'z vaqtida, yer fondi tarkibini tekshirib ko'rish va o'g'it solish, sug'orish rejasi, sho'rangan va eroziyaga uchragan yerlarning melioratsiyasi to'g'risida taklif va maslahatlarga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, sug'oriladigan xo'jaliklar ichidagi bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirish manbalarini qidirib topish va hisoblab chiqish imkonini beradi.

1966-1967-yillar ichida olingan tuproq tekshiruv hujjatlari asosida respublikaning sug'oriladigan yerlarini ro'yxatdan o'tkazish (xatlash)

amalga oshirilgan. Qishloq xo‘jaligi yer turlarining sifatini ko‘rsatuvchi qaydnomalar tuzilib, hamma paxtakor xo‘jaliklarga topshirilgan.

O‘z navbatida, tuproq tekshiruv ishlari tugallangandan so‘ng hujjatlarni umumlashtirish ishlari olib borilib, viloyat va tumanlarning rangli tuproq kartalari tuzilgan va raqamlashtirilgan. Bu hujjatlar har xil tuproqlarning geografik tarqalishi, sifati va maydoni, o‘zlashtirish uchun yaroqligini tavsiflaydi.

Jamoa va davlat xo‘jaliklariga tuproq xaritalari qilingandan so‘ng yer tuzish tashkilotlariga yerlarning miqdorini hisobga olishdan tashqari, sifatini hisobga olish uchun ham imkon tug‘iladi.

Shu bilan birlashtirishda, kelajakda hosildorlikni oshirishni rejallashtirishda agrotexnikani to‘g‘ri olib borish va tuproq unumdarligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqishda tuproq tekshiruv hujjatlaridan foydalishni hayot taqozo etdi.

«Uzgi prozem» instituti bu hujjatlardan yangi yerlarni o‘zlashtirishda, eroziyaga qarshi tadbirlarda, tumanlar bo‘yicha rejallashtirish sxemasida, yangi xo‘jaliklar va chorvachilik kompleksini tashkil qilishda, xo‘jaliklarni ichki yer tuzish bo‘yicha loyihalash va rejallashtirish tashkilotlarida, ilmiy tekshirish ishlarini olib boruvchi tashkilotlarda, sug‘orish rejalarini va gidromodulini rayonlashtirishda hosildorlikni belgilash va yangi yerlarni o‘zlashtirishning istiqbolli rejalarini tuzishda foydalandi.

1968-yilda «Tuproqni suv va shamol eroziyasidan himoya qilishning kechiktirib bo‘lmash tadbirlari haqida»gi Qaroriga asosan, tog‘li lalmikor mintaqalarning yuvilishi bo‘yicha tuproq tekshiruv ishlari o‘tkazilgan.

Bu qarorda qayd etiladiki, eroziyaga uchragan tumanlardagi ko‘pgina fermer va dehqon xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi ekinlaridan juda past va beqaror hosil olayotgani ko‘rsatilgan. Shuning uchun ham tuproq tekshiruv ishlarini olib boruvchigining yer maydonlari taqsimotchisining vazifasi shu tuproqlarni aniqlash va kartasini tuzish, eroziya harakati rivojlanishiga qarshi va tuproq unumdarligini oshirish bo‘yicha asosiy tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat bo‘ladi.

Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, respublikaning tog‘li lalmi yerlari oq dog‘ bo‘lib ko‘rinar edi. Faqat ayrim maydonlarda mayda nisbatda tuproq tekshiruv ishlari o‘tkazilgan, bu esa tuproq qatlami to‘g‘risida ozgina bo‘lsa ham ma’lumot berdi. Shuning uchun ham tog‘ tuproqlari haqida klassifikatsiya va sistemaga solish masalasi yetarli ishlab chiqilmagan, tog‘ tuproqlarini tekshirish va kartasini tuzish qo‘llanmasi

yo‘q edi. Shuning uchun tog‘ lalmi yer mintaqalari kartasini tuzish zarur bo‘lgan.

Tog‘li yerlarda dala tekshiruv ishlarini o‘tkazish davomida alohida uslubiy qo‘llanmalar ishlab chiqish kerak bo‘lgan. Buning uchun suv eroziyasiga uchragan tuproqlarning holatini va ularni kartalashtirish, bunda har xil qiyaliklardagi tuproq genezisi mohiyatini hisobga olish, tuproq paydo qiluvchi ona jinslarning har xilligi, paydo bo‘lgan tuproqlarning har xil qalinlikdagi va relyefning judayam past-balandligidagi komplekslar mohiyatini aniqlash zarur bo‘ldi.

Tuproq erozion kartalari va kartogrammalarini tuzishda asosiy e’tibor suv eroziyasiga uchragan tuproq ayirmalarini aniqlash va xaritada ko‘rsatish, shuningdek, yuvilganlik darajasi joylari nishabligi va past-balandligi tuzilishi, tuproqning tosh aralashganligi va tuproq qavatining qalinligi, ya’ni suv eroziyasiga qarshi tadbirlar loyihasini tuzish va ishlab chiqish uchun kerak bo‘lgan ma’lumotlarga qaratilgan. Yuqorida ko‘rsatilgan uslubda respublikamizda tuproq erozion kartalari qilingan yerlarning umumiyligi maydoni 5,55 mln gektarni tashkil qiladi.

O‘zbekiston hukumatining 1969-yil 2-oktyabrdagi 1591-r sonli qarori bilan «Uzgi prozem» instituti qoshida Yer Kadastro filiali tashkil qilindi. Bu filial respublikada kadastr ishlarini boshlab, yerlar siaftini baholash, tuproq bonitirovkasi va miqdorini hisobga olgan holda ularni iqtisodiy jihatdan baholash bo‘yicha hozirgacha ish yuritib kelmoqda.

Natijada, yerni kadastrlash ishlarini o‘tkazish qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini ilmiy asosda olib borishdagi davlat ahamiyatiga ega muhim tadbirlaridan biri bo‘lib qoldi.

Respublikada yerni baholash ishlarini keng miqyosda olib borishda fermer va dehqon xo‘jaliklaridagi sug‘oriladigan yerlarda tuproq bonitirovkasi va iqtisodiy baholash ishlarini o‘tkazish uchun uslubiy ko‘rsatmalar ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi. Bunda tuproq tekshiruv hujjatlari yerlarning xossalari tavsiflash uchun (tuproqni bonitirovkalashda) asos qilib olinadi.

2-§. Xo‘jaliklarning yirik masshtabli tuproq kartalarini yaratish

Davlat va shirkat xo‘jaliklarining (sobiq) tuproqlarini tekshirish va tuproq kartasi tuzish ishlari O‘zbekiston hukumatining 1959-yil 20-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi davlat va fermer xo‘jaliklarida

tuproq tekshiruv ishlarini o'tkazish va tuproq-agrokimyo xizmatini tashkil qilish to'g'risida»gi 270-qaroriga binoan o'tkazildi. Bu qaronga asosan, O'zbekistonda tuproqshunoslik va o'g'itlar bo'yicha xizmat tashkil qilinib, unga quyidagi vazifalar yuklangandi:

- fermer va dehqon xo'jaliklarining agronomik tuproq kartalarini tuzish va tuproqni asrash, unumdotligini oshirish va holatini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni rejalashtirish;
- mahalliy va sanoat o'g'itlarini to'g'ri ishlatish bo'yicha qo'llanma berish;
- Sobiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlari Kengashi Qishloq xo'jalik vazirligiga va O'zbekiston qishloq xo'jaligi fanlar akademiyasiga «Tuproq tekshiruv ishlarini o'tkazish, tuproq kartalarini tuzish, meliorativ va agrotexnik tadbirlarning tabaqa lashtirilgan sistemasini ishlab chiqish bo'yicha» ko'rsatma, uslubiy qo'llanmalar va tadbirlar ishlab chiqish va nashr etish topshirildi;
- nashr etilgan bu dasturlar, ko'rsatmalar va uslubiy qo'llanmalar ijrosi O'zbekiston hududida tuproq tekshiruv ishlarini olib boruvchi tashkilotlar uchun majburiy vazifa deb belgilandi.

Bundan maqsad fermer va dehqon xo'jaliklarini tuproq kartalari bilan ta'minlash va shu tuproq xaritalari yordamida almashlab ekish sxemasini to'g'ri ishlab chiqish, o'g'itlardan yaxshi foydalanish, sug'orish va qayta ishlov berishni to'g'ri yo'lga qo'yish, shuningdek, tuproq eroziyasiga, botqoqlanishga va sho'rланishga qarshi tadbirlar ishlab chiqishdir.

O'zbekiston hududida tuproq tekshiruv ishlarining bajarilishi natijasida quyidagilar amalga oshirildi:

- xo'jaliklarning sug'oriladigan yerlariga 1:10000, lalmikor yerlariga 1:50000 va tog'li yaylov yerlariga 1:100000 mashtabda tuproq kartalari tayyorlandi;
- sug'oriladigan maydonlarning muhim agronomik ishlab chiqarish hususiyatlarini aks ettiruvchi (kartogrammalar, tuproq va uning qatlamlari mexanik tarkibi, chirindi va azotning tuproqdagi miqdori) maxsus kartogrammalar tuzildi;
- tuproq kartalariga tushuntirish xatlari yozildi.

Bu xatlarda mavjud maydonning tabiiy sharoitlari haqida asosiy ma'lumotlar, xo'jalikning tuproqlari va ularni agronomik tavsiflash,

shuningdek, tuproqning unumdorligini oshirish, sho'rlanishga va eroziyasiga qarshi kurash bo'yicha tavsiyalar tayyorlash zarurligi aniqlandi:

- qishloq xo'jaligi yer turlari bo'yicha kontur, tuproqlar to'g'risida ma'lumot va agrofon kartogrammalar qilish uchun ekinlarning hosildorligi bo'yicha ma'lumotlarni aniqlandi.

Xo'jaliklar bo'yicha o'tkazilgan tuproq tekshiruv ishlari va tuzilgan tuproq kartalari asosida:

- tumanlarning 1:25000 yoki 1:50000 masshtabda tuproq kartasini tuzish va tushuntirish xati nazarda tutildi;

- viloyatlarning 1:100000 masshtabda tuproq kartasi tuzilishi rejalashtirildi.

Respublikamizda ko'p yillar davomida bajarilgan ishlar natijasida orttirilgan tajribani va hozirgi vaqt talabini hisobga olgan holda, tuproq tekshiruv ishlarining tarkibi va ularni bajarish to'g'risida quyidagi qisqa ma'lumot berilmoqda.

Tayyorgarlik ishlari:

- ish joyi va hajmi aniqlanadi hamda bu ishlarni bajarish rejasi ishlab chiqiladi;

- ish bajariladigan tumanlar tuproqlarining gidrogeologiyasi, iqlim va boshqa tabiiy sharoitlarini izohlovchi va o'tgan yillardagi hujjatlar yig'iladi va o'r ganiladi. Reja, kartografiya asoslari tanlab olinadi va o'tgan yillarda qilingan tuproq kartalaridan ko'chirmalar tayyorlanadi;

- tuproqning fizik xossalari o'r ganish bo'yicha guruhlardagi tuproqshunoslar tuproqning tabiiy sharoitlarini aniqlashdan tashqari tekshirilayotgan tumanlarning ayrim tuproqlari fizik xossalari qanday o'r ganilganligini aniqlaydilar;

- shu bilan birgalikda qishloq xo'jaligi ixtisoslashganligini tavsiflovchi agrotexnika, meliorativ tadbirlar va qishloq xo'jaligi ekinlarning hosildorligi haqida ma'lumotlar yig'iladi;

- zaruriy izohlar, anjomlar va hujjatlar tayyorlanadi.

Dala sharoitida tuproq tekshiruv ishlari. Sug'oriladigan maydonlarda tuproq tekshiruv ishlarini bajarishda karta hujjatlariga asos bo'lib, xo'jalikning chegarasi aniq ko'rsatilgan 1:10000

masshtabda yer tuzish rejasi xizmat qiladi, lalmikor yerlar uchun va tog‘li yaylovlar uchun esa 1:25000 nisbatdagi kartalar ishlataladi.

Tuproqni tekshirishdan oldin tekshiriladigan maydonni aylanib, tuproqlarning tarqalish qonuniyati bilan tanishiladi va tuman bo‘yicha sistematik ro‘yxati qayta ko‘rib chiqiladi. Bu ro‘yxatga dala tekshiruv ishlari natijasida aniqlangan o‘zgarishlar kiritiladi. Har bir xo‘jalikdan dalada tuproq tekshiruv ishlari boshlanishi oldidan tuproqshunos xo‘jalik maydonini aylanib, o‘zining tekshiruv ishlari olib borish marshrutlarini, qayerlarda asosiy chuqurlar kovlanishi kerakligini belgilab chiqadi.

Tuproqlarni tekshirish va tuproq kartasi tuzish uchun asosiy chuqurlar, (razrezlar) yarim chuqurliklar va chuqurchalar kovlanadi va yozib boriladi.

Asosiy chuqurlar tuproq morfologiyasini, u paydo bo‘lgan jinslarni chuqur o‘rganish va laboratoriyada kimyoviy, fizikaviy tekshirish hamda boshqa hususiyatlarini bilib olish uchun namunalar olish maqsadida kovlanadi. Tuproqning butun profili va ona jinsi ko‘p qismini ko‘rsatish va ochib berishi uchun kovlangan aossiy chuqur chuqurligi 200 sm. dan kam bo‘lmasligi kerak.

Yarim chuqurlar tuproq qalinligiga qarab 100-150 sm. chuqurlikda kovlanadi. Bu chuqurlar tuproqning ona jinsigacha bo‘lgan borliq profilni ko‘rsatishi kerak. Chuqurchalar tuproq ayrimalari chegaralari va ularning ayrim belgilarini, shuningdek, asosiy chuqur qayerdan kovlanishi kerakligini aniqlash uchun chuqurligi 30-70 sm. qilib kovlanadi.

Kovlanadigan chuqurlar soni tekshirilayotgan maydonning murakkablik toifasiga va tekshiruv nisbatiga bog‘liq bo‘ladi. Murakkablik toifasi va tuproq kartasi tuzishning masshtabiga qarab bir chuqurlik necha gektarga to‘g‘ri kelishi 15-jadvalda ko‘rsatilgan. Kovlanadigan chuqurlarning asosiy, yarim chuqur va chuqurchalar o‘rtasidagi nisbati quyidagicha: topografik hujjatlarda ishlanganda 1:4:5; ayerofotosyomka hujjatlarida ishlanganda esa 1:4:2 nisbatda.

Kam to‘lqinsimon tekisliklarda va pastlik yerkarda, asosan tuproqlarning har xilligi, baland-pastligi sabab bo‘lgan joylarda kovlanadigan chuqurlar soni tekis maydonlardagiga qaraganda ko‘proqni tashkil qilishi kerak, qolgan qismlari esa yerning tuzilish boshlang‘ich ma’lumotida bo‘lishi kerak.

Kovlangan bir chuqurga to‘g‘ri keladigan gektar miqdori

Tuproq o‘lchovining masshtabi	Joylardagi gektar					Kartada santimetr kvadrat				
	Murakkablik toifasi					Kartada sm ²				
	I	II	III	IV	V	I	II	III	IV	V
1:2000	3	2	1,5	1,0	0,5	75	50	37	25	12
1:5000	7	5	4	3	2	24	20	16	12	8
1:10000	25	20	18	15	10	25	20	18	15	10
1:25000	80	65	50	40	25	12,8	10,4	8,0	6,4	4,0
1:50000	150	130	110	80	50	6,0	5,2	4,4	3,2	2,0

Tog‘li sharoitlarda va bo‘linib ketgan tekisliklar tuzilishi ishlaganda kovlangan chuqurlar qiyalikning har xil ekspozisiyasini xarakterlashi lozim. Murakkablik toifasi bo‘yichabir xil tipdagi maydonlarda, ular xo‘jalik faoliyati ta’sirida o‘zgarishga uchragan bo‘lsa, kovlanadigan chuqurlar sonini ko‘paytirish mumkin. Kovlangan chuqurlar kartada (X) belgi va raqamlar bilan, asosiy chuqurlar 3 mm. tomonli kvadrat bilan, yarim chuqur esa uch tomoni pastga qaragan uch burchak bilan ko‘rsatiladi. Tuproq ayirmalari yagona raqamga ega bo‘lishi kerak.

1:5000 va 1:2000 masshtabda tuproq kartasi tuzishda reja asosida maxsus asboblar yordamida har 20-50 mm oraliqda katak chiziladi va kovlanadigan chuqurning o‘rni belgilanadi. Kovlangan chuqurlar yordamida tuproqning morfologiyasi o‘rganiladi. Tuproq qirqmasi tavsifi dala daftariga yozib boriladi. Amaldagi tuproqlar sistematik ro‘yxati bo‘yicha tekshirilayotgan tuproqning diagnostik ko‘rsatmalari asosida dala sharoitidagi nomi aniqlanadi.

Tuproq qirqmasining tavsifi yozib bo‘lingandan so‘ng laboratoriyyada tekshirish uchun uning genetik qatlamlaridan namunalar olinadi. Tuproq qirqmasining tagidan boshlab yuqoriga qarab olinadigan, bu namunalardan har birining og‘irligi 0,5 kg. dan kam bo‘lmasligi kerak.

Agar genetik qatlam quvvati 10 sm. dan oshmasa, namuna qatlaming borliq qavatidan hamda tuproqning yuza qismidan alohida, ya’ni haydaladigan yerlarda haydalma qavatdan va haydov osti qavatidan olinadi.

Sho‘rlangan yerlarda tuz yoki biror boshqa moddalar zaxirasini hisoblash uchun zarur bo‘lgan namunalar genetik qatlamlarning hamma qismidan, qatlam katta bo‘lganda esa undan bir necha namuna olinadi.

Olingan namunalar maxsus xaltachalarga solinib, xaltachalar og'zi iplar bilan bog'lanadi. Har bir namunaqog'ozchagayoziladi va olingan bir necha namunalarni birga to'plab, ularga qirqma raqami yoziladi. Agar namuna o'ta nam bo'lsa, maxsus qog'ozga yoki polietilen plyonkaga o'rav qo'yiladi.

Tekshirish uchun olingan suvlar shisha idishlarga solinib, idish mahkam berkitiladi. Idishga yopishtirilgan qog'ozchaga suv namunasining raqami yoziladi.

Tuproq namunalari, tuproq paydo qiluvchi jinslar va yer osti suvlari, tuproq qirqmalarining tavsiflanishi yozilayotgan paytda dala daftari ro'yxatiga olinadi. Tuproq namunalari olinib bo'lingandan so'ng kovlangan chuqur ko'mib tashlanadi. Ko'milgan chuqurlik ustiga tuproqning gumusli qavati, albatta, qayta solinishi kerak.

Tuproq qirqmalarining tuzilishi, o'simliklar va landshaft elementlarining boshqa ko'rinishlari aerosuratlarini deshifrovka qilish ma'lumotlarida xo'jalik faoliyatining tuproq konturlariga tushiriladi. Ya'ni, u yoki bu xildagi tuproqlarning tarqalish maydoni ko'rsatiladi.

Uzoq yillar davomida qayta ishslash, sug'orish, botqoq yerlarning suvini qochirish, sho'rsizlantirish ishlari bilan bog'liq holda o'zgarishga uchragan tuproqlar alohida konturlarga ajratiladi.

Yirik nisbatda tuproq kartalari tayyorlashning asosiy vazifasi joylardagi suv va shamol eroziyasiga uchragan tuproqlarni aniqlab, ularni kartogrammaga tushirishdir.

Kartada ajratilgan tuproq ayirmalari konturlari katta-kichikligiga qarab, bir necha tuproq qirqmalarini bilan asoslanishi kerak. Har kuni daladan qaytilgandan so'ng tuproq ayirimlari chegaralari tush bilan chizib chiqiladi.

Tugatish (kameral) ishlari:

- dala sharoitida olingan yer osti suvlari va tuproq namunalari kimyoviy va boshqa laboratoriya tekshiruvlaridan o'tkaziladi;
- analitik tekshiruv ma'lumotlari asosida tuproq tekshiruv hujjatlari qayta ishlanadi, solishtirib ko'rilib umumlashtiriladi;
- fermer va davlat xo'jaliklarining yakuniy tuproq kartasi tuziladi;
- tuproq kartasiga tushuntirish xati yoziladi.

Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi «Nazarbek» fermer xo‘jaligining tuproq kartasi va tuproqlarining gektarlar bo‘yicha ma’lumoti (eksplikatsiyasi) qayd etilgan tartibda bajarilgan.

Qishloq xo‘jaligidagi har bir yer uchastkasiga egalik qiluvchi (yerdan foydalanuvchi) xo‘jaliklar bo‘yicha o‘rnatilgan tartibdagи tuproq kartalari asosida, tumanlar, viloyatlar va respublika bo‘yicha tuproq kartalari ishlab chiqiladi.

Bu kartalar qishloq xo‘jalik ishlarini olib borishda katta ahamiyatga ega. Chunki tuproq turlariga qarab ekinlar joylashtiriladi.

3-§. Davlat yer kadastrining tarkibiy qismi va ahamiyati

1. Yer kadastrining tarkibiy qismi

Yer kadastrining tarkibiy qisimlari quyidagilardan iborat:

- yerga egalik qilish va yerdan foydalanishga bo‘lgan huquqni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi;
- yer maydoni hisoboti;
- yerning sifatini aniqlash;
- tuproq bonitirovkasi;
- yerlarni iqtisodiy baholash.

Yer kadastro ma’lumotlari turli xil xalq xo‘jaligi masalalarini hal qilish rejasini tuzishda o‘ta muhim ahamiyatga ega. Xususan, ulardan davlat yer fondi tarkibi va holatini tahlil qilish va baholash, yer manbalaridan barcha turlari va xalq xo‘jaligining tarmoqlari bo‘yicha unumli foydalanishni, tuproq unumdorligini saqlash va tiklash va ularni muhofaza qilish, yer munosibatlarini qonun asosida tartibga solish, yer uchastkalariga oid huquqlarni ro‘yxatga olish va kafolatlashni ta’minklash uchun yer solig‘ini, kredit-garov tizimini, yer narxini belgilash ishlarini, yer loyihibalarini tuzishni, yerlarni olib qo‘yish, ajratib berish hollarida ko‘riladigan zararni qoplash ishlarini, qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi korxonalarining xo‘jalik faoliyatlarini baholashni rivojlantirish uchun foydalaniladi.

Oliy Majlisning XII sessiyasi qabul qilgan «Davlat yer kadastro to‘g‘risida»gi Qonun, «Yer kodeksi» va boshqa Qonunlar bilan birga yer qonunchiligining yaxlit tizimini tashkil qiladi.

Yangi qonunda agrar munosibatlarda hozirgi kunda kuzatilayotgan chuqur izlanishlar o‘z aksini topgan. Unda yer kadastrini yuritishni amalga oshiruvchi muassasalar faoliyatları yer uchastkalariga oid hujjatlarni davlat ro‘yxatiga olish, baholash masalalarida zamon talablariga javob bera oladigan bo‘lmog‘i lozimligi qat’iy belgilab qo‘yilgan. Yer solig‘ini to‘g‘ri hisoblash, yerning me’oriy narxini aniqlash, yer bilan bog‘liq sarmoya faoliyati va garov munosibatlari singari holatlar bilan bog‘liq yuridik jihatlar qonunda batafsil aks etgan. Bu esa yer kadastridagi barcha sohalarni tartibga solishda muhim ahamiyatga ega. Qonun talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishning har qanday vositalaridan to‘g‘ri va samarali foydalanish ko‘p jihatdan uning eng muhim xususiyatlari qanchalik chuqur va har tomonlama o‘rganilganiga bog‘liq. Bu, eng avvalo, yerga tegishli bo‘lib, undan oqilona foydalanish, umuman, sug‘oriladigan dehqonchilik mintaqalarida esa, ayniqla, uning xususiyatlarini chuqur o‘rganish, ilmiy asosdagi tadbirlar majmuuni ishlab chiqishga izchillik bilan yondashish va amalda to‘plangan tajribaga rioya qilgan holda tashkil etilishi mumkin.

Vujudga kelgan vaziyatda yer kadastrining ahamiyati qayta tiklanishi va u hududni to‘g‘ri tashkil etish asosida ishlab chiqarishning zaruriy talabi sifatida amalga oshirilishi kerak.

Yerni har tomonlama yaxshilash, uning unumdarligini va iqtisodiy samaradorligini har tomonlama oshirib borish – bu zomon talabidir, qishloq xujaligi ishlab chiqarishini yuritishning ilmiy tizimi asoslari va yerdan yuqori mahsuldarlik bilan foydalanishdir. Yerdan to‘g‘ri foydalanish, respublikada har xil o‘simplik turlarining ilmiy asoslangan ketma-ketligi, tuproqqa ekologik «toza» ishlov berish usullari, o‘g‘itlash, qulay agrotexnika muddatlaridan muayyan texnologik tartibda foydalanish, o‘simpliklarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish, tuproq eroziyasiga qarshi kurash kabi muayyan elementlar aniq qonunchilik yo‘li bilan boshqarishni talab qiladi.

Shu sababli, yer kadastrini sohasiga quyidagi talablar qo‘yilgan:

- respublika maydonini to‘la qamrab olish;
- markazlashtirilgan tartibda boshqarish;
- ma’lumotlarni bir xil tartibda to‘plash va umumlashtirish;

- zomonaviy muvofiqlashtirishning yagona tizimini qo'llash;
- yer kadastro kartalari uchun bir xil tizimdagi umumiy topografik asosini qo'llash;
- barcha davlat kadastrlari tizimini «Davlat yer kadastro» bilan uzviy bog'langan holda tuzish;
- yer kadastriga doir axborotlar to'g'ri, aniq, tezkor va hujjalarga asoslangan bo'lishini ta'minlash;
- ma'lumotlarni doimo to'ldirib, yangilab borish.

Ammo bu sohada oldingi yillarda respublikada yetarli darajada ish olib borilgan emas. Bu yo'nalishda ish yuritish, 1946-yillardan boshlab respublika yer fondini o'rganish uch yo'nalishda: yerni turlari bo'yicha hisobga olish va taqsimlash; barcha yerdan foydalanuvchilarni davlat ro'yxatidan o'tkazish; yerdan to'g'ri foydalanishni nazorat qilishga asoslangan holda olib borilgan, xolos. Natijada, yerga egalik qilish va undan foydalanish, o'zaro raqobat muhiti bo'limgan joyda «kadastro» tushunchasi asl ma'nosini yo'qotgan. Shuning uchun davlat mulki hukmron zamonlarda yer soliqlari, kredit-garov tizimi, yerlarni baholashga amal qilinmasdan, buning ustiga O'zbekistonning o'ziga xos qulay iqlim sharoitlari yetarli darajada inobatga olinmagan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, ona tuproqni asrab-avaylash, uning holatini yaxshilash, mo'l-ko'l, rizq-ro'z manbaiga aylantirishning chinakam qonuniy asoslari yaratila boshlandi. Ayniqsa, bir vaqtlar ajodolarimiz tajribasida qo'llangan tadbir - egasini, holatini aniqlab beruvchi hujjat yuritishning yo'lga qo'yilishi katta yutiqlarga erishish imkonini yaratdi. Bu, 1998-yilda «Davlat yer kadastro» Qonuni va yer munosibatlariga aloqador sohalar bo'yicha yangi boshqa qonunlar qabul qilish, ba'zi qonunlarning ayrim moddalariga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali belgilab qo'yilgan. Qonunlarga asoslangan holda O'zbekiston Respublikasida 21 ta davlat kadastrlari yuritilishi rejalashtirilgan:

1. Davlat yer kadastro.
2. Davlat suv kadastro.
3. Davlat o'rmon kadastro.
4. Davlat shaharsozlik kadastro.
5. Foydali qazilma konlari, belgilari texnogen xossalari davlat kadastro.

6. O'simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastro.
7. Hayvonot dunyosi davlat kadastro.
8. Alovida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastro.
9. Binolar va inshootlar davlat kadastro.
10. Gidrotexnika inshootlari davlat kadastro.
11. Tarixiy va madaniy yodgorliklar davlat kadastro.
12. Avtomobil yo'llari davlat kadastro.
13. Temir yo'llari davlat kadastro.
14. Aloqa obyektlari davlat kadastro.
15. Enyergetika obyektlari davlat kadastro.
16. Ishlab chiqarish va ist'emol chiqindilarini ko'mib tashlash va utillashtirish joylari davlat kadastro.
17. Tabiiy xavfi yuqori bo'lgan chegaralar davlat kadastro.
18. Texnogen xavfi yuqori bo'lgan chegaralar davlat kadastro.
19. Kartografiya – geodeziya davlat kadastro.
20. Hududlar davlat kadastro.
21. Transport truboprovodlari davlat kadastro.

Bu davlat kadastrlarining barchasi bir-biriga o'zaro bog'liq bo'lib, respublika bo'yicha ularning yagona tizimini ishlab chiqish va amalgam shirish o'ta zarur. Ammo bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni yetarli darajada, deb bo'lmaydi. Xo'jaliklar bo'yicha yirik mashtabda yaratilgan kartalar va boshqa ma'lumotlar 5-10 yillab to'liq yangilanmaganligi sababli ancha eskirib, haqiqatga to'g'ri kelmay qolgan. Yer kadastro yuritishning amaldagi uslublari va texnologiyasi zamon talablariga to'liq javob bermaydi va shu sababli, ularning me'yoriy negizini tubdan qayta ishlab chiqish talab qilinadi. Yer kadastrining amaldagi uslublari yerdan foydalanish sohasidagi bozor munosibatlarini nazarda tutuvchi zamonaviy ilmiy tekshirishlar asosida qayta ishlab chiqilishi lozim. Bu sohada kadrlar tayyorlash, ayniqsa, ularning malakasini oshirish yetarli darajada emas.

Yer kadastrini yuritish sohasidagi asosiy kamchiliklar quyidagilardan iborat:

- yer kadastro uslubiyotining ilmiy asoslarini, shu jumladan, texnologiyalar negizida ishlab chiqarish zaruriyati;

- barcha yer maydonlarini kartalashtirish (aero tasvirlar yo'li bilan) uchun maxsus uskunalarini va kompyutyerlar yetarli bo'lmaganligi;

- yer kadastrovi va boshqa davlat kadastrlari uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun ixtisoslashgan mahsus o'quv yurtining va o'quv adabiyotlarining yo'qligi.

Shu sababli, yer kadastrovi yuritish texnologiyalari sohasi tubdan ko'rib chiqilishi lozim. Bu vazifani bajarish yangi tashkil qilingan Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrovi bo'yicha qo'mitasi vakolatiga berilgan. Endilikda yer resurslarimizdan unumli foydalanishga tegishli darajada asos solinadi va bu, eng asosiy milliy boyligimiz xalqimizga abadiy xizmat qilishini ta'minlaydi, degan umiddamiz.

2. Yer kadastrining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish yerdan to'g'ri va samarali foydalanish bilan bevosita bog'liqdir. U, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini yuritishning ilmiy va amali tartibini taqozo etadi.

Yer – asosiy boyligimiz, beba ho xazinamizdir. Yerni qancha ardoqlasak, o'g'itga to'ydiksak, vaqtida suv bersak, u shu qadar mo'l hosil beradi. Aksincha, uquvsizlik, xo'jasizlik, ayovsiz munosaibatda bo'lganlik uchun shafqatsiz jazolaydi.

Ko'p yillik dehqonchilik tajribasi yerni aldab bo'lmashidan dalolat bermoqda. Yerni aldamoqchi bo'lganlar, avvalo, o'zlarini aldaydilar.

Yerni aldab bo'lmaydi, degan o'z yerga egalik qiluvchi va foydalanuvchi barcha xo'jaliklarda qattiq tartib o'rnatib, haydalib, ekin ekiladigan har bir gektar maydondan, yaylov, mevali daraxtlar ekilgan yerlardan to'g'ri, foydalanishni ta'minlash va buning natijasida yuqori va sifatli mahsulot yetishtirishga erishish, demakdir. Buning uchun, almashlab ekishni joriy qilish, ekin turlarini joylashtirishda yer kadastrovi ma'lumotiga (tuproqni tarkibiga, maydonning tekisligiga, yer osti suvining joylashishiga, yerning sho'rلانish miqdoriga, eroziya ta'siriga) asoslanilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu talabga rioxalma qilinmasligi natijasida har yili ko‘p hosil yo‘qotilmoqda. Ma’lumki, dehqonni yer boqadi va albatta, mehnat qiladigan dehqon uchun yerning holati, tuproqning sifati, yerning past-balandligi, chegaralari va yer uchastkasining huquqiy targ‘iboti, uning bahosini bilish o‘ta zatur.

Yer kadastrini dehqonga ekin maydonlarining miqdori va ularning joylashgan joyi, moddiy xarajatlarni, mahsulot ishlab chiqarish hajmini, uning tannarxonini, daromadini, agrotexnikasini tanlashni, o‘g‘itlash tizimini aniqlab beradi va bu ma’lumotlar ekin maydonlarini joylashtirishda asos bo‘ladi. Tuproq bonitetini aniqlash yer uchastkasiga solinadigan soliq miqdorini, shuningdek, uni iqtisodiy jihatdan baholash imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov Oliy Majlisning 2003-yil o‘n uchinchi sessiyasida qilgan ma’ruzasida «Biz yana bir haqiqatni hech qachon unitmasligimiz kerak: qishloq xo‘jaligining unimdonligi, uning samarasini, oladigan daromad va foydasi nafaqat qishloqda mehnat qilayotgan odamlarni ta’minlaydi, balki, barchamiz yaxshi tushinamiz, bu sohaning ta’siri butun iqtisodiyotimizda seziladi va kerak bo‘lsa, shu sohaga aloqador bo‘lgan barcha-barcha tarmoqlarni ish bilan ta’minlaydi. Bu esa oxir -oqibatda butun iqtisodiyotimizning o‘sish suratlarini belgilaydi», – dedi (1).

Shuni nazarda tutish kerakki, yer kadastrini umumiy davlat hujjati bo‘lib, xalq xo‘jaligini yer to‘g‘risidagi kerakli axborot bilan to‘liq ta’minalashi lozim.

Bu talablardan kelib chiqqan holda xozirgi vaqtida yer kadastrini hujjatlari yordamida quyidagi masalalarni hal qilish nazarda tutilgan:

- aniq tuproq-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini rejelashtirish va ekin maydonlarini yer kadastrini ma’lumotlari tushirilgan karta asosida joylashtirish;
- qishloq xo‘jaligi ekinlarining hosildorligini va yalpi hosilni viloyat, tuman va xo‘jaliklar bo‘yicha rejelashtirish;
- tuproq sifatini hisobga olgan holda yer solig‘i va ijara haqi miqdorlarini belgilash;
- qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining davlat xarid narxlarini yanada takomillashtirish;
- yer turlarini iqtisodiy baholashni va ular qishloq xo‘jaligi ishlab

chiqarishi bilan bog‘liq bo‘lмаган түрли қарыншаларга ажратилишини асослаш;

- yer resurslaridagi salbiy jarayonlarni aniqlash va ularni mumkin qadar kamaytirish va boshqalar.

Yer kadastro ma’lumotidan yerdan unumli foydalanish va uni muhofaza qilishga asoslangan holda, barcha qishloq xo‘jalik ekinlarini joylashtirishda, ekinlarni turlarga bo‘lishda, melioratsiyasida, shuningdek, yer resurslari munosabatlariga bog‘liq bo‘lgan boshqa tadbirlarda foydalanishi zarur.

Yerning iqtisodiy yoki foydali unumdoorligi faqat tuproqning tabiiy sifatiga qarabgina emas, balki inson ishtirokida erishilgan xususiyati bilan ham belgilanadi. Bu unumdoorlik umumiyo ko‘rinishda o‘simplikning o‘sishi va rivojlanishi ko‘rinishida qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi darajasi bilan aniqlanadi. Shuning uchun iqtisodiy unumdoorlik faqat tuproq unumdoorligi bilangina emas, balki murakkab iqlim, texnika va ishlab chiqarishdagi boshqa umumiy iqtisodiy jarayonlar orqali belgilanishi zarur.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi ekinlari faqat yer kadastro hujjatlari asosida har bir xo‘jalik maydonlarida emas, balki ularning konturlari bo‘yicha joylashtirilishi maqsadga muvofiqdir. Bu ekin turlarini qishloq xo‘jaligi korxonalarini bo‘yicha konkret yer sharoitiga qarab joylashtirishga imkon beradi.

Qo‘ylgan bu talabga erishish uchun qishloq xo‘jaligi korxonalariga beriladigan tuproq tekshirish natijalarida yerning tuproq qiymati va agrotexnika tavsiyanomalari, yaylov va pichanzorlarni geobotanik tekshirishlarda yayloving ozuqabopligi (ozuqa turlari), undan imkon boricha keng foydalanish muddatlari (chunki yayloving ozuqaboplik muddatlari faqat flora bilan belgilanmaydi), shuningdek, pichanzorlarning hosildorligi va sifati haqidagi ma’lumotlari aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi zarur.

Doimiy yerdan foydalanuvchilarga (yer egalariga) ular uchun ajratilgan yer maydonlari bilan aloqador kartografik ma’lumotlar, tuproq, iqlim, geobotanik, agrokimyoviy, meliorativ holati va boshqalar haqidagi ma’lumotlar tayyorlanishi kerak. Qishloq xo‘jaligi korxonalarining kundalik va kelajak rejalarini ishlab chiqarishishda qo‘llash uchun faqat yer to‘g‘risidagi to‘la va aniq ma’lumotlar bo‘yicha turli loyihamiz tuzish mumkin.

Yer to‘g‘risidagi sifatli ma’lumotlarni quyidagilarga ajratish mumkin: davlat ehtiyojlari uchun (soliq, umumiylar); yerdan foydalanuvchilar uchun (yer egalari) - xo‘jalik yuritish uchun barcha yer maydonlari haqida xolis va har tomonlama aniq ma’lumot, hozirgi va uzoq muddatga mo‘ljallangan tadbirlar bilan ta’minlash. Shuning uchun egalik qilish va foydalanishga berilgan yerlar holati va qiymati to‘g‘risidagi ma’lumotlar to‘la bo‘lishi ulardan ishlab chiqarishda oqilona foydalanish imkoniyatini ta’minlaydi. Bunga tuproq, agroqlimiy, geobotanik, meliorativ tekshirish va syomka qilish natijasida erishiladi.

Shundan kelib chiqib, yer solig‘i olish maqsadida yer baholash darajalari bo‘yicha yuritilishi, yerdan foydalanuvchilar, yerga egalik qiluvchilar (yer egalari) o‘z ehtiyojlari uchun butun tuproq va geobotanik karta materiallari, yerdan foydalanish rejalar, agrokimyoviy va tuproq-meliorativ baholash materiallari va hokazolarning to‘liq to‘plamidan foydalanishlari zarur.

Yer masalalarini tadqiq qila borib, O‘zbekistonning jami yer fondidan oqilona va samarali foydalanish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan muammolarni hal qilish, respublika yer resurslariga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish tadbirlarini ishlab chiqish zaruratini hisobga olgan holda tabiatni, tabiiy-tarixiy va iqtisodiy shart-sharoitlari, yerni qayta tiklashning ahvoli va rivojlanishini to‘liq yoritish kerak, deb hisoblaymiz.

Tuproq unumdotligi doim bir darajada bo‘lmaydi: u qishloq xo‘jaligi ekinlariga ishlov berishni yaxshilash va ularni to‘g‘ri parvarish qilish natijasida ortishi yoki aksincha, dehqonchilik oqilona olib borilmasa, pasayishi mumkin.

Ishlab chiqarishning alohida vositasi bo‘lgan yer ishlab chiqarishdagi boshqa vositalardan keskin farq qiladigan bir qator maxsus xossalarga ega. Asosiy farqlar quyidagilar bilan belgilanadi:

1. Demak, yer ayni vaqtida jamiyat taraqqiyotida erishgan ishlab chiqarish darajasi jarayonida faoliyat ko‘rsatsa, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish vositasi bo‘ladi. Agar insoniyat rivojlanishining muayyan bosqichida hozirgi, «yaroqsiz yerlar»dan yanada unumliroq foydalanishni o‘rganmagan bo‘lsa, bu hali bunday yerlar qishloq xo‘jaligida mutlaqo keraksiz, degani emas.

2. Insoniyat o‘z taraqqiyotida yerni ishlab chiqarish xossalarini oshirib, umumiy mehnat sharoitidan yanada ko‘proq qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish vositasiga aylantiradi.

3. Dehqonchilik uchun yaroqsiz yerlar haqidagi tushuncha tezdan o‘zgarishi mumkin. Chunki «yaroqsiz yerlar» shartli tushuncha bo‘lib, texnikaning muayyan taraqqiyoti, ishlab chiqarish kuchlarining va ishlab chiqarish munosabatlарining muayyan darajasiga, ishlab chiqarishning mazkur usuliga mos keladi.

Shunday qilib, tuproqni iqtisodiy unumdorlik darajasiga bog‘liq holda, sug‘oriladigan dehqonchilik to‘la tartibga solanadigan sharoitda deyarli to‘liq boshqarish mumkin bo‘ladi. Bunday boshqaruv vazifasini, odatda, gidrotexnika qurilmalarining murakkab majmui bo‘lgan muayyan irrigatsiya tizimi bajaradi. Bunday tizim ko‘p joylarda, masalan, Qarshi, Jizzax va Mirzacho‘lning yangi o‘zlashtirilagan joylarida barpo qilingan. Mazkur tizim vositasida ishlab chiqarish jarayoni ta‘minlanadi.

V.V. Dokuchayev: «Tuproq, iqlim bilan birga mazkur joyda deyarli barcha qishloq xo‘jalik va iqtisodiy hayot yotadi. Tuproqni bilmasdan iqtisodiy ma‘lumotlarni ham tushunish mumkin emas», degan edi.

«Yer» tushunchasi, undan foydalanish tabiatini va natijalariga har xil ta‘sir ko‘rsatadigan umumiy, ko‘p xossalar birikmasi bo‘lgan yig‘ma tushunchadir. Tushunchaning asoslarini tuproq, tabiiy o‘simliklar, relyef va gidrografiysi, gidrologik sharoit va boshqalar tashkil etadi. Shu tufayli yerni ishlab chiqarish vositasi sifatida har xil elementlar yig‘indisi sifatida baholash kerak emas: uning har bir xossasi mustaqil, har tomonlama ko‘rib chiqish va o‘rganishni talab qiladi.

Yerning har xil sifat xususiyatlari hudud kengligi bilan chambarchas bog‘langan. Kenglikning o‘zi madaniy, tabiiy holda o‘sadigan ekinlar hosili shakllanishida bevosita qatnashmaydi, biroq u tuproqning mahsuldarlik xossalaridan foydalanishning zarur sharti bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi joylashuvining asosidir. Yer kenglik xususiyatiga ko‘ra, chiqarish vositasi sifatida (relyef, yer uchastkalari o‘lchami, yer konturi va massivlarining konfiguratsiyasi) tuproq unumdorligi shakllanishida va dehqonchilikda iqtisodiy natijalariga erishishda katta vazifani bajaradi. Relyef tuproq xillari joylashuvi tabiatiga, tabiiy o‘simliklar joylashuviga, suv-havo

rejimiga, tuproqning mexanik tarkibiga, qiyaliklar ekspozisiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Relyef shuningdek, ishlov berilayotgan uchastka o'lchami va konfiguratsiyasi, tuproqning enyergiya sig'imi, ma'lum darajada yerga ishlov berish texnologiyasi va mehnat unumdorligida tarkib topgan barcha ishlab chiqarish potensialidan samarali foydalanishga ham ta'sir etadi. Shuning uchun texnologik xossalari yerning ham tabiiy, ham iqtisodiy unumdorligini belgilovchi muhim komponentlardan biri sifatida ko'rindi.

Qishloq xo'jalik yer-mulklarining o'ziga xos, alohida e'tiborga molik xususiyati – potensial unumdorlikni amalda hosildorlikka aylantirish imkoniyati faqat madaniy yoki tabiiy o'simliklarning muayyan turlari joylashgan muhitda amalga oshiriladi. Bunday xususiyat mashhur biologik «minimum qonunida» o'z ifodasini topgan. Unga muvofiq, yerning unumdorligi minimum holatda o'simlikning yashash omiliga bog'liq bo'ladi.

Aftidan, yashash muhitini tashkil etuvchi omillarning oqilona moslashuvi haqidagi hamma ma'lumot, shak-shubhasiz, qishloq xo'jalik mehnatining yuqori samaradorligini ta'minlaydi, yer-mulkarni yaxshilash uchun qo'shimcha sarf-xarajatlar o'zini oqlaydi. Ko'plab meliorativ holatlarining muvaffaqiyatsizligi shu bilan izohlanadiki, ularning ta'sir ko'rsatish mavzui yashash muhitiga to'liq bo'lmagan elementlar yig'indisi bilan cheklanadi va mo'ljaldagi natijaga, odatdagidek, erishilmaydi. Va aksincha, o'simlik hayotining barcha omillarini kompleks yaxshilash – tuproq qatlami, suv-havo va issiqlik rejimi, ishlov berilayotgan qatlamning texnologik holati va hokazolar qishloq xo'jaligi yer-mulkari iqtisodiy unumdorligi darajasini sezilarli o'zgartiradi. Shunday ekan, tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha maqsadli dasturlar, avvalo, ularni amalga oshirish oqibati natijasini oldindan belgilaydigan muammolarning barcha turlariga taalluqlidir.

Nazorat savollari

1. Yer kadastro hujjatini qishloq xo'jaligidagi ahamiyati nimalardan iborat?
2. Yer kadastro hujjatlari asosida qanday masalalarni hal qilish mumkin?
3. Yer kadastro ishini bajarishda qanday ma'lumotlardan foydalilanadi va qanday ishlar bajariladi?

4. Yangi shirkat, dehqon, fermer xo'jaliklarini tuzishda yer kadastro hujjatlaridan qaysi tartibda foydalaniladi?

5. Yer resurslaridan oqilona va unumli foydalanishda yer kadastrining ahamiyati nimalardan iborat?

6. Yangi yerlarni o'zlashtirishda, eskitdan foydalaniib kelinayotgan yerlarni holatini yaxshilashda yer kadastrining ahamiyati nimalardan iborat?

Mustaqil ish

Har bir malaka alohida xo'jalik misolida qishloq xo'jalik ekinlarini ekish rejasiga asosida yer kadastro ma'lumotlaridan to'liq foydalangan holda kartada ekinlarni turlari bo'yicha joylashtirib chiqadi.

Buning uchun xo'jalikni yer maydonini quyi turlar bo'yicha aniqlab, qaydnomasi tuziladi, yerlarni ball bonitetiga, relefiga, eroziyaga uchraganligiga, sho'rланishiga va boshqa ekinlarning hosildorligiga ta'sir qiluvchi jarayonlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi va yozma ravishda tushintirish hamda taklif byeradi.

3. Yer kadastrining tabiiy boyliklarni muhofaza qilishdagи ahamiyati

Bosh Qonunimiz – Konstitutsianing 55-moddasida yer, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy zaxiralar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va u davlat muhofazasidadir, deb belgilangan, u yerga oid munosabatlarning huquqiy poydevorini mustahkamlaydi. Ammo 1970-1980-yillardagi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida paxta yakkahokimligi Orol bo'yи hududlarida ekologik muhit yomonlashishiga asosiy sabab bo'ldi. Ba'zi hollarda sug'orib bo'lmaydigan va sifati past tuproqlardan iborat bo'lgan katta maydonlardan yangi yer o'zlashtirilishi, respublika qishloq xo'jaligi faqat xom ashyo yetishtirish uchun ko'plab mablag' sarflashga sabab bo'ladi: paxta yakka hokimligi avj oldi. Bu mineral o'g'itlar ko'p sarflanishi, gerbitsidlardan keng miqyosda foydalanishiga olib keldi. Oqibatda, xo'jaliklar sust rivojlandi, qishloq xo'jaligi yerlarining

degradatsiyasi (kambag‘allashuvi) kuchaydi, Orol bo‘yi mintaqasi va boshqa hududlarda sharoit og‘irlashdi. G‘o‘za, don va oziqa ekinlarining 25–30 foizi tuproq va iqlim sharoitlari noqulay maydonlarga joylashtirilishi natijasida ulardan o‘ta past hosil olinmoqda. Yerning sho‘rlanishi tuproq unumdorligini keskin kamaytirib yubormoqda. Tuproq sho‘rlanishining oldini olish uchun agrotexnika qoidalariga amal qilish, irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarini muntazam o‘tkazish talab etiladi. Umuman, sug‘oriladigan yerlarning 60 foizidan ko‘p qismi u yoki bu darajada sho‘rlangan. Muammoning ko‘lami turli mintaqa va viloyatlarda turlicha. Amudaryo va Sirdaryoning yuqori havzalarida yerning 10 foizi sho‘rlangan bo‘lsa, quyi havzalarida bu ko‘rsatkich 80-90 foizni tashkil etadi. Buxoro, Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida sho‘rlanish ancha keng tarqalgan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish harakati rejasini amalga oshirish davomida olingan ma’lumotlariga ko‘ra, bu viloyatlarda yerlarning 40-50 foizi, O‘zbekiston bo‘yicha esa qariyb 200 ming hektari yuqori darajada sho‘rlangan. Bunga, asosan sobiq ittifoq davrida yerni ommaviy ravishda o‘zlashtirish, yer melioratsiyasiga etarli e’tibor berilmaganligi sabab bo‘ldi.

Milliy boyligimiz yerdan samarali foydalanish – davr talabi. Yer unumdorligini oshirishning muhim omillaridan biri-tuproq eroziyasining oldini olish.

O‘zbekistonda eroziyaga qarshi chora ko‘rish juda katta ahamiyatga ega, chunki hozirgi vaqtida respublika bo‘yicha 24,9 ming hektar qishloq xo‘jalik yeri eroziyaga uchragan, shundan sug‘oriladigan yerlarda 600 ming hektar, 1800 ming hektari suv va shamol eroziyasiga uchragan. Buning oldini olish bo‘yicha o‘z vaqtida yetarli chora-tadbirlar ko‘rilmaganligi sababli qishloq xo‘jaligi katta zarar ko‘rmoqda. Masalan, suv eroziyasi natijasida turli jarayonlar sodir bo‘lishi sababli doimiy ekin ekish rejasidan tushib qolgan yer maydoni oxirgi 10 yil ichida 6 ming hektardan oshdi. Shamol eroziyasi natijasida yiliga hektaridan 3–5 sentnerdan hosil yo‘qotilmoqda.

Tuproq eroziyاسining sodir bo‘lishiga yerdan noto‘g‘ri foydalanish, eroziyaga qarshi yetarli darajada ish olib borilmaganligi sabab bo‘lmoqda. Yerlarning sho‘rlanishi, eroziyaga uchrashi, yer kadastri orqali ularning sodir bo‘lish sabablari, sho‘rlanish va eroziyaga qarshi olib borilayotgan

ish hajmi har tomonlama o'rganilib, kartogramma va kartalarda aniq ko'rsatilishi va ularni bartaraf etish choralar reja asosida amalga oshirilishi lozim.

Yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, eroziyaga qarshi chora ko'rish bilan birga ularning turli qurilishlar jarayonida ishdan chiqib, yaroqsiz bo'lib qolgan qismini tiklash, rekultivatsiya qilish va tashqi muhitni muhofazalashda juda katta ahamiyatga ega. Sababi shundaki, tuproq qidiruv, geologiya-razvedka, yer osti boyliklarini qazib olish, tuproq karyerlari, yo'l, kanal, gazoprovod elektr o'tkazuvchilar qurilishiga o'rnatilgan tartibda vaqtincha foydalanish uchun ajratib berilgan yerlar ko'p yillar davomida tashlandiq holga kelib, tashqi muhitni buzadi. Vaholanki, bunday yerlar qonun bo'yicha qurilish bitgandan so'ng bir oy ichida tiklanib (rekultivatsiya qilinib), oldingi holatiga keltirilgan holda egasiga topshirilishi kerak. Shu bois yer kadastri ishlari davomida bunday yerlarning miqdori, joylashgan joyi, tiklash uchun zarur bo'lgan hajmi kartografik hujjatlarda ko'rsatilib, ular bo'yicha yozma ravishda tegishli takliflar berilishi lozim.

Bunday xo'jasizlik qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari kamayib, unumdonligi pasayib ketishiga va tashqi muhit yomonlashishiga olib kelmoqda.

Yer resurslari muhofazasini ta'minlash uchun yer kadastri hujjatlari asosida, yerlardan faqat belgilangan maqsadlarda foydalanish, tabiatni muhofaza qilishga oid talabalarni o'z vaqtida bajarish, yerni o'zboshimchalik bilan egallab olishga va ishlab chiqarish chiqindilari, oqava suvlari bilan ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik, yerlarning holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan obyektlarni joylashtirmaslik talab etiladi.

Nazorat savollari

1. Yer resurslaridan oqilona foydalanishda tashqi muhitni ta'siri nimalardan iborat?
2. Yer resurslaridan unumli foydalanish uchun ekologik jihatdan qanday ishlar bajarilishi lozim?
3. Tuproq eroziyasi, sho'rlanishi deganda nimalarni tushinasiz va ularni tashqi muhitga ta'siri nimalardan iborat?

4. Davlat yer kadastrini yuritish tartibi

«Kadastr» lotincha so‘z bo‘lib, «Soliqqa tortiladigan ashyolar ro‘yxati» ma’nosini anglatadi. Dastlab kadastr yer solig‘i manbaiga doir kitob (reestr) sifatida tushunilgan. Keyinchalik u davlatning hisobga olish-baholash tadbirlari tuzumini ifodalaydigan bo‘ldi.

Har bir mamlakatda kadastr rivoji o‘z sharoitlari va ananalariga asoslanadi, shuning uchun jahonda aynan bir hil kadastr tuzumini topish mumkin emas.

Hozirgi kunda yer kadastrining tabiiy ahvoli, xo‘jalik va huquqiy holati to‘g‘risidagi mutassil yangilanib turuvchi ishonchli ma’lumotlar tizimi hisoblanadi.

Davlat yer kadastrini yuritish quyidagi ishlar natijasida ta’milnadi:

- aerokosmik, agrokimyo, topografiya – geodeziya, kartografiya, tuproqshunoslik, geobotanikalarga va boshqa izlanishlar, tadqiqotlar o‘tkazish, yerlarni miqdor va sifat jihatidan hisobga olish va baholash, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarini davlat ro‘yxatiga olish;

- yer maydonlarining miqdori va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi hisobotni tuzish;

- joriy tadqiqotlar, fazodan turib suratga olishlar hamda yer monitoringi hujjatlaridan foydalangan holda yer kadastro ahborotlariga oid ma’lumotlar majmuuni yaratish va tartibga solib turish.

Bu tadbirlarni amalga oshirish asosan yerlarning tuproq-iqlim sharoitlari, meliorativ holati, tuproq unumdarligini, yer, suv resurslaridan foydalanish darajasi to‘g‘ri aniqlanishiga bog‘liq.

Yer kadastro tashkilotlar, muassasalar va korxonalar hamda shaxslar foydalanayotgan yer uchastkalari va ularning sifati to‘g‘risidagi ma’lumotlar asosida yer solig‘i miqdorini belgilash talablariga to‘la javob beradigan aniq ma’lumotlardan iborat bo‘lishi zarur.

Shuning uchun hozirgi olib borilayotgan yer kadastro ma’lumotlariga quyidagi qo‘srimchalarni kiritilishi, maqsadga muvofiq:

- sug‘oriladigan va lalmi yerlarni ball bonitetlariga va tuproq turlariga ko‘ra, taqsimlash, yaylov yerlarini esa, zonalarga, yaylov turlariga va hosildorligiga qarab taqsimlash. Bu tartib yer uchastkalaridan foydalanganlik bo‘yicha yer solig‘i miqdorini to‘g‘ri belgilash imkoniyatini beradi;

- yerning sifatini aniqlash asosida birinchi o'rinda qishloq xo'jaligini rivojlantirish maqsadida yuqori hosil beradigan, sug'oriladigan yerlarni ajratish;

- qishloq xo'jaligini kelajakda rivojlantirish, qishloq xo'jaligida foydalilaniladigan yerlardan turli qurilishlarga ajratilgan yerlarni o'mini qoplash maqsadida kelajakda xo'jaliklardagi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini, lalmi, yaylov yerlarda umumiy holatini yaxshilash, imkoniyatga qarab shu yerlar va ichki zaxiralar hisobiga ekin maydonlarini kengaytirish xozirgi qo'yilgan talablarga to'liq javob beradi. Buning uchun ularning sifati yaxshilanishi, suv bilan ta'minlash imkoniyati va unumdonorlik darajasini belgilovchi xususiyatlari aniqlanishi kerak.

Hozirgi yer kadastri mazmuni O'zbekiston Respublikasi «Davlat yer kadastri» Qonuni va «Yer kodeksi» asosida olib borilayotgan yer islohoti va ko'p tarmoqli yerga egalik qilish va yerdan foydalanimish yo'nalishlarini keng ravishda ifodalash bo'yicha qo'shimcha o'zgartirishlar talab qiladi. Chunki u hozirgi zamon talablariga to'liq javob bermaydi. Shuning uchun sistematik ravishda va hamma joylarda yerlar ro'yxatdan o'tkazilishi va yerni baholash ishlari kartalarda tuproq sifati va iqtisodiy bahosiga ko'ra, bo'lib ko'rsatilishi kerak. Xo'jaliklardagi har bir kontur bo'yicha to'liq ma'lumot bo'lishi shart, chunki «Yer kodeksi»ga binoan pudratni, dehqon xo'jaligini va ijara dagi fermer xo'jaliklarini rivojlantirish nazarda tutilgan.

Bu qonun talablaridan kelib chiqqan holda Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani Sh. Rashidov nomli qayta tashkil etiladigan qishloq xo'jaligi korxonasi negizida fermer xo'jaliklari tuzish loyihasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yildagi 543-sonli «1998-1999-yillarida qishloq xo'jaligi korxonalari sanatsiyasi natijalari va qishloq xo'jaligidagi islohotlarni yanada chuquqlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 543-Qaroriga asosan ishlab chiqildi.

Loyihani ishlab chiqishdan maqsad-qayta tashkil etiladigan qishloq xo'jalik korxonalari negizida fermer xo'jaliklari tashkil etish uchun yer fondini yangidan taqsimlash yuzasidan haqiqiy va texnik asoslangan takliflar tayyorlashdir.

Loyiha qayta tashkil qilingan qishloq xo'jaligi korxonalarida o'tkazilgan yerlarni ro'yxatdan o'tkazish (xatlash), tuproq qidiruv, bonitirovka va iqtisodiy baholash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijalariga asosan yaratiladi.

Shirkat, fermer va boshqa xo'jaligini tashkil etish loyihasining asosiy masalalarini yechishda bosh reja va davlat dasturlarida ko'zda tutilgan yer fonda dan foydalanishning mavjud holati, aholi punktlari, dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollarini ta'minlash uchun yer maydonlariga bo'lgan ehtiyoji, irrigatsiya-melioratsiya va yo'l shoxobchalari hamda qurilish obyektlari, mavjud cheklovlar, servitutlar, shuningdek, yerdan foydalanish va yerni foydalanuvchilarga biriktirishning boshqa shart-sharoitlari hisobga olinadi.

Yer resurslarining miqdor va sifat holati taqsimoti va ulardan foydalanishi bo'yicha oldinga qo'yilgan ma'lumotlar to'plami bo'yicha ishlar muvaffaqiyatli hal qilinishida tegishli ko'rsatkichlar-miqdor, vaqt davomida o'zgarishini (monitoringini) bevosita nazorat qilish barcha kadastr ishlarini EHM asosida avtomatlashtirishga yo'l ochib berishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi» va «Davlat yer kadastr», «Dehqon xo'jaligi to'g'risida»gi, «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi, «Shirkat xo'jaligi to'g'risida»gi Qonunlari va yer munosabatlari aloqador boshqa qonun va qarorlarga asosan teng ravishda keng tarmoqli xo'jaliklar tashkil qilinishi lozim. Buning natijasida, yerga egalik qiluvchi, yerdan foydalanuvchi xo'jaliklarning chegaralari keskin o'zgaradi. Bu esa ularni tezkorlik bilan tiklash, foydalanilayotgan yer miqdori hisobotini va yerni baholash ishlariga aniqlik kiritilishini talab qiladi.

Nazorat savollari

1. Davlat yer kadastrining bajarishdan maqsad nima?
2. Yer kadastr oldiga qo'yilgan talab nimalardan iborat?
3. Davlat yer kadastr hujjatlari asosida nimalarni hal qilish mumkin?
4. Respublika bo'yicha necha hil davlat kadastrlari yuritiladi va ularni bir-biri bilan bog'liqligi nimada?
5. O'zbekistonda yer kadastr nechanchi yildan boshlab amalga oshirilgan va ungacha qanday ishlar bajarilgan?
6. Yer kadastrining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati nimalardan iborat?

7. Yer kadastrining yerni (tuproqni) muhofaza qilishdagi ahamiyati nimalardan iborat?
8. Yer kadastro ishlari qanday yo'l bilan amalga oishiriladi?
9. Davlat yer kadastro ishini amalga oshirishdagi davlat boshqaruv organlari kimlardan iborat?
10. Vazirlar Mahkamasining vakolatiga nimalar kiradi?
11. Mahalliy davlat hokimiyatlarining vakolatlari nimalardan iborat?
12. Davlat yer kadastrini amalga oshiruvchi tashkilot va uning vazifalari?
13. Davla yer kadastrini amalga oshiruvchi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va Davlat kadastrlari qo'mitasining tarkibi, qismi va vazifasi nimalardan iborat?
14. Yer kadastrining tarkibiy qismi nimalardan iborat?

4-§. Davlat yer kadastro ishini bajarish uchun xo'jaliklar bo'yicha kartalar yaratish va maydonlarni hisoblash tartibi

1. Umumiy qoidalar

O'zbekiston Respublikasi hududidagi yer munosibatlariga aloqador bo'lgan barcha ishlar yerga egalik qiluvchi va yerdan foydalanuvchi xo'jaliklarning karta hujjatlari asosida olib boriladi. Jumladan, davlat yer kadastro yerni baholash, yer miqdorining hisobini har bir yerga egalik qiluvchi, yerdan foydalanuvchi shirkat, dehqon fermer xo'jaliklari bo'yicha olib borish, monitoring ishini bajarish va boshqa turli loyiha-qidrav ishlarini bajarishda hamda turli sohalar bo'yicha ixtisoslashtirilgan xo'jalik, tuman, viloyatlar bo'yicha turli mashtablardagi kartalarni yaratishda asosiy manba vazifasini bajaradi.

Karta-aeroplandan turib suratga olish usulida, fotosuratlardan foydalanilgan holda maxsus fotoplanshetlar asosida tayyorlanadi. Ular sug'oriladigan hududlar bo'yicha 1:10000, lalmi hududlar bo'yicha (aynan) xo'jalik yer maydonining katta-kichikligiga qarab 1:25000, 1:50000, fermer xo'jaliklari bo'yicha 1:5000 mashtablarda tayyorlaniladi (3-rasm).

Bu aerofotosuratlar asosida tayyorlangan fotoplanshetlarda yerlarni aniqlash jarayonida shu joydagи konturlardagi ma'lumotlarni aniqlanib, fotoplanshetlarga shartli belgilar asosida chizib olinadi.

Yerlarning joylashishini aniqlab, borliq ma'lumotlari tushirilgan fotoplanshetlarga aniqlik kiritish jarayonida shu joydagи konturlar (ma'lumotlar) aniqlanib, fotoplanshetlarga shartli belgilar bilan chizib olinadi.

Yerlarning joylashishini aniqlab, borliq ma'lumotlar tushirilgan fotoplanshetlardagi ma'lumotlar vaqt o'tishi natijasida yerlarning joylashishi bo'yicha oxirgi ma'lumotlarga nisbatan 50 foizga o'zgargan holdarda fotoplanshetdagi o'zgarishlarni to'g'irlashga ruxsat beriladi.

Aniq shakillanmagan yoki yangi paydo bo'lgan va shu joydagи boshqa obyektlar tasviri imkoniyatini bor har qanday usullar bilan aniqlangan shaklda tushiriladi.

Kontur va obyektlar joylarini qidirib topish, ularni tanib olish, chegaralarini aniqlash (deshifrovkalash) hamda noaniqliklarini aniqlash ishlari dala sharoitida bajaraladi.

Fotoplan tasvirlanmay kolgan, ammo joylarda aniqlangan ob'ektlar, kontur va chegaralar ham barcha qulay usullar bilan chizib olinadi.

Aralash (kombinatsion) tartibda aniqlangan shakllar aerofotosurat materiallaridagi kontur va obyektlar joylarining aniqligi hamda asliga to'g'ri kelishi shubhasizlarini hona (kameral) sharoitida, aniqlanishi zarur bo'lgan, qolgan kontur va obyektlar joylarini dala sharoitida aniqlab olishni nazarda tutadi.

Xonada aniqlangan shakillarning umumiy hajmi fotoplan sifati va bajaruvchining ishlab chiqarish tajribasiga bog'liq bo'ladi.

Ish bajarilayotgan obyekt miqyosidagi qishloq xo'jaligi maqsadida foydalanilayotgan barcha yerlar, yerdan foydalanuvchi va yerga egalik qiluvchi qishloq xo'jaligi korxonalar, yordamchi dehqon, fermer xo'jaliklari va boshqalar, zaxira yerlari, o'rmon va suv fondi yerlari, aholi yashaydigan barcha qishloq joylari aniqlanmog'i lozim.

Shahar va shaharcha yerlari, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsaddagi yerlar aniqlanmaydi, faqat plan materialarga ularning tashqi chegaralari chizib olinadi, xolos.

2. Yer turlari chegaralarini aniqlash

Quyidagi chegaralar joylarda aniqlanib, tegishli shartli belgilar bilan plan-karta materiallarga chizib olinishi lozim:

- Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar;
- ma'muriy tumanlar;
- shahar va shahar tipidagi qo'rg'onlar;
- yerga egalik qiluvchi va yerdan foydalanuvchilar.

Respublika davlat chegarasi aniqlanmaydi.

Chegara belgilari o'rnatilmagan yoki o'rnatilgan belgi joylari buzulib ketgan, ma'muriy chegaralar, mavjud yuridik hujjatlar bo'yicha plan asoslarga tushirib olinadi.

Yuridik hujjatlar bo'limgan taqdirda bu chegaralar yerga egalik qiluvchi va yerdan foydalanuvchilarining mavjud plan materiallaridagi chegaralaridan ko'chirib chiziladi va bu haqda shartli belgilar ustuniga alohida yozib qo'yiladi. Bu yerga egalik qiluvchi va yerdan foydalanuvchilar chegaralarini to'g'ri aniqlashning eng asosiy elementlaridan biridir.

Dala ishi boshlanguncha ishslash obyekti hududidagi barcha yerga egalik qiluvchi va yerdan foydalanuvchilar chegaralari tarixiy materialga qalamda chizib olinadi. Shu bilan birga, tegishli yer tuzish hujjatlari bilan faqat yuridik kuchi rasmiy tasdiqlangan, texnik to'g'ri materiallardan olingan chegaralar, plan asosga tushirib olinadi.

Dala ishi bilan aniqlash davrida, chegara belgilari va chegaraning chiziqli shakllari oldindan plan materiallarda aks ettirilgan tabiy topoelementlar bilan solishtirilib tekshiriladi. Agarda xo'jalik chegarasi chiziqli topoelementlar (yo'l, zaur, ariq, daryolar va hokazo) bo'lsa, ular ayni tabbiy holi bo'yicha plan materiallarga chizib olinadi. Oldingi tasvirlangan chegaradan farq qilgan hollarda esa har ikkalasi sinchiklab tahlil qilinib aniqlanadi.

Joylardagi mavjud burulish nuqtalar (punktlar) hisoblanuvchi chegara belgilari quyidagicha aniqlanib, plan asosga tushiriladi:

- xo‘jalik chegarasi burilish nuqtalarining koordinatalari fotoplan asosi bir xil nomlangan bo‘lsa, chegaralar tizimi fotoplanga koordinatalar bo‘yicha chizib olinadi;

- koordinatalari aniq bo‘lmagan taqdirda, aerofotoplanlarda ko‘rinib turgan, chiziqli topoelementlar bilan o‘tuvchi chegaralar qismi aniqlanadi, barcha burilish nuqtalari aniqlanib, joylardagi mos kelganlariga ustma-ust tushiriladi. Agarda burilish nuqtalarini ko‘z bilan chamalash (визуально) imkonи bo‘lmasa, ularning joylanishi geodezik o‘lchash yo‘li (to‘g‘ri va teskari hamda chiziqli o‘lchash va boshqa usullar) bilan aerofotoplanlarga quyidagicha belgilab olinadi:

- agarда chegaralar rasmiylashtirilgan aniq hujjatlarga asosan chizilgan va hanuz o‘zgarmagan bo‘lsa, oldingi yillardagi ana shunday materiallardan ko‘chirib olish yo‘li bilan;

- burilish nuqtalarining joylarda o‘rnatilgan alomatlari va planda ko‘rsatilgan o‘rnlari hamda burilish nuqtalari joylarda yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lsa, chegaradosh yer egalari va yerdan foydalanuvchilar vakillarining ko‘rsatuv bo‘yicha belgilanadi.

Chegaralar manfaatdor yer egalari va yerdan foydalanuvchilar vakillari ishtirokida tekshiriladi.

Rasmiy chegara amaldagi chegaradan farq qilganda va unga o‘zaro norozilik bo‘lmaganada, planga amaldagi (tabiiy o‘rnatilgan) chegara chizib olinadi.

O‘zaro norozilik tug‘ilganda esa planga vaqtincha manfaatdor taraflar taklif etgan barcha chegara holatlari chizib olinadi.

Bu holda chegaraning oxirgi yakuniy holati amaldagi Nizomga asosan, yer tuzuvchi tashkilotlar tomonidan belgilanadi (1-shakl).

Rozilik va norozilik bilan, shuningdek, yangi yer egalari va yerdan foydalanuvchilar tashkil qilish yoki eskisini bekor qilish kabi chegaraning har qanday o‘zgarishi haqida, chegaraning o‘zgargan qismi nusxasi bilan dalolatnomaga tuzilib, buyurtmachiga beriladi va shular yer tuzish ishlari olib borish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Agar chegaraning burilish nuqtalari chiziqli toposhakllarning quruqlikdagi yo‘nalish yoki davomining tutash joylariga (kesishgan) to‘g‘ri kelsa, bunday burilish nuqtalari koordinatalaridan aniqlab olinadi. Quruqlikdagi chegaraning burilish nuqtalari fotoplandan, grafik ko‘chirib olinadi.

Barcha aholi yashaydigan qishloq joylari chegaralari aniqlanishi lozim.

Agarda aholi yashaydigan qishloq joylarining chegarasi o‘rnatilgan materiallari mavjud bo‘lsa, bulardan barchasining chegara chizig‘i ana shu materiallardan plan asosga tushirib olinadi.

Agarda aholi yashaydigan qishloq joylari chegarasining burilish nuqtalari mayjud bo‘lib, quruqlikdagi yo‘nalishi bo‘yicha joylashgan bo‘lsa, ularning koordinatalari plandan ko‘chirib olinadi va dalolatnomaga qo‘shib qo‘yiladi.

Aholi yashaydigan qishloq joylari qamrovi ichidagi ko‘chalar, tor va berk ko‘chalar, chorraha va muyulishlar, maydonlar, sug‘orish va zovurlar tarmoqlari, fermer va dehqonlar foydalanadigan yerlar, foydalanib bo‘lmaydigan tepaliklar, jarliklar, qulab tushgan va boshqa yerlarni ham qo‘sib, qurilish, shuningdek, fermer xo‘jaligi uchun zarur yerlar chegyeralariga aniqlik kiritiladi. Ayni vaqtda maktab, shifoxona, har xil tashkilot va mahkamalar foydalanadigan yer uchastkalarining holati aniqlanmaydi.

Nazorat savollari

1. Yer turkumlarining atamalari nima maqsadda va qaysi sohalarda ishlatiladi?
2. Sug‘orib va sug‘ormay ekin ekadigan yerlar deganda va bo‘z yerlar deganda nimalarni tushinasiz?
3. Ko‘p yillik daraxtzorlar deganda va bog‘lar deganda nimalarni tushunasiz?
4. Suv bilan ta’minlangan yaylov yerlarga qanday yerlar kiradi?
5. Ihota daraxtzorlari nima maqsadda tashkil qilinadi?

O'zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati Bo'ka tumani «Gulbog» fermer xo'jaligi yerlarining plani

Sanoat korxonalari yer uchastkalaridagi o'zgalar foydalanayotgan: zavodlar, saroylar, yoqilg'i omborxonalar, elektr taqsimlash, nasos stansiyalari va boshqalarning yer maydonlari chegaralari aniqlanmaydi. Ularning ichki holati aniqlanadi.

Qishloq joylari holati elementlariga aniqlik kiritishda barcha yashash joylari, uylar, chizib olingan, qurilib bitirilgan mavzelar qismi ajratiladi, shu bilan birga mavze aylanasi (perimetri) bo'yicha joylashgan qurilishlar aniqroq, ichkarisida joylashganlar esa chamalab chizib olinadi.

Shahsiy foydalanishdagi tomorqa yer uchastkalari o'rtasidagi chegaralar, mayda sug'orish tarmoqlari va shu tomorqa yerlaridagi elementlar o'rnatilgan to'siq va devorlar, qurilishlar, ekinlar va ko'p yillik daraxtorlar joylashishi aniqlanishga molik bo'lmasa-da, ulardag'i barcha qishloq xo'jaligi ekinlari «T» bilan belgilanadi.

Mabodo tomorqa uchastkalarining to'siq va devorlari, sug'oriladigan qismi, uvatlari, aholi yashaydigan qishloq joylarining yoki shaxsiy tomorqa yeri bilan fermer yerlarining chegarasi bo'lib hizmat qiladigan hollarda, topoelementlar joylashgan joy aniqlanishi zarur.

Aholi yashaydigan qishloq joylarining nomlari, albatta, yozib qo'yilishi lozim.

Qishloq hududidan tashqarida joylashgan xo'jalik qurilishlari fermalar, omborlar, dalashi ponlari vaboshqalar xuddi qishloq joylari kabi ferma, ombor, dalashi plari vahokazo tariqasida izohli nomlar bilan aniqlanadi.

Xutorlar ham xuddi aholi yashaydigan qishloq joylari kabi asosda aniqlanadi.

Yo'l tarmoqlari, ularning to'plami va qaysi sinfga kirishi ko'rsatilmasdan, rejaning asos masshtabida joylashgan joy aniqlanadi va ularni egallagan maydon hisoblab chiqiladi. Vaqtinchalik yo'llarning joylashishi aniqlanmaydi.

Yo'lning ikki yonida yo'l bo'yiga ajratilgan yerlar kameral sharoitda texnik ishonchli hujjatlardan ko'rib olinadi, shu davrda yo'l bo'yini yerlaridagi barcha qishloq xo'jaligi ekinlari va boshqa elementlar holati tegishli Nizom talabida aniqlanadi.

Agarda yangi qurilayotgan yo‘l trassasi joyi oxirigacha belgilangan bo‘lsa, bunday qurulishning tugallanmagan yo‘llar joylashgan joyi aniqlanadi.

Yo‘llarda mavjud quyidagi elementlar aniqlik kiritish jarayonida ko‘rsatiladi:

- barcha turdagи transportlar to‘xtash va nazorat joylari;
- yo‘l bilan kanallar kesishgan joylardagi yo‘l ostidan suv o‘tkazuvchi quvirlar;
- yo‘l bo‘yidagi ekin ekilgan daraxt va o‘rmon qatorlari.

Yo‘llar va yo‘l yoqasidagi inshootlar, amaldagi tabiiy o‘lchami bo‘yicha chizib olinadi. Planga chizib olinadigan yo‘lning eni shu yo‘l chetlaridagi ikkala suv ariqlari (kyuvetlar) o‘rtasidagi oraliq bo‘yicha olinadi.

Gidrografiya va gidrotexnik inshootlarini joylashgan joyini aniqlash va ularni chizib ko‘rsatish:

- suv omborlari, daryolar, ko‘llar, hovuzlar va boshqa havzalarning qirg‘oq bo‘yi chegarasi;
- ariqlar, zovurlar, yopiq suv o‘tkazuvchi quvirlar va drenaj tarmoqlari, soylar, irmoqlar;
- daryolar o‘rtasidagi orollar, suvi qurib qolgan daryolar, soylar, ko‘llar, quruq ariqlar hamda botqoqliklar.

Yo‘llarning yoz faslidagi o‘rtacha turg‘unlashgan sath chizig‘i daryo, ko‘l, hovuz va boshqa suv havzalarining qirg‘oq bo‘yi chegarasi deb qabul qilinadi.

Suvi qurib qolgan daryo, ko‘l va boshqa suv havzalarining qirg‘oq bo‘yi chegarasi deb, shu havzalardagi oxirgi suv loyqalari, chiqindilari qoldirgan chiziqlar izlari qabul qilinadi.

Sug‘orishning O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi uchun alohida ahamiyati hisobga olinib, mavjud irrigatsiya tarmoqlarini atroficha aniqlashga alohida e’tibor qaratilmog‘i kerak: sug‘orish tarmoqlarining nomlariga, ulardagi suv oqimining yo‘nalishiga, suv yig‘ish va suv taqsimlash nuqtalariga, ariq va zovurlarning yo‘llari bilan kesishgan joylariga va hokazolar.





Planda eni 0,5 mm. gacha bo‘lgan daryo va ariq-zovurlar tarmog‘i bitta chiziq bilan, eni 0,5 mm. dan yuqori bo‘lganlari esa ikkita chiziq bilan ifodalanadi.

**O‘zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati Bo‘ka tumani
«GULBOG» fermer xo‘jaligi yerlarining rejasি**


Chegaradosh yerlar izohnomasi

A dan B	gacha Oqqa‘rg‘on tumanidagi yerlar
B dan V	gacha «Farg‘ona» nomli fermer xo‘jaligi yerlari
V dan G	gacha «Navoiy» nomli fermer xo‘jaligi yerlari
G dan D	gacha zaxira yerlari
D dan E	gacha o‘zga yerlari
E dan J	gacha mollarni boqish yerlari
J dan Z	gacha tuman iste’molchilik jamiyatining bo‘rdoqichilik bazasi
Z dan I	gacha yordamchi xo‘jalik yerlari
I dan K	gacha bo‘rdoqichilik xo‘jaliklari
K dan L	gacha ferma xo‘jaligi yerlari

Cegaralar

2.4 0.8 	davlatlar
2.0 3.0 	viloyatlar
4.0 2.0 	tumanlar
3.0 3.0 	yerdan foydalanuvchilar va o'zga uchastkalar
— — — — —	fermer xo'jalik bo'limlar
— • • — — • •	shahar chegaralari
○ — — ○	quruq chiziqli chegaralar

Mashtab 1:10 000



Bir santimetrdan 100 m

Ariq va zovurlarning eni ulardan chiqarib tashlangan tuproq uyumlari egallagan yerni ham qo'shib aniqlanadi. Ariq tasviri ichiga ularning eni ko'ndalangiga yoziladi. Yozuv sig'magan taqdirda ariq-zovurlarni tasvirlovchi chiziq eni yozilgan joyida uzib qoldiriladi.

Ariq va zovurlar tarmoqlari yoni bo'ylab har 5-6 sm. da ulardag'i suv oqimi yo'nalishini ko'rsatuvchi chiziq (strelka) chiziladi.

Zovur va drenaj tarmoqlariga sizib keladigan suvlar bitta tarafдан keladigan bo'lsa, tarmoqqa perpendikular qilib suv yo'nalishini ko'rsatuvchi shartli bitta chiziq chiziladi, agar har ikki tarafдан keladigan bo'lsa, bunday belgi har tarafiga qo'yiladi.

Dala sharoitida gidrografiya va gidrotexnik inshootlarning joylashishini aniqlashda, ularning amaldagi o'lchovlari hamda ular mintaqasi uchun ajratilgan yer maydonlari mavjud huquqiy va texnik

hujjalarga asoslanib kameral usulda chizib olinadi. Mintaqal uchun ajratilgan yer ichidagi holatlar umumiy tartibda aniqlanadi.

Vaqtinchalik sug‘orish tarmoqlari (o‘q ariqlar) aniqlanmaydi.

Aniqlashga quyidagilar molikdirlar (2-shakil):

- suv taqsimlovchi moslamalar, to‘g‘on, darvozalar;
- suv chiqish joylari, quvirlar va novlar;
- burilish va oxirgi (kuzatish, suv yig‘ish, drenaj) quduqlar;
- osmon va yer osti quvirlari, tarnovlari (akviduklar va dyukyerlar);
- sug‘orish gidrantlari;
- nasos bekatlari (stansiyalari);
- vertikal drenajli va sug‘orish quduqlari (skvajinalar);
- yer ustki tug‘onlari;
- gidrometrik kuzatish joylari.

Gidrotexnik inshootlarning shartli belgisi inshootlar qaysi hujjalar bo‘yicha qilinganligidan qat‘i nazar shu inshootlarning maqsadiga aniq javob bermog‘i zarur.

Barcha qishloq xo‘jaligi yerlari turlari bo‘yicha aniqlanishi va tegishli shartli belgilar bilan chizib olinish lozim. Qishloq xo‘jaligi yer turlari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishda foydalaniladigan barcha yerlar kiradi.

O‘rmon va butazorlar maydonini aniqlashda quyidagilar alohida kontur bilan ajratiladi: o‘rmonlar, ularning nomlari ajratilmasdan, past bo‘yli daraxtzorlar, yosh o‘rmonlar – o‘rmon ekinlari, o‘rmonzor qoplami hosil qilmagan maydonlar: saksovul, xoda beruvchi daraxtzorlar, jarliklar bo‘yidagi o‘rmon, buta va qamishzorlar.

Qishloq xo‘jaligida foydalanmaydigan yer turlariga qumliklar, chag‘atlar-toshloq yerlar, sho‘r taqirliklar va boshqa shu kabi yerlar kiradi.

Meliorativ holati yaxshilanayotgan yerlarga faqat yangidan meliorativ qurilishlar o‘tkazilayotgan qishloq xo‘jalik yerlari kiradi. Agarda meliorativ qurilish ishlari noqishloq xo‘jalik yerlarida o‘tkazilayotgan bo‘lsa, bunday yerlar qurilish tugaguncha oldingi yer turi tarkibida hisobga olinadi.

Tabiiy relyef shakllaridan quyidagilar maydoni aniqlanadi va chizib olinadi: quriq o'zanlar, jarliklar, o'pqonlar, zovurlar, qoyalar, qumloqlangan, loyqalangan, tosh-shag'al va chag'atli aralashgan yerlar.

Sun'iy relyef shakllaridan quyidagilar aks ettiriladi: ko'tarmalar, to'g'onlar, tuproq va tosh uyumlari, xandaklar, terrasalar, alohida tepaliklar (sun'iry qo'rg'onlar) va chuqurliklar. Sug'oriladigan ekin yerlаридаги о'pqonlar alohida sinchkovlik bilan, ularning suv bilan eroziyalanishi darajalari tasvirlangan holda ko'rsatilmog'i lozim.

Fotoplan mashtabida aks ettirish imkonini bo'lмаган har qanday holda ham o'pqon va jarliklarning eni ko'rsatiladi.

Planda quyidagilar ham o'z aksini topishi kerak: telefon va telegraf, shuningdek, yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari, gaz, suv va neft hamda neft mahsulotlari o'tkazuvchi quvirlar. Agarda bu muhandislik tarmoqlari plani asosida aks etmagan va ularni aniqlab chizib olinmasa, qishloq xo'jalik yerlari, shuningdek, boshqa elementlar konturlarini o'qib olish hamda mo'ljallah qiyinlashadi.

Aholi yashaydigan qishloqlar tashqarisida joylashgan quyidagilar ham aniqlanishi va belgilanishi zarur: qabristonlar, omborxonalar, elektr va suv uzatish, taqsimlash bekat va bektatlari, yakka turgan daraxtlar, yemirilgan va qulab turgan imoratlar, yaylovlardagi chorva mollari obyektlari (qishlik va yozlik qo'ton va qo'ralar, saroylar, quduqlar, skvajinalar) va shu joydagisi boshqa obyektlar (2-shakl).




3. Dala sharoitida yerlarning turlari bo'yicha aniqlanishi va uni nazorat qilish











Dala sharoitida fotoplanga tushirish yoki yangilash me'yori bo'yicha bu ishlar va chizish ishlari, dala qidiruv ishlari bir kundan ortiq davom etishiga yo'l qo'yilmasligi kerak. Dala sharoitda chizish ishlarini olib borishda asosiy e'tibor obyektlarning aniq joylashishga va shartli belgilari to'g'ri qo'llanilishiga qaratilmog'i lozim. Belgilar 1:10000 mashtabli kartalar planlari uchun qabul qilingan umumiy shartli belgililar to'plamidan olinadi.









Aniqlash jarayonida shartli belgilarni oddiy, siyrak va simmetrik bo'lмаган holda joylashtirib chizish mumkin. Ammo shartli belgilar shakliga aniq rioxan qilish va nomlar hamda raqamlar tushunarli bo'lмog'i kerak.

SHARTLI BELGILAR










	Yerdan foydalanuvchilar chegaralari
	Aholi yashaydigan joylar va tomorqa yerkari
	Jamoa qurilishlari
	<ol style="list-style-type: none"> 1. Vayronalar (xarobalar) 2. Buzilgan va chala buzilgan qurilishlar
	Dala shiyponlari
	Sutchilik fermasi
	Parrandachilik fermasi
	Cho'chqachilik fermasi
	Qo'ychilik fermasi
	Ot fermasi
	Bostirmalar
	Devorlar va to'siqlar
	Mol qamaydigan joylar, qo'tonlar
	Hayvonlarga suv ichirish joylari









 1.5	Hayvon qabristonlari
2.0  1.3	Omborlar
suv.ch.st.  1.3	Suv chiqargish, suv o'tkazgich stansiyalar
2.0  2.0	Asalari qutilari qo'yilgan joylar
0.7	Temir yo'llar
0.8	Yaxshilangan zamin yo'llari
0.3	Qishloq ichidagi zamin yerkari
0.3 4.0	Dala yo'llari
3.4 1.5	1. Quvurlar 2. Ko'priklar
4.0	Yo'l ostidagi suv o'tkazgich quvurlari
0.8 8.0	Hayvonlar haydab o'tiladigan yo'llar
4.0 4.0	Uvatlar
	Olib berilgan yer mintaqasi chizig'i
 1 2	1. Daryolar 2. Quriyotgan daryolar









  <p style="text-align: center;">2</p>	1. Ko'llar 2. Quriyotgan ko'llar
	To'g'onlar va o'yilgan yerlar
	Cheklar, ko'tarmalar
	Yerusti kanallari
	Quyilayotgan kanallar
	Yerusti zovurlari
	Yerosti zovurlari va quduqlari
	Gidrantlar (jo'raklar) va yerosti suv omborlari
	Yerosti bilan suv olib o'tish inshoati
	os.quv.
	Osma quvurlar
	Q-1
	Quruq ariqchalar
	1.0
	0.8
	12.0
	Yer ustidagi suv o'tkazish tarmoqlari







 4.0 0.8 1.0	Yer ostidagi suv o'tkazish tarmoqlari
 12.0 0.8	Tarmoqlar, lotoklar
 1.2 : q. ◎ art.q.	Quduqlar, artezian quduqlari
 1.2 ::: ◎ suv.qud. ◎ qud. neft.	Suv qudug'i, neft qudug'i
 0.6 ::: bul. ■ h. 1.4	Biloq, hovuzlar
 yomg'.s. s.omb.	Yomg'ir suvi to'lgan chuqurlar, suv ombori
 1.4 ::: h. ■ sard.	Hovuzlar sardobalar
 suv.t.	Suv tindirgichlar
 nasos	Bir joyda turadigan nasoslar
	Quruq o'zanlar
	Jarliklar va suv yuvib ketgan joylar

	Balandliklar, tepaliklar va chuqurliklar
	Kovlangan joylar
	Yo'l va ariq labiga o'tqazilgan daraht
0,6° ° ° ° °	Ixota darahtzorlari
0,6°°° °° °° 0,4	Changalzor ixota darahtzorlari
0,6° · · · · ·	Tut o'tkazilgan ixota darahtzorlari
	Sug'oriladigan haydalma shudgor yerlari, konturlar tartibi va kontur chegaralari
3,0 ~ ~	Lalmi haydalma shudgor yerlar
	Toshloq haydalma shudgor yerlar
	Ko'kalamzorlar
	Issiqxonalar
	Sholipoyalar
	Bog'lar

	Uzumzorlar
	Sug'oriladigan uzumzorlar
	Tutzorlar
	Mevali ko'chatzorlar
	O'rmon ko'chatzorlar
	Meliorativ tayyorgarlikdagi yerlar
	Meva rezavorlar
	Portov bo'z yerlar
	Sug'oriladigan portov bo'z yerlar
	Toshli portov bo'z yerlar
	Butazor o'sgan portov bo'z yerlar

	<p>Lalmikor o'sgan portov bo'z yerlar</p>
	<p>Pichanzorlar</p>
	<p>Yaylovlar</p>
	<p>Toshloq yaylovlar</p>
	<p>Toshli yaylovlar</p>
	<p>Himoya qilingan qumli yaylovlar</p>
	<p>Saksovul o'sgan qumli yaylovlar</p>
	<p>Saksovul o'sgan qumloqdagi qumli yaylovlar</p>
	<p>Butazor o'sgan yaylovlar</p>
	<p>Siyrak o'rmon bilan qoplangan yaylovlar</p>
	<p>Botqoqlashgan yaylovlar</p>

	O'rmonzorlar
	Butazorlar
	Qumloqdagи himoya darahtzorlari
	Qumloqdagи himoya saksovul darahtzorlari
	Saksovullar
	Qamishzorlar
	Botqoqlangan qamishzor
	Qamishli botqoqliklar
	Qumlar
	Mayda toshloqlar
	Tosh uyumlari

	Sathi toshloq yerlar
	Tosh to'plamlari
	Sathi loy yerlar
	Sho'rxok yerlar
	Zaxkash sho'r yerlar
	Sanoat chiqindilari bilan ifloslangan yerlar
	Rekultivatsiya qilinmagan yerlar
	Qabristonlar
	Terrassa qilingan yonbag'irlar
	Tomorqa
	Qishloq xo'jaligida foydalanmagan yerlar

Yer turlarini joyida aniqlash materiallaridagi barcha yozuvlar davlat tilida yoziladi.

Fotoplan trapetsiyasi sirtiga quyidagilar yoziladi:

- bir qismi fotoplan chegarasidan tashqarida qolgan aholi yashaydigan qishloq joylarining nomlari;

- hududining bir qismi fotoplan chegarasidan tashqarida qolgan, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning nomlari;

- barcha yo'llarning yo'nalishi (yaqinroq joylashgan aholi yashaydigan yirik qishloqning nomi).

Fotoplan quyidagi tartibda yakuniy jihozlanadi:

- fotoplan shimoliy romi (ramasi)ning chapni sirt tarafiga shu planga oid bo'lgan viloyat va tumanlarning nomi yoziladi.

- janubiy tomonining o'ng sirt tarafiga «200... -yilda» «O'zdavyerloyiha» ilmiy-loyiha instituti tomonidan aniqlangan deb yoziladi. Undan pastki qimiga ishni bajargan bo'limning nomi va mutaxassislari ismi-sharifi hamda vazifasi yoziladi. Misol uchun, «OSXAGI» aniqlash: ikkinchi darajali muhandis I.Majidov ishni qabul qildi: guruh rahbari B. Shokirov.

Fotoplancharga aniqlik kiritish va chizib olish bo'yicha ish jarayoni, fotoplan romlarini o'zaro tutashtirish bilan tugallanadi. Fotoplan nomlari bo'yicha konturlarning tugallangan holati, guruh rahbari tomonidan tekshirilgan va qabul qilingan bo'lishi kerak.

Aniqlash bo'yicha bajarilgan ishlar nazorati bevosita joyida amalgalashiriladi, nazorat qiluvchi shaxs aniqlik kiritish jarayonida ushbu qo'llanma talablari to'g'ri va to'laligicha bajarilganligiga ishonch hosil qilmog'i kerak. Shu bilan birga asosiy e'tiborni qabul qilingan shartli belgililar to'g'ri qo'llanganligi, aniqlash elementlari aniq taniganligi, chegaralari to'g'ri chizganligi va chizib chiqish sifatiga qaratmog'i zarur.

Dala ishlarining joriy nazoratini quyidagi yo'llar bilan olib borish mumkin:

- fotoplan aniqlangan mustahkam nuqtalar orasidagi masofani o'lchov lentasi bilan nazoratli o'lchash: bu paytda, faqatgina elementlar holatining ushbu o'lchash yo'nalishi bilan kesishgan nuqtalari qayd etilmasdan, balki ushbu nazoratli o'lchash yo'nalishining ikkala tarafidagi konturlar ham aniqlanadi;

- fotoplan nazoratli tekshirish yo'nalishini belgilash va shu yo'nalishdagi barcha elementlarni qayta aniqlash;

Nazorat ishining hajmi, shu joydag'i aniq sharoitdan kelib chiqqan holda, tanish ishni tekshiruvchi tomonda belgilanadi, ammo bu hajm, tanish ishini bajaruvchi tugallagan ishning 10 foizidan kam bo'lmasligi kerak. Tekshirilgan ishning natijasi dalolatnoma bilan rasmiylashtirilib, undan aniqlangan xato va amchiliklar ko'rsatiladi hamda ularni tuzatish tartibi va muddati haqida aniq ko'rsatma beriladi.

Aniqlash ishi bo'yicha tugallangan ishlar, albatta, shu ish bajarilgan joyga borilib, ish bajaruvchi (ijrochi)dan qabul qilinadi. Bunda ishni qabul qiluvchi joriy nazorat (tekshirish) payitida ko'rsatilgan xato-kamchiliklar tuzatilganligiga ishonch hosil qilmog'i va aniqlash o'tkazilgan obyektni umumiyl maydonining kamida 5 foizida qaytadan (imkon qadar eng murakkab qismlarida) nazoratli tanlash ishi o'tkazmog'i zarur.

Shuningdek, aniqlash davridagi hujjatlarning ro'yxati va sifati, chegaradosh fotoplan romlari o'zaro tutashtirilib, ulardag'i relyef elementlari va konturlarining o'zaro bog'langanligi tekshiriladi.

4. Maydonlarni hisoblash va konturlar bo'yicha qaydnomani tuzish

Tekshirish ishini bajarish bo'yicha tegishli dala qidiruv va kamyeral ishlar qabul qilingandan keyingina faqat fotoplan maydonlari miqdorini hisoblash amalga oshiriladi. Bu 16-jadvalda ko'rsatilgan.

Maydonlarni hisoblashning asosiy maqsadi quyidagilardan iborat:

- foydalanishdagi yerning umumiyl maydonini aniqlash (aniqlik kiritish);
- yer egalari yoki undan fydalananuvchilar ixtiyoridagi maydonni konturlar bo'yicha aniqlash va yer turlarining qayidnomasini tuzish;
- tanish (aniqlash) ichki tugallangan hududdagi obyektlarning (viloyat, tuman, xo'jalik yoki biron qurilish inshooti va hokazo) umumiyl maydonini aniqlash (aniqlik kiritish).

Maydonlar miqdorini hisoblash bo'yicha quyidagi tarkibdagi ishlar bajariladi:

- fotoplan alohida uchastkalarga (bo'laklarga) bo'lish va ularning umumiyl maydonini hisoblash hamda hisoblangan maydonni fotoplan trapetsiyasi nazariy maydoniga bog'lanadi (muvofiglanadi);
- yer egalari va yerdan foydalanuvchilar hududiy bir necha fotoplan joylashgan bo'lsa, ularning umumiyl maydoni hisoblanib

(aniqlanib) chiqiladi va bu miqdor shu fotoplanlar nazariy maydonlari bilan bog'lanadi;

- mavjud (kadastr) konturlari soni tartib raqami bo'yicha belgilab (nomerlab) chiqiladi va fotoplanda ajratilgan bo'laklar (uchastkalar) ichidagi har bir konturning alohida maydoni hisoblanib, ularning yig'indisi shu bo'lak umumiy maydoni bilan bog'lanadi (muvofiqlashtiriladi), shundan keyingina yer turlarining qaydnomasi tuziladi;

- umumlashtiruvchi jadval (shaxmatka) tuziladi va shu bilan ish obyekti umumiy maydoni aniqlanadi.

Barcha yer egalari va yerdan foydalanuvchilar hududidagi umumiy maydonni hisoblashdan oldin ularning chegarasini aniqlash payitida biron-bir o'zgarish bo'limganligiga ishonch hosil qilish uchun chegaralar va o'zgarishi mumkin bo'lgan barcha huquqiy hujjat hamda materiallar sinchkovlik bilan o'zaro solishtirib chiqiladi.

Xo'jalik ichiga joylashgan begona va o'z yeridan foydalanuvchilar o'rtaсидаги chegaralar oxirigacha solishtirib chiqilgandan so'ng shu chegaralar bo'yicha yashil rangda ingichka (1mm) chiziq chizib chiqiladi.

Umumiy maydonni hisoblash uchun ajratiladigan bo'laklar chegarasi xo'jalik hududidagi tabiiy chegaralar bo'yicha joylashtiriladi. Bo'laklar (delankalar) maydani 200 ga dan oshib ketmasligi kerak. Bo'laklarning chegarasi sariq ranga bo'yalib, tartib soni (nomyeri) rim raqamida yoziladi.

Bo'laklarning bog'langan (muvofiqlashtirilgan) maydonlari yig'indisi fotoplan trapetsiyasining nazariy maydoniga teng bo'lishi zarur.

Bo'laklar maydonini hisoblashda xatoga yo'l qo'yish mumkinlik doirasi (hisoblangan bo'laklar maydonlari yig'indisi va aniqlanish hisobga olingan fotoplan maydoni o'rtaсидаги farq) miqdori 0,05 UR shaklli tenglama bo'yicha aniqlanadi. Bu yerda, R – fotoplan trapetsiyasining umumiy maydoni.

Joyida tanish hisobga olingan fotoplanning maydoni (amaldagi maydoni) trapetsiya maydonini hisoblash formulasi $((a+b)/2)xh$ bo'yicha aniqlanadi. Trapetsiyaning shimoliy va janubiy romlarini hamda uning balandligini o'lhash shtangel-sirkuli yordamida

QAYDNAME « » 200 yıl
(gektar hisobida)

bajariladi. Fotoplan trapetsiyasining nazariy maydoni romlar o'chovlari jadval va Gaus Kryugyer topografik nushalari trapetsiyasining maydoni bo'yicha aniqlanadi.

Xo'jalik hududi ichida joylashgan bo'laklarni bog'langan (muvofiqlashtirilgan) maydonlarining yig'indisi shu xo'jalik maydonini hosil qiladi. Bu maydon davlat dalolatnomasi yoki boshqa yuridik huijatlarga yozilgan maydon ko'rsatkichiga olib kelib bog'lanadi.

Agarda yangidan hisoblab chiqilgan maydon yerdan foydalanuvchilarining yuridik huijatlaridagi (hududidagi) maydon o'rtaсидаги farqat hisoblashda yo'l qo'yiladigan xatoning 2 barobariga (2,0, 0,5 UG) ko'paytirilgandagi ko'rsatkichdan oshib ketmasa, u holda yangitdan hisoblab chiqilgan maydon miqdori shu xo'jalikning oldingi maydoni ko'rsatkichiga tenglashtirilib bog'lanadi.

Ish ob'ektlari (tuman) bo'yicha umumiy maydonni aniqlash yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bo'laklar maydonlari har bir xo'jalik bo'yicha hisoblanib, bog'lanib chiqilgandan so'ng ulardagi yer turlarining konturlari raqamlanadi, o'z navbatida bo'laklar ham raqamlanadi. Bunday paytda fotoplan romlari bo'lib qo'yilgan bitta konturning barcha bo'laklari bir xil raqamda bo'lishi shart.

Konturlar bo'yicha raqamlash va maydonlarni hisoblash, konturlarni biriktirishga e'tibor beriladi. Bir xil yer turidagi konturlar, shuningdek, ular orasiga kirib qolgan boshqa turdag'i mayda-mayda konturlar, uzlusiz topoelementlar (ariq, zovur-drenaj tarmoqlari, yo'l-jarliklar va hokazo) bilan bo'linib, qolgan konturlar yagona yaxlit konturga biriktiriladi. Bu yer turlari maydonining yig'indisi esa konturlar bo'yicha hisoblash jadvalining tegishli ustunlarida 1 qator qilib yoziladi.

Yaxlit konturga birlashtirilgan konturlarning chegarasi ustidan qisqa shtrixlar bilan chizib qo'yiladi.

Konturlar chegarasi bo'yicha o'tuvchi va tasviri planlarda bir chiziq bilan chizilgan ariq, yo'l-drenajlar, alohida raqamlanmaydi, ularning maydoni chegaradosh konturlarga yarim miqdorda qo'shib hisobga olinadi. Agarda chegaradosh konturlar chegarasi bir vaqtida ham ariq,

ham yo'l bo'yicha o'tsa, unda ariqning maydoni bir konturga qo'shib hisoblanadi. Yo'l esa ikkinchi kontur maydoniga qo'shib yoziladi.

Boshqa yerdan foydalanuvchi sifatida xo'jalik yer maydonidan chiqarilgan yoki planda ikki parallel chiziq bilan ifodalangan barcha yo'llar, ariqlar, zovurlar va shu kabilar har qaysisi alohida o'zi egallagan kontur raqami va maydoniga ega bo'lishi kerak.

Konturlar chiziq o'lchov birligi sifatida yer maydonining texnologik (kadastr) uchastkasi hisoblanib, barcha yerni baholash va monitoring ishlari uchun xizmat qilganligi sababli ularning oldingi konturlari chegarasi va raqamlari saqlab qolimog'i lozim. Moboda ayrim konturlar chegarasi va raqamlanishini o'zgartirish zarurati tug'ilsa, ishchi nusxa qurish qog'oziga (voskovka) ham oldingi, ham yangi chegara chiziladi, raqamlari esa yozib qo'yiladi.

Hisoblangan konturlar maydonining to'g'riliqi shu konturlarga kiruvchi bo'lakning bog'langan (muvofiglashtirilgan) maydoniga taqqoslab aniqlanadi. Bunda farq 0,08 UR miqdoridan oshib ketmasligi kerak. Bu yerda R-bo'lakning bog'langan maydoni bo'lib, u birinchi va ikkinchi shakllardan olinadi.

Konturlarning 0,1 gacha yaxlitlashtirib bog'langan (muvofiglashtirilgan) maydon shu bo'lakning bog'langan maydoniga to'g'ri kelishi uchun yaxshilashtirish va bog'lash bir vaqtida bir xil miqdorda bajariladi.

Biriktirilgan yaxlit konturga kiruvchi yer turlarining maydoni ham 0,1gacha yaxlitlashtirilib, yig'indisi shu biriktirilgan konturning bog'langan maydoniga tenglashtiriladi.

Yaxlitlashtirishda maydon miqdori 0,05 dan 0,09 gacha 0,1 deb olinadi, 0, 0,5 dan past bo'lsa, tashlab yuboriladi.

Quyidagilar qisqartirilib yozilmaydi va maydonlari 0,1 gacha yaxlitlashtirilmaydi:

- aholi yashaydigan qishloq va qo'rg'onlarda joylashgan kichik-kichik maydonchalar jamlanganda;
- qishloq xo'jaligi ekinlari orasida tarqoq joylashgan kichik-kichik mevali bog'lar, tokzorlar, tutzorlar, issiqxonalar va shu kabi boshqa ko'p yillik qimmatli ekinlarning maydonchalari aniqlanganda.

Bir xo'jalik hududidagi yerdan foydalanuvchi boshqa xo'jalik (yerdan foydalanuvchi) ixtiyoridagi maydon (uchastka) ham xuddi shu tartibda

hisoblanadi, ammo oxirida «xo‘jalikning jami yerlari» ko‘rsatilib yozilgandan so‘ng «boshqa yerdan foydalanuvchilar» deb ko‘rsatiladi.

Asosiy xo‘jalik va boshqa yerdan foydalanuvchilar bo‘yicha hisoblangan maydonlar miqdorining yig‘indisi, foydalanilayotgan umumiylar maydonning shakllari bo‘yicha ko‘rsatilgan miqdorga teng bo‘lishi kerak.

Ayrim hollarda istisno tariqasida xo‘jalik hududidagi barcha yerlar hisoblab chiqilib, jami yoziladi, boshqa yerdan foydalanuvchilar ixtiyoridagi yer maydonlarining miqdorini «shu jumladan» deb yozib qo‘yishga yo‘l qo‘yiladi.

Maydonlar miqdorini hisoblash bo‘yicha joriy nazorat va ishni qabul qilish jarayonida quyidagilar tekshiriladi: hisoblanishning to‘g‘riliqi va aniqlangan maydon fotoplan nazariy maydoni bilan bog‘langanligi, xo‘jalik umumiylar maydoni to‘g‘ri aniqlanganligi, yer turlari konturlarini hisoblash to‘g‘riliqi, hisoblash shakllarini to‘ldirishda va konturlar bo‘yicha jadval, yer turlari qayidnomasini tuzishda yozuvlar to‘g‘ri olib borilganligi.

Bo‘laklar va konturlar maydonlarining to‘g‘ri hisoblanganligi, ularning qayta hisoblash yo‘li bilan tekshiriladi.

Tekshirish natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtirilib, unga maxsus solishtirish jadvali ilova qilinadi.

5. Yerlarni joyida aniqlash bo‘yicha hujjatlар таркibi

Fotoplanlardagi yerlarni aniqlash (o‘zgartirishlar kiritish) va ularning maydonlarini hisoblash bo‘yicha bajarilgan ish natijalarining barcha hujjatlari kelgusida foydalanish uchun buyurtmachiga hamda asl nusxasi saqlash uchun arxivga topshirish maqsadida bir shaklga keltirilib, alohida jildlanadi.

1. Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha:

- to‘lig‘icha qabul qilingan, jihozlangan va ko‘rib chiqilgan fotoplanlar;

- har bir fotoplan bo‘yicha – bajarilgan ish hajmini, shu ish bajarilgan vaqtini va uni bajaruvchisi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ko‘rsatuvchi kartogramma;

- ishni tashkillashtirish va bajarish bo‘yicha o‘tkazilgan joriy

nazorat va ish tqliq qabul qilinganligi to‘g‘risidagi barcha dalolatnomalar fotoplan romlari bo‘yicha barcha nusxa qog‘ozlari (voskovka), yerdan foydalanuvchilar o‘z vakillariga bergen ishonch qog‘ozlari hamda boshqa hujjat va materiallar jamlanib saqlanadigan jild (delo).

2. Maydonlar miqdorini hisoblash bo‘yicha:

- barcha foydalanilgan fotoplan – bir shakl yerdan foydalanuvchi (xo‘jalik)lar ikki shakl va ish kartogrammasi –shakllarini o‘z ichiga olgan jamlangan jild (delo);

- barcha xo‘jaliklarga konturlar bo‘yicha hisoblash jadvali (16-jadval) chegaralari va raqamlarning o‘zgartirilgan konturlarining ishchi nusxa qog‘ozi (voskovkasi).

6. Xo‘jaliklarning yerdan foydalanish kartasini yaratish

Kerakli nusxada chop etilgan 1:10000, 1:25000, 1:50000, 1:100000 mashtablarda topografik kartalar uchun shartli belgililar va ushbu qo‘llanmaga ilova qilingan shartli belgilarga muvofiq xo‘jaliklarning qishloq xo‘jlik plani chop etish uchun asl nusxasi qog‘ozga (voskovka) chiziladi.

Yerdan foydalanish kartalarida barcha tushuntirish yozuvlari davlat tilida bajariladi.

Obyektlarning masshtabsiz tasvirlari uchun shartli belgililar, odatda, fotoplan romining janubiy tarafiga perpendikular ravishda joylashtiriladi. Bundan istesno tariqasida, qurilish, meva-sabzavotlar omborxonalari, chorva mollari uchun qo‘ra, qo‘tonlar va shu kabi boshqa qishloq xo‘jalik ob‘ektlarining belgilari shu tarzda ularning joylashuviga qarab joylashtirilishi mumkin.

5-§. Davlat yer kadastrini yuritish sohasidagi davlat boshqaruveni organlari

Davlat yer kadastrini yuritish sohasidagi davlat boshqaruveni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, mahalliy davlat hokimiyat organlari va maxsus vakolot berilgan davlat boshqaruveni organlari amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi vakolatiga quyidagilar kirdi:

- yer kadastrini yuritish sohasida davlat siyosatini amalga oshirish;
- yer resurslarining holati, ulardan foydalanish va ularni qayta tiklash to'g'risidagi har yilgi milliy hisobotni tasdiqlash;
- topografiya-geodeziya va kartografiya ishlariga litsenziya berish tartibini belgilash;
- moliyaviy va investitsiyalash sohasidagi ustuvor yo'naliishlarni belgilash va mavjud masalalarni hal qilish;
- qonun hujjatlari muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolati quyidagilardan iborat:

- davlat yer kadastrini yuritish ishlarini mahalliy budget hisobidan moliyalash;
- yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni va ularga doir bitimlarni ro'yxatga olish;
- qonun hujjatlari muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish.

Davlat yer kadastrini amalda yuritish sohasida quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro bo'yicha davlat qo'mitasi vakolatiga kirdi:

- barcha davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiga kiruvchi har bir davlat kadastro turiga aloqador vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatlarini muvoffiqlashtirish;
- barcha davlat kadastrlariga aloqador bo'lgan tashkilot, korxona va muassasalarni kadastr ishini yuritish uchun zarur bo'lgan kartografiya hujjatlari bilan o'rnatilgan tartibda ta'minlash;
- davlat kadastrini yuritishga doir me'yoriy hujjatlarni belgilangan tartibda ishlab chiqish;
- mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha reja asosida ish olib borish;
- yer resurslarining holati, ulardan foydalanish va ularni qayta tiklash to'g'risida har yili milliy hisobot tayyorlash;
- barcha toifadagi yerlar bo'yicha davlat yer kadastrini yuritish;
- qonun hujjatlari muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshirish;
- shahar va qishloq yerlaridan foydalanishni ro'yxatga olish, nazorat qilish, kadastrga oid hujjatlarga joriy o'zgartirishlar kiritish.

III. DAVLAT YER KADASTRI ISHLARINING TAMOYILLARI

1-§. Yerga egalik qilish va yerdan foydalanishga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi

Yerga egalik qilish va yerdan foydalanishning davlat ro‘yxati yer kadastrining tarkibiy qismlari bo‘lib, yerning huquqiy xo‘jalik holatini ta’minlaydi. U yerga egalik va yerdan foydalanuvchilarga yer uchastkalarini chegaralari bo‘yicha biriktirib qo‘yish va huquqiy rasmiylashtirish, yerlarga egalik qilish va foydalanish huquqini beruvchi hujjatlar topshirish, yer egalari hamda yerdan foydalanuvchilarning davlat tuman (shahar) yer kadastro kitobida ko‘rsatilishini o‘z ichiga oladi. Bu yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni ro‘yxatga olish yer kadastro kitobining tashqi ko‘rinishi quyidagicha:

Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarning paydo bo‘lishi, tugatilishi, ajratib berilishi, saqlanishi va o‘zgarishi sababli ularni ro‘yxatdan o‘tkazishga berilgan hujjatlar o‘rnatilgan tartibda notariusdan o‘tkaziladi.

«Kelishildi»

O‘zbekiston Respublikasi
Makroiqtisodiyot va
statistika vazirligining
birinchi o‘rnbosari

2002-yil 22-oktyabr

«Tasdiqladi»

O‘zbekiston Respublikasi Yer
resurslari, geodeziya, kartografiya va
davlat kadastro bo‘yicha davlat
qo‘mitasining raisi

2002-yil 23-oktyabr

O‘zbekiston Respublikasi _____ viloyati
_____ tuman (shahar)ning

DAVLAT YER KADASTRI KITOBI

Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

- davlat tomonidan berilgan yer uchastkasiga egalik qilish huquqini beruvchi order berilganda, oldi-sotdi shartnomalari va qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan boshqa ma’lumotlar bo‘lganda;
- tegishli tashkilot (rahbar) qarori asosida yer uchastkasiga egalik qilish va undan foydalanish huquqi paydo bo‘lganda;
- qaror asosida yer uchastkasini ijaraga berish natijasida ijaraga bo‘lgan huquq paydo bo‘lganida;
- shartnoma asosida oldi-sotdi, almashtirish, hadya qilish, inshoot va qurilishlarga bo‘lgan huquqni yerga egalik qiluvchi yoki vakolati bo‘lgan tashkilot (shaxs)ning egalik qilish bo‘yicha o‘zga tashkilot yoki shaxsga bergen vakolati asosida;

- shartnoma yoki sud qarori asosida servitut bo‘lganda;
- yer uchastkasini saqlash bo‘yicha qaror qabul qilinganda.

Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi:

- arizani qabul qilish;
- arizani va unga ilova qilingan hujjatlarni tekshirib chiqish;
- arizani qabul qilinganligini ro‘yxatga olish;
- yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni ro‘yxatga olish;
- ariza beruvchiga yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni ro‘yxatga olganligi to‘g‘risida guvohnoma berish.

Yer uchastkasini ro‘yxatdan o‘tkazish 10 kun ichida 17-jadval asosida bajarilishi shart.

Agar ro‘yxatdan o‘tkazish uchun hujjatlarda ba’zi kamchilik va xatolar borligi aniqlansa, ularni bartaraf qilish uchun ikki hafta muddat beriladi. Berilgan muddatda kamchiliklar yo‘qotilmasa, ariza beruvchiga ro‘yxatdan o‘tkazilmasligi to‘g‘risida yozma ravishda javob xati berilishi lozim.

Ro‘yxatdan o‘tkazish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassis yerga bo‘lgan huquqni ro‘yxatdan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning to‘g‘riliği va aniqligiga javob beradi.

Ro‘yxatdan o‘tkazuvchi mutaxassis o‘rnatilgan tartibda yer uchastkalariga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatiga olish uchun berilgan hujjatlarni tekshirib chiqqanidan so‘ng ro‘yxatga olish yoki olmaslik to‘g‘risida bir fikrga keladi. Ro‘yxatga oladigan bo‘lsa, yer uchastkalariga kadastr tartib raqami beradi. Tuman (shahar) navbatchilik olib boriladigan kartasiga yer uchastkasining chegaralari

Yer uchastkalariga bo'lgan huquq quyidagi shaklda ro'yhatga olib boriladi

T/r										Yer uchastkalarining kadasht ragaami		Yer egealari, yerdan foydalananuvchi, ja'farachli		Yer uchastkalarining va mulkdorminge nomi		Yer uchastkalarining joylashtirning huquq turi		Yer uchastkalariga bo'lgan huquq tasdiqlajovchi hujjat nomi		Yer uchastkasiдан foydalanshit muddati		Umumiy yer maydoni, ga		O'raca baliiboniteli		Ro'yxatga olingan sana		
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11																		
1	000112	«Ozot» shirkat xo'shaligi	Yuqori Chinchiq	Egalik qilish	Viloyat	hokimiyatining 25-sonli qarori	Dorimiy	mahsuloti etishtirish	Q/x	2500	60	20.05.04 y.																
2	000113	«O'zbekiston» paxta punkti	Yangiyo'li shahri	Foydalanshi	Yangiyo'li Luman	hokimiyatining 30.09.04 y. 17-sonli qarori	Paxta mahsulotini ishlab chiqish	Paxtani tolaga ayvantirish	3,0	-	10.10.04 y.																	

tushiriladi va ularga kadastr raqamlari yozib qo'yiladi. So'ngra yer kadastr kitobiga kerakli qo'shimchalar va o'zgarishlar yozib qo'yiladi. Barcha hujjatlarni jamlab, yer uchastkasiga bo'lgan huquq asosida guvohnoma beriladi.

Yuridik va fizik shaxslar talabiga binoan, ro'yxatga olingan hujjatlardan nusxalar tayyorlab berilishi mumkin.

Har yili bir martabadan kam bo'Imagan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardagi Yer resurslari boshqarmalari hamda Respublika Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastro bo'yicha davlat qo'mitasi tomonidan tuman va shaharlardagi yer uchastkalariga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha qilingan ishlar nazoratdan o'tkazib boriladi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni ro'yxatga olishni bekor qilishga asosolar:

- yer uchastkasini ro'yxatdan o'tkazuvchi davlat tashkilotida yer kimga qarashligi to'g'risida kelishmovchilik xati bo'lganda;
- yer uchastkasini ro'yxatdan o'tkazuvchi davlat tashkilotida bu yer uchastkasi boshqa shaxsga yoki tashkilotga o'rnatilgan tartibda ajratib berilgan bo'lsa.

Nazorat savollari

1. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqni kimlar tomonidan, qanday xujjatlarga asoslangan holda olib boriladi?
2. Yer uchastkalarini ro'yxatga oladigan davlat kadastro kitobi qanday qismlardan iborat?
3. Qanday hollarda yer uchastkalariga bo'lgan huquqni ro'yxatga olinmaydi?
4. Yer uchastkasiga bo'lgan huquqni ro'yxatdan o'tkazishni ahamiyati nimadan iborat?
5. Yerga bo'lgan huquqni ro'yxatga olish ishini qaysi tashkilotlar tomonidan nazorat qilinadi va ularni javobgarligi nimadan iborat

2-§. Sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish (xatlash)

Sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi topshirig'iga hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirliklarining buyrug'iga asosan o'tkaziladi.

Fermer, dehqon xo'jaliklari va boshqa qishloq xo'jaligi hamda o'rmon xo'jaligi davlat tashkilotlari, hamma qaram korxona va tashkilotlar, shuningdek, davlat yer zaxirasida joylashgan, muddatsiz, uzoq muddatli va qisqa muddatli foydalanishda bo'lgan, sug'oriladigan va lalmikor yerlar ro'yxatga olinadi. Shuningdek, liman usulida sug'oriladigan yerlar ham ro'yxatdan o'tkaziladi.

Yerlarni ro'yxatga olish bir vaqtida o'tkaziladigan tadbir bo'lib, bunda har qaysi xo'jalik bo'yicha quyidagilar amalga oshiriladi:

- qishloq xo'jalik yer turlarining maydoni to'g'risida aniq ma'lumotlar olish va ularni reja-karta asosida ko'rsatish;

- tuproq tekshiruv hujjatlari asosida qishloq xo'jalik yer turlarining sifatiga tavsif berish;

- yer ustini tekislash tadbirlari o'tkazish, kollektor, drenaj, yer sug'orish tarmoqlarini qurish va rekonstruksiya qilish zarur bo'lgan maydonlarni aniqlash va boshqalar.

Foydalananidan har qaysi yerni ro'yxatga olish viloyat qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarish boshqarmasidan asosiy kanallar va sug'orish manbalaridan olingan ma'lumotlar bo'yicha o'tkaziladi.

Yerlarni ro'yxatga olish ishlarini, ularni natijalarini umumiylashtirish va tasdiqlash bo'yicha viloyat hokimiyati topshirig'iga asosan, tuman va viloyat hokimiyatlari qoshida komissiyalar tashkil qilinadi.

Viloyatda tuzilgan komissiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- viloyat dehqonchilik-sanoat uyushmasining boshlig'i (komissiya raisi);

- qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarish boshqarmasining boshlig'i;

- viloyat hokimiyati er resurslari boshqarmasi boshlig'i;

- «O'zdavyerloyiha» ilmiy-loyiha institutining bosh muhandisi.

Tumanda tuzilgan komissiya tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari uyushmasi boshlig'i (komissiya raisi);


- tuman sug'orish tarmog'i boshqarmasi boshlig'i yoki ishlab chiqarish-foydalanish uchastkasi boshlig'i;

- tuman hokimiyatining yer resurslari bo'limi boshlig'i;

- «O'zdavyerloyiha» ilmiy-loyiha instituti bosh muhandisi yoki muhandisi.

Zarur bo'lgan hollarda komissiya tarkibiga boshqa tashkilotlarning vakillari ham kiritilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Toshkent viloyati
 O'rta Chirchiq tumanidagi "Konchi" fermer xo'jaligining
 tuproq sifatini baholash xaritasi



Har qaysi xo'jalikda asosiy ish bajaruvchi «O'zdavyerloyiha» ilmiy-loyiha instituti muhandisi bo'lib, u ishni tuman gidrotexnigi, yer tuzish muhandisi, xo'jalik rahbarlari va mutaxassislari bilan birgalikda bajaradi.

Yerlarni ro'yxatga olish masshtabi 1:10000 bo'lgan karta asosida amalgalashiriladi. Ayrim hollarda lalmikor yerlar masshtabi 1:25000 bo'lgan karta asosida ro'yxatga olinadi.

Ayrim maydonlar uchun karta asoslari bo'lmasa, bu ish karta yangidan tayyorlangan holda amalgalashiriladi.

Davlat yer zahiralari va davlat o'rmon fondlari rejali karta bilan ta'minlangan bo'lmasa, sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish oddiy yo'l - qishloq xo'jaligi yer turlarini joyida o'chash yo'li bilan olib boriladi. Lalmikor yaylov qisman sug'oriladigan yerlar ham shu usulda ro'yxatga olinadi.

Ishlarning tarkibi. Sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish ishlari quyidagi bosqichda bajariladi:

- tayyorgarlik va tashkiliy ishlar;
- dala ishlar;
- maydonlarini aniqlash va qaydnomalarini to'lg'azish;
- rasmiylashtirish va hujjatlarni ko'paytirish;
- ro'yxatga olish natijalarini ko'rib chiqish.

Tayyorgarlik va tashkiliy ishlar, har bir xo'jalik bo'yicha tashkiliy ishlar:

- yerdan foydalanish rejasi;
- maydonni hisoblash qaydnomasi;
- tuproq-tekshiruv hujjatlari;
- yerni hisobga oluvchi yer hisoboti;
- boshqa yer tuzish hujjatlari tanlab olinadi.

Yerdan foydalanish rejasi tarkibiga:

- xo'jalik chegarasida sodir bo'lgan o'zgarishlarni o'tkazish;
- sug'oriladigan mintaqalirini va ularning chegaralarini, bu mintaqar ichidagi doim sug'oriladigan yerlarning chegaralarini ayni paytning o'zida suv olinadigan asosiy kanal mintaqasini ko'rsatish kiradi. Bu ma'lumotlar tuman sug'orish tarmoqlari boshqarmasi hujjatlari asosida tayyorlanadi.

Ko'chib yurib dehqonchilik qiladigan xo'jaliklar uchun faqat sug'oriladigan yerlar chegarasi aniqlanadi, lekin bu chegara yerlar rejasi asosida emas, balki umumiy irrigatsiya tarmoqlari bo'yicha aniqlanadi.

Bostirilib sug‘oriladigan yerlari bo‘lgan xo‘jaliklarda karta asoslariga bunday yerlarning chegaralari tushiriladi. Liman usulida sug‘oriladigan muhandislik tarmoqlarining chegaralari loyiha hujjatlari asosida aniqlanadi. Keyinchalik esa daladagi haqiqiy bostirib sug‘oriladigan yerlar chegaralarining to‘g‘riligi aniqlanadi.

Dala ishlari. Dala ishlari davomida sug‘oriladigan maydonlarning to‘g‘riligi aniqlanadi va barcha o‘zgarishlar karta asoslariga tushiriladi.

Yangi paydo bo‘lgan o‘zgarishlar kartaga qizil rangda qisqa qilib, chegarasi yo‘q bo‘lgan sug‘oriladigan joylar, shuningdek, doimiy sug‘oriladigan yerlar chegarasi siyoh rangda, kanallarning boshlanish zonasi havo rang va aholi yashaydigan joylar jigar rangda chiziladi.

Qishloq xo‘jaligida foydalanish va sug‘orilish uchun yaroqli, sug‘orish tarmoqlari (kanallar, latoglar, truboprovodlar va boshqalar) ga va shu yerlar sug‘orilishini ta‘minlovchi manbaga ega bo‘lgan yerlar sug‘oriladigan yerlar hisoblanadi. Sug‘oriladigan yerlarga, shuningdek, ularning meliorativ holatini yaxshilash va sug‘orish tarmoqlarini qayta qurish zarur bo‘lgan yerlar ham kiradi.

Yangidan foydalanishga topshirilgan, ya’ni loyiha hujjatlariga, asosan meliorativ qurilishlar o‘tqazilgan va davlat komissiyasi xulosasi bo‘yicha xo‘jalikka berilgan yerlar ham sug‘oriladigan yerlar sanaladi.

Yerlarni ro‘yxatga olishda doimiy sug‘oriladigan va liman usulida sug‘oriladigan yerlar ajratiladi.

Sug‘oriladigan yerlarga qishloq xo‘jaligi ekinlari va daraxtlarni o‘z vaqtida sug‘orish imkonini bo‘lgan (suv ta‘minotiga bog‘liq holda) yerlar kiradi. Marza olingan, damba va boshqa gidrotexnik inshootlar qurilib, zarur sug‘orish suvini ushlab qolish yoki maxsus qurilmalar yordami bilan sug‘orish tarmoqlaridan suv olib, bostirib sug‘oriladigan yerlar liman usulida sug‘oriladigan yerlar hisoblanadi.

Sug‘oriladigan mintaqasi chegarasida hamma yer turlari aniqlanadi va karta asosida o‘zgarishlar taqozo etadigan ishlar amalga oshiriladi, aholi yashaydigan punktlarning chegarasi belgilanadi, shuningdek, aholi foydalanilayotgan haydalma yerlar va sug‘oriladigan boshqa yer turlari ajratiladi.

Tomorqa yerlarida dala tekshiruvi ishlari o‘tqazilmaydi. Ularning maydoni ilgaridan ma’lum bo‘lgan ma’lumotlardan olinadi (tomorqa yerlarida o‘lchov alohida o‘tqaziladi, ma’lumotlari aniqlanadi).

Sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish qaydnomasi shu yerlarning har bir xo'jalik bo'yicha tuzilishiga asosan, yer turlari konturlariga ko'ra maydonini hisoblash orqali olinadi.

Agar oldin hisoblab chiqarilgan maydon o'zgarmagan bo'lsa, uning qaydnomasidan foydalanib, ro'yxatga olish shakllari to'lg'aziladi.

Bordiyu, xo'jalik maydonining bir qismi yoki ayrim bo'lagida tegishli o'zgarishlar bo'lgan bo'lsa, hisoblash qaydnomasiga o'zgarishlar kiritmaydi, bu o'zgarishlar ro'yxatga olish shakllarini to'lg'azishda ko'rsatib o'tiladi.

Ro'yxatga olish qaydnomasi quyidagicha to'ldiriladi:

Doimiy (muddatsiz) foydalaniladigan yerlar.

1. _____ kanaldan doimiy sug'oriladigan yerlar, shu sug'orish kanallari mintaqasidagi hamma yer turlari konturi yoziladi va kanal mintaqasi bo'yicha ularning jami beriladi.

2. _____ kanaldan doimiy sug'oriladigan yerlar.

Doimiy sug'oriladigan yerlarning jami:

3. _____ kanal mintaqasidagi sug'orish tarmoqlari bo'lgan sug'oriladigan yerlar.

4. _____ kanal mintaqasidagi liman usulida sug'oriladigan yerlar.

5. _____ kanal mintaqasidagi sug'orish tarmoqlari bo'lgan sug'oriladigan yerlar.

Sug'orish tarmoqlari bo'lgan sug'orilmaydigan yerlarning jami.

Sug'orish tarmoqlari bo'lgan yerlarning jami.

_____ kanaldan sug'oriladigan yerlari bo'lgan, uzoq muddat foydalanishga berilgan yerlar.

Hamma yerlar.

Bundan tashqari, qisqa muddat foydalanishga berilgan yerlar
_____ kanaldan sug'oriladigan yerlar.

Xo'jaliklarning boshqa yerdan foydalanuvchilarga berkitib qo'yilgan yerlari.

Sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish qaydnomasi guruh rahbari (otryad boshlig'i) tomonidan tekshiriladi, unga to'ldirgan shaxs va xo'jalik rahbari tomonidan imzo chekiladi.

Sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlari tuprog'inining sifatini aniqlash va qaydnomani to'lg'azish uchun qo'shimcha ishlar bajarilmaydi, balki mavjud tuproq-tekshiruv hujjatlaridan, shuningdek, yer turlari tarkibini ro'yxatga olish ma'lumotlaridan foydalaniлади va maydon har qaysi ko'rsatgich bo'yicha boshqatdan hisoblab chiqaziladi.

Shu bilan birga, sug'oriladigan qishloq xo'jalik yerlarining maydonlari respublika hisob-kitob guruhlariga, shuningdek, mexanik tarkibi, sho'rланish darajasi va eroziyaga uchrashi bo'yicha ajratiladi.

Meliorativ holatdagи yerlar qaydnomasi gidrotexnik va viloyat qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarish boshqarmasi ma'lumotnomalaridan hamda meliorativ xizmat ko'rsatuvchi tuproqshunos maslahatiga ko'ra, yer sifatining tavsifi, sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlarining dala tekshiruvi ma'lumotlari asosida to'lg'aziladi. Sifatini yaxshilash uchun kapital ishlar amalga oshirilishi zarur bo'lgan yerlar maydoni aniqlanadi hamda u yerlarda sug'orish tarmoqlarini rekonstruksiya qilish, qayta qurish, yer uchastkalarining ustini kapital tekislash va boshqa tadbirlar o'tkazish zarur bo'ladi. Bu maydonlar doimiy sug'oriladigan yerlarni ajratish bilan birga aniqlanadi.

Hujjatlarni rasmiylashtirish va ko'paytirish. Sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish natijalari har bir xo'jalik bo'yicha 3 nusxada dalolatnoma tuzish orqali rasmiylashtiriladi. Dalolatnoma komissiya a'zolari, xo'jalik rahbari va bosh agronom tomonidan imzolanadi.

Dalolatnomaning har bir nusxasiga sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish bo'yicha jamlangan yakuniy yer balansi ma'lumoti, ro'yxat, ma'lumotni ro'yxatga olish, ma'lumotning qiyosiy qaydnomasi, qishloq xo'jalik yerlari sifatining tavsifi va har qaysi sug'orish kanali mintaqasidagi sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati va butun xo'jalik bo'yicha holati, xo'jalikning yerdan foydalanish rejasи qo'shib beriladi (18-jadval).

Ro'yxatga olish hujjatlari har qaysi xo'jalik bo'yicha 3 nusxada ko'paytiriladi. Har bir nusxa quyidagi hujjatlardan tashkil topgan bo'ladi:

- qisqacha tushuntirish xati;
- ro'yxatga olish dalolatnomasi ilovalar bilan;
- sug'oriladigan yerlar ro'yxati qaydnomasi;
- sifatini yaxshilash bo'yicha kapital ishlar amalga oshirilishi

zarur bo‘lgan sug‘oriladigan yerlarning konturlar bo‘yicha qaydnomasi.

Taqqoslash qaydnomasida sug‘oriladigan yerlar miqdori yer balansi bo‘yicha solishtirilganda o‘zgarishlar sababi tushuntiriladi.

Nazorat savollari

1. Sug‘oriladigan yerlarni ro‘yxatga olishini tarkibi nimalardan iborat?
2. Liman usulida sug‘oriladigan yerlar qanday yerlar deganda nimani tushunasiz?
3. Sug‘oriladigan yerlarni ro‘yxatga olishdan maqsad nima?
4. Sug‘oriladigan yerlarni ro‘yxatga olish tartibi qanday?
5. Sug‘oriladigan yerlarni ro‘yxatga olish kimlar tomonidan va qaysi tartibda olib boriladi?
6. Sug‘oriladigan yerlarni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi tashkilot va hujjatlarni tasdiqlovchi organlar kimlar?
7. Sug‘oriladigan yerlarni ro‘yxatdan o‘tkazish hujjatlari qaysi yerlarda foydalilanildi?

viloyati
tumanining

xo‘jalikning nomi
tuzdi
(lavozimi, imzosi, familiyasi)
tekshirdi

18-jadval

Sifatini yaxshilash bo‘yicha kapital ishlar o‘tkazish zarur bo‘lgan
sug‘oriladigan yerlarning konturlar bo‘yicha qaydnomasi (ishchi)
gektar hisobida

Bajarilishi talab qilinadigan yerlar						
Konturlar ?	Hammasi	Kollektor drenaj tarmoqlarini tuzish va qayta tiklash	Sig‘orish tarmoqlarini qayta qurish va tuzatish	Yerning suv bilan ta’milanishini yaxshilash	Yer maydonlar i yuzasini kapital tekislash	Boshqa tadbirlar

Izoh: Qaydnomani to‘lg‘azishda tuzatishlar kiritilgan fotoplandan foydalananilda konturlar guruhini bir qatorga yozish uchun ruxsat etiladi.

(vazirlilik)

D A L O L A T N O M A

viloyat

tumanidagi

xo'jalik nomi va uning ixtisoslashganligi

Sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish dalolatnomasi

1. Tuman hokimining qaroriga binoan 200 ____ y. ____ sonli ____.

2. Quyidagi tarkibda komissiya tuziladi:

tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari uyushmasining
boshlig'i _____ (rais) tuman sug'orish tarmoqlari
boshqarmasining boshlig'i _____ tuman
yer tuzish bosh muhandisi yoki boshlig'i _____

loyiha bosh muhandisi (yoki ekspeditsiya boshlig'i) _____

xo'jalik rahbari _____ xo'jalik
bosh agronomi _____ 2004-yildan

gacha bo'lган davrda sug'oriladigan yerlar ro'yxatga olindi.

3. Ro'yxatga olishda quyidagi hujjatlardan foydalanildi:

- karta asoslaridan (litootisk, svetkopiya, nisbati)

nashr qilingan yil _____

- tuproq tekshiruv ishlari _____

- yerlarni sifatini hisoblash _____

4. Sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish natijalari quyidagi ilovalarda
aks ettirilgan:

1. Sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish bo'yicha yer turlarining
yakuniy natijasi;

2. Yer balansi ma'lumotlarini va sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga
olish natijalarining qiyosiy qaydnomasi;

3. Qishloq xo'jalik yer turlarining sifati bo'yicha tavsifnomasi;

4. Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holati tavsifnomasi;

5. Xo'jalikning _____ masshtabdagi yerdan foydalanish
kartasi.

Rais _____

(imzosi, familiyası)

Komissiya a'zolari: _____

_____ viloyat
_____ tuman

200 ____ y _____ dagi
sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga
olish dalolatnomasiga 1-ilova

kanaldan
sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish
bo'yicha yer turlarining jamlangan yakuni

Yer turlarining nomi	Hamma yerlar, ga	shu jumladan, sug'orish tarmoqlari bilan	ulardan doimiy sug'oriladigan
1. Haydalma yerlar			
2. Bog'lar			
3. Uzumzorlar			
4. Tutzorlar			
5. Mayda mevazorlar			
6. Sitrus va subtropik o'simliklar			
7. Ko'chatzorlar			
8. Bo'z yerlar			
9. Pichanzorlar			
10. Yaylovlar			
11. Tomorqa yerlari			
12. Meliorativ tayyorgarlik holatidagi verlar			
13. O'rmonlar, ulardan o'rmon polosalari			
14. Butazorlar			
15. Botqoqlar			
16. Suv ostida, ulardan kanallar, kollektorlar ostida			
17. Yo'llar			
18. Qurilish, yo'l va hovlilar			
19. Boshqa yerlar			
Jani:			

Tuzuvchi: _____

Tekshiruvchi: _____

viloyati
tumandagi
(xo‘jalikning nomi)

200 y dagi
sug‘oriladigan yerlarni ro‘yxatga
olish dalolatnomasiga 2-ilova

**Yer balansi ma’lumotlarini va sug‘oriladigan
yerlar ro‘yxati natijalarining qiyosiy
QAYDNOMASI**

Yer turlarining nomi	01.01.200 yeri balansi bo‘yicha yil ro‘yxatga olish yakuni bo‘yicha	Farqi	Farq qilish sabablari
1. Haydalma yer, hammasi, sh.j. doimmiy sug‘oriladigani			
2. Ko‘p yillik daraxtlar			
3. Bo‘z yerlar, hammasi, sh.j. doimiy sug‘oriladigan mintaqada			
4. Pichanzorlar			
5. Yaylovlari Hamma yer turlari bo‘yicha: sh.j. doimiy sug‘oriladigani			
6. Tomorqa verlari			
7. Ihota o‘rmon polosalari va o‘rmonlar.			
Sug‘oriladigan yerlar			
Jami:			

Tuzuvchi: _____

Tekshiruvchi: _____

viloyati 200 y dan
 tumanda gisug'oriladigan yerlarni ro'yxatga
 olish dalolatnomasi 3-ilova
 (xo'jalikning nomi)

**kanaldan sug'oriladigan
 yerlarning meliorativ holati
 TAVSIFNOMASI**

?	Ko'rsatkichlar nomi	Maydoni, hektar
1	Sug'oriladigan yerlar maydoni	
2	Sug'oriladigan yerlarning suv bilan ta'minlanganligi, 75 foizdan yuqori 50 foizdan 75 foizgacha	
3	Drenajlar bilan ta'minlangan yerlarning hammasi, ulardan yopiq drenajlar bilan, vertikal drenajlar bilan	
4	Sug'oriladigan uchastkalar miqdori aniq bo'lgan haydalma yerlar	
5	Sifatini yaxshilash bo'yicha kapital ishlar amalga oshirilishi zarur bo'lgan sug'oriladigan yerlar maydoni, shu jumladan, tajab qilinadi: Kollektor-drenaq tarmoqlarini tuzatish va rekonstruksiyalash sh.j. doimiy sug'oriladigan yerlar Sug'orish tarmoqlarini qayta qurish va rekonstruksiyalash, sh.j. doimiy sug'oriladigan yerlar Suv bilan ta'minlanish darajasini oshirish zarur bo'lgan yerlar Yer maydonlarining yuzasini kapital tekislash	
	Boshqa tadbirlar	

Tuzuvchi _____
 (lavozimi, imzo, familiyasi)

Tekshiruvchi _____

**Tuproqning sho'rlanish darajasi bo'yicha tasnifi
(Egorov va Minashina bo'yicha)**

Tuproqlarning sho'rlanish darajasi bo'yicha	Tuzlar miqdori			
	HCO ₃	Cl	Na	SO ₄
Sho'rlanmagan	< 0,061	< 0,01	< 0,023	< 0,08
Kuchsiz sho'rangan	0,061-0,122	0,01-0,035	0,023-0,046	0,08-0,17
O'nacha sho'rangan	0,122-0,244	0,035-0,070	0,046-0,092	0,17-0,34
Kuchli sho'rangan	0,244-0,488	0,070-0,140	0,092-0,184	0,34-0,86
Juda kuchli sho'rangan (sho'rxoq)	0,488	0,140	0,184	0,86

Xo'jaliklar bo'yicha sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish hujjatlari (19-jadvad):

- xo'jalikka;
- tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari uyushmasi boshqarmasiga;
- tuman sug'orish tarmoqlari boshqarmasiga;
- «O'zdavyerloyiha» ilmiy-loyiha institutiga (haqiqiy nusxa) topshiriladi.

Tumandagi yerdan foydalanuvchilar ixtiyoridagi hamma sug'oriladigan yerlar ro'yxatga olingach, yakuniy hisobot tayyorlanadi. Bu hisobot 5 nusxada ko'paytirilib, quyidagi tashkilotlarga topshiriladi:

- tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari uyushmasi boshqarmasiga;
- tuman sug'orish tarmoqlari boshqarmasiga;
- viloyat yer resurslari boshqarmasiga;
- O'zbekiston yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri qo'mitasiga;
- «O'zdavyerloyiha» ilmiy-loyiha institutiga.

Viloyat bo'yicha yakuniy hisobot tumanlar bo'yicha yakuniy hisobot asosida tuzilib, quyidagilarga topshiriladi:

- viloyat yer resurslari boshqarmasiga;
- viloyat qishloq va suv xo'jaligi ishlab chiqarish boshqarmasiga;
- O'zbekiston yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri bo'yicha davlat qo'mitasiga.

Ro'yxatga olish natijalarini ko'rib chiqish.

Sug'oriladigan yerlarni xatlash (ro'yxatga olish) yakuni,

tumanlar bo'yicha tuman hokimiyati va viloyat hokimiyati tomonidan ko'rib chiqilib, qaror bilan tasdiqlanadi.

Respublika bo'yicha esa, Vazirlar Mahkamasi tomonidan yer hisoboti bilan birga tasdiqlanadi.

3-§. Lalmikor va yaylov yerlarni ro'yxatga olish (xatlash) tartibi

1. Umumiy qoidalar

Lalmikor va yaylov yerlarni ro'yxatga olish Qishloq va suv xo'jalik vazirligining «Qishloq xo'jalik hisobotini yaxshilash va ro'yxatga olish to'g'risida»gi buyrug'iiga asosan amalga oshiriladi.

Lalmikor va yaylov mintaqalaridan hamma muddatsiz va uzoq muddatli qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida foydalanilayotgan fermer va dehqon xo'jaliklar yerlari, shunindek, davlat zahirasidagi yerlar, o'rmon va boshqa qishloq xo'jalik tashkilotdari, korxonalar va muassasalar foydalanayotgan yerlar ro'yxatga olinadi.

Yerdan foydalanuvchilar foydalanayotgan respublika chegarasidan tashqaridagi yaylov yerlar tekshirilmaydi, ularning maydoni mavjud ma'lumotlar bo'yicha qabul qilinadi.

Ro'yxatga olishdan asosiy maqsad har bir xo'jalik bo'yicha:

- qishloq xo'jalik yerlari maydoni haqida aniq ma'lumotlar olish va ularni reja-kartografiya asoslarida ko'rsatish;
- lalmikor mintaqalardagi tuproq-tekshiruv hujjatlari asosida qishloq xo'jalik yerlarining sifatini tavsiflash;
- geobotanik tekshirish hujjatlari bo'yicha pichanzor va yaylovlarni tavsiflash.

Yerlarni ro'yxatga olish ishlari yer tuzuvchilar tomonidan xo'jaliklarda bajariladigan yer tuzish bo'yicha tekshiruvlar va qayta tekshirish ishlari bilan birgalikda olib boriladi.

Ro'yxatga olish ma'lumotlari yerdan foydalanuvchilar va yer turlari taqsimoti bo'yicha hisobot tuzishda asos qilib olinadi. Ro'yxatga olish so'ngida hisobot yozilguncha yer turlari maydoni o'zgarishi mumkinligi hisobga olinib, ro'yxatga olish ma'lumotlariga joylardagi yer tuzish xizmati hodimlari tomonidan tuzatishlar kiritiladi.

Ro'yxatga olish ishlarini bajarish va umumlashtirish, ularning natijalarini tasdiqlash uchun tuman komissiyasi tuziladi.

Tuman komissiyasi tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- tuman qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi bosh agronomi yoki boshlig'i (komissiya raisi);
- tuman hokimiysi yer resurslari bo'lim boshlig'i;
- «O'zdavyerloyiha» institutining muhandisi;
- yer resurslari bo'limi boshlig'i;
- xo'jalik agronomi, yer tuzuvchisi.

Bu ishlarning asosiy ijrochisi yer tuzuvchi va tuproqshunos bo'lib, ular ro'yxatga olish ishlarini xo'jalik rahbarlari va mutaxassislar ishtirokida bajaradilar.

Lalmikor yerlar mintaqasidagi yerlarni ro'yxatga olish masshtabi 1:25000 bo'lgan kartografiya asoslarida, ayrim hollarda masshtabi 1:50000 kartografiya asoslarida ishlashga ruxsat etiladi.

Yaylov zonalarida 1:50000 va 1:100000 nisbatdagi kartografiya asoslarida ish olib boriladi.

Bajarilgan ishlar tarkibi. Lalmikor va yaylov yerlarni ro'yxatga olish ishlari quyidagi bosqichlarda bajariladi:

- tayyorgarlik va tashkiliy ishlar;
- dalada tekshiruv o'tkazish ishlar;
- ro'yxatga olingan yerlar maydonini aniqlash va qaydnomalarini to'lg'azish;
- hujjatlarni rasmiylashtirish va ro'yxatga olish natijalarini ko'rib chiqish.

Tayyorgarlik va tashkiliy ishlar. Tayyorgarlik ko'rish va tashkiliy ishlarni bajarish davrida:

- kartografiya asoslari(yerdan foydalanish kartasi);
- konturlar bo'yicha maydonlarni hisoblash qaydnomasi;
- tuproq, geobotanik, gidrogeologik va boshqa tekshiruv hujjatlari;
- oldingi yillarda qilingan xo'jalik ichidagi yer tuzish hujjatlari;
- yerlarning 1-yanvargacha qilingan oxirgi hisoboti;
- yerlarni qayta taqsimlangani bo'yicha hujjatlar (yer balansi tuzilgandan so'ng amalga oshirilgan bo'lsa);
- yog'ingarchilik bilan ta'minlangan, yarim ta'minlangan lalmi yerlarning chegarasi tushirilgan tuman qishloq xo'jalik kartasi tanlab olinadi.

Izoh: Keyingisi tuman va viloyat tuproq kartasi ma'lumotlari bo'yicha tushiriladi. Bu yerda ta'minlangan lalmi yerlarga (to'q, tusli bo'z tuproqlar va jigarrang tuproqlar mintaqasi) yiliga 350 mm. yog'in yog'adigan tog' oldi va past tog'lilar, yarim ta'minlangan lalmi yerlarga esa 280

mm. dan kam yog‘in suvlari tushadigan (och tusli bo‘z taproqlar poyasi) tekislik mintaqalar kiradi.

Yerdan foydalanish kartasiga quyidagilar tushiriladi:

- xo‘jalik chegarasi va o‘zgarishga uchraganligini hisobga olgan holda bo‘limning chegaralari;
- ta’minlangan, yarim ta’minlangan va ta’minlanmagan lalmikor yerlar chegarasi;
- sug‘oriladigan ayrim kichik yerlarning chegaralari;
- almashlab ekish massivlari, almashlab ekish dalalari, ko‘p yillik daraxtlar maydoni va boshqa yerlarning chegaralari;
- yaylov tiplarining tartib raqamlari va chegaralari.

Dalada tekshiruv o‘tkazish ishlari. Dalada tekshirish o‘tkazish ishlarini bajarishdan maqsad qishloq xo‘jalik yerlarining turlari va joylashishini tekshirish hamda kartografik asoslari joylarida haqiqiy naturaga keltirish.

Bu ishlar tabaqalashgan holda quyidagicha amalga oshiriladi:

- lalmikor yerlar mintaqasidagi hamma maydonlarda tekshiruv o‘tkazilib, kartografik asoslarga tuzatishlar kiritiladi;
- yaylov yerlar mintaqasida rekognossirovka yo‘li bilan hamma maydonlar kartografik asoslар bilan solishtirib ko‘riladi.

Izoh: Xo‘jalik ichida yer tuzish ishlari uchun qilingan yangi agroxo‘jalik va geobotanik tekshiruv hujjatlari bo‘lsa, dala tekshiruv ishlari o‘tkazilmaydi.

Dalada tekshirish ishlari o‘tkazish davrida yer tuzuvchi quyidagi ishlarni bajaradi:

- kartografiya asoslarini haqiqiy natura holiga keltiradi, yaylov va lalmikor yerlar, mintaqalar chegarasini belgilaydi;
- tuproqshunos bilan birgalikda kartografik asoslarga ta’minlangan lalmikor yerlar chegarasi o‘tkazadi;
- aholi yashaydigan punktlarning aniq chegarasi, tomorqa yerlari va xo‘jalik yerlarining turlari bo‘yicha maydonlarini kartografiya asoslari nisbatida ko‘rsatilishiga mos qilib belgilaydi;
- hamma qishloq xo‘jalik yer turlarini hamda sug‘oriladigan ayrim kichik yer maydonlari ham tekshirib chiqiladi.

Tuproqshunos tuproq kartalardan foydalanib, qishloq xo‘jalik yer turlarining sifat holatini, suv va shamol eroziyasiga uchraganlik darajasini aniqlash uchun rekognossirovka – tekshiruv ishlarini o‘tkazadi.

Tuproqshunosning ish hajmi u tayyorlagan tuproq kartalarining to'laligi va vaqtida tayyorlangani tuproq tekshiruv hujjatlari bilan belgilanadi. Bu hujjatlarda o'zgarishlar bo'lmasa, ular asosida «Lalmikor yerlar sifatining tavsifi bo'yicha qaydnomasi» to'lg'aziladi.

Izoh: To'laqonli tuproq - tekshiruv hujjatlari deb genetik kelib chiqishidan tashqari tuproqning mexanik tarkibi, tosh aralashganlik, suv va shamol eroziyaga uchraganlik darajalari va joyning nishabligi (graduslarda) ko'rsatilgan kartogrammalari bo'lgan hujjatlarga aytildi (yoki tuproq eksplikatsiyasida tuproq ayirmalari bo'yicha nishablik ko'rsatilgan bo'lsa).

Tuproq-tekshiruv ishlari xo'jalik bo'yicha to'liq rejada o'tkazilib, nishablik bo'ymcha kartogramma tayyorlanmagan va tuproq turlarida nishablik ko'rsatilmagan bo'lsa, «Lalmikor yerlar sifatining tavsifi bo'yicha qaydnomasi»ni to'lg'azishdan oldin nishablik kartogrammasi qilinadi.

Maydonlarni aniqlash va qaydnomalarni to'lg'azish. Dala tekshiruvi ishlaring natijasi bo'yicha quyidagilar tuziladi:

- lalmikor va yaylov yerlarni ro'yxatga olish qaydnomasi;
- lalmikor yerlar sifatining tavsifi;
- yaylov vapichanzor tipining tavsifi;
- ro'yxatga olish natijalari va yer balansi ma'lumotlarini taqqoslash qaydnomasi.

Yerdan foydalankuchilarning har biri bo'yicha «Lalmikor va yaylov yerlarni ro'yxatga olish qaydnomasi»ni tuzish uchun quyidagilar asos qilib olinadi:

- konturlar bo'yicha hisoblash qaydnomasi;
- yaylovlar tipi vaqishloq xo'jalik yerlarining haqiqiy maydoni haqida ma'lumotlar;
- xo'jalik ichidagi yer tuzish va maxsus tekshirish bo'yicha o'tgan yillarda tayyorlangan hujjatlar.

Bu qaydnomadan dalada tekshiruv ishlari o'tkazilib, tuzatishlar kiritilgandan so'ng ro'yxatga olish qaydnomasini to'lg'azilib, foydalaniлади. Ro'yxatga olish qaydnomasini konturlar, konturlar guruhi, hisoblab chiqazilgan ajratmalar yakuni, shuningdek, almashlab ekish maydonlari yoki almashlab ekish dalalari (agar xo'jalik ichidagi yer tuzish hujjatlaridan foydalaniлган bo'lsa) bo'yicha to'lg'azish mumkin.

«Lalmikor yerlar va yaylov yerlarini ro'yxatga olish qaydnomasi»ga shu mintaqadagi hamma yer turlari qo'shib yoziladi. Bunda qo'yidagi yozish tartibiga amal qilinadi:

Muddatsiz foydalaniladigan yerlar

1. Yog‘ingarchilik bilan ta’minlangan (hamma konturlar yoki konturlar guruhi va boshqalar yoziladi).
2. Yog‘ingarchilik bilan yarim ta’minlangan (shuningdek).
3. Yog‘ingarchilik bilan ta’minlanmagan.
4. Lalmikor yerlar mintaqasidagi hamma yerlar (shu jumladan, qisman sug‘oriladigan).
5. Yaylov yerlar mintaqasi (ta’minlangan, yarim ta’minlanmagan lalmikor yerlar mintaqasiga kiritilmagan yaylovlarning hamma konturlari yoki konturlar guruhi yoziladi).
6. Muddatsiz foydalaniladigan lalmikor yerlar va yaylov yerlarning hammasi.
7. Sug‘oriladigan yerlar (lalmikor yerlar va yaylovlarning mintaqasidangi sug‘oriladigan yerlar 1-yanvargacha qilingan yer balansidan olinadi).
8. Muddatsiz foydalaniladigan yerlarning jami.
9. Uzoq muddat foydalaniladigan yerlar (muddatsiz foydalaniladigan yerlar tartibida yoziladi).
10. Uzoq muddat foydalaniladigan yerlarning hammasi.
11. Foydalaniladigan yerlar bo‘yicha jami.
12. Lalmikor yerlar va yaylov yerlarni ro‘yxatga olish qaydnomasiga bajaruvchi va yer tuzish muhandisi imzo chekadi.

«Lalmikor yerlar sifatining tavsifi» faqat lalmikor yerlar mintaqasida ajratilgan, ta’minlangan lalmikor yerlar bo‘yicha tuziladi.

Qaydnomani to‘lg‘azish quyidagicha amalga oshiriladi:

Bo‘z tuproqlar poyasi:

1. Yuvilman va kam yuvilgan och tusli bo‘z tuproqlar.
2. Yuvilgan och tusli bo‘z tuproqlar.
3. Yuvilman vakam yuvilgan tipik bo‘z tuproqlar.
4. Yuvilgan tipik bo‘z tuproqlar.
5. Yuvilman va kam yuvilgan to‘q tusli bo‘z tuproqlar.
6. Yuvilgan to‘q tusli bo‘z tuproqlar.

Jigarrang tuproqlar poyasi:

7. Yuvilman va kam yuvilgan jigarrang va o‘rmon qo‘ngir tuproqlar.
 8. Yuvilgan jigarrang va o‘rmon qo‘ng‘ir tuproqlar.
- «Lalmikor yerlar sifatining tavsifi»dagi shamol eroziyasiga uchraganligi ustunini to‘lg‘azishda viloyat tuproq eroziyasi kartasidan foydalaniladi.

«Pichanzor va yaylovlар tavsifi» har qaysi xo'jalikka yaylovlар tipi bo'yichato'lg'aziladi. U mavjud geobotanik tekshirish hujjatlari asosida to'lg'aziladi:

- masshtabi 1:100000 bo'lgan o'simliklar kartasi;
- o'simlikning quriq ist'emol qiladigan massa hosildorligi (s/ga) bo'lgan kartaga qilingan eksplikasiya.

Yaylov va pichanzorlar tipining tavsifini aniqlash uchun geobotanik ishtirokida o'simliklar kartasidan reja asoslariga geobotanik (yaylov) ayirmalari ko'chiriladi va yaylovlар tipiga birlashtiriladi. Undan so'ng maydoni hisoblab topiladi, «Yaylov va pichanzorlar tipi tavsifi»gahar qaysi tip yaylovnинг hosildorligi s/gada yoziladi. Ozuqa zahirasi maydonlarni hosildorlikka ko'paytirish yo'li bilan belgilanadi. Yaylovdagi qo'ylar soni belgilash uchun berilgan ozuqa zaxirasini bir bosh qo'yga kerak bo'lgan ozuqa miqdoriga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi (bir qo'yga 8 s).

2. Hujjatlarni rasmiylashtirish va ro'yxatga olish natijalarini ko'rib chiqish

Har qaysi yerdan foydalanuvchining ro'yxatga olish hujjatlari 3 nusxxada ko'paytiriladi. Har qaysi nusxa ish (delo) sifatida tayyorlanib, quyidagi hujjatlardan tashkil topadi:

- yerning ro'yxatga olinganlik dalolatnomasi;
- yer balansi bilan ro'yxatga olish natijalarini taqqoslash qaydnomasi;
- lalmikor yerlar va yaylovlarni ro'yxatga olish natijalarini taqqoslash qaydnomasi;
- lalmikor yerlar va yaylovlarni ro'yxatga olish qaydnomasi;
- lalmikor yerlar sifatining tavsifi;
- pichanzor vayaylovlar tipining tavsifi.

Yerdan foydalanish rejasи. Yerlarni ro'yxatga olish hujjatlari xo'jalikka, tuman qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasiga va bir nusxasi viloyat yer tuzish resurslari boshqarmasi arxiviga topshiriladi.

Yerdan foydalanish rejasiga yangi paydo bo'lgan o'zgarishlarning tasviri chiziladi, yo'q bo'lgan situatsiyalar o'chirib tashlanadi (qizil, qisqa shtrixlar bilan), yog'ingarchilik bilan ta'minlangan lalmikor yerlar va aholi yashaydigan joylarning chegaralari ko'rsatiladi. Agar xo'jalikda sug'oriladigan yerlar bo'lsa, oxirida ular massivlar holida ajratilib, sug'oriladigan mintaqqa, deb yozib qo'yiladi.

Qishloq xo'jalik yer turlari va situatsiya elementlari qabul qilingan shartli belgilarga mos ravishda chiziladi. Xo'jalikning yerdan foydalanish kartasi dokaga yoki bo'zga elimlab yopishtiriladi.

Tuman ma'muriy chegarasida lalmikor va yaylov yerlarni ro'yxatga olish ishlari tugagandan so'ng tuman bo'yicha yakuniy hisobotga qisqacha tushuntirish xati ilova qilinadi. Bu tushuntirish xatida lalmikor yerlar va yaylovlardan foydalanishni yaxshilash uchun suv va shamol eroziyasiga qarshi kurash tadbirlarining tavsifi va hajmi aks ettiriladi.

Tuman bo'yicha tasdiqlangan hisobot 4 nusxada ko'paytiriladi va tuman qishloq xo'jalik boshqarmasiga, viloyat qishloq va suv xo'jalik boshqarmasiga, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrini bo'yicha davlat qo'mitasiga, shunindek, birinchi nusxasi viloyat yer resurslari boshqarmasi arxiviga topshiriladi.

Lalmikor va yaylov yerlarni ro'yxatga olish ishlarining yakuni tumanlar bo'yicha tuman hokimiyatiga ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun beriladi. Agar bu ishlar hamma tumanlar bo'yicha tugallanmay, ayrim tumanlar bo'yicha qilingan bo'lsa ham tuman hokimiyatida ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi. So'ngra bu ro'yxatga olish ishlari yakuni viloyat hokimiyati va Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan o'rnatilgan tartibda ko'rib chiqilib, tasdiqlanadi.

Nazorat savollari

1. Lalmikor yerlarni nima maqsadda ro'yxatga olinadi?
2. Lalmikor yerlarni qanday ma'lumotlar asosida olib boriladi?
3. Qaysi tashkilot tomonidan (kimplarni ishtirokida) olib boriladi?

4-§. Sho'rlangan yerlarning miqdori va sifatini hisobga olish tartibi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga sug'oriladigan yerlarning sho'rlanishini aniqlash va bu ishlarni har besh yilda davriy takrorlab turish vazifasini yuklatgan.

Sho'rlanishni aniqlashdan maqsad, sug'oriladigan yerlarda sho'rangan yerlarning konturlarini va maydonlarini ajratishdir, chunki bu maydonlarda sho'r yuvish ishlarini bajarish lozim bo'ladi. Sho'rlanishni aniqlash ishlari natijasida tuzilgan tuz miqdorining kartogrammasi asosida sho'r yuvish me'yori va muddati belgilanadi.

Sho'rlanishni aniqlash ishlari sho'rangan va sho'rlanishga uchragan yerlarda sho'ranganlik miqdori va uning sifat bahosi bilan ta'minlanishi kerak.

Sho'rlanishni aniqlash uchun 1:10000 mashtabda qilingan tuproq kartasi, shu nisbatda qilingan xo'jaliklarning yerdan foydalanish kartalari, avgust-sentyabr oylarida olingan, shuningdek, aeroplandan turib oq-qora tasvirda suratga tushirilgan fotoplanshetlar asos qilib olinadi. Qishloq xo'jalik ekinlari ekiladigan tuproqlarning sho'ranganlik darajasini aniqlashda eng yaxshi deshifrovka belgilari 0,70 dan 0,86 mkm to'lqinida qilingan infraqizil spektordagi aerofoto suratlarda ko'rindi.

Sho'rangan yerlarning sho'rini aniqlash uchun chuqurligi bir metr bo'lgan o'ralar (skvajinalar) kovlanadi va 5 foizgacha chuqurligi ikki metrli yoki yer osti suvi sathigacha bo'lgan o'ralar kovlanadi. Bunda 15-20 hektar yerga bitta o'ra to'g'ri keladi.

Bu o'ralardan tahlil qilish uchun namunalar olinadi. Bir metrli o'ralarning 0-30, 30-70 va 70-100 sm qavatlaridan 100-150 grammdan, ikki metrli o'ralarning 0-30, 30-70, 70-100, 100-150, 150-200 sm. chuqurliklardan namunalar olinadi. O'ralar egatlar tepasidan kovlanadi.

Sulfat-xloridli va xlorid tipda sho'rangan tuproqlardan olingan namunalarda suvli so'rim qisqartirilgan holda tahlil qilinadi. SO_4^{2-} , NSO_3 , Cl vaxlorid sulfatli tipdasho'rangan tuproqlarda esa HCO_3^- , Cl SO_4^{2-} , Ca, Mg, Na va K lar tahlil etiladi.

Tuproqlarning sho'ranganlik darajasi Cl va Na – ionlar miqdoriga qarab aniqlanadi.

Sho'rlanishni aniqlash ishlari uchta davrdan iborat: tayyorgarlik ishlari, dala va tugallash (kameral) ishlari.

Tayyorgarlik ishlari. Bu davrda sho'rlanishni aniqlash kerak bo'lган joy, dala, kameral, laboratoriya va kartografik ishlar hajmi aniqlanadi, ish rejasи va dastlabki laboratoriya tahlili dasturi tuziladi, adabiyotlar va kartografik ma'lumot beradigan hujjatlar yig'iladi.

Ishni bajaruvchi mutaxassislarga yerlarning turlarini aniqlash

bo'yicha (deshifrovka qilinadigan) xo'jalikning aeroplandan 1:10000 mashtabdagi yerdan foydalanish (konturli) va tuproq kartalari beriladi. Sho'rlanish kartogrammasini tuzishda yuqorida ko'rsatib o'tilgan hujatlardan foydalanish zarur, chunki bular bir-birini to'ldiradi.

Sho'rlanish darajasi bo'yicha konturlarga ajratish aeroplandan olingan syomkalar asosida tuzilgan fotoplanshetlarda ham bajarilishi mumkin.

Aeroplandan olingan syomkalar o'rganilib, ranglarining farqiga qarab, dastlabki tekshiruvdan o'tadi. Har xil rangdagi konturlar oddiy qora qalam bilan chizib chiqiladi.

Agar aerosuratlar yo'q bo'lsa, sho'rlanishni aniqlash ishlari xo'jalikning sug'oriladigan yerlarida yurib kuzatish ishlari bajariladi, ekilgan o'simliklarni holatiga qarab konturlarga ajratiladi. Joylardagi o'zgarishlar xo'jalik agronomi, gidrotexnik yoki brigadir ishtirokida tekshiriladi. Qishloq xo'jalik ekinlarining holatini aniqlab chiqish ishlari avgust-sentyabr oylarida o'tkaziladi. Bunda har qaysi sug'oriladigan kontur ko'rib, aniqlab chiqiladi.

Tekshirilgan hujatlardan bo'yicha xo'jalikdagи o'simliklar holatining 1:10000 mashtabdagi kartasi tuziladi va unda kuchsiz sho'rlangan, o'rtacha sho'rlangan, kuchli sho'rlangan maydonlarning konturlari ajratiladi.

Dalaga chiqishdan oldin, ish bajaruvchilar kerakli hujatlarni va dalada ishlash uchun kerak bo'lgan anjomlarni olishadi.

Dalada qilinadigan ishlар. Dalada sho'rlangan tuproqlar sho'rini aniqlash uchun quyidagi ishlar bajariladi:

- tuproq yuzasidagi sho'rlanganlik belgilari bilan maydonlar bo'yicha va qishloq xo'jalik ekinlarining holati va yer turlarini aniqlash bo'yicha qilingan ishning umumiy marshruti bo'yicha tanishib chiqish;

- o'ra kovlash va namunalar olish yo'li bilan sho'rlanganlik darajasini dalada o'rganish;

- har xil darajada sho'rlangan konturlarni dala konturlari bilan taqqoslab ko'rish va ajratish;

- xlorid-sulfat va sulfatli sho'rlanishga uchragan tuproqlarda namunalarni eritmalar yordamida tekshirib ko'rish, dala tuproq kartalarini rasmiylashtirish.

Asosiy usul bilan sho'rlanganlik kartogrammasi tuzish zaruriati tug'ilsa, dala aylanib, aniqlash paytida asosiy usul bilan aniqlanadigan joylar belgilanadi va miqdori aniqlanadi.

Kartada ajratilishi zarur bo‘lgan har xil darajadagi sho‘rlangan konturlarning kamaytirilgan aniq sonini belgilashda quyidagilarga amal qilish zarur:

- chegaralari aniq va rangi ajralib turganda—kartada 50 mm^2 yoki joylarida $0,5 \text{ ga}$ bo‘ladi;
- chegarasi aniq bo‘lmaganda, kartada 400 mm^2 yoki joylarda $4,0 \text{ hektar}$ bo‘ladi.

Olingan namunalar quritiladi, tahlil qilish uchun buyurtmalar tuzilib, laboratoriyaga jo‘natiladi.

Dala ishlari kuz oylarida (avgust-noyabr) o‘tkaziladi. Yer osti suvlarini yaqin joylashgan bo‘lsa, uning chuqurligi belgilanib, $0,5 \text{ litr}$ hajmidagi shishalarga namuna olinib, laboratoriyaga analiz qilish uchun yuboriladi.

Maxsus mexanizmlar orqali kovlab olingan tuproq namunasi ma’lum bir qavatdan olinganligi yozib qo‘yiladi va yaxshilab aralashtirilib, xaltalarga o‘rtacha $100\text{--}150$ grammadan solinadi va qog‘ozga yoziladi.

Kovlangan har qaysi o‘ra kartada raqamlar bilan, bir metrlilari X harfi bilan, ikki metrlilari esa doiraga olingan X belgisi bilan belgilanadi.

Yer osti suvi olingan raqam ostiga to‘g‘ri chiziqli belgi qo‘yiladi.

Xonada tugallash (kamera) ishlari. Laboratoriya analizlarining natijalari olingandan so‘ng ular tekshiriladi va to‘g‘ri kelmaydiganlari, noto‘g‘rilari tashlab yuboriladi. $0\text{--}100 \text{ sm}$. qavatdagi tuzlarning o‘rtacha miqdori hisoblab chiqaziladi, ikki metrli o‘ralar uchun esa $0\text{--}100$, $100\text{--}200 \text{ sm}$ qavatlar uchun tuz miqdori hisoblab chiqaziladi.

Ayrim o‘ralardagi tuz va ionlar miqdorining o‘rtacha hisob-kitobi va bir xil sho‘rlanishga ega bo‘lgan o‘ra va konturlar umumlashtiriladi.

Analizlar va umumlashtirishlar natijasiga ko‘ra, tuproqlarning sho‘rlanishi bo‘yicha dalada qilingan kartalarga tuzatishlar kiritiladi va ularga tuproq kartasidan, tuproqlarning har xil genezisi, mexanik tarkibi bo‘yicha konturlari o‘tkaziladi.

Tugallangan oxirgi kartada sho‘rlanish darajasining konturlar bo‘yicha qaydnomasidan tashqari, sho‘rlarni yuvish me’yori va necha marta yuvish kerakligi haqida tavsiya ham beriladi.

Bir xil darajada sho‘rlangan va tuzlar tarkibi bir xil, lekin mexanik tarkibi har xil sho‘rlangan tuproqlar alohida kontur qilib ajratilishi kerak, chunki bunday tuproqlardan sho‘rning chiqib ketish koefitsiyenti har xil bo‘ladi.

Kartada sho'rlanishning ajratilishi quyidagi ranglar orqali ko'rsatiladi:

- sho'rlanmagan, sho'ri yuvilgan ayirmalari yashil rangda;
- kuchsiz sho'rlangan – sariq rangda;
- o'rtacha sho'rlangan – to'q sariq rangda;
- kuchli sho'rlangan - qizil rangda;
- sho'rhoklar – siyoh rangda.

Tuproqlarning mexanik tarkibi shtrixlar bilan tasvirlanadi, sho'rlanish tipi esa, (xlorli – X, sulfat-xloridli – SX, xlorid sulfatli – XS, sulfatli – S, karbonat magniyli – KM) belgi bilan belgilanadi.

Tuproqning sho'rlanishi kartasida quyidagilar qayd etiladi:

- tashkilotning nomi, tushuntirish xati yozilgan yil, ishni bajargan xodim va rahbar imzosi va muhr qo'yiladi;
- dala ishlari va laboratoriya ishlari bajarilgan vaqt, drenaj tarmoqlarining uzunligi va holati haqida qisqacha ma'lumot, yer osti suvlarining sho'rlanganlik darajasi, kimyoviy tahlillar usuli, sho'rlangan tuproqlarning tugallangan kartasini tuzishda hisob-kitoblar va qayta ishlashlar o'tkaziladi.

- yer fondining sho'rlanish bo'yicha miqdorlari, xo'jalikning yer turlari bo'yicha yer fandi, sho'rlanish darajsi, sho'rlanish turi va qishloq xo'jalik yerlaridan sho'rning yuvilib chiqib ketish koeffitsiyenti. Xo'jalik maydonida sho'rlanishning tarqalish xususiyatlari aniqlanadi;

- respublika qishloq xo'jaligining barcha yerga egalik qiluvchi va yerdan foydalanuvchi xo'jaliklaridagi sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish, gipslanish vatoshloqli darajasi aniqlab kartogrammalari tuzib chiqiladi. Bu ma'lumotlar asosida tumanlar, viloyatlar va respublika miqyosida shunday kartalar tuzilib, bunday salbiy jarayonlarni bartaraf qilish kartogrammalari tuzilib, ish hajmi aniqlab chiqiladi.

Tavsiyalar. Har xil darajada sho'rlangan va kimyoviy tarkibga ega bo'lган, tuz yuvilib ketish darajasi (koeffitsiyentlari) hisobga olingan holda sho'r yuvish me'yordi va necha marta yuvish zarurligi haqida tavsiyalar. Xo'jalik yerining meliorativ holati bo'yicha umumiy fikrlar.

Tuproqning sho'rlanganlik kartasi va unga yozilgan tushuntirish xati 3 nusxada tayyorlanib, 1 nusxasi xo'jalikka, bir nusxasi tuman yer resurslari bo'limiga topshiriladi, bir nusxasi hujjatlarni tayyorlagan tashkilotda qoladi. Kartogramma asosida sho'rlangan yerlar maydonini paletka yoki har xil darajada sho'rlangan yerlar maydoni planimetrlar yordamida hisoblab chiqiladi.

Sho'r yuvish me'yorlari Nyerozin formulasi bo'yicha aniqlanadi:

$$M = (PT)S \cdot Kx A - p$$

bu yerda, M – yuvish me'yori, m^3/ga ;

P – tuproq qavati hisoblab chiqilgan dala suv sig'imi, (tuzlarni eritish uchun ketadigan suv miqdori), m^3/ga ;

T – tuproqning shu qavatidagi namlik miqdori m^3/ga , sho'r yuvishdan oldin paxta yetishtirilgan dalalarda 50 foiz dala suv sig'imidani, beda ekilgach yerlarda 30 foiz, dala suv sig'imidani; S/K -tuzning miqdori, m^3/ga ;

S – tuproqning yuvib chiqazish zarur bo'lgan, hisoblab chiqazilgan qavatidagi xlor miqdori, kg/ga ;

A – tuproqning sho'rini yuvishdan ekin ekishgacha bo'lgan davrda tushgan yog'ingarchilik miqdori, m^3/ga ;

p – shu davrda suvning parlanib ketishi, m^3/ga .

Tuproqdagagi yuvib chiqaziladigan tuz (xlor) miqdori quyidagicha hisoblab chiqaziladi:

$$S = 100 \times h d (Ch - Ch_1) \times 1000$$

bu yerda, S – yuvib chiqazish zarur bo'lgan tuzning (xlor) miqdori, kg/ga ;

h – tuproqning hisoblangan qavati, m ;

d – tuproqning hajmiy massasi, g/sm^3 , t/m^3 ;

$Ch - Ch_1$ – dastlabki (yuvishga qadar) va yuvilgandan so'ng qoladigan tuzning miqdori, massasiga nisbatan, foiz hisobida;

100 – kilogrammni tonnaga aylantirish ko'paytmasi.

Ko'p yillik tekshirishlar natijasiga asoslanib, sho'r yuvish muddatlari va sho'r yuvish uchun beriladigan suvlar miqdorlari

20-jadval

Tuproq yuzasi va o'simlik holati bo'yicha sho'rланishni baholash shkalasi

?	O'simlikning holati va tuproq yuzasi	Sho'rланish darajasi
1	Kam zararlangan, tuzlar rangi kuchsiz	Kuchsiz sho'rланган
2	Zararlangan (ba'zi joylarda qurib qolgan), tuzlar rangi sezilarli	O'rtacha sho'rланган
3	Kuchli zararlangan (juda ko'p qurib qolgan), oppoq tuz bilan qoplangan	Kuchli sho'rланган-sho'rxoqlar

Tuproq gruntlaridan tuzning yuvilib ketish ko'rsatkichi belgisi (λ)

Tuproq gruntlari	Sho'rlanish tipi	
	Sulfat-xloridli va xloridli	Xlorli-sulfatli va sulfatli
Qumli	0,6-0,8	0,7-0,9
Qumoqli	0,9-1,0	0,9-1,1
Yengil va o'rta qumoqli (kam zichlashgan)	1,0-1,2	1,1-1,3
O'rta va og'ir qumoqli (zichlashgan) va loyli qatnashmagan qavati	1,2-1,5	1,3-1,8
Loyli va qavatlari loylari qatnashgan	1,5-2,0	1,8-2,4

sho'rlanish darajasiga qarab tuproqning mexanik tarkibiga va tuproq aerasiyasi qavati tarkiblariga bog'liq holda quyidagi tavsiyalar belgilanadi.

Shuningdek, sho'r yuvish uchun beriladigan suv miqdorini V.R.Volobuyev formulasi yordamida ham hisoblab chiqazish mumkin:

$$N=100 \lambda \lg (S_H/S_o)$$

bu yerda, N – sho'r yuvish me'yori, m^3/ga ;

S_H – sho'rlanishni aniqlash ma'lumotlari bo'yicha sho'ri yuviladigan qavatdagi dastlabki tuz miqdori;

S_o – zarari bo'limgan tuz miqdori;

λ – tuzning yuvilib chiqib ketish koeffitsiyenti.

Tuzning yuvilib chiqib ketish koeffitsiyenti keltirilgan.

Nazorat savollari

1. Sug'oriladigan yerkarni unumdarligi bo'yicha baholashdan maqsad nima?

2. Ball boniteti deganda nimani tushunasiz?

3. Sug'oriladigan yerkarni unumdarligi bo'yicha baholash ishini qanday qilib bajariladi?

4. Sug'oriladigan yerkarni unumdarligi bo'yicha baholash hujjatlari qaysi joylarda ishlataladi?

5. Ball bonitetini aniqlashda guruh va klasslarga ajratishdan maqsad nima?

5-§. Sug'oriladigan yerlarni unumdorligi bo'yicha baholash (bonitirovka qilish) tartibi

Respublikamizning yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini aniqroq rejalashtirish yerlarni har tomonlama o'rganib, sifatini baholashni taqozo etadi.

Tuproq unumdorligini belgilovchi xususiyatlariga qarab yerni sifat jihatidan aniq baholash usullaridan biri uning unumdorligini baholash (bonitirovka qilish), ya'ni yerga eng muhim agronomik xususiyatlariga ko'ra ball bilan solishtirma baho qo'yish bo'lib, bu davlat kadastrida muhim o'rinni tutadi.

O'zbekiston fermer va dehqon xo'jaliklarida sug'oriladigan yerlarni unumdorligi bo'yicha baholash (bonitirovka qilish) birinchi daf'a o'tgan asrning 70-yillarida O'zbekiston yer tuzish ilmiy-loyiha institutining Yer kadastro filiali tomonidan o'tkazildi.

Natijada, dasht mintaqalarda va bunday tuproqlardan iborat mintaqada tuproqning mexanik tarkibiga turlicha baho berish zarurligi va yengil qumoq tuproqlarda bo'z tuproqli joylardagi o'ttacha qumloq tuproqli maydonlarga nisbatan yuqori hosil yetishtirilayotganligi aniqlanadi. Turli darajada gipslashgan tuproqlar uchun pasaytirish koeffitsiyenti qabul qilinadi.

Unumdorlik bo'yicha baholash tartibini takomillashtirish, dala sharoitida o'tkazilgan va vegetatsion tajribalar natijasida olingen ma'lumotlarni umumlashtirish asosida ayrim pasaytirish koeffitsiyentlariga o'zgartirishlar kiritish zarur, natijada litologiya bilan ona jinslar genezisi yanada uzviyroq bog'lanadi.

Unumdorlik bo'yicha baholash – agrotexnika va dehqonchilikni intensivlashning o'ttacha darajasida tuproq sifatiga hamda unumdorlik xususiyatlariga solishtirma baho berish, demakdir. Bu ish tuproqning ham tabiiy, ham madaniylashtirish natijasida vujudga kelgan xususiyatlari hisobga olingen holda amalga oshiriladi. Qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorlik darjasini, hosil olish uchun zarur bo'lgan agrotexnik va meliorativ tadbirlar majmuining xususiyati hamda tarkibi tuproqning o'ziga xos xususiyatlariga bevosita bog'liqdir.

Unumdorlik bo'yicha baholash muayyan yerdagi qishloq xo'jaligi ekinlarining talablari hisobga olingen holda o'tkaziladi. O'zbekistonning sug'oriladigan yerlari sharoitida g'o'zaning talablari

hisobga olingani e'tiborda tutiladi. G'o'zaning talablari hisobga olingen holda aniqlangan unumdorlik ko'satkichlari (bonitetlar) paxta majmuiga kiruvchi boshqa hamma ekinlar (sholi, kanop va kup yillik mevali daraxtlardan tashqari) ekiladigan sug'oriladigan yerlarni baholash uchun ham to'g'ri keladi.

Yerlarni baholashda tuproqning asosiy hususiyatlari va tabiiy sharoitlari: genetik alomatlari, sug'orila boshlangan davrning uzoq-yaqinligi, madaniylashtirilgani, agroiqlim resurslari bilan ta'minlanganligi, mexanik tarkibi, tuproq hosil qiladigan jinslar genezisi, tuproq qatlamining sizot suvlari o'tkazuvchanligi, sho'rланish darajasi, eroziyaga uchragani, sertoshligi, gipslashgani va hokazolar hisobga olinadi (4-rasm).

Baholash 100 balli shkala bo'yicha o'tkaziladi. Eng yaxshi xususiyatlarga ega bo'lgan va eng yuqori unum beradigan tuproqlarga 100 ball qo'yiladi (22-jadval).

Genetik alomatlari, sug'orila boshlanganligining uzoqligi va madaniylashtirilgani barcha sug'oriladigan yerlarni baholashda umumiyl mezonz hisoblanadi.


Yuqorida keltirilgan ma'lumot qulay sharoitlarda yetilgan, ya'ni sho'rланmagan va eroziyaga uchramagan, mexanik tarkibi, ustki qatlamining sizot suvlarini o'tkazuvchanligi yaxshi bo'lgan va hokazo tuproqlar sifati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

Unumdorligini pasaytiruvchi turli tuman xususiyatlarga ega bo'lgan tuproqlarni baholashda tegishli pasaytirish koeffitsiyentlari qo'llaniladi.

Yerlar unumdorligi bo'yicha omillar orasida iqlim alohida o'rinnutadi. Issiqsevar o'simlik bo'lgan g'o'za uchun eng ahamiyatli agroiqlim ko'satgichlaridan biri harorat resurslari bilan ta'minlanganlik yoki foydali harorat yig'indisining 10°C dan yuqori bo'lishidir. G'o'zaning harorat resurslari bilan qay darajada ta'minlanganiga qarab, kenglik va yuqori mintaqalar bo'yicha bonitetlarni qanday tabaqlashtirish 23-jadvalda ko'rsatilgan.

Hozirgi paytda respublikamizda o'rtalari va ingichka tolali g'o'zaning vegetatsiya davriga ko'ra, o'rtapishar va yertapishar navlari parvarish qilinmoqda. Uslubiy ko'satmalarda avvalgilaridan farqli o'laroq, 2450° foydali harorat yig'indisi - qulay sharoit, deb hisoblanadi. Bu foydali haroratning quyi nuqtasi bo'lib, unda turli muddatlarda pishib etiladigan (yertapishar, o'rtapishar va kechpishar) g'o'za navlarining barcha guruhlari parvarish qilinishi mumkin.

SUG'ORILADIGAN YERLARNING SHO'RLANISHI, GIPSLANISHI VA TOSHLOQLIGI DARAJASI



**O'zbekistonning sug'oriladigan yerlarini unum dorlik bo'yicha
baholash shkalasi**

Tuproqlar	Tuproqlar bonitetining ballari		
	Yuqori madaniy-lashtirilgani	O'rtacha madaniy-lashtirilgani	Kam madaniy-lashtirilgani
Eskidan sug'orilib kelinayotgan yerlardagi tuproqlar			
Bo'z	100	90	70
O'tloqi-bo'z	100	80	60
Bo'z tuproqlar mintaqasidagi o'tloq	100	80	60
Taqir	90	70	50
O'tloqi-taqir	100	80	60
Dasht mintaqasidagi o'tloq	100	80	60
Yangidan sug'orila boshlangan yerlardagi tuproqlar			
Och tusli bo'z	100	80	60
Tipik bo'z	100	80	60
O'tloqli bo'z	90	70	50
Bo'z-o'tloqi	90	70	50
Bo'z tuproqlar mintaqasidagi o'tloq	90	70	50
Bo'z tuproqlar mintaqasidagi botqoq o'tloq		70	50
Sur tusli qo'ng'ir	60	50	40
Sur tusli qo'ng'ir o'tloq		65	50
Taqir	80	60	50
Taqir o'tloqi	90	70	50
O'tloqi taqir	80	60	50
Dasht mintaqasidagi taqir	90	70	50
Dasht mintaqasidagi botqoq o'tloqi		60	40
Yangi o'zlashtirilgan yerlardagi tuproqlari			
Och tusli bo'z			50
Tipik bo'z			50
O'tloqi bo'z			50
Bo'z o'tloqi			50
Bo'z tuproqlar mintaqasidagi o'tloq			50
Bo'z tuproqlar mintaqasidagi botqoq o'tloqi			40
Sur tusli qo'ng'ir			30
Sur tusli qo'ng'ir o'tloq			40
Taqir			50
O'tloqi taqir			50
Taqir o'tloqi			50
Dasht mintaqasidagi o'tloq			50
Dasht mintaqasidagi botqoq o'tloqi			40
Dasht qumlar			50
Qumli o'tloq			50

Iqlim koeffitsiyenti yoki odatda, bioiqlim deb ataluvchi koeffisiyent hamma uchun rasm bo'lib qolgan quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$B_K = \frac{\Sigma_{Etf}}{\Sigma_{Etb}} \times 100$$

bunda:

Σ_{Etf} – haqiqatdan 10°C dan yuqori bo'lgan foydali harorat yig'indisi;

Tabiiy qishloq xo'jaligi maydonlari va tumanlari bo'yicha kenglik mintaqalari hamda yuqori mintaqalardagi iqlim omillariga ko'ra pasaytirish koefisientlari

Taf. №	Tabiiy qishloq xo'jaligi maydoni va tuman	Dasht mintaqasi		Och nali bo'z tuppero mintaqasi		Tipik bo'z tuppero mintaqasi		BKР (BK)	Pasaytirish koefisienti Foydali harorat Ytg/midis, °S											
		Ytg/midis °Zanlung	etlibuvchamlig'i	Ytg/midis °Zanlung	etlibuvchamlig'i	Ytg/midis °Zanlung	etlibuvchamlig'i													
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14							
1	Ovui Amudaryo, Oo'ng'iroq, Chumboy Berguni, To'rkoi ¹	2018	eritapishlar	82	0.80															
	Xorazm	2275	o'trapishlar	93	0.95															
2	Jamshid Qizilgum, Navoiy, Mal'sicho ¹	2241	o'trapishlar	91	0.90															
	Buxoro	2150	o'trapishlar	96	0.95															
	Qoraqo ¹	2454	ingrichka to'ali	100	1.00															
	Mujborak	2685	ingrichka to'ali (eritapishlar)	110	1.10															
3	Janubiy Sirdaryo, Sherobod-Surxon	3064	ingrichka to'ali (echetibishlar)	125	1.25															
4	Markaziy Farg'onha, Bo'z, Yozyovon	3163	ingrichka to'ali (echetibishlar)	129	1.40															
	Chirchiq, Ohangaron, Yangirov ¹	2735	ingrichka to'ali (o'trapishlar)	112	1.10															
	Ko'krorol, Pskent																			
	Chirchiq, Ohangaron																			
6	Jizzax, Mirzacho ¹																			
	Sindarov																			
	Guliston, Markaziy, Mirzacho ¹																			
	Janubiy Mirzacho ¹																			

23-jadvalning davomi

	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
1	Zarafshon, Samarkand												
7	Krasnovodskiy						2272	o'tapishlar		2216	o'tapishlar	90	0,90
	Oqtoch, Jonzobov-Ishixon						2252	o'tapishlar	93	0,95			
8	Farg'on'a						2385	o'tapishlar	92	0,90			
	Chortog-Chust, Oqbo'ri-Arvon						2053	ertapishar ingichka tolali	97	1,00			
	Andijon, Shofrikon										ertapishar		
	Izhoskin, Uchqo're'on										ingichka tolaj	109	1,10
	So'x						2400	O'tapishar	98	1,00			
	Farg'on'a, Qova						2735	ingichka tolali (Ertapishar)	112	1,00			
9	Qarsiui						2422	O'tapishar	99	1,00			
	Chiroqchi, Shahrisabz						2801	ingichka tolaj o'tapishar	114	1,15			
10	Surxondayro, Yuqori Surxondayro										ingichka tolali (Ertapishar)	106	1,10
							2037	ingichka tolali (Ertapishar)	124	1,25			

24-jadval Tuproqning mexanik tarkibi va skeletligi (sertoshligi)ga ko'ra pasaytirish koefitsientlari

Mexanik tarkibi	Bo'z tuproqlar mintaqasi							Dasht mintaqasi						
	Lyoss alluvial prelluvial eluvial eluvial ona firsatlar alluvial proluvial eluvial ona jinslar													
Soz tuproqlar	0,90	0,85	0,80	0,75	0,70	0,80	0,75	0,70	0,85	0,80	0,70	0,80	0,75	0,70
Og'ir qummoq tuproqlar	0,90	0,85	0,85	0,80	0,75	0,85	0,80	0,75	0,90	0,85	0,85	0,80	0,90	0,75
O'rachta qummoq tuproqlar	1,00	0,95	0,95	0,90	0,85	0,95	0,90	0,80	0,95	0,95	0,90	0,80	0,95	0,75
Engil qummoq tuproqlar	0,95	0,90	0,90	0,85	0,75	0,90	0,85	0,75	1,00	1,00	0,95	0,85	0,90	0,75
Qummoq tuproqlar	0,85	0,85	0,85	0,80	0,75	0,85	0,80	0,65	0,95	0,90	0,80	0,70	0,85	0,70
Qummoq tuproqlar	-	-	-	-	-	-	-	-	0,90	-	-	0,70	0,60	0,50

Σ_{Etb} –asosiy foydali harorat yig‘indisi (2450°).

100 ball birlik deb olingan holda raqamlarni beshgacha yaxlitlab, iqlim koeffisiyentlari hisoblab chiqariladi.

Iqlim hisobga olingan holda tuproq mintaqalarini tabaqlashtirish tabiiyki, qishloq xo‘jaligini rayonlashtirish nuqtai nazaridan amalga oshirildi.

Sug‘oriladigan dehqonchilikning turli tumanlari iqlimini baholash shu tumanlar uchun pishib yetilish muddatlariga ko‘ra, g‘o‘za navlarining qaysi guruhlarga mos kelishini, shuningdek, silos yoki don uchun mo‘ljallangan oraliq yoki takroriy ekinlarning mumkin bo‘lgan biologik mahsulorligini aniqlash imkoniyatini beradi.

Tuproq unumdorligining barcha xususiyatlari uchun eng muhim omillardan biri uning mexanik tarkibidir. Yengil va o‘rtal qumoqli tuproqlar eng yaxshi tuproq hisoblanadi.

Bunday tuproqlarni ishlash ham oson, ular juda yaxshi suvu fizikaviy xossalarga ega. Mayda tosh-shag‘al aralashishi, sug‘oriladigan yerning sifatini buzadi, unga mexanizatsiyalashtirilgan ishlov berishni qiyinlashadi, qo‘l mehnati ko‘payadi, tuproqning suv xossalari yomonlashadi, uning massasi hajmi kamayadi.

Tuproq hosil qiluvchi turli jinslar negizida vujudga kelgan tuproqlarning mexanik tarkibi va sertoshligiga ko‘ra, pasaytirish koeffitsiyenti 24-jadvalda keltirilgan.

Eslatma:

1 – mayin tuproqlar;

2 – kam toshli (kam shag‘alli) tuproqlar – 0,95;

3 – o‘rtacha toshli (o‘rtacha shag‘alli) tuproqlar – 0,90.

Sug‘oriladigan dehqonchilikda tuproqni baholashda uning sho‘rlanish darajasini va meliorativ holatini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Yerning sizot suvlari o‘tkazuvchanligi va qay darajada sho‘rlanganiga qarab, bonitetni tabaqlashtirish raqamlari 25-jadvalda

25-jadval

Sizot suvlaring chiqib ketish imkoniyatini katta bo‘lgan yerlarda tuproq bonitetini tabaqlashtirish

Zaxi qo‘nganlik darajasi	Bonitetiga koeffitsiyent
Qumloq va qumli (bir xil yoki qatlamli) tuproqlar	0,90
50 sm chuhurlikda qumoq tuproq bo‘lgan toshloq tuproqlar	0,80
30 sm chuhurlikda qumoq tuproq bo‘lgan toshloq tuproqlar	0,70

Yerning sizot suvlarinini o'tkazuvchanligini va sho'rlanish darajasiga qarab tuproq bonitetini tabaqalashitirish

26-jadval

№	Tuproq, sizot suvlarning taxminiy chiqurligi, sho'rlanish darajasi mindasasi:	Bo'z tuproqlar, taqir, och qo'ng'ir tuproqlar, sizot suvlarning chiqurligi 5 m. dan ortiq	O'uqiqi bo'z tuproqlar, o'uqiqi taqir tuproqlar, sizot suvlarning chiqurligi 3-5 m.	Bo'z tuproqlar mindasagi o'uqiqi tuproqlar va dasht mindasagi o'uqiqi hamda bolqoq tuproqlar, sizot suvlarning chiqurligi 0,5-1,5 m.	Bo'z tuproqlar mindasasi va dasht mindasasiagi bolqoq tuproqlar, sizot suvlarning chiqurligi 1,5-3 m.
1	Sho'rلانнган ва qayya sho'rланнган bo'z tuproqlar mindasasi:	a) sizot suvlarning chiqib ketish imkonini kam bo'lgan va umuman bo'lmaagan yerlardagi soz tuproqlar hamda qurmoq va qumli qatlamlari yugazina bo'lean ogir qumoqlari tuproqlarda b) yet osti suvlari lo'xtamaydigan qatlampa ega tuproqlarda	0,95 1,0	0,90 1,0	0,90 1,0
2	Sho'r batarnom, yo'q bo'lib ketmadigan yerlar: a) yet osti suvlari lo'xtamaydigan va sizib chiqib ketishi ta'minlangan qatlantu ega tuproqlari b) yet osti suvlarning chiqib ketish imkonini kam bo'lgan va umuman bo'lmaagan, lekin ularning sizib chiqib ketishi ta'minlangan tumpoqlarda	0,95 0,95	0,85 0,85	-	-
3	Tez eruvchan tuzdar bilan sho'rланнан verilar: a) sizot suvlarning sizib chiqib ketishi kam va o'racha bo'lgan yet osti suvlarning pastka sizib tutushti qiyin va sekin kechadigan tuproqlarda. Bunda tuproqlarda sho'rланнishing xlorid-sulfat turki proq uchraydi. Deltalarda mexanik tankibi jihatidan yengil va o'racha bo'lgan tuproqlar, daryo o'zanlari hamda o'zanlardagi yodagizgan chiqindilari.	0,90	0,85	-	-

26-jadvalning davomi

<p>№</p> <p>Tuproqlar suvlarining taxminiy chiqarligi, sho'riish darajasi</p>	<p>Bo'z tuproqlar, taqir, och qo'ng'ir tuproqlar, sizot suvlarining chiqarligi 5 m. dan ortiq</p>	<p>O'quq bo'z tuproqlar, o'quq taqir tuproqlar, sizot suvlarining chiqarligi 3-5 m.</p>	<p>Bo'z tuproqlar minnadsidagi o'quq tuproqlar va dashi minnadsidagi o'tloq, taqr o'loq tuproqlar, sizot suvlarining chiqarligi 0,5-1,5 m.</p>
<p>1. Shor'i yuvilgan</p>	<p>-</p>	<p>1,0</p>	<p>0,95</p>
<p>2. Biroz sho'rlangan</p>	<p>-</p>	<p>0,95</p>	<p>0,90</p>
<p>3. O'rtacha sho'rlangan</p>	<p>-</p>	<p>0,90</p>	<p>0,85</p>
<p>4. Kuchli darajada sho'rlangan</p>	<p>-</p>	<p>0,85</p>	<p>0,80</p>
<p>b) xaxi qochmagan, sho'ri suvi nasaqda tushnagan va juda sekin sizib tushadijan tuproqlarda. Bunday tuproqorda sho'riani shing sulfat-xlorid turli ko'proq uchayadi. Delalarincha mekanik tarkibi og'ir bo'lgan tuproqlar, o'zanlar oralig' i pastliklardan daryolarning vohalarini ko'jisimon pastliklardan ibo'at:</p>			
<p>1. Shor'i yuvilgan</p>	<p>-</p>	<p>0,90</p>	<p>0,85</p>
<p>2. Biroz sho'rlangan</p>	<p>-</p>	<p>0,85</p>	<p>0,80</p>
<p>3. O'rtacha sho'rlangan</p>	<p>-</p>	<p>0,80</p>	<p>0,75</p>
<p>4. Kuchli darajada sho'rlangan</p>	<p>-</p>	<p>0,75</p>	<p>0,70</p>
<p>4 Karbonat-magniy tuzlari bilan sho'rlangan verilar:</p>			
<p>a) shox qatlamining chiqarligi 80-150 sm. bo'lmaganda:</p>			
<p>1. Biroz sho'rlangan</p>	<p>-</p>	<p>-</p>	<p>0,90</p>
<p>2. O'rtacha sho'rlangan</p>	<p>-</p>	<p>-</p>	<p>0,80</p>
<p>3. Kuchli darajada sho'rlangan</p>	<p>-</p>	<p>-</p>	<p>0,70</p>
<p>b) shox qatlamini chiqarligi 30-80 sm. bo'lmaganda:</p>			
<p>1. Biroz sho'rlangan</p>	<p>-</p>	<p>-</p>	<p>0,70</p>
<p>2. O'rtacha sho'rlangan</p>	<p>-</p>	<p>-</p>	<p>0,60</p>
<p>3. Kuchli darajada sho'rlangan</p>	<p>-</p>	<p>-</p>	<p>0,50</p>

keltirilgan. Bunda turlicha baholanishi kerak bo‘lgan tuproqlar quyidagi guruhlarga ajratiladi:

1. Sho‘rlanmagan va ikkinchi sho‘rlanishga uchramagan yerlar. Bu guruhga sizot suvlari chuchuk bo‘lgan yoki chuqur joylashgan yerlar kiradi.

2. Sho‘ri batamom yo‘q bo‘lib ketmaydigan yerlar. Bunga sizot suvlari chuqur joylashgan, sho‘r bo‘lgan yerlar kiradi.

3. Tez eruvchan tuzlar bilan sho‘rlangan yerlar. Bu guruhga kiruvchi yerlar sho‘r yerlarning asosiy qismini tashkil etadi. Agar sho‘r sizot suvlari yuza joylashgan va sekin harakat qiluvchi bo‘lsa, bunday yerlar sho‘rlanishda davom etavyeradi.

4. Karbonat-magniy tuzlari bilan sho‘rlangan, zich gips va karbonatli qatlami bo‘lgan yerlar. Bu guruhga kiruvchi tuproqlar chuchuk gidrokarbonatli sizot suvlari yuza joylashgan sharoitda rivojlanib boradi.

Sizot suvlarining oqib chiqib ketish imkonini katta bo‘lgan yerlar uchun tuzatish koeffisiyentlari 26-jadvalda keltirilgan.

Keyingi yillarda sug‘oriladigan dehqonchilik uchun tuproqlari turli darajadagi pslashgan kattamaydonlar o‘zlashtirildi. Gips yerning meliorativ holatini yomonlashtiradi, tuproq unumdarligini pasaytiradi. Gips qatlamining qalinligi vachuqurligiga qarab pasaytirish koefitsiyenti qo‘llaniladi (27-jadval).

Tuproqlarning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan barcha alomatlari va xususiyatlari (foydali harorat yig‘indisidan tashqari) xo‘jalikning tuproq kartalarida bor. Shuning uchun xo‘jalikning almashlab ekish maydonlari yoki almashlab ekish dalasi tuproq unumdarligi bo‘yicha baholashda masshtabi 1:10000 bo‘lgan tuproq kartasi

27-jadval

Eroziyaga uchrash darajasiga qarab, tuproq bonitetini tabaqlashtirish

Tuproqning yuvilish darajasi	Tuproq hosil qiluvchi jinslar	
	Iyoss	Prollyuvial-allyuvial
Yuvilmagan	1,0	1,0
Biroz yuvilgan	0,95	0,95
O‘ttacha yuvilgan	0,8	0,75
Ko‘p yuvilgan	0,7	0,60
Oqiziqlar biroz to‘plangan	1,0	1,0
Oqiziqlari ko‘p to‘plangan	0,9	0,85

Tuproqni tabiiy xususiyatlari bo'yicha ballarda bonitirovkalash

Tuproq ayirmalarining raqamlari	Asosiy shikala bo'yicha chiqazilgan ball	Tuzatuvchi koefitsientlar				Hisoblab chiqazilgan ball	Haydalma yer, ga	Ballga mos paxta hosili, kg/ga
		Iqlim resurslari bilan ta'minlanish bo'yicha	Mehanik tarkibi bo'yicha	Sho'rhanish darajasi bo'yicha	Tuproq quruntilarining drenajlanishi bo'yicha			
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1	80	0,95	1,0	1,0	0,95	72,0	58,25	28,8
2	80	0,95	1,0	1,0	0,95	72,0	117,88	28,8
3	80	0,95	1,0	1,0	0,95	72,0	113,03	28,8
4	80	0,95	0,9	1,0	0,9	62,0	173,69	24,8
5	80	0,95	1,0	1,0	0,9	68,0	203,06	27,2
6	80	0,95	1,0	1,0	0,9	68,0	205,88	27,2
7	80	0,95	0,95	1,0	0,9	65,0	56,86	26,0
8	60	0,95	1,0	1,0	0,85	48,0	101,49	19,2
9	60	0,95	1,0	1,0	0,8	46,0	65,39	18,4
10	60	0,95	0,95	1,0	0,8	43,0	10,14	17,2
12	40	0,95	1,0	1,0	0,85	32,0i	7,25	12,8
7a	60	0,95	0,95	1,0	0,8	43,0	27,31	17,2
11a	50	0,95	0,95	1,0	0,8	36,0	3,48	14,4
Xo'jalik bo'yicha		-	-	-	-	64,0	1134,0	25,6

100 balli yerlarda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini baholash

Ekin turlari	100 balli eng yaxshi yerda yetishtiriladigan hosil, ga/s	1 ballning bahosi, ga/s
Paxta	40	0,40
Beda, birinchi yil, sof holda (pichan olish uchun ekilganda)	100	1,00
Qoplama ekin tariqasida ekilganda	75	0,75
Don uchun ekilgan makkajo'xori	75	0,75
Ikkinchchi va uchinchi yilgi beda, pichan	200	2,00
Boshqolli don ekinlari:		
Sof holda ekilganda	60	0,60
Qoplama ekin tariqasida ekilganda	25	0,25
Silos uchun ekilgan makkajo'xori	650	6,50
Ozuqabop ildiz mevali ekinlar	950	9,50
Bir yillik o'tlar (ko'k massa)	300	3,00
Oraliq ekinlari (ko'k massa)	250	2,50

O'zbekiston Respublikasi viloyatlari bo'yicha tuproqlar sifatining bonitet hali, 1999-y
 (maydoni, ga)

№	Viloyatlar nomi Respublikasi	Sug'or tiladagi q/x yerlari, ta	Shu umladan, bonitet klasslari bo'yicha										Boshqalmaga qagan yerdalar O'tracha bonitet bali
			1-guruh	2-guruh	3-guruh	4-guruh	5-guruh	6-klass 51-60	7-klass 61-70	8-klass 71-80	9-klass 81-90	10-klass 91-100	
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	463164	0	1919	25093	242228	70730	48000	24572	6801	0	0	43821
2	Andijon	228224	-	97	7780	28572	32812	42786	57101	51679	8728	0	-
3	Buxoro	229553	-	326	10373	38412	43781	24961	61649	30470	537	-	18744
4	Jizzax	275770	0	105	3602	40715	143361	48533	30379	7413	2809	0	-
5	Qashqadaryo	452288	0	0	3455	71977	197591	87416	49923	24213	9463	0	8250
6	Navoiy	108130	0	1736	9517	15253	17668	18200	20423	12853	2099	0	10381
7	Namangan	236091	-	235	13488	45753	47117	36680	32553	33381	18191	1301	7392
8	Samarqand	309564	0	41	2044	29178	72674	87271	57377	39887	17409	547	3136
9	Surxondaryo	279346	0	1898	5118	48545	49845	60367	50320	35466	17675	0	10112
10	Sirdaryo	273884	0	144	7302	66610	94579	55202	40414	4840	0	0	4793
11	Toshkent	337497	0	0	2548	36580	86054	67443	73478	46516	15844	29	9005
12	Farg'ona	296026	0	1426	8043	59139	56142	58386	67580	33001	5570	452	6287
13	Xorazm	240161	-	1640	9174	32812	40968	36989	58138	20451	4378	952	34659
Jami:		3729498	0	9567	107537	755774	953222	672234	346971	623907	102703	3281	154302

asosida, unim dorlikka ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni hisobga olgan holda ball boniteti aniqlanadi (28-jadval).

To'plangan materiallardan kelgusida foydalanishda xo'jalik bo'yicha, davlat xo'jaliklarining bo'limi, brigadasi yoki almashlab ekish massivi yerlarining unum dorligi bo'yicha va o'rtacha ballni hisoblab chiqarishda qulaylik tug'dirish uchun barcha natijalari bonitirovka jadvaliga kiritiladi.

Tuproqlarni unum dorlik bo'yicha baholash asosida qishloq xo'jalik ekinlarining hosildorligini chamalash.

Unum dorligi turlicha bo'lган yerlarda yetishtirila oladigan paxta va boshqa qishloq xo'jaligi ekinlarining o'rtacha taxminiy hosildorligi qanday bo'lishini aniqlash uchun muayyan tuproq boniteti balini bahosiga ko'paytirish kerak.

Eng yaxshi (100 balli) yerlarda qishloq xo'jaligi ekinlarining hosildorligi turlicha baholanadi (29, 30-jadvallar).

6-§. Yerlarni iqtisodiy jihatdan baholash tartibi

Yerlarni iqtisodiy baholash – bu yerning qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositasi sifatidagi solishtirma qadr-qimmatini aniqlash, demakdir. Bu ko'rsatkichlar ham nisbiy kattalikda, ya'ni ballarda, ham mutloq ko'rsatkichda, ya'ni yerga hisoblab chiqazilgan shartli narxlar – so'mlarda bo'lishi kerak.

Shunga ahamiyat berish kerakki, yerni iqtisodiy baholash va tuproqlarni bonitirovka qilish o'rtasidagi bir-biriga bog'liqlik va bir-biridan farqni ajrata bilish lozim. Bonitirovka qilishda tuproqlarning ishlab chiqarish sharoitlari emas, asosan o'simlik o'sishi uchun kerak bo'lган tabiiy xossalari hisobga olinib, guruhlarga bo'linadi. Iqtisodiy baholashda esa yerning sifati va ishlab chiqarishi ko'rsatkichlari, uning tabiiy-iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda iqtisodiy munosabatlarning farqi asos qilib olinadi.

Yerni iqtisodiy baholashning tuproq bonitirovkasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqligi shunda ko'rindiki, tuproqni bonitirovka qilishda tabiiy xossalari bo'yicha biriktirilgan tuproq guruhlaridan yerni iqtisodiy baholash uchun tuzilgan shkala yaratishda foydalanish mumkin.

Yerni iqtisodiy baholashning ballardagi ko'rsatkichlari, bir tuproqning ikkinchi xil tuproqdan necha marta yaxshiligi (qimmatroq) yoki yomonligi (arzonroq) haqidagi savolga javob beradi. Bu solishtirma miqdoriy qimmatdan yerning ishlab chiqarish vositasi sifatidagi qishloq xo'jaligini boshqarishda iqtisodiy hisob-kitob orqali rejalashtirishni tashkil qilishda foydalaniladi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishdan shu narsa ma'lumki, bir xil ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlangan bo'lsa ham tuproq unumdarligi har xil bo'lganligi uchun bir xil natija bermaydi. Shuning uchun ham tuproq unumdarligi ishlab chiqarishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi. Yerning unumdarligini aniqlash va miqdorini hisob-kitob qilish ishlari uni iqtisodiy baholash vazifasiga kiradi.

Tuproqning tabiiy va sun'iy unumdarligi bor. Tabiiy unumdarligi tuproqning tabiiy fizik-kimyoviy xossalari va iqlim sharoitiga bog'liq. Tuproqning sun'iy unumdarligini inson yaratadi. Tuproqning samarali unumdarligi bu tabiiy unumdarligi bilan sun'iy unumdarligi (mehnat harajatlari va mehnat vositalari) birlashib ketishidan hosil bo'ladi. Buni aniqlash uchun quyidagi ishlar bajariladi:

1. Xo'jalikning hamma yer turlari: haydalma yerlar, ko'p yillik mevali daraxtzorlar, pichanzor va yaylovlar baholanadi. Yer baholash ishlarini bajarish uchun qishloq xo'jalik tashkilotlaridan yig'ib olingan keyingi besh yillik uchun buxgalteriya va statistik hisoboti ma'lumotlari, aerofotogeodeziya hujjatlari, tuproq va geobotanik tekshiruv hujjatlari asos qilib olinadi.

2. Yer baholash ikki yo'l bilan amalga oshiriladi:

- yerni umumiylash (bu ayrim o'simliklarni ekishning foydaliligi bo'yicha yerni baholash);
- xususiy baholash.

Yerni umumiylashning asosiy ko'rsatkichlari:

- mahsuldarlik (jami mahsulotning qimmati) so'm/ga;
- xarajatning qoplanishi (qilingan bir so'mlik harajatga olingan mahsulotning qimmati);
- differensial daromad, foya (joylashishi va sifati eng yaxshi bo'lgan yerlardan olingan sof foydaning qo'shimcha qismi).

Yerni hususiy baholashning asosiy ko'rsatkichlari:

- hosildorlik, s/ga;
- xarajatning qoplanishi, so'm/ga;
- differensial daromad, so'm/ga.

3. Baholash ko'rsatkichlari ayrim xo'jaliklar uchun tuproqning agronomik ishlab chiqarish guruhlari bo'yicha hisoblab chiqilsa, ayrim xo'jaliklar uchun esa texnologik sharoitlarga va ishlab chiqarishning tig'izligiga qarab tuzatishlar kiritib, almashlab ekish dalalari bo'yicha hisoblab chiqaziladi.

Zarurat tug'ilса va yetarli ma'lumotlar bo'lsa, tuproq ayimalari bo'yicha ham baholash ishlarini bajarish mumkin.

Yalpi mahsulot qimmatini hisoblash uchun ishlab chiqarishning eng yomon sharoitida qilingan, zarur bo'lgan umumiylar xarajatlarni hisobga olgan holda yagona kadastr narxlardan foydalaniladi.


Yalpi mahsulot qimmatiga asosiy hamda qo'shimcha mahsulotning va boshqa mahsulotlarning qimmati ham qo'shiladi.

4. Yerni baholash natijalari bo'yicha (yagona formada) quyidagi amamliy vazifalarni, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish va uning tannarxini pasaytirish imkonini beruvchi masalalarini hal qilish uchun asos bo'ladigan qaydnomalar (vedomost) va yer baholash kartalari tuziladi:

- qishloq xo'jalik korxonalarining xo'jalik faoliyati natijalarini tahlil qilish (chizma);
- qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish va tayyorlash rejalarini mukammallashtirish (chizma);
- tabiiy va iqtisodiy sharoitlari bir xil bo'lmagan xo'jaliklarning daromadlarini oshirish imkoniyatlarini tenglashtirish (chizma);
- yer tuzish tadbirlarining texnik-iqtisodiy asoslarini tuzish (chizma);
- qishloq xo'jaligidan boshqa maqsadlar uchun yerlarni ajratib olganda ko'rilgan zararlarni hisoblab chiqish (chizma).

5. Respublika «O'zdavyerloyiha» ilmiy-loyihalash instituti va uning bo'lim va filiallari tomonidan barcha xo'jaliklarda yerlarning sifati va qiymati bo'yicha baholash ishlari natijasi bo'yicha kartalar, so'ngra bu hujjatlar asosida tumanlar, viloyatlar (5-rasm) va respublika miqyosida shunday kartalar tuziladi.

SUG'ORILADIGAN YERLARNING SIFATI VA QIYMATINI BAHOLASH



6. Yer baholash hujjatlarini yangilash va ularga tuzatishlar kiritish har besh yilda amalga oshiriladi.

7. Yerlarni baholashda quyidagi ishlar bajariladi:

- tayyorgarlik ishlari, dastlabki ma'lumotlarni yig'ish va bir yo'lga qo'yish;

- yer baholashni tumanlar bo'yicha rejalashtirish;

- tuproqni agronomik ishlab chiqarish bo'yicha guruhlash;

- baholash shkalasini tuzish uchun o'ttacha hosildorlikni va xarajatlarni hisoblab chiqazish;

- baholash shkalasini tuzish va yerning baholash ko'rsatkichlarini hisoblab chiqish;

- xo'jaliklarda yer baholash ishlarini o'tkazish;

- baholash hujjatlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash;

- yer baholash hujjatlarini tayyorlash va topshirish.

Tayyorgarlik ishlari. Dastlabki ma'lumotlarni yig'ish va bir yo'lga solish.

Dastlabki ma'lumotlar baholash ishlarini bajarish uchun zarur bo'lib, dala sharoitida va kameral sharoitda yig'iladi. Kameral yo'l bilan tayyorgarlik ishlarini bajarishda va bir yo'lga solishda quyidagi ishlar qilinadi:

1. Keyingi besh yillik mobaynida xo'jaliklar bo'yicha yer turlarining konturlar bo'yicha qaydnomasi yer turlari to'g'risida ma'lumotlarga yig'iladi. Agar xo'jalikning yer turlarida juda katta o'zgarish bo'lsa va yerdan foydalanish bo'yicha yetarli statistik ma'lumotlar bo'lmasa (hosildorlik, mahsulotning tannarhi va boshqalar), mavjudlari ham xo'jalik baholash shkalasi tuzish uchun ma'lumotlarni qayta ishslashda ishlatilmaydi.

2. Meteostansiyalar bo'yicha agroqlim ko'rsatkichlari. Bu ma'lumotlar viloyatlar bo'yicha yig'iladi. Asosiy qishloq xo'jalik ekinlarini o'stirishda viloyat ichida bo'ladigan agroqlim sharoitlarining o'zgarishini kuzatish mumkin. Bularidan baholash rayonlarini ajratishda foydalilanadi.

3. Tuproqlarning xo'jaliklar yer turlari asosida qilingan hisob-kitobga bog'liq genetik, morfologik va boshqa xususiyatlari bo'yicha ma'lumotlari bo'lgan tuproq ayirmalarining ro'yxati. Bu ma'lumotlar bo'yicha tuproqlar agronomik ishlab chiqarish guruhlariga birlashtiriladi, maydonlar bo'yicha bir-biriga solishtiriladi.

4. Dalalarning pasport hujatlari, ko‘p yillik mevali daraxtlar, em-xashak tayyorlashga mo‘ljallangan yerlar, relyefi qiyali yerlar, tosh aralashganlik, tuproqning qayta ishslashda ko‘rsatadigan qarshilik, dengiz yuzidan balandligi (tog‘li tumanlarda), qishloq xo‘jalik yer turlarining kontur bo‘yicha yer maydoni va kontur sonlari. Bu ma’lumotlardan viloyat yerlarini rayonlashtirishda va yerni baholashda unga qilingan harajatlarni hisoblab chiqishda foydalaniladi. Qishloq xo‘jalik yer turlarining pasportlash ma’lumotlari mos ravishda bir yo‘lga solinadi.

5. Ko‘p yillik mevali daraxtlarning turlari va navlari, yoshining tarkibi, ularning tuproq-agronomik ishlab chiqarish guruhlari bo‘yicha joylashishi haqidagi ma’lumotlardan olinadi. Bu ma’lumotlar qoidaga ko‘ra, ixtisoslashgan xo‘jaliklar bo‘yicha, shuningdek, mevali daraxtlar mahsuloti tovar ahamiyatiga ega bo‘lgan xo‘jaliklardan to‘planadi.

6. Pichanzorlar va yaylovlarning mahsuldarligi bo‘yicha ma’lumotlar ko‘rsatiladi. Bu shaklni to‘lg‘azish uchun ma’lumotlar manbai bo‘lib, qoidaga muvofiq, geobotanik tekshiruv ma’lumotlari hisoblanadi. Agar bu ma’lumotlar bo‘lmasa, dala sharoitida tekshirilgan xo‘jalikning agronomik ma’lumotlaridan foydalaniladi.

7. Qishloq xo‘jalik ekinlarining hosildorligi va ularning ekin maydoni hisobi bo‘yicha olib boriladi.

8. Mahsulot yetishtirishga qilingan xarajatlari beriladi.

9. Xo‘jalikning ishlab chiqarish fondlari bilan ta’minlanganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar (qayta tiklangan qimmati bo‘yicha) beriladi.

10. Yer turlari va asosiy ekinlarga berilgan o‘g‘itlar haqidagi ma’lumotlar bo‘yicha olinadi, bu ma’lumotlar rayon qishloq xo‘jalik boshqarmasiga berilgan maxsus hisobot bo‘yicha Markaziy statistika boshqarmasidan olinadi (mineral va organik o‘g‘itlarni solish bo‘yicha hisobot).

11. Hosilni to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobga olish ma’lumotlari va xo‘jaliklarning ekin ekishga qilgan xarajatlari, davlat navlarini ekishga, tajriba, ilmiy-tekshirish tashkilotlari uchun qilingan xarajatlari bo‘yicha beriladi.

12. Oldin tayyorlangan yer baholash hujatlari qo‘llanma bo‘yicha yana bir marta tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Dala ishlarining tarkibi va hajmi dastlabki ma’lumotlar holatiga qarab aniqlanadi.

Dala tekshiruv ishlari. Dala ishlari mavjud tuproq, geobotanik, aerofotogeodeziya rasmlari va boshqa hujatlars asosida o‘tkaziladi.

Dala sharoitida bu hujjatlarning yer baholash ishlarini bajarish uchun yaroqli yoki yaroqsizligi aniqlanadi, shuningdek, yerning haqiqiy holati va undan foydalanish bo'yicha quyidagi qo'shimcha ma'lumotlar yig'iladi:

- yer to'g'risidagi hisob-kitob ma'lumotlari yerdan foydalanishning turlari bo'yicha haqiqatga to'g'ri kelishini tasdiqlash;
- yerning haqiqiy meliorativ holatini aniqlash;
- tuproq kartalarida ajratilgan konturlarning haqiqatga to'g'ri kelish va kelmasligini aniqlash;
- tuproq tekshiruv hujjatlari asosida tuzilgan tuproqlarning agronomik ishlab chiqarish guruhlarini tekshirib aniqlash;
- yerdan foydalanishning asosiy texnologiya sharoitlarini tekshirib ko'rish va aniqlash. Birinchi navbatda, konturlari relyefining nishabligi, toshlar bilan aralashgani. Tuproqning agronomik ishlab chiqarish guruhlari bo'yicha asosiy qishloq xo'jalik ekinlari joylashishini va almashlab ekish haqiqatdan o'zlashtirilganligini aniqlash;
- ayrim xo'jaliklarda mevali daraxtlar ekilgan yerlardan foydalanish bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar yig'ish (relyef belgilari bo'yicha joylashtirilganligi tuproq agroguruhlari, yoshi va nav tarkibi, agrotexnikasi va boshqalar; tabiiy yaylov yerlardan haqiqiy foydalanish va madaniy texnik holatlari).

Dalada qilingan tayyorgarlik ishlarining natijalari, baholash tumanlarining chegaralarini va tuproqning agronomik ishlab chiqarish guruhlari chegaralaridan, xo'jaliklar tarkibida baholash shkalasi ishlab chiqish uchun, shuningdek, tuproq, geobotanik va boshqalar bo'yicha qilinadigan qo'shimcha tekshiruvlarning hajmini aniqlash uchun foydalaniladi. Chunki berilgan maydonda bu ma'lumotlarsiz baholash ishlarini bajarib bo'lmaydi.

Nazorat savollari

1. Yerlarni iqtisodiy baholash deganda nimani tushunasiz?
2. Yerlarni iqtisodiy baholash ishini qaysi tartibda olib boriladi?
3. Yerlarni iqtisodiy baholashdan maqsad nima?
4. Yerlarni baholash uchun rayonlarga ajratish tartibi va maqsadi nimada?
5. Tuproqlarni organik ishlab chiqarish guruhlariga ajratish tartibi va maqsadi nimadan iborat?

1. Yerlarni baholash uchun hududlarga ajratish

Yerlarni baholash uchun kadastr hududlariga ajratish respublika, viloyat va tumanlarda shu joylarning tuproqlari, iqlimi, texnologiyasi va boshqa farqlari, shuningdek, xo'jalikning ixtisoslashganligi hisobga olingan holda mamlakatning tabiiy va qishloq xo'jalik hududlariga ajratish sxemasi bo'yicha bajariladi. Umumiy tabiiy - qishloq xo'jalik rayonlariga ajratish sxemasiga mos ravishda O'zbekiston Respublikasining kadastr hududlariga ajratish ko'rsatiladi.

Yerlarni baholash maqsadida tabiiy tekislik mintaqalari va tog'li maydonlar mamlakatning umumiy hududlarga ajratish sxemasiga asosan, tabiiy okrug va yer baholash hududlariga ajratiladi.

Tabiiy okruglar, asosan agroqlim gemorfologiyasi va tuproq meliorativ belgilari o'xshash bo'lgani uchun ajratiladi. Tekislik provinsiyasi doirasida okruglarning xaraktyerli belgilari shulardan iboratki, qishloq xo'jaligi yer turlari konturlari ma'lum miqdorini belgilovchi va yerning boshqa tabiiy texnologiya xususiyatlarini ko'rsatuvchi geomorfologik sharoitlari bir xilligidir.

Yerni baholash kadastr hududlari, viloyatlar va respublika tarixida tibbiy okruglarning bir qismini tashkil qiladi.

Yer baholash hududlariga ajratilayotganda xo'jalikning ixtisoslashgani, ishlab chiqazilayotgan mahsulotning nisbati va haqiqiy tarkibi, ekin maydonlarining tarkibi, qishloq xo'jalik ekinlariga va tarmoqlar bo'yicha qilingan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanadi.

Dehqonchilikning jadallashtirish darjasи, asosan bir gektar haydalma yerga qilingan mehnat xarajatlari, berilgan o'g'itlar miqdori va ishlab chiqarish fondlari bilan ta'minlanganligi, xo'jalikda qishloq xo'jaligida foydalaniladigan boshqa yer turlariga ixtisoslashganligiga bog'liq bo'ladi.

Yerlarni baholash hududlariga ajratilayotgan, shu baholash tuman ichidagi xo'jaliklarning ixtisoslashgantirilganligiga alohida ahamiyat berilib, bu xo'jalik umumiy maydonidan asosiy qismi qaysi qishloq xo'jalik o'simligi bilan bandligini xo'jalikning statistik buxgalteriya hisob kitobidan bilish mumkin.

Yerni baholash tuman chegaralari imkoniyatiga qarab, ma'muriy tuman chegaralari bilan uzviy bog'lanishi, agar bunda qiyinchilik

tug‘ilsa, ya’ni tuproq sharoiti bir xil bo‘lmasa, u holda yerdan foydalanuvchi qishloq xo‘jalik korxonalari chegarasi bilan bog‘lash kerak. Yerni baholash hududlarida kamida 30 ta ixtisoslashgan xo‘jaliklarning statistik ma’lumotlari qoidaga binoan, qayta ishlashda qo‘llanishi lozim.

Agar tabiiy sharoitda va qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashuvi bir xil bo‘lsa, ma’muriy viloyatning o‘zi bir yerni baholash tumani qilib olinishi mumkin.

Har bir hudud tabiiy-ekologik sharoitlar majmui (tuproq qatlaming tuzilishi, mikroiqlim xususiyati, tuproq hosil qiluvchi jinslar, gidrogeologik shartlarini), tarixiy shakllangan sohalarini hisobga olib, tabiiy qishloq xo‘jalik hududlariga ajratilgan.

2.Tuproqlarni agronomik ishlab chiqarish guruhlariga birlashtirish

Tuproqlar agronomik ishlab chiqarish guruhlariga birlashtirilayotganda sug‘oriladigan haydalma yerlar va lalmikor haydalma yerlar alohida «Yirik masshtabda tuproq kartalari chizish» qo‘llanmasi asosida bajariladi. Tuproq ayrimalarini agronomik ishlab chiqarish guruhlariga birlashtirishning asosiy yo‘llari quyidagilardir:

1. Bir tuproq-iqlim provinsiyasiga yoki tog‘li maydonlariga mansubligi.
2. Tuproq genetik kelib chiqishning, tuproq profilining morfologik tuzilishi, ayniqsa, yuqori gorizontlarning bir-biriga o‘xshashligi.
3. Tuproq paydo qiluvchi jinslar va tuproqning mexanik tarkibi.
4. Tuproqning asosiy fizik xususiyatlari, ularning suv, havo va issiqlik tartiblari.
5. Tuproqdagi har xil shakliy ozuqa elementlari miqdori va zaxirasi, kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalari ko‘rsatkichlari.

Sug‘oriladigan yerlarning sifatini ko‘pgina omillar belgilaydi. Bularga mexanik tarkibi, sho‘rlanishi, suv bilan ta’minlanishi, toshlar aralashganlik darajasi va boshqalar kiradi.

«O‘zdavyerlayiha» ilmiy-loyiha instituti Yer kadastro filiali ma’lumotiga ko‘ra, Namangan viloyati bo‘yicha tuproqlarning mexanik tarkibi quyidagicha:

og‘ir qumoqlar - 151,1 ming ga;

yengil qumoqlar - 45,5 ming ga;
 qumoqli yerlar - 2,0 ming ga.

Sho'rlanmagan o'rtalik va yengil qumoqli yerlar sifati bo'yicha eng yaxshi yerlar hisoblanadi. Tuproqning sho'rlanishi bo'yicha viloyatda kuchsiz sho'rlangan - 40,0 ming ga va kuchli sho'rlangan yerlar - 0,2 ming gettardan iborat.

Tuproqning sug'oriladigan suv bilan emirilishi uning unumdorligini pasaytiradi. Viloyatda kuchsiz yuvilgan tuproqlar 25,7 ming gettarni, o'rtacha yuvilgan yerlar 1,3 ming gettarni tashkil qiladi, kam toshli yerlar esa - 18,7 ming, o'rtamiyona toshli yerlar - 1,0 ming gettar. Tuproqlarga tosh aralashgan bo'lsa, ularni texnika yordamida qayta ishslash og'ir kechadi, tuproqning fizik, mexanik xususiyatlari yomonlashadi, o'simlikning ildiz tizimiga salbiy ta'sir etadi.

Tuproqning sifatini bilish qulay bo'lishi uchun 100 balli shkala klasslarga bo'lingan.

Namangan viloyatida tuproqlar sifatini aniqlash yangi qiyalik yerlar, toshli, qumli va sho'rlangan yerlarni o'zlashtirmasdan oldin o'tkazilgan. Eskidan sug'oriladigan yerlar o'z unumdorligini saqlab qolgan, ya'ni 1 kadastr hududi bo'yicha bonitet balli 70 ni tashkil qiladi.

Lekin keyingi vaqtarda unumdorligi past bo'lган yerlarni o'zlashtirish, ayniqsa, tog' oldi zonalarida (Pop va Zadaryo tumanlarida) qumli va sho'rlangan yerlar viloyat bo'yicha tuproq sifatining umumiy ko'rsatkichini pasaytiradi.

Yerni iqtisodiy baholash yer turlari bo'yicha olib boriladigan (haydalma yerlar, mevali daraxtlar, ekilgan yerlar, pichanzor va yaylovlari) yerni umumiy baholash va xususiy baholash, ya'ni ekilgan ekinlar bo'yicha (g'o'za, don, beda, sabzavotlar va boshqalar).

31-jadval

Namangan viloyati sug'oriladigan yerlarining sifati bo'yicha taqsimoti

Yerlar klasi	Ballar	Sifati	Sug'oriladigan haydalma yer maydoni, ming ga				
			1980-yil	1985-yil	1987-yil	1990-yil	2000-yil
1	81-100	eng yaxshi	87,4	96,4	98,4	57,7	19,5
2	61-80	yaxshi	76,1	81,1	81,4	67,1	66,0
3	41-60	o'rtacha	29,2	29,8	32,1	58,4	83,8
4	21-40	o'rtadan past	6,6	6,6	8,9	39,0	59,3
Viloyat bo'yicha maydoni			199,3	213,9	220,8	222,2	228,6
Bonitet balli			63	69	70	66	59

Umumiy baholashning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1. Mahsuldorlik (VP) mahsulotning yalpi qiymati, so'm/ga.
2. Xarajatning qoplanishi (OZ), ya'ni qilingan bir so'm xarajatga olingan mahsuldorlik qiymati.
3. Difyerensial daromad (DD) eng yaxshi yerdan olingan sof foydaning qo'shimcha qismi.

Xususiy baholashning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan tashkil topadi:

1. Hosildorlik (U), s/ga.
2. Xarajatning qoplanishi (OZ), so'm/ga.
3. Differensial foyda (DD), so'm/ga.

Shkala uchun iqtisodiy baholashning asosiy obyekti yer baholash guruhlaridir. Har qaysi tuproq guruhlariga statistik-iqtisodiy ma'lumotlari bo'lgan xo'jaliklar tanlab olinib, mazkur guruhlar uchun ko'rsatkichlar hisoblab chiqazilgan.

Namangan viloyati xo'jaliklari va tumanlari bo'yicha o'tkazilgan yer kadastri ishlari natijasida quyidagi tavsiyalar berish imkonini tug'iladi:

1. Eng yaxshi unumdar yerlar qurilish uchun olinishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Bu maqsadlar uchun qishloq xo'jalik ekinlari ekishga yaroqsiz yerdan foydalanish lozim.

2. Unumdarligi past yerkarni o'zlashtirish va ular foydalanilayotganligi munosabati bilan yerdarda madaniylashtirish tadbirlarini o'tkazish kerak. Bu, birinchi navbatda, organik o'g'itlar, tuproq aralashmali kompostlar solish, beda va boshqa ko'p yillik o'tlar ekip, yerning biologik faolligi oshirilishini taqozo etadi. Adir yerdarda suv eroziyasiga qarshi qiyaliklarni ko'ndalangiga haydash, terrasalar qilish, tekislash, bog' va uzumzorlar barpo etish kerak. Shuningdek, baholash ko'rsatkichlarini tekshirib turish va yerning ishlab chiqarish qobiliyatini aniqlash uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- qishloq xo'jalik korxonalaridan olinayotgan yillik hisobot xo'jalikning ekin maydoni, yalpi mahsulot, material, texnika vositalarining xarajatlari, xarajatning qoplanishi va daromadlar haqidagi haqiqiy holatni aks ettirishi;

- xo'jalik tuproq qoplami (sho'rланishi, emirilishi, tosh aralashganligi, meliorativ holati, gumus miqdori va o'simliklar oladigan asosiy ozuqa moddalari) haqidagi ma'lumotni yangilab turish lozim.

3. Baholash shkalasini tuzish va baholash ishlari o'tkazish

Yerlarni baholash baholanuvchi tumandagi xo'jaliklarning haqiqiy hosildorligi va qilingan harajatlari to'g'risidagi ko'pdan-ko'p ma'lumotlarga asoslanadi. Bu ma'lumotlar baholanayotgan tuproqlarning agronomik ishlab chiqarish guruhlari bo'yicha o'rtacha xarajatlarini hisoblab chiqazish uchun statistik qayta ishlashdan o'tkaziladi. Bu ma'lumotlarga asos qilib o'rtacha statistik ko'rsatkichlar asos qilib olinadi.

Dastlabki ma'lumotlarni xo'jaliklar bo'yicha qayta ishlash quyidagi tartibda olib boriladi:

- qishloq xo'jalik yerlarining har xil turlari tarkibidagi tuproqlar bo'yicha agronomik ishlab chiqarish guruhlari strukturasi hisoblab chiqaziladi. Haydalma yer maydoniga nisbatda ekin maydonlarining strukturasi hisob-kitob qilinadi. O'simliklar bo'yicha va ularga qilingan xarajatlar, shuningdek, turlari bo'yicha qilingan sarf-xarajatlarning 1 gektarga ketgan o'rtacha miqdori hisoblab chiqaziladi;

- qishloq xo'jalik ekinlari va yer turlari maydon birligining asosiy fondlar bilan ta'minlanganligi hisoblab chiqaziladi;

- bir hektar yerga va ekinlarga solingan o'g'itlarning harakatchan moddasi hisobidagi o'rtacha miqdori hisoblab chiqaziladi.

Xo'jaliklar sifati va undan foydalanishning jadallashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha guruhlarga ajratiladi. Bundan maqsad tuproqlarni agronomik ishlab chiqarish guruhlari uchun baholashdir. Bundan ko'rsatkichlarni hisoblab chiqishga, shu xo'jalik ma'lumotlari asos bo'lib xizmat qiladi. Tanlab olingan har qaysi bo'yicha agroguruuhlar uchun o'rtacha hosildorlik va xarajatlar hisoblab chiqaziladi.

Har qaysi yer turlari bo'yicha xo'jaliklarning foydalanilayotgan yerga yalpi mahsulot qimmati qabul qilingan kadastr narxida hisoblab chiqaziladi.

Grafik va matematik-statistik qo'llanmalar (guruhlarga ajratish jadvali, har xil sifatga ega bo'lgan yerlarda hosildorlik bilan xarajatlar o'rtasidagi aloqadorlikni ko'rsatuvchi grafik va statistik model) yordami bilan ishlab chiqarishni jadallashtirishning tuzatish koeffitsiyenti hisoblab chiqaziladi. Bu ko'rsatkich, zarur hollarda shu xo'jalikda qilingan xarajat miqdorini baholash uchun imkoniyat yaratadi.

Tibiyyaylovlarning mahsuldorligi ulardagi ozuqabirligi vatiplar guruhlari xazm bo‘ladigan ayrim protein miqdoriga ko‘ra, tuprog‘ining agronomik ishlab chiqazish guruhlariga mos keluvchi, suv bostirilishi yaxshilangan, suvsiz va botqoqlangan pichanzor va yaylovlar bo‘yicha hisoblab chiqiladi.

Mahsuldorlik to‘g‘risida ma’lumotlar tabiiy yaylovnning madaniy texnik holati va undan foydalanish tavsifi to‘g‘risidagi ko‘rsatkichlar qayd etiladi.

Tabiiy yaylovlar bo‘yicha qilingan xarajatlar, olingan mahsulotlar tannarxi hisoblashda qabul qilingan narxlarda elementlari bo‘yicha hisobga olinadi.

Tabiiy yaylovlarga qilingan xarajatlarni hisoblashda Qishloq va suv xo‘jalik vazirligi yo‘riqnomalaridan foydalaniladi.

Ko‘p yillik mevali daraxtlar ekilgan yerlarnini baholash tegishli agronomik ishlab chiqarish guruhlari bo‘yicha baholash yo‘llari bilan olib boriladi.

Ko‘p yillik mevali daraxtlar tiplari, turlari, navlari, yoshi va o‘sirish intensivligiga qarab ajratiladi. Uzumzorlar sanoat va xo‘raki navlariga ko‘ra bo‘linadi.

4. Tuproqlarni agronomik ishlab chiqarish guruhlariga ajratish va baholash

Yer osti suvi chuqurligini ko‘rsatuvchi relyefi; tuproq konturlarining bir xillik darajasi, ularning katta-kichikligi va shakllanishi; tuproq unumdorligini pasaytiradigan va yerdan foydalanishni qiyinlashtiradigan sharoitlar-sho‘rlanish, eroziyaga uchraganlik, tosh aralashganlik va hokazolar, fizik va kimyoviy xususiyatlari, hosildorlik ko‘rsatkichlari bir xil tipdagи tuproqlarda bir me'yordagi meliorativ tadbirlarini bir xilda o‘tkaziladi.

Tuproq ayirmalari agronomik ishlab chiqarish guruhlariga birlashtirilayotganda tuproqlar birinchi navbatda, sifatiga ta’sir qiluvchi xususiyatlari va vaqt o‘tishi bilan kam o‘zgaruvchan xossalari hisobga olinib, 129 ta ishlab chiqarish guruhiga ajratilgan.

Tuproqlarning ishlab chiqarish guruhlarim, asosan baholanuvchi obyektdir. Uning ishlab chiqarish qobiliyatini tavsiflovchi barcha ko‘rsatkichlar hisoblab chiqaziladi.

Baholash rayonida keng tarqalgan ayrim tuproq ayirmalari ham baholash obyekti bo'lishi mumkin.

Katta maydonlar uchun jamlangan baholash shkalasini tuzishda tuproqning agronomik ishlab chiqazish guruhlari ancha yirik ajratmalarga birlashtirilishi mumkin.

Sug'oriladigan yerlarni agronomik ishlab chiqazish guruhlariga ajratishda qo'shimcha asosiy omil sifatida quyidagilar hisobga olinadi:

- sug'orilish davri;
- suv bilan ta'minlanganlik)shartli va doimiy sug'oriladigan yerlarni ajratgan holda);
- sug'oriladigan yerdan kollektor-drenaj tarmoqlari orqali grunt suvining oqib chiqib ketishi.

Sug'orilish davriga qarab, yerlar eskidan sug'oriladigan, yangidan sug'oriladigan va yangi o'zlashtirilgan yerlarga ajratiladi. Eskidan sug'oriladigan yerlar, asosan quyidagi belgilar bilan tavsiflanadi:

- suvda eriydigan zararli tuzlar yuvilib ketganligi;
- relyeflar to'g'rilanib, tekislanganligi;
- har xil qalinlikdagi, sug'orish davomida oqib kelgan yotqiziqlar;
- ildiz oziqlanadigan qavatda tuproq profilining bir xil tuzilishi.

Yangidan sug'oriladigan yerlarning, asosan 30 sm. li yuqori qavati sug'orish natijasida kam o'zgarishga uchragan bo'ladi. Ularning haydaladigan qavati bir kam xillicha bilan tavsiflanadi, relyefi kam tekislangan.

Yangi o'zlashtirilgan yerlarga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida 10 yildan ko'p bo'lmasa, foydalaniyatgan yerlar kiradi. Bu yerlarning tuproqlari dastlabki qo'riq yer tuproqlaridan ko'p farq qiladi, relyefi kam tekislangan.

Agar tuproqlarni u yoki bu guruhlarga ajratishda yetarli ma'lumotlar bo'lmasa, u holda qo'shimcha ma'lumotlar yig'iladi, agar kerak bo'lsa, dala tekshiruv ishlari o'tkaziladi.

Tuproqlarni agronomik ishlab chiqarish guruhlariga ajratish yagonaprinsip (yo'l) bilan amalgaoshirilib, taqqoslanadi. Tuproq ayirmalarini to'g'ri birlashtirish baholash ko'rsatgichlari haqida to'liq ma'lumot olishni ta'minlaydi va taqqoslash imkonini beradi.

Yerning ishlab chiqarish qobiliyatini mutlaq va nisbiy (ballarda) solishtirish maqsadida yerni baholash ko'rsatkichlari hisoblab chiqaziladi. Bu ko'rsatkichlar tarkibi mazkur qo'llanmada ko'rsatilgan. Joylardagi sharoitga va yer baholash natijalari qaysi maqsadda qo'llanishiga qarab, ularcha qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi, tegishli bo'limda ko'rsatilganidek, hisoblab chiqiladi. Ayrim ekinlar bo'yicha xarajatning qoplanish ko'rsatkichlari mahsulot qiymatining shu o'simlik uchun ketgan xarajat nisbatiga asosan, quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqaziladi:

$$XK = YaM/X$$

bu yerda, XK – harajtning qoplanishi;

YaM – ma'lum bir tuproq guruhida ekilgan o'simlik, yalpi mahsulotining o'rtacha qiymati;

X – ma'lum bir tuproq guruhida shu mahsulotni yetishtirish xarajati qiymati.

Diffyerensional daromad bo'yicha yerlarni baholashda olingan yalpi mahsulot qiymati (YaM) va qilingan xarajatlar (X) to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalaniladi. Bundan tashqari, normal qo'shimcha mahsulot zaruriy bo'lgan sof foydani minimal qismi (SFx) va hamma sof foydani (SFm) 1 hektar uchun miqdori difyerensional daromad hamma sof foydani minimal qismini olib tashlab hisoblanadi.

$$Dd = SFx - SFm$$

Sof foya quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$SF = YaM - X$$

$$SFm = K/M \text{ asosiy} - M \text{ oborot}/$$

bu yerda, K – asosiy va oborotdagи mablag'larning birligidagi ishlab chiqarish samarasi koeffitsiyenti q 0,15;

M asosiy – ishlab chiqarish mablag'larining qiymati;

M oborot – amartizatsiya hisoblab olib tashlanib, qolgan xarajatlarga mos keladigan ma'lum bir hajmdagi mahsulotni olish uchun sarf qilingan oborotdagи ishlab chiqarish mablag'larining qiymati.

Olingan yer baholash ko'rsatkichlari asosida viloyatlar uchun tuproqlarning agronomik ishlab chiqazish guruhlari bo'yicha yer baholash shkalasi tuziladi.

Baholash shkalasi – bu, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining rivojlanish miqyosini solishtirish uchun hisoblab chiqazilgan va bir yo‘la, bir tartibga solingan o‘rtacha baholash ko‘rsatkichlaridir. Yer baholash shkalasi har qaysi cadastr hududlariga tuzilib, mutloq va nisbiy ko‘rsatkichlarda bo‘ladi. Yerni bahaolashning nisbiy ko‘rsatkichlari ballarda (foizlarda) ifodalanadi. 100 ball bilan eng yuqori baholash ko‘rsatkichi ifodalanadi. Yer baholash shkalasida, baholash ko‘rsatkichidan tashqari 1 ballning bahosi va katta maydonlar ishlab chiqarishining jadallashtirish me’yorini solishtirish ko‘rsatkichlari ham beriladi.

5.Xo‘jaliklarda yerlarni baholash va baholash hujatlari

Xo‘jaliklarda yer baholash ishlarni o‘tkazishning birlamchi obyektlari haydalib ekin ekiladigan yerlar, ko‘p yillik mevali daraxtlar, tibbiy yaylovlardir. Maydonlar bo‘yicha baholash balli shu maydonga kiruvchi tuproq agroguruhini o‘rtacha nisbiy bahosi ko‘rsatkichi sifatida baholash shkalasi asosida hisoblab chiqaziladi.

Xo‘jaliklar bo‘yicha baholash ko‘rsatkichlarining tuproq agroguruhlari, almashlab ekish hududlari, ekin turlari (ko‘p yillik mevali daraxtlar bo‘yicha) quyidagi formula bilan hisoblab chiqaziladi:

$$B_{ur} = B_1 M_1 + \dots + B_p M_p / M_1 + \dots + M_p$$

B_{ur} – hisoblab chiqazilgan o‘rtacha baholash balli;

B_1, B_p – ma’lum bir o’simlik ekilgan maydonning bali;

M_1, M_p – ma’lum bir o’simlik ekilgan maydon.

Yer baholash bo‘yicha hujatlari ikkiga bo‘linib, hisoblangan normativ va natijali yer baholash hujatlaridan iborat bo‘ladi.

1. Hisoblangan normativ hujatlari - tuproqning ishlab chiqarishning jadallashtirish sur’atini ko‘rsatadigan agronomik ishlab chiqarish guruhlari bo‘yicha baholash ko‘rsatkichlari shkalasi.

2. Natijali yer baholash hujatlari:

- alohida maydonlar, almashlab ekish dalalari bo‘yicha brigadalar, bo‘limlar va xo‘jaliklardagi yer turlarga ko‘ra, yerning baholangan (ведомость) qaydnomasi;

- tuproqning agronomik ishlab chiqazish guruhlarini chegaralari tushurilgan va alohida yer maydonlari yoki almashlab ekish dalalari

bo'yicha baholash natijalari ko'rsatilgan yer baholash kartalari;

- yer baholash kartasiga va yer baholash qaydnomasiga yozilgan tushuntirish xati. Bu tushuntirish xatida xo'jalikning tabiiy va iqtisodiy sharoitlari, joylashishi va ixtisosligi, dastlabki ma'lumotlarning holati, baholanadigan maydonlarda qo'llash bo'yicha tavsiyalar;

- yerdan foydalanuvchilarga yer baholash qaydnomasi va yer baholash kartasi beriladi;

- tuman qishloq xo'jalik tashkilotlariga yerdan foydalanuvchilar bo'yicha yer baholash qaydnomasini toplash, yer turlari tarkibida tuproqning agronomik ishlab chiqarish guruhlari toplami va tuman yer kadastri kartasi beriladi;

- viloyat qishloq xo'jalik tashkilotlariga tumanlarda yer baholash bo'yicha hisoblangan – me'yoriy hujjatlar beriladi;

- yer baholash ishlari natijalari respublika viloyatlarida tashkil qilingan maxsus baholash komissiyalari tomonidan ko'rib chiqiladi. Viloyat yer baholash komissiyasi yer baholash bo'yicha hujjatlarni ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;

- bajarilgan yer baholash ishlari bo'yicha ayrim hujjatlardagi e'tirozlar bir oy davomida viloyat yer baholash komissiyasi kengashdan so'ng qabul qilinadi. E'tirozlar zarur hisob-kitoblar bilan asoslangan va tasdiqlangan bo'lishi kerak;

- komissiya bildirilgan e'tirozlarni tekshirib ko'radi va ular yuzasidan uzil-kesil qaror qabul qiladi.

Yer baholash bo'yicha birlamchi ma'lumotlar va yer baholash hujjatlarining bir nusxasi Yer kadastri filiali arxivida saqlanadi. Ular har 5 yilda yangilanib turadi.

6. Yerlarni baholash natijalarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish rejalashtirilayotganda umumiyoq reja yerning sifatiga va ishlab chiqarish resurslari miqdoriga mos ravishda xo'jaliklar hamda tumanlari bo'yicha bir xil tuzilishiga e'tibor berish kerak.

Har xil sifatli yerga ega bo'lgan xo'jaliklarga iqtisodiy rivojlanish va daromadlarini oshirish imkoniyatini yaratish, differensional daromadlar tasdiqlanishini ta'minlash lozim.

Namangon viloyati bo'yicha paxta va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiriladigan maydonlarni turlari bo'yicha baholash ko'rsatkichlari

(Yer kadastri filiali ma'lumoti bo'yicha)

№	Tumanlar	Paxta hosildorligi, s/ga			Yalpi mahsulot qiymati, so'm/ga		
		bir necha yillar bo'yicha, o'racha (haqiqatda)	baholash bo'yicha	haydalma yer	mevali daraxtar	pichanzor va yayloviar	qishloq xo'jaligi yer turlari bo'yicha
1	Zadaryo	24,2	24,7	1704	567	7,0	1497
2	Kosansoy	27,8	27,2	22,84	1758	13,8	1350
3	Namongon	36,1	33,3	2972	2926	13,0	2703
4	Pop	26,8	26,9	2010	1226	13,1	601
5	To'raqo'rg'on	33,0	31,1	2491	2433	13,0	2019
6	Uychi	33,9	31,9	2746	2398	-	2677
7	Uchqo'rg'on	31,7	32,4	2735	1566	-	2690
8	Chust	25,8	27,6	2289	1905	13,2	1307
9	Yangiqo'rg'on	30,6	27,8	2334	1755	13,8	1459
	Viloyat mo'yicha:	29,4	28,8	2336	1847	13,1	1468

Yerni baholash ma'lumotlari, amaldagi mahsulot turlarining xarid narxlarini takomillashtirish va mahsulot sotib olish hajmini differensial rivojlantirish yo'llari bilan fermer va dehqon xo'jaliklari daromadi oshishi uchun teng sharoit yaratish imkonini beradi.

Yerni baholash ma'lumotlaridan, shuningdek, daromad solig'ini hisoblab chiqarishning takomillashtirish va qishloq xo'jalik korxonalari yetishtirayotgan mahsulotlar keltiradigan daromaddan davlat budgetiga o'tqaziladigan ajratimalar miqdorini hisob-kitob qilishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yer tuzish korxonalari yerni baholash ma'lumotlaridan har xil tashkilotlarga yer ajratib berishda va yerdan qishloq xo'jaligiga taalluqli bo'lmagan maqsadda foydalanish uchun qishloq xo'jalik yerkari ajratib berilganda ko'rilgan zararni qoplash masalalarini texnik iqtisodiy asoslashda maqsadida foydalanadi. Shuningdek, yerning unumдорлиги va joylashishini solishtirish to'g'risidagi ma'lumotlar maydonlarni tashkil qilish va shunga mos ravishda xo'jalikni ixtisoslashtirish, ekinlarni joylashtirish va hokazolarda asos qilib olinadi.

Namongan viloyatida iqtisodiy baholash bo'yicha 1 hektar paxta maydonidan olinadigan hosil

№	Tumanlar	Bonitirovka bo'yicha hisoblab chiqaziladigan hisoldorlik, s/ga	1 ga paxta maydonidan hosil olishni jadallashtirish ko'satkichlari					hosildorlikning o'sishi, s/ga
			asosiy fondlar so'm/ga	xarajatlar so'm/ga	odam/soat	o'g'itilar		
1	Zadaryo	20,8	2076	1555	608	3,8	24,7	3,9
2	Kosansoy	26,4	2556	1867	995	4,3	27,2	0,8
3	Namongan	31,2	2155	2113	956	4,9	33,3	2,1
4	Pop	24,4	2165	1785	765	4,3	26,9	2,5
5	To'raqo'rg'on	28,8	1920	2015	1159	4,9	31,1	2,3
6	Uychi	28,8	2498	1948	1150	4,9	31,9	3,1
7	Chust	25,6	1970	1643	990	4,1	27,6	2,0
8	Uchqo'rg'on	30,0	1485	1660	944	4,5	32,4	2,4
9	Yangiqo'rg'on	26,8	4257	2146	1389	4,1	27,8	1,0
	Viloyat bo'yicha	26,4	2182	1800	939	4,4	28,8	2,4

Umuman olganda, yerdan unumli foydalanishning asosi kam xarajat qilib, ko'p qishloq xo'jalik mahsuloti olishidir.

Quyida Namangan viloyati bo'yicha o'tkazilgan yer baholash ishlarining V-tur natijalari misol tariqasida ko'rsatilgan. Namangan viloyati tabiiy qishloq xo'jalik hududlari bo'yicha 3 ta kadastr hududi va hududchalarga ajratilgan. Bu kadastr hududi va hududchalar ichida tuproqlar guruhi yer baholash obyekti bo'lgan (32,33-jadvallar).

Yer turkumlarining atamalari

Yer turkumlarining atamalari qishloq, suv, o'rmon xo'jaliklarida yer fandidan foydalanishda, uni muhofaza qilishda monitoring, kadastr, yer tuzish, tuproqshunoslik, rekultivatsiya, melioratsiya, geodeziya, kartografiya ilmiy-loyiha ishlarini bajarishda va yer munosabatiga aloqador boshqa ishlarda foydalaniladi.

Yer turkumlarining atamalari quyidagilardan iborat:

- **qishloq xo'jalik yer turlari** – qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish maqsadida uzlusiz foydalaniladigan yer turlaridir. Qishloq xo'jalik yer turlariga: ekin yerlari, bo'z yerlar, ko'p yillik daraxtzorlar, pichanzorlar va yaylovlar kiradi;

- **egin yerlar** – qishloq xo'jalik ekin turlari ekilib, uzlusiz foydalaniladigan yerlar, bularga ekilgan ko'p yillik o'tlar va dam berish uchun qoldirilgan shudgorlar (parlar) ham kiradi. Pichanzor va yaylovlarni yaxshilash maqsadida haydalib, chorva uchun ekilgan o'tlar va daraxtlar oralig'iga ekilgan ekin yerlari bu turga kirmaydi;

- **ko'p yillik daraxtzorlar** – sun'iy ravishda ekilgan mevali, ko'p yillik daraxtzorlar-bo'tazorlar yoki o'tsimon ko'p yillik o'simliklar, mahsulot beradigan dorivorlar, texnik daraxtzorlar; bog'lar, uzumzorlar, tutzorlar, mevali ko'chatzorlar kiradi;

- **bog'lar** – meva hosili olishi uchun ekilgan ko'p yillik daraxtzorlar;

- **uzumzorlar** – uzum olish maqsadida barpo etilgan tokzorlar;

- **mevazor** – ko'p yillik madaniy mevali ko'chatzorlar;

- **uzum ko'chatlari (tokzorlar)** – uzum ko'chatlari toklarni yetishtiradigan yer maydonlari. Bunga tok qalamchalari ajratish va novdalarini ekish joylari, uzum ko'chatlari, toklarni parxish qilish yerlari kiradi;

- **plantatsiya** – maxsus texnik, dorivor-mevali daraxtlar, yer maydonlari. Plantatsiyalardan tut va boshqa turdag'i ko'chatlar ekish uchun foydalaniladi;

- **bo'z yerlar** – muntazam ekin ekilib kelgan, bir yil va undan ortiq davrda (kuzdan-kuzgacha) haydalmagan va foydalanilmay qolgan yerlar;

- **pichanzorlar** – uzlusiz pichan o'rib turiladigan qishloq xo'jalik yerlari;

- **yaylovlar** – qishloq xo'jaligida chorva mollarini uzlusiz boqish uchun foydalaniladigan yerlar;

- **tubdan yaxshilangan yaylovlar** – chorva mollari iste'mol qiladigan o'tlarni boyitish maqsadida o't urug'lari sepilgan hamda saksovul va bo'tazorlar tashkil qilgan maydonlar;

- **madaniylashtirilgan yaylovlar** – zaruriy ma'lum ishlov berilgan, doimo o'g'itlanib, chorva mollariga o't o'sish uchun yaxshilangan va vaqtin bilan chorva mollari haydaladigan yaylovlar;

- **tog‘ yaylovlari** – tog‘lik yerlarda joylashgan yaylovlar;
- **chorva mollari (haydaladigan yaylovlar)** – xo‘jalik markazidan uzoq muddatga (butun mavsum davomida) chorva mollari o‘tlash uchun haydaladigan yaylovlar;
- **suv bilan ta’minlangan yaylovlar** – mayjud chorva mollarni suv bilan ta’minlay oladigan, suv manbaiga ega bo‘lgan yaylovlar. Daryolar, ko‘llar va kanallar atrofida joylashgan yaylovlar suv bilan ta’minlangan hisoblanadi;
- **o‘rmon yer maydonlari** – o‘rmon daraxtlari bilan qoplanagan, shuningdek, o‘rmonga qo‘silmagan yakka daraxtlar, jarliklar atrofiga ekilgan daraxtlar, qiyalik, balandlik, daryo qirg‘oqlariga, suv havzalari atroflarida, qumliklar yonlarida, o‘rmon-bog‘ yerkari, o‘rmon ko‘chatzorlari, shuningdek, daraxtlari kesib olingan o‘rmon yerkari, ochiq qolgan yerlar, siyraklashib qolgan o‘rmonlar, yog‘och kesish uchun ajratilgan yerlar va yong‘indan nobud bo‘lgan (kuygan) o‘rmon daraxt ko‘chatlari yerlari;
- **o‘rmon bilan band bo‘lgan yerlar** – daraxt butazor (daraxtsimon) o‘simliklar bilan qoplanib, 0,3 dan 1 hektar miqdordagi to‘liqlikda ekilgan yer maydonlari (GOST 17. 5. 1. 05-80) ;
- **o‘rmon o‘simliklari** – sun’iy ravishda tashkil etilgan o‘rmon uchun mo‘ljallangan daraxt ko‘chatlari;
- **tarqoq o‘rmon o‘simliklari** – sun’iy ravishda tashkil etilib, o‘rmon yer maydonlariga o‘tkazilgan yerlar;
- **o‘rmon ko‘chatlari** – o‘rmon uchun ko‘chat yetishtiriladigan yer maydonlari. O‘rmon uchun ko‘chatzorlar urug‘likdan olinadigan ko‘chatzor, ko‘chat ekish uchun yer uchastkalari, boshlang‘ich ko‘chat ekish yerlari, ko‘kargan qalamchalar va qalamcha qilib ekiladigan ko‘chatzor bo‘limlariga bo‘linadi;
- **o‘rmon mintaqalari** – yerkarni tabiat, shamol va iqlim noqulayliklaridan asrash maqsadida qator-qator qilib ekiladigan o‘rmon daraxtlari bilan band yer maydonlari;
- **ihota daraxtzorlari** – ekin ekish maydonlarini shamoldan to‘sish, sug‘oriladigan va qurilish inshoatlarini tuproq eroziyasidan saqlash, qurg‘oqchilikdan va boshqa tabiiy noqulayliklardan asrash maqsadida ekiladigan o‘rmon mintaqalari;
- **qumlarni himoya qiladigan daraxtzorlar** – qumlarni shamol eroziyasidan saqlash maqsadida ekilgan o‘rmon daraxtlari;
- **botqoqlik** – yer osti suvlari ko‘tarilishi hamda yog‘ingarchilik natijasida tuproqning ustki qatlami syernam bo‘lib ketgan yerlar;
- **jarlar** – yer qatlaming eroziya ta’sirida yomon joylashganligi yoki tuproq quyi qatlamlarining genetik holati va qiya kesikligi 1 metrdan ko‘p bo‘lgan yerlar.

XULOSA

Suv tanqisligi sezilayotgan hozirgi sharoitda butun bilim va imkonyatni ichki zaxiraga qaratish maqsadga muvofiqdir. Bu jaroyonda mavjud sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini, ulardan qay darajada foydalanilayotganini, xo'jaliklar ichidagi o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan barcha zaxiralarni aniqlab, ekin maydonlariga aylantirish va bu yerlardan samarali va oqilona foydalanishni tashkil qilish zarur.

Shunindek, ko'p yillar davomida yo'l qo'yilgan kamchiliklar natijasida tuproqning unimdorligi pasaygan, sho'rangan, 60 foyizdan ortiq sug'oriladigan yerlarning holatini yaxshilash, sho'rni yuvish, kollektor, drenajlarni tiklash, kapital tekislash va suv bilan to'liq ta'minlash kabi tadbirlarni amalga oshirish, qishloq xo'jaligi foydalanishidan tushib qolgan, bo'z va meliorativ holatini yaxshilash zarur bo'lgan 165 ming hektar yerni tiklash va ekin maydonlariga qo'shish kerak.

Ko'p yillik mevali daraxtlar tog' bag'ridagi suv eroziyasiga moyil va adirlardagi, toshloq yerlarga joylashtirilsa, katta foyda berishi tajribalarda ham, amaliyatda ham tasdiqlangan. Eslatib o'tish kerakki, respublikamizdag'i mavjud 332 ming hektar sug'oriladigan yerdagi mevali daraxtzorlarning o'rta hisobida 50 foyizida tup soni o'ta siyrak. Agar ular ko'chat bilan to'ldirilsa meva-cheva keskin ko'payadi yoki tup soni o'ta kam yerlardagi mevali daraxtlar tog' yon bag'riga o'tkazalib, ularning o'rniga qishloq xo'jalik ekinlari ekilsa, ekin maydonlari kamida 160 ming gektarga ko'payadi.

Ko'p yillardan beri ekin turlari yer kadastri ma'lumotlari asosida joylashtirilmaganligi sababli, paxta yetihtirilayotgan 250-300 ming hektar maydonning har gektari hisobiga 8-15 sentner hosil olinmoqda, xolos.

Respublikamizda jon boshiga sug'oriladigan yerlarni ko'paytirish bo'yicha ko'p ishlar qilindi. Ammo aholining o'sish darajasi sug'oriladigan yerlar kengaytirish darajasiga nisbatan yuqori bo'lganligi bois, oxirgi yillarda bu boradagi ko'rsatkich keskin pasaydi. Chunonchi sug'oriladigan yer 2005-yilda jon boshiga 0,15 gektarni tashkil etdi. To'g'ri Gollandiya, Xitoy, Yaponiya davlatlarida ekin yer maydoni kishi soniga nisbatan 3-5 baroborga kam. Lekin ularda har gektar yer hisobiga olinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi ancha yuqori. Ko'rinib turibdiki, yerga bo'lgan munosabat qancha yaxshi bo'lsa, olinadigan mahsulot miqdori shuncha ko'p bo'ladi.

Shunday ekan, mamlakatimizda yer kadastri ma'lumotlari asosida faoliyat yuritib, barcha ichki imkoniyatlarni ishga solish kerak. Bu sug'orib ekiladigan maydonlarni 450-500 ming hektarga kengaytirish, olinadigan qishloq ho'jaligi mahsulotlari hajmini esa keskin ko'paytirish imkonini beradi. Qolaversa, bunda katta massivlarda yangi yer o'zlashtirishga qaraganda 2-3 barobar kam

xarajat qilinadi va ekologik muhit muhofazasi ta'minlanadi, ayni payitda ortiqcha suv, irrigatsiya, yo'l shoxobchalarini qurishga zaruriyat qolmaydi.

Demak, yer kadastro ishlarini qat'iy yo'lga qo'ish va muttasil jondantira borish shart. Buning uchun esa, avallo, bu boradagi bilimlarni puxta egallash kerak.

Ushbu qo'llanma ana shu ezgu maqsad yo'lidagi urinishlardan biridir. U yer kadastro masalalariga oid bilimingizni boyitadi, degan umiddamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A. Karimov – 2003-y. Oliy Majlisining XIII sessiyasi to‘g‘risida axborot. Qishloq xo‘jalik ro‘znomasi. Toshkent, 2003-y, 12-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi «Yer kadastro». – Qishloq xo‘jaligida isloxtotlarini chuqirlashtirishga doir qonun va me‘yoriy hujjatlar to‘plami. T., «Sharq», 1998.
3. O‘zbekiston Respublikasi «Davlat yer kadastro» Qonuni. T., «Sharq», 1998.
4. O‘zbekiston Respublikasi «Yer solig‘i» Qonuni. T., «Sharq», 1990.
5. O‘zbekiston Respublikasi «Suv va suvdan foydalanish» Qonuni. T., «Sharq», 1993.
6. F. Alimov, A. Jo‘rayev, A. Otametov. Tomorqa yerlarini rivojlantirish muammolari. T., O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi jurnali, 1990, 5-son.
7. Д.И. Гнатковия. Земельный кадастр. Экономика землепользования. Львов, Высшая школа, 1986.
8. И.В. Дегтерёв, Л.И. Осипов. Земельное право и земельный кадастр. Учебник для сельскохозяйственных институтов. М., 1975.
9. R.Q. Qo‘ziyev, G‘.Yu. Yuldashev, I.A. Akromov. Tuproq bonitirovkasi. T., «Moliya», 2004.
10. М.И. Кочубей. Почва Узбекистана и пути повышения их плодородия. Т., «Фан», 1985.
11. R. Qo‘ziyev. Bo‘z tuproqlar paydo bo‘lishining ayrim masalalari. T., Qishloq xo‘jalik instituti, 1985.
12. X.M. Maqsudov. Bo‘z tuproqlarning emirilishi va ularning unumdorligini oshirish yo‘llari. T., «Fan», 1981.
13. Т.П. Магазинников. Земельный кадастр. Львов:, 1980.
14. M.V. Muxamedjanov. Istiqbol qanday bo‘lishi kerak. T., Qishloq xo‘jaligi ro‘znomasi, 1992-y., 24-dekabr.
15. G‘.A. Talipov, X.G‘. G‘ulomov, J.M. Maqsudov, I.A. Akromov. O‘zbekiston Respublikasi Yer kadastro. T., Qishloq xo‘jalik vazirligi, 1994.
16. G‘.A. Talipov. O‘zbekiston Yer fondi va undan kelajakda foydalanish rejalari. T., O‘zbekiston qishloq xo‘jalik fanlari akademiyasi, 1992.
17. G‘.A. Talipov. Tog‘ va tog‘ oldi yerlaridan foydalanish tartibi. T., UzMU, 2003.
18. O‘zbekiston viloyat va tumanlarida yaylov mahsuldarligining o‘rtacha ko‘satkichlarini aniqlash. T., Qishloq xo‘jalik vazirligi, 1987.

19. O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning iqtisodiy bahosi va tuproq bonitetlarini amalga oshirish to'g'risida qo'llanma. T., O'zbekiston Qishloq xo'jalik vazirligi, 1969.

20. O'zbekistonda yaylov, lalmikor yerlarni qayta ro'yxatdan o'tkazish bo'yicha ko'satma. T., Qishloq xo'jalik vazirligi, 1968.

21. O'zbekiston fermer va dehqon xo'jaliklarida sug'oriladigan yerlarning tuproq bonitirovkalarini amalga oshirish bo'yicha qo'llanma. T., Qishloq xo'jalik vazirligi, 1988.

Mundarija

Kirish.....	3
-------------	---

I. O'zbekiston Respublikasi yer fondi va undan foydalanish

1-§. O'zbekiston yer fonda tug'risida ma'lumot.....	6
2-§. Yer maydonini hisobga olib borish tartibi va uslublari.....	12
3-§. O'zbekistonning tabiiy sharoiti va yer yuzasining asosiy xususiyatlari.....	25
1. O'zbekistanning yer yuzasi.....	25
2. O'zbekistonda tuproqlarning paydo bo'lishi.....	26
3. O'zbekistonning iqlimi.....	26
4-§. O'zbekiston Respublikasi tuproq turlari va ulardan foydalanish.....	30
1.Tuproqlarning asosiy tiplari va tipchalari.....	30
2. Balandlik mintaqqa tuproqlari.....	31
3. Sahro mintaqasi tuproqlari.....	34
5-§. Tuproq kartalarini tuzish va ulardan foydalanish.....	36
1. Tuproq kartasining meliorativ tadbirlar ishlab chiqishdag'i ahamiyati.....	43
2. Mineral o'g'itlardan to'g'ri foydalanish uchun tuproq kartalarini va agrokimyo kartogrammalarini qo'llash.....	46
3. Mineral o'g'itlarni qo'llash rejasi.....	49
6-§. Yerlarning hozirgi vaqtagi sifat holati va kadastr bahosi.....	57
1. Sug'oriladigan yerlarning sifat bahosi.....	57
2. Tuproq bonitirovkasi.....	62

II. Davlat yer kadastrini ishining maqsadi, tarkibiy qismi va ahamiyati

1-§. Tuproq va kadastr ishlarining tarixi.....	68
2-§. Xo'jaliklarning yirik masshtabli tuproq kartalaridan foydalanish.....	71
3-§. Davlat yer kadastrining tarkibiy qismi va ahamiyati.....	77
1. Yer kadastrining tarkibiy qismi.....	77
2. Yer kadastrining qishloq xo'jaligidagi ahamiyati.....	81
3. Yer kadastrining tabiiy boyliklarni muhofaza qilishdag'i ahamiyati.	87
4. Davlat yer kadastrini yuritish tartibi.....	90
4-§. Davlat yer kadastrini bajarish uchun xo'jaliklar bo'yicha kartalar yaratish va maydonlarni hisoblash tartibi.....	93

1. Umumiq qoidalar.....	93
2. Yer turlari chegaralarini aniqlash.....	95
3. Dala sharoitida yerlarning turlari bo'yicha aniqlanishi va uni nazorat qilish.....	103
4. Maydonlarni hisoblash va konturlar bo'yicha qaydnomani tuzish..	114
5. Yerlarni joyida aniqlash bo'yicha hujjatlar tarkibi.....	119
6. Xo'jaliklarning yerdan foydalanish kartasini yaratish.....	120
5-§. Davlat yer kadastrini yuritish sohasidagi davlat boshqaruvi organlari.....	120

III. Davlat yer kadastrini ishlarning tamoyillari

1-§. Yerga egalik qilish va yerdan foydalanishga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatdan o'tkazish tartibi.....	122
2-§. Sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish (xatlash).....	125
3-§. Lalmikor va yaylov yerlarni ro'yxatga olish (xatlash) tartibi.....	138
1. Umumiq qoidalar.....	138
2. Hujjatlarni rasmiylashtirish va ro'yxatga olish natijalarini ko'rib chiqish.....	143
4-§. Sho'rlangan yerlarning miqdori va sifatini hisobga olish tartibi.....	144
5-§. Sug'oriladigan yerlarni unumдорлиги bo'yicha baholash (bonitirovka qilish) tartibi.....	151
6-§. Yerlarni iqtisodiy jihatdan baholash tartibi.....	162
1. Yerlarni baholash uchun hududlarga ajratish.....	168
2. Tuproqlarni agronomik ishlab chiqarish guruhlariga birlashtirish..	169
3. Baholash shkalasini tuzish va baholash ishlarni o'tkazish.....	172
4. Tuproqlarni agronomik ishlab chiqarish guruhlariga ajratish va baholash.....	173
5. Xo'jaliklarda yerlarni baholash va baholash hujjatlari.....	176
6. Yerlarni baholash natijalarini qo'llash bo'yicha tavsiyalar.....	177
Yer turkumlarining atamalari.....	180
Xulosa.....	182
Foydalanilgan adabiyotlar.....	184

G‘ani Akbarovich Talipov

O‘ZBEKISTON YER KADASTRI ASOSLARI

Toshkent – «Moliya» – 2007

Muharrir:

Q. Avesbayev

Tex.muharrir:

A. Moydinov


Kompyuterda
sahifalovchi:

A. Moydinov

Bosishga ruxsat etildi 10.08. 2007. Bichimi 60x84^{1/16}. «Times TAD»
garmiturasi. Ofset usulida bosildi. Bosma tabog‘i 11,75. 0,75 b.t. kartalar.
Adadi 500. Buyurtma № 093/01.

«Moliya» nashriyoti, Toshkent sh. H.Oripov ko‘chasi 16-uy.
Buyurtma № 07-07.

«POLIPAPER» QK. MCHJ da chop etildi.
Toshkent, J. Obidova ko‘chasi, 160-uy.



ISBN 978-9943-302-07-5

9 7 8 9 9 4 3 3 0 2 0 7 5

